



MADANIYATSHUNOSLIK  
VA NOMODDIY MADANIY MEROS  
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

# “DOSTON IJROCHILIGI SAN’ATINI RIVOJLANTIRISHDA OLIY TA’LIM VA BAXSHICHILIK SAN’ATIGA IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR INTEGRATSIYASI”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya

## materiallari



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI  
MADANIYATSHUNOSLIK VA NOMODDIY MADANIY MEROS  
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI  
YUNUS RAJABIY NOMIDAGI O‘ZBEK MILLIY MUSIQA  
SAN’ATI INSTITUTI  
RESPUBLIKA BAXSHICHILIK SAN’ATI MARKAZI  
BAXSHICHILIK SAN’ATIGA IXTISOSLASHTIRILGAN  
RESPUBLIKA MAKTAB-INTERNATI**



**“DOSTON IJROCHILIGI SAN’ATINI  
RIVOJLANTIRISHDA OLIY TA’LIM VA  
BAXSHICHILIK SAN’ATIGA  
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR  
INTEGRATSIYASI”**

*mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya  
materiallari to‘plami*

**TOSHKENT - 2024**

**“BAXSHILAR - NAFAQAT XALQ O‘TMISHINING  
AKS-SADOSI, AYNI PAYTDA BUGUNGI KUNNING HAM  
JARANGDOR OVOZIDIR”**



*“Xalq og‘zaki ijodiyotining eng qadimiy turlaridan bo‘lgan baxshichilik san‘ati yuksak gumanizm g‘oyalarini, tinchlik va do‘stlik, adolat va haqiqat kabi ezgu fazilatlarni mahorat bilan tarannum etadi. Shu bois ham, baxshi, oqin va jirovlar azaldan xalq qalbining kuychilari, turli millat va elatlarni birlashtiradigan olijanob insonlar sifatida ardoqlab kelinadi. Men xalq ijodiyotini insoniyatning bolalik qo‘shig‘i, har qaysi milliy madaniyatning hayotbaxsh chashmasi deb bilaman. Bu qo‘shiqlarni sof va bezavol holatda saqlash, hamisha mag‘rur yangrashini ta‘minlash barchamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas burchimizdir.”*

**SHAVKAT MIRZIYOYEV**  
**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**



**UDK 398**

**BBK 82.3 (50‘zb)**

**D 70**

**“Doston ijrochiligi san‘atini rivojlantirishda oliy ta‘lim va baxshichilik san‘atiga ixtisoslashtirilgan maktablar integratsiyasi” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi // Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san‘ati instituti. – Toshkent - 2024. 312-bet.**

**Mas‘ul muharrir**

**O.Axmedova** – Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti Ilmiy kotibi, filologiya fanlari nomzodi, professor v.b.

**To‘plab nashrga tayyorlovchi, texnik muharrir:**

**A.Sunnatillayev** – O‘zMMSI Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi sektori boshlig‘i.

**Tahrir hay‘ati a‘zolari:**

**B.Matyoqubov** – O‘zMMSI professori, san‘atshunoslik fanlari nomzodi.

**O.Axmedova** – MNMMITM Ilmiy kotibi, filologiya fanlari nomzodi, professor v.b.

**B.Mirzayeva** – O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

**A.Sunnatillayev** – O‘zMMSI Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi sektori boshlig‘i.

**Sh.Berdixanova** – O‘zMMSI O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrasida dotsenti v.b., san‘atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

**Taqrizchilar:**

**Sh.Turdimov** – filologiya fanlari doktori, professor.

**Ch.Ergasheva** – O‘zDK “O‘zbek musiqasi tarixi” kafedrasida mudiri, san‘atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Ushbu to‘plamda **“Doston ijrochiligi san‘atini rivojlantirishda oliy ta‘lim va baxshichilik san‘atiga ixtisoslashtirilgan maktablar integratsiyasi”** Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari joy olgan bo‘lib, ustozshogird an‘analarini takomillashtirish, baxshichilik san‘atini asrab-avaylash, dostonchilik maktablarining ijro usullarini qayta tiklash, doston ijrochiligi san‘atini rivojlantirishda oliy ta‘lim va baxshichilik san‘atiga ixtisoslashtirilgan maktablar integratsiyasi keng yo‘lga qo‘yishga bag‘ishlangan taniqli olimlar bilan bir qatorda ilm ostonasiga kirib kelayotgan yosh izlanuvchi-tadqiqotchilarning ham ilmiy maqolalari o‘rin olgan.

*Mazkur to‘plam materiallari O‘zMMSI Badiiy, o‘quv-uslubiy kengashining 2024-yil “30”-apreldagi 9-son qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.*



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRINING ANJUMAN ISHTIROKCHILARIGA TABRIGI



Ayni paytda mamlakatimizda ta’lim sohasida jiddiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bugun Yangi O‘zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Ayniqsa, oliy talim sohasidagi islohotlar va imkoniyatlar esa yigit-qizlarning malakali mutaxassis bo‘lib hayotga kirib kelishida muhim omil bo‘lmoqda. Bu jarayonda ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar haqida so‘zlamalikning iloji yo‘q. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ta’lim tizimini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo‘yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi.

Jumladan, Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati institutida ham yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, ta’lim jarayoniga o‘qitishning innovatsion shakl va metodlari hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, soha mutaxassislarining ilmiy salohiyatini yanada oshirish, ta’lim tizimida malakali baxshilarni tayyorlash, iqtidorli talaba yoshlarni ilm-fanga keng jalb etish, OTMning jozibadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy-innovatsion ishlanmalari, starap loyihalarini



amaliyotga keng joriy qilish, ilmiy-innovatsion ishlanmalarini tijoratlashtirish borasida jadal ishlar amalga oshirilmoqda.

Bevosita baxshichilik haqida to'xtaladigan bo'lsak, ushbu noyob san'at turi o'zining qadim ildizlariga ega. Respublikamizning turli hududlarida ko'plab baxshichilik maktablari bo'lgan. Jumladan, Bulung'ur, Qo'rg'on, Narpay, Sherobod, Shahrisabz, Xorazm kabi dostonchilik maktablari va ulardan yetishib chiqqan Fozil Yo'ldosh o'g'li, Ergash Jumanbulbul, Islom shoir, Po'lkan shoir, Qodir baxshi, Bola baxshi singari dongdor baxshilarning bu qadim san'at rivojida va bugungi kungacha yetib kelishida alohida xizmatlari bor.

Darhaqiqat, baxshichilar san'ati asrlar osha jonli ijro holatida ajdodlardan avlodarga o'tib kelmoqda. Baxshilarimiz ana shu qadim san'atni, ajodlarimizdan meros bo'lib kelayotgan kuy va ohanglarni bugungi avlodga yetkazib, o'z davrining jarangdor ovozi bo'lishiga ham erishmoqdalar.

Xalqimizda "Baxshili el – botir el" degan hikmat bor. Bu baxshichilik san'atiga berilgan yuksak baho va ulkan e'tirofdir. Bu baxshilarning jamiyatda tutgan o'rni, xalqning ma'naviy, ijtimoiy hayotidagi mavqeidan dalolatdir.

"Doston ijrochiligi san'atini rivojlantirishda oliy ta'lim va baxshichilik san'atiga ixtisoslashtirilgan maktablar integratsiyasi" Respublika ilmiy-amaliy konferensiya mavzusi bugungi kunning eng dolzarb mavzusi bo'lgan ta'lim tizimida doston ijrochiligi san'atiga ixtisoslashtirilgan maktablar integratsiyasi keng joriy etish, o'qitishning innovatsion usullari, ustoz-shogird an'analarini takomilashtirish, baxshichilik san'atini asrab-avaylash, dostonchilik maktablarining ijro usullarini qayta tiklash, umuman milliy madaniyatimizning bir bo'lagi hisoblangan baxshichilik va dostonchilik san'ati masalalarini o'rganishga, tadqiq etishga qaratilgan.

Ushbu anjumanda respublikamiz miqyosidagi soha vakillari, folklorshunos, musiqashunos olimlar bilan bir qatorda yosh tadqiqotchi talabalarimiz ham ishtirok etayotgani quvonarli, albatta.

Anjuman davomida ustoz-shogird an'analarini takomilashtirish, baxshichilik san'atini asrab-avaylash, dostonchilik maktablarining ijro usullarini qayta tiklash, ularni yosh avlodga o'rgatish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va smart-texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim muassasalarida o'qitish innovatsion sifatini yanada yaxshilash,



elektron modullar tashkil etish kabi masalalarni tahlil etish orqali sohada mavjud muammolar o‘rganiladi va bu bo‘yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Men tashkilotchilar va barcha ishtirokchilarni anjuman bilan chin dildan tabriklayman va konferensiya ishiga muvaffaqiyatlar tilayman.

E‘tiboringiz uchun rahmat.

**NAZARBEKOV OZODBEK AXMADOVICH**

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri,

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy

musiqa san’ati instituti rektori





## TABRIK SO‘ZI



“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida madaniyat, san’at, maqom va baxshichilik sohalarini yuksaltirish ijtimoiy sohani rivojlantirishning asosiy yo‘nalishi sifatida belgilangan. Aholining madaniy saviyasini oshirish, yoshlarni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish, shu asosda ma’naviy yetuk shaxslarni tarbiyalash, iste’dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ustoz-shogird an‘anasini davom ettirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga keng jalb etish masalalari ustuvor vazifalarga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan baxshichilik san‘atini rivojlantirish masalasiga islohotlarning muhim yo‘nalishi sifatida e’tibor qaratilmoqda. Buning natijasi o‘laroq baxshichilik san‘ati YuNESKOning Nomoddiy madaniy merosni asrash hukumatlararo qo‘mitasi tomonidan Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi representativ ro‘yxatiga kiritildi.

Keyingi yillarda bu borada qabul qilingan Prezident farmon va qarorlari, Hukumat qarorlari sohaning yangi strategiyasini belgilab, zamon talablari asosida ravnaq topishiga keng yo‘l ochib berdi. Shu ma’noda Prezidentimizning “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza





qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 405-sonli qarori ayni muddao bo‘ldi.

Qarorga asosan mamlakatimizda nomoddiy madaniy merosni, xususan, maqom va baxshichilik san‘atini muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilish hamda milliy qadriyatlarimizni keng namoyon etish bilan bog‘liq faoliyatni yanada takomillashtirish, shuningdek, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasida nomoddiy madaniy merosni asrab-avaylash, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi.

Qarorda belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash, ayniqsa, ta‘lim sifatini oshirishga erishish, ilmiy salohiyatni yuksaltirish, ustoz-shogird an‘analarini takomillashtirish, baxshichilik san‘atini asrab-avaylash, dostonchilik maktablarining ijro usullarini qayta tiklash, ularni yosh avlodga o‘rgatish, baxshichilik sohasida dunyoga taniqli san‘atkorlarni yetishtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va smart-texnologiyalarni joriy etish orqali ta‘lim muassasalarida o‘qitish innovatsion sifatini yanada yaxshilash, elektron modullar tashkil etish vazifalari yuklatilgan. Ushbu vazifalar ijrosini ta‘minlash bo‘yicha respublikamizda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

“Doston ijrochiligi san‘atini rivojlantirishda oliy ta‘lim va baxshichilik san‘atiga ixtisoslashtirilgan maktablar integratsiyasi” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasini ham ana shu ishlarning amaliy davomi sifatida e‘tirof etish mumkin. Chunki ezgulik va mehr oqibatni tarannum etgan baxshi-shoirlar qoldirgan boy ma‘naviy merosini o‘rganish, milliy folklor, xalq og‘zaki ijodini rivojlantirish va dunyoga tarannum etishda malakali kadrlar tayyorlash, ularni ilmiy tadqiqot ishlariga jalb qilish, doston ijrochiligi san‘atini rivojlantirishda oliy ta‘lim va baxshichilik san‘atiga ixtisoslashtirilgan maktablar integratsiyasini yo‘lga qo‘yish bugunning dolzarb masalalaridandir.

**DADADJANOVA IRODA ABDULAZIZOVNA**

Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy  
meros ilmiy-tadqiqot instituti direktori,  
san‘atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)





## **BAXSHICHILIK SANATI: EPOS, IJRO VA UNI TADQIQ ETISH METODLARI**

*Jabbor ESHONQULOV,  
filologiya fanlari doktori, professor.*

Bugungi global jamiyatda, ommaviy madaniyat ta’siri tabora ortib borayotgan bir davrda baxshilarimizdan yozib olingan xalq dostonlarini, qanday tadqiq etish kerak? Bu savollarning javobi ko‘p bo‘lishi mumkin. Biroq, biz baxshilarimizdan yozib olingan epik ijod namunalarini qaysi metod yoxud usullar bilan tadqiq qilmaylik, uning badiiy so‘z san’ati namunasi ekanligini unutmasligimiz kerak. Gap epos haqida ketar ekan, birinchi navbatda qahramonlik eposi, uning yuzaga kelishi tarixiy takomili haqida so‘z yuritish lozim bo‘ladi.

Ko‘pgina tadqiqodchilar qahramonlik eposining epik qatlamda ham badiiy asar, ham tarixiy, ham estetik va amaliy bir asar sifatida qabul qilinishini yozadi.<sup>1</sup>

Qahramonlik eposi o‘zining dastlab paytida miflogik marosim xarakterida edi. Davrlar o‘tishi bilan bu epik ijodiyot o‘zining dastlabki xususiyatlarni yo‘qotish bilan birga uning ayrim jihatlarini o‘zida saqlab qoldi. Qadim tasavvurga ko‘ra eposni kuylash orqali tabiatga tasir qilish mumkin deb o‘ylashgan.<sup>2</sup> Baxshilar kuylar ekan ular bevosita ruhlar bilan muloqatga kirishgan. Kasaliklarning oldini olish, tabiatga tasir qilish, qo‘rg‘oqchilikda suv surash, toshqinning oldini olish, urushda g‘olib kelish, mo‘l hosil yig‘ish, ovda muvaffaqiyatlarga erishish, farzand ko‘rish, boylikka egalik qilish bu hammasi baxshining vazifasiga kirgan. Baxshi odamlar bilan ruhlar o‘rtasidagi vositachi hisoblangan. Baxshi ikki dunyoni tutashtiruvchi ko‘prik bo‘lgan. Shuning uchun baxshining ijtimoiy mavqeyi shu qadar

<sup>1</sup> Каранг: Гринцер. Эпос древного мира // Типология и взаимосвязи литературы древнего мира. – М.: Наука, 1971. – С.134–205; Жирмунский. Тюркский героический эпос // Избранные труды. – Л.: Наука. 1974. – с.725; Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – М., ГИХЛ, 1947. – С.536; Зарифов Х.Т. Основные мотивы эпоса «Алпамыш» // Об эпосе «Алпамыш». – Ташкент, 1959. – С.8–20; Илларионов В. В. Якутское сказительство и проблемы возрождения олонхо. – Новосибирск: Наука, 2006. – С.67–77; Лорд Альберт. Сказитель. – М.: Восточная литература, 1994. – 368 с; Путилов Б. Эпическое сказительство. – М.: Восточная литература, 1997. – 295 с; Райхл К. Тюркский эпос: традиции, формы, поэтическая структура. – М.: Восточная литература, 2008. – 400 с.

<sup>2</sup> Мирзаев Т. “Алпомиш” дostonининг ўзбек вариантлари. – Тошкент: Фан, 1968. – 152 б; Мирзаев Т. Халк бахшиларининг эпик репертуари. – Тошкент: Фан, 1979. – 160 б;





yukasak bo‘lgan. Ibtidoiy inson tasavvurida so‘z ilohiy hisoblangan. U harakat va og‘zaki ijroni asos qilib olgan. Harakat taniniki, so‘z esa ruhga, ruhiyatga tegishli deb o‘ylagan. So‘zga kishan solib, asir qilib bo‘lmaydi deyishgan. Shuning uchun ham yozuvga qiziqishmagan. Yozuv paydo bo‘lgunga qadar og‘zaki ijro o‘zining mukammal darajasiga yetgan. Qadim marosimlarda takror va takror ijro etilgan duo va iltijolar tilimizdagi frazeologik birikmalarning, epik formulalarning yuzaga kelishiga asos bo‘lgandir, degan farazga borish mumkin. Boshqacha aytganda san’at va magiya bir-biriga qorishib ketgan. Dastavval u bir-biridan ayro holda tasavvur etilmagan. Epik formulalardagi ramzlar, ohang va qat’iy tizim dastavval magik funktsiya bajargan bo‘lsa, davrlar o‘tishi bilan uning o‘rnini estetik funktsiya ola boshlagan. Shuning uchun ham baxshi haqida so‘z yuritganda bu sanatning shomonizm bilan bog‘liq ekanini anglash lozim bo‘ladi. Ehtimol shuning uchun Epik jarayon faqat shomonlik izlari yaxshi saqlanib qolgan xalqlardagina bugungi kunga qadar yashab kelayotgandir?! Baxshining:

Eshitganning ko‘nglida armon qolmasin,<sup>3</sup>

deya aytgan misrasida ham ana shunday magik-ritual tasavvur izlari mavjud. M.N.Xangalov buriatlarda tunda qo‘rqmaslik, yovuz ruhlardan saqlanish uchun Abay Geser Bogda xon haqidagi dostonni aytishlarini yozadi. Qirg‘iz jырchisi Keldibek kuylaganda osmonni qora bulut qoplagan, yer silkingan. Olonxochi Artaman kuylaganda odamlarini xushlaridan ayrilgan, daraxtlar qulagan. Xakaslar esa qahramonlik qo‘shig‘i ruhlarga tasir qiladi, yer osti yovuz ruhlariga yetib boradi deb o‘ylashadi. Qurg‘oqchilik va harbiy urushlar payti epos kuylangan. Ko‘pgina manabalar Eposning ov paytida magik funktsiya bajarganini yozadi. Buriatlarda uligerlar kuylansa ov yaxshi bo‘lishiga halicha ishonishadi. Mug‘ullarda kasal bo‘lganlar “Geser”, yani mug‘ul eposini o‘qib tuzatishadi. Bizning baxshilarimiz esa ijro paytida ularga aziz avliyolar, eranlar ko‘mak berib turishini aytishadi.<sup>4</sup>

<sup>3</sup> Алпомиш. Достон. Фозил Йўлдош ўғли варианти. Ёзиб олувчи М.Зарифий. Нашрга тайёрловчилар Ҳ.Зарифов, Т.Мирзаев. – Тошкент: Шарқ, 1999. –832 б.

<sup>4</sup> Райхл К. Тюркский эпос: традиции, формы, поэтическая структура. – М.: Восточная литература, 2008. – 400 с.







Yuqoridagilardan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, shomonlik marosimlarida epos ijro etilgan va ehtimol shuning uchun eposda shomonlik izlari, u bilan bog‘liq tasavvurlar yaxshiroq saqlanib qolgan.

Sibirda shomon ijrosi bilan baxshi ijrosi o‘zaro o‘xshash ekanligi kuzatilgan. Olmon eposshunosi K. Rayxl esa shunday bir faktni keltiradi: Ket shomonidan qahramonlik dostonini kuylab berishni iltimos qilishganda, u aynan shomon gimnini kuylay boshlagan.<sup>5</sup>

Baxshi ijro etyotgan epik matnda ham xuddi shomonlikdagi kabi aziz-avliyo va eranlarga murojaat qilinadi. Biz bilamizki, shomon asosan ruhlar bilan muloqatga kirishgan, uning ruhi u dunyoga safar qilgan, turli ruhlar qiyofasiga kirgan. Shuning uchun ham o‘z ijrosida u ana shular haqida, u dunyoga borgani, o‘lib-tirilgani va yana bu dunyoga qaytib kelgani haqida hikoya qilgan. Biz shunga o‘xshash holatni, biroz o‘zgarishga uchragan ko‘rinishini epik baxshilar ijodida ko‘ramiz. Ular ijro etgan dostonlar aslida shomonning nariga dunyo, o‘zga olamga qilgan sarguzashtini eslatadi.

“Qizig‘i shundaki - deb yozadi B. Putilov,- shomonlik matnlari xarakteri jihatidan baxshi matnlariga uxshab ketishi kishini yanada hayratga soladi. Ular kuylagan matnlar shubhasiz epos namunasidir. Biroq afsuslar bo‘lsinki, shomonlik qo‘shiqlari bilan epik ijro matnlari hali jiddiy tadqiq etilmagan”.<sup>6</sup>

Shomon va epik ijrochining makon va zamon, olam va odam haqidagi tasavvurlari, badiiy tasvir vositalridagi o‘xshashlik ana shunday xulosaga kelishimizga asos bo‘la oladi. Ko‘pgina epik terminlarning shomonlik terminlari bilan o‘xshash ekanligi ehtimol shundandir. Xalqimizda baxshi so‘zining ikki manoda qo‘llanishi ham fikrimizning dalilidir.

Evinklarda Nimngakan ham epik janrni, ham marosim yani ko‘mlamoq tushuniladi. Malaytslardagi Pavang termini ham shomon, tabib, marosim ijrochisi sifatida keladi. Umumturk tilidagi “Yumak”, “Imak”, “Numax” mug‘ulcha “damag” – yani afsona, ertak, rivoyat, qadimgi turkcha “yom” – shomon hikoyasi manosidadir. Xuddi baxshi kabi shomon o‘z hohishi bilan bo‘lolmaydi. Balki uni ruh tanlaydi. Shuning uchun u dastaaval qattiq kasalga chalinadi. U ruhlar aytganini

<sup>5</sup> Райхл К. Кўрсатилган тманба. –С. 70.

<sup>6</sup> Путилов Б. Эпическое сказительство.–М.:Восточная литература, 1997. –295 с.





qilgachgina u kasaldan forig‘ bo‘ladi. Shomon ham xuddi baxshi kabi o‘z asboblarini tushida oladi.

Shomon ham ustozga shogird tushadi. Undan shomonlik marosim sirlarini o‘rganadi. Asta-sekin marosimlarni o‘zi boshqara boshlaydi.

Arxaik eposda shomonlik qatlami yaqqol sezilib turadi. Olimlar “Kalevala” eposining asosida shomonlik yotishini aytadilar. F.Oynas esa “Kalevala”ni shomonlik eposi sifatida talqin etadi.

“Alpomish” dostonida Alpomishning yetti yil zindonda yotib, uning haqida o‘ldi degan xabar tarqalishi va uning zindondan so‘ng qiyofasini o‘zgartirib yurtiga qaytishi beixtiyor shomonning narigi dunyoga safarini yodimizga soladi.<sup>7</sup>

Qahramon Alpning narigi dunyoga safaridan maqsad magik qudratga ega bo‘lib qayta tug‘ilish, bir maqomdan ikkinchi bir maqomga ko‘tarilishdir. Shu sababli turk, jumladan Oltoy shomonlarining hozirgacha saqlanib qolgan marosimlarida behushlikning o‘zini chavaqlash, boshini kesib tashlash, tanasini tilka-pora qilish holatlari uchraydi. Shomonning bu holati shomonning bir maqomdan ikkinchi bir maqomga o‘tishdagi marosim bilan bog‘liq bo‘lib, tanani to‘liq inkor etib, ruh bilan birlashishni bildiradi. Tanasini inkor etib, yangidan tug‘ilgan, xomiy ruhlar quvvatini o‘zida jamlay olgan shomonga dunyoni yangilash, yangidan qurish imkoni beriladi.

Alpomish o‘z yori Barchin qo‘ygan shartlarni bajarib, birinchi sinovdan o‘tib birinchi maqomga ko‘tarilgan bo‘lsa, uning mastlik, yani ruhiy behushlik tufayli yetti yil zindonda yotib, so‘ng ozod bo‘lishi ikkinchi maqomga o‘tishini eslatadi. Birinchi sinov Alpomishning balog‘otga yetganini bildirsa, ikkinchi maqomga erishish bilan u yurtga bosh bo‘lish, saltanatga egalik qilish qudratini ifoda etadi. Qahramonning zindonda bandi bo‘lib, so‘ng qiyofa o‘zgartirib o‘z yurtiga qaytishi bu uning narigi dunyoga safar qilganidan, qayta to‘g‘ilib yuksak maqomga erishganidan dalolat beradi.

Xuddi shu holat Alpomishning barcha variantlarida, og‘uz versiyasida ham, Homerning “Odessiya” dostonida ham aynan uchraydi. O‘zga yurtdan xizmatkorining qiyofasida qaytib kelgan

<sup>7</sup> Алпомиш. Достон. Фозил Йўлдош ўғли варианты. Ёзиб олувчи М.Зарифий. Нашрга тайёрловчилар Х.Зарифов, Т.Мирзаев. – Тошкент: Шарқ, 1999. –832 б.





Odisseyi ham xuddi Alpomish kabi otasi ham, o‘g‘li ham, xotini ham taniydi. Biroq Odissey xotiniga o‘zlari biladigan sirni, ya’ni sher’iy aytishuv, o‘lan aytmagunga qadar sir ochilmaydi. Olimlar Homerning “Odisseya” dostoni bilan “Alpomish” dostoni o‘rtasidagi hayrotomuz o‘xshashlikdan chuqur hayratga tushadilar.<sup>8</sup>

Alpomishning o‘z xotining to‘yiga Qo‘ltoy qiyofasida, Bamsi bayrakning Dalli o‘zon qiyofasida o‘lan aytish holati bu mazkur eposning tarixiy ildizlari juda qadimga, shomonlik tasavvurlariga borib taqalishidan dalolat beradi. Homiy ruh qiyofasida qayta tirilgan shomon nafaqat jismoniy, balki magik qudratga ega ekanligini hai namoyish etishi lozim edi. Shuning uchun ham qadimda shomon va baxshi so‘zlari bir manoni anglatgan.

Shomon va baxshi tushunchalari bir-biriga bog‘liq tushunchalar ekanini Qo‘rqut ota haqidagi ko‘plab afsonalar guvohlik beradi. Urug‘boshi, yo‘lboshchi va shuning bilan bir vaqtda epik madaniyat vakili Qo‘rqut ota misolida shomonning qay taxlit davarlar o‘tishi bilan bashi – ijrochiga evrilishini yaqqol ko‘rish mumkin. Epik ijodning turlicha, yani lingivistik, psixalogik, falsafiy va badiiy, miflogik talqinlari bizni bir narsaga baxshi va shomon aslida bir sinkritik obrazning turli davrlardagi turlicha ko‘rinishi ekanligini kursatishiga hyech shubha yo‘q. Zamonlar o‘tgan sayin shomon va baxshi vazifalari asta-sekin bir-biridan farqlana borgan.

Eposni anglashdagi bunday evrilishlar xalqning tarixi, qahramonlik o‘tmishi va manaviyatining sarchashmasi bo‘lgan epik ongning taraqqiy etishida muhim rol uynagan. Eposdagi miflogik-magik jihatlar asta so‘na borib, shomon, tabib va baxshi funksiyalari bir-biridan tabora farqlana borgan. Endi baxshi shomon funksiyasidan ko‘ra el donishmandi, yurt maslahatchisi, epik ananalar davomchisi sifatida namyon bo‘la borgan. Epik qatlam ongidagi bunday evrilishlarni anglasakgina nima uchun epik anana bazi joylarda tezda unitilib, bazi joylarda hozirgi kunga qadar saqlanib kelinayotganligining sababini tushunib yetamiz.

Bular bari eposning, baxshining va qolaversa etnosning ijtimoiy hayotda tutgan mavqeyi va o‘rni haqida so‘zlashga majbur qiladi.

---

<sup>8</sup> Қаранг: Жирмунский. Тюркский героический эпос//Избранные труды. –Л.:Наука. 1974. – с.725; Лорд Альберт. Сказитель. –М.: Восточная литература, 1994. –368 с.







Ijtimoiy hayotda ularning mavqeyi tushishi bilan eposning ham so‘nish jarayoni boshlanadi. Epik xotira bu xalqning tarixidir. U miflogik yoki qahramonlik qobig‘iga qanchalik o‘ralgan bo‘lmasin u baribir etnos uchun muqaddas bo‘lib qolaveradi. Epik formula bu eposning yadrosidir. Biz epik formulaning nima ekanligini tushunmay biror bir doston mohiyatini tushunib yetolmaymiz. Og‘zaki ijod deganda biz eng avvola ana shu epik formula asos bo‘lgan ijodga aytamiz. Yozma adabiyotning o‘z qonuniyatlari mavjud. U ana shu qonuniyatlarga asoslanib rivoj topadi. Og‘zaki ijodning esa qonunyati bitta bu epik formulaga asoslanganlik. Bu ijodning og‘zakiligini, ananaviyligini taminlaydi. Epik formula bu eposning qurilmasi suyagidir.

Ijodkor, baxshi o‘z “uyi”ni, yani doston kuylar ekan u ana shu “suyak”ka asosga suyanadi. Shunga asoslanib u o‘z dostonini kuylaydi. Epik formula bu tayyor qolip. Baxshi o‘z dostonini ana shu epik qolipga moslaydi. Biroq bu degani baxshi faqat takrorlaydi, yani hyech bir yangilik yaratmaydi degani emas. Baxshi har bir baxshi epik formulaga o‘zicha yondoshadi, bu ijodiy yondoshish uning navotorligini, nechog‘li iqtidorli ekanini naoyish etadi. Epik formulalar qonuniyatini bilmasdan turib, epos qonuniyatini ham bilish mumkin emas.

A.Lord: “Xalq og‘zaki ijodi ijro uchun yaratilmaydi, balki ijro etilayotganda yaratiladi”<sup>9</sup>, deydi. Baxshi kuylayotganda epos yana bir marta yangilanadi, yangicha mazmun, yangicha ohang, yangicha mohiyat kasb etadi. Epik formula malum bir tizim, malum bir qurilmaga ega. Epik formula deganda biror bir fikrni ifodalash uchun malum bir shaklda, yani she’riy shaklda takror va takror uchraydigan so‘zlar tizimi, quyma satrlar nazarda tutiladi. Bu xuddi tirik organizm, yani tananing suyagiga o‘xshaydi. Suyak tuzulishi hammadada bir xil. Biroq, eti, og‘irligi, rangi va eng muhimi dunyoqarash, tushuncha va ruhiyati hammadada har xil bo‘ladi. Xuddi shunday epik ijodda hai ijodkor epik formulaga tayanib o‘z “ana”sini yaratadi.

Biror bir shoirning sheridagi mano va mohiyatni anglash uchun shu sherni yaratayotgandagi shoirning holatiga etiborimizni qaratamiz. Aynan shoirning o‘sha paytdagi ruhiy holati sherning yuzaga kelish jarayoni, undagi poetik tafakkurning to‘g‘ri talqin qilishimizga olib keladi. Shoir bu she’rni keyinchalik turli davralarda turli kayfiyat va

<sup>9</sup> Лорд Альберт. Сказитель. –М.: Восточная литература, 1994. –368 с.





turli holatlarda takror va takror o‘qishi mumkin. Biroq biz uchun muhimi bu uning she’r yaralayotgan paytdagi holatidir. Bu yozma adabiyotga xos bo‘lgan xususiyatdir.

Og‘zaki ijod, yani epik anana – doston ijrosiga xos bo‘lgan xususiyat esa mutloqa boshqa. Bu baxshining aynan ijro paytidagi holatidir. Zero og‘zaki ijod mana shunday ijro payti yaraladi, yuzaga keladi. Bu og‘zaki ijod qonuniyatidir.

Eposdagi mana shu epik formulalar bir-biriga tutashgandagina u ma’lum bir ko‘rinish, ya’ni doston ko‘rinishini oladi. Epik formula qotib qolgan, o‘zgarimas formula emas. U o‘zgaruvchan, har gal yangilanib turuvchi formuladir. Baxshi o‘zida an’aviylikni va individuallikni o‘zida jamlay olgan ijodkordir. Baxshi bu shunchaki ijrochi emas, u an’aviylikka asoslanib, o‘z san’atini yaratayotgan tom manodagi ijodkordir. Formulalarning rang-barangligi epik mavzularning rang-barangligidan kelib chiqadi. Baxshi ijrochiga nisbatan, baxshi shoirlarning tajribalari ham katta, kuylayotgan mavzulari chegaralari ham keng, shunga yarasha epik formulalarni qo‘llash salohiyati ham o‘zgacha bo‘ladi. Bir baxshi repurtuaridagi epik formulalar boshqa baxshilarda ha uchrasada, ijroda u aynan bir xil bo‘lmaydi.

Ko‘rinib turibdiki, baxshining epik formulaga amal qilib uning o‘z formulasini yaratishi bu baxshining iqtidoriga va mahoratiga bog‘liq. Baxshichilik sanati ijroga, og‘zakilikka asoslangan sanatdir. Har gal ijroda bu sanat yana va yana yangilanib boraveradi.

Og‘zakilik deganda bu asarning, yoxud biror bir dostonning og‘zaki ijro etilishi emas. Biror bir shoir yozgan dostonni ham og‘zaki ijro etish mumkin. Yoxud biror bir yozma adabiyot namunasi og‘zaki ijro etsa bo‘ladi. Biroq bu og‘zakilik degani emas. Yani A.Lord aytgandek gap faqat ijroda emas, balki eposning og‘zaki ijro etilayotgan paytda yuzaga kelishidir.

Epik formulalarning yuzaga kelish jarayoni bevosita til qonuniyati bilan bog‘liq. Shundan kelib chiqib epik formulalarni uch guruhga: 1. Malum bir xalq baxshilariga xos bo‘lgan epik formula. 2. Biror bir maktab yoxud uning bir necha vakillarga xos bo‘lgan epik formula. 3. Individual epik formulalarga ajratish mumkin. Bu epik formulalarda asosan qahramonning tarifi (Meni bilsang Qo‘g‘irot elning to‘rasi..); biror bir harakat yoki holat (Xazon bo‘lib bog‘da





gullar so‘lgandir...); biror bir makon yoxud epic vaqt tavsifi (Oshiqning fahmidir qorong‘o‘ kecha...) bayon etilganini ko‘ramiz. Xuddi mana shunday formulalar tizimi zanjir hosil qilib, shery satrlarni yaxlit doston holatiga olib keladi. Epik formula bu baxshi xotirasidagi qo‘yma misralarning tayyor zahirasi emas, balki ana shu quyma misralarning har gal, yani har galgi ijroda yangicha mazmun va ohang bilan takror va takror jaranglashidir.

Eposni tadqiq etishda birgina metod emas, ko‘plab metodlarga ehtiyoj tug‘iladi. Zero, epos og‘izdan og‘izga o‘tib kelayotgan jarayon. U mana shu jarayonda yuzaga keladi. U mana shu jarayonda yaratiladi va har gal yangicha mazmun, yangicha mohiyat kasb etib, yangilanib boraveradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Алпомиш. Достон. Фозил Йўлдош ўғли варианти. Ёзиб олувчи М.Зарифий. Нашрга тайёрловчилар Х.Зарифов, Т.Мирзаев. – Тошкент: Шарқ, 1999. –832 б.

1. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. Москва, Высшая школа, 1989.– с.406.

2. Гацак В.М. Эпический певец и его текст // Текстологическое изучение эпоса. – М.: Наука, 1971. – С.107–118.

1. Гринцер. Эпос древнего мира // Типология и взаимосвязи литературы древнего мира.–М.: Наука, 1971.–С.134–205.

3. Гўрўғлининг туғилиши. Достон. Айтувчи Пўлкан шоир. Қайта нашрга тайёрловчи, иқтибос ва изоҳларни киритувчи Э.Матёкубов. – Тошкент, 2019. – 140 б.

4. Жирмунский. Тюркский героический эпос//Избранные труды. –Л.:Наука. 1974. – с.725.

5. Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. - М., ГИХЛ, 1947. – С.536.

6. Зарифов Х.Т. Основные мотивы эпоса «Алпамыш» // Об эпосе «Алпамыш». – Ташкент, 1959. – С.8–20.







7. Зарифов Х. Ўзбек фольклоршунослиги тарихидан // Ўзбек фольклори масалалари. – Тошкент: Фан, 1970. – Б.264–267.

8. Зарифов Х. Улкан халқ санъаткорлари // Эргаш шоир ва унинг дostonчиликда тутган ўрни. – Тошкент: Фан, 1971.– Б.79–88.

9. Зарифов Х. Фозил шоир – машҳур дostonчи // Фозил шоир. Ўзбек халқ ижоди бўйича тадқиқотлар. 3-китоб. – Тошкент: Фан, 1974. – Б.4–15.

10. Зарифов Х. Ўзбек халқ дostonларининг тарихий асослари бўйича текширишлар // Пўлкан шоир. Ўзбек халқ ижоди бўйича тадқиқотлар. 4-китоб. – Тошкент: Фан, 1976. – Б.76.

11. Илларионов В. В. Якутское сказительство и проблемы возрождения олонхо. – Новосибирск: Наука, 2006. – С.67–77.

12. Мирзаев Т. “Алпомиш” дostonининг ўзбек вариантлари. – Тошкент: Фан, 1968. – 152 б.

13. Мирзаев Т. Халқ бахшиларининг эпик репертуари. – Тошкент: Фан, 1979. – 160 б.

14. Лорд Альберт. Сказитель. – М.: Восточная литература, 1994. – 368 с.

15. Путилов Б. Эпическое сказительство. – М.: Восточная литература, 1997. – 295 с.

16. Райхл К. Тюркский эпос: традиции, формы, поэтическая структура. – М.: Восточная литература, 2008. – 400 с.





## DOSTONCHILIK AN’ANALARINING TERAN ILDIZLARI

*San’atjon SARIYEV,  
UrDU, O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası professori  
filologiya fanlari doktori (DSc).*

Xorazm diyori qadimgi madaniyat va san’at o‘choqlaridan biridir. Bu o‘lkada qadimdan davom etib kelayotgan mumtoz adabiyot professional musiqa san’ati baxshichilik va xalfachilik an’analari, ular repertuaridagi noyob dostonlar, ertaklar qo‘shiqlar hamda boshqa turli folklor asarlari yuqoridagi fikrni to‘la isbotlaydi.

Ma’lumki, dostonchilik an’analari musiqa san’ati bilan uzviy bog‘liqdir.

“Musiqa madaniyatimizning ming yilliklar bilan sarhisob etiluvchi tarixi xilma-xil va boy manbalarda yoritilgan. Ular asosan ikki asosiy toifaga mansub. Biri-arxeologlar tomonidan kashf qilingan ashyoviy dalillar, nazariy va tarixiy risolalar, odobnomalar, she’riyat va musiqa ahlining hayoti va ijodiga oid tazkiralalar hamda boshqa sohalarga tegishli yozma manbalar. Ikkinchisi-jonli musiqiy an’analalar va ular haqida xalq orasidagi fikr va mulohazalar. Og‘zaki va yozma manbalar orasida. Uzviy bog‘lanish mavjud. Ular bir-birini to‘ldirib, musiqa madaniyatining umumiy manzaralarini to‘laroq tasavvur etishga imkon ochadi (1.4).

Xorazmda musiqa madaniyatining tarixiy ildizlari juda qadimiylilik kasb etadi. “Eramizning I asridan IV asrigacha Xorazm davlatining poytaxti bo‘lgan Tuproqqal’ada qurilgan saroy devorlariga ishlangan rasmlar orasida meva teruvchi ayollar, yarim yalang‘och raqsga tushayotgan ayol, ayniqsa arfa chalayotgan ayol va qo‘sh nog‘ora chalayotgan erkak tasviri xarakterlidir” (2.48). Demak, musiqa san’ati, musiqa asboblari Xorazmda eramizdan oldingi paytlardanoq rivojlanib kelgan. Ayniqsa X-XI asrlarga kelib, Xorazm shoh saroyida mashshoqlar, sozanda va go‘yandalar juda ko‘p bo‘lgan. “Xorazm poytaxti Ko‘hna Urganch shahridagi ma’mur va obod zamonlarda Chingizxon harb qilmasdan ilgari bu shaharda sokin bo‘lg‘on odamlarning aksariyati musiqiyini o‘zlarina bir hunar va kasb ittixos qilg‘onlar. Muning orqasida o‘z oilalarining o‘ngishiqlarini ta’min





etgandurlar. Hatto mazkur asarlarning mubolag‘a bilan ko‘rsatganlariga qaraganda yolg‘iz Ko‘hna Urganch shahrida dutor sozina eshak (xarrak) yo‘nib sotib o‘ngishiqlarini shul hunarlari birla o‘tkaradurg‘on kishilarning miqdori bir mingga yetishadi” (3.7). Ushbu ma’lumotlar rivoyatga o‘xshab ko‘rinsada, uning zamirida qanday bo‘lsa ham hayot haqiqati yotadi.

Yuqorida qayd qilganimiz arfa chalayotgan ayol suvrati ham musiqa asboblarning Xorazmda paydo bo‘lish tarixining juda qadimiyligidan darak beradi. Bu o‘lka haqida: “...Xorazm noyob madaniyat, nafis san’at, yuksak ma’rifat, turmushning dono falsafasi va insonparvarlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan adabiyot va she’riyat maskani, dunyoviy ilm o‘choqlaridan biri” (4.4) deb aytib o‘tilgan edi.

Fitrat o‘zining o‘zbek-mumtoz musiqasiga oid risolasida shunday yozadi: “Yozuvchisi ma’lum bo‘lmag‘an bir “musiqiy tarixcha”sida rubobning sulton Muhammadshoh tomonidan Xorazmda paydo bo‘lg‘ani yoziladir. Bu kitobni ko‘rganim kun men ham shunga ishongan edim. Biroq yigirmanchi yillarda Hindistondan keltirganim “Sorang” ismli bir cholg‘uning rubobga juda o‘xshashligi meni shoshirgan edi. So‘ngralari qo‘limga tushgan Darvesh Aliyning “Risolayi musiqiy”sida bu cholg‘uning Balxda yasalgani, Muhammad Xorazmshoh zamonida Xorazmda rivoj topgani ko‘rsatiladi” (5.29).

Darhaqiqat, rubobning Xorazmda X asrlardayoq faol cholg‘u asbobi sifatida tarqalgani ayni haqiqatdir. Chunki, rubob ancha qadimiy cholg‘u asbobi bo‘lib Forobiyning “Musiqa haqida katta kitob” asarida unga ta’rif berilgan (6.61).

Bundan tashqari, I.Timofeevning “Biruniy” monografiyasida qayd qilinishicha, 1009-yilda Abu-l-Abbos Ma’mun saroyida bo‘lgan bazmda xonandalar rubob jo‘rligida Shohid Balxiy va Ro‘dakiy g‘azallarini ashula qilib kuylaganlar (7.167). Shuningdek, ushbu monografiyada chang, nay va qo‘g‘irchoq bozlik san’ati haqida ham ma’lumot beriladi.

Shajarasi Xorazmdan bo‘lgan Jaloliddin Rumiy (XIII) o‘z she’rlarini rubob jo‘rligida kuylab yurgan.

“Musiqiy, suyukli rubob Jaloliddinga faqat aqli bilanmas, balki butun jismi bilan olamga, odamlarga birikib, o‘zini sohib qudrat, Tangriga teng insoni Komil deb his etishga yordam berdi” (8.58).







Rubob dutorga nisbatan ancha murakkab cholg‘u asboblaridan sanaladi. Shu sababli uning paydo bo‘lgan joyida musiqa ilmi yuksak darajada kamol topgan bo‘lishi kerak. Bunday joylardan biri esa Xorazm edi.

Binobarin, maqomlarning asl makoni ham Xorazm bo‘lgan (9.49). Bunday olib qaraganda tarona, suvora (asp ros) kabi iboralarning ildizlari ham “Avesto” davrining urf, odatlariga borib taqaladi (9.37).

Fitrat bu asbobning Xorazmda paydo bo‘lganiga shubha bilan qaraydi. Uning bu shubhasiga ham shubha bildirish mumkin bo‘lgan ancha dalillar mavjud. Shubhalarning asosli bo‘lishi uchun tarixiy jarayonlarga bir nazar solaylik. Iskandar Zulqarnayn, “Avesto” kitobini Yunonistonga jo‘natgan paytida bundan norozi bo‘lgan Xorazm podshosi Farazman 500 nafar sodiq askarlarni ularning izidan yuboradi. Askarlar Turkiyadagi Van ko‘li yaqinidan o‘tadigan tor darada yunon askarlarini quvib yetib, jangda yengib, “Avesto” kitobini qo‘lga kiritib, ular Iskandarning oyog‘i tegmaydigan yurtga-Hindistonning Bombey shahriga boradilar va shu shaharda yashab qoladilar. O‘zlarini porslar deb ataydigan bu Xorazmliklar hozirgi kunda 250 mingdan ko‘proq bo‘lib, Bombey shahrida alohida qavm bo‘lib yashamoqdalar (5.28).

Ularning bitta taniqli vakili, mashhur kino rejissyori Raj Kapur o‘tgan asrning 70-yillarida Toshkentga kelganida o‘z ajdodlarining Xorazmdan ekanligini faxr bilan tilga olgan edi.

Ushbu tarixiy hodisalar zamiriga nazar solinsa, Xorazmdagi ayrim cholg‘u asboblari, raqs san’ati o‘sha kishilar orqali Hindistonga yetib borgan bo‘lishi ehtimoldan uzoq emas. Xorazm musiqasi, raqslari bilan hind musiqasi va raqslarining o‘xshashligi boisi ham shu hodisa bilan bog‘liqdir balki. Balki rubob ham o‘sha “Avesto” himoyachilari bilan hind eliga borib “Sorang”ga aylangandir.

Endi Balx masalasiga kelsak, bu shaharda san’at va adabiyotning taraqqiy qilgani tarixdan ma’lum. O‘z she’rlarini rubob jo‘rligida kuylab yurgan Jaloliddin Rumiyning ham o‘sha shaharda tug‘ilganligi bejiz emas.

G‘aznaviylar davlati hukmronlikni qo‘lga olgandan keyin bu shaharda hunarmandchilik taraqqiy qilib sharqning nufuzli shaharlaridan biriga aylandi (10.54).





Ma’lumki, 1017-yilda Mahmud G‘aznaviy Xorazmni bo‘ysundirib, ma’munilar davlatini tugatdi. Xorazmdan G‘aznaga ko‘plab hunarmandlar, olimlar va boshqa asirlarni olib ketdi. Bularning orasida Abu Rayhon Beruniy ham bor edi (11.34). Bu asirlarning bir qismi G‘aznada o‘rnashgan bo‘lsa, bir qismi Balx shahridagi hunarmandchilik, san’at va madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiladi. Xorazmshohlar davrida Ko‘hna Urganchda taraqqiy topgan san’at namoyondalarining cholg‘u asboblarining, xususan rubobning G‘aznaga, Balxga olib ketilmaganligiga kim ham kafolat beradi. Rubob Xorazmdan Balxga olib ketilganmi yoki aksincha holat yuz berganmi, buni isbotlash nihoyatda murakkab masala. Bu muammoni kitobxon fikriga havola qilamiz.

Shu joyda yana bir narsaga aniqlik kiritib o‘tish lozim bo‘ladi. Xorazmshohlar saroyida mashhur bo‘lgan rubob qanday shaklda bo‘lgan. Buni Fitrat o‘zining yuqorida qayd qilingan kitobida shunday tavsiyalaydi: “Bu cholg‘uning gavdasini to‘rt asos qismga bo‘lmak mumkindir: qorin, ko‘krak, bo‘yin, bosh qorin, ko‘krak ham bo‘yin qismlarining uchalasi bir bo‘lak tut yog‘ochidan “qazma” yo‘li bilan yasaladi. Rubobning qorni bir-biriga bog‘lanmish ikki chuqur idishga o‘xshaydir... Ichakdan yasalgan besh tori borkim, yo‘g‘onlikda farqlidir. Bundan boshqa o‘n ikkita “tor osti” torlari bor. Cholg‘uchi rubob chalg‘anda bularni chirtmaydir, bularning xizmati asl torlarga chertish ta’siri bilan titrab, asl tor tovushig‘a o‘zlarining mungli, titrak tovushlarini qo‘shmoqdir (5.29).

Fitratning Darvesh Aliy kitobi asosida ta’rif qilayotgan cholg‘u asbobini Komil Avaz qo‘sh qorinli rubob (tor) deb, to‘g‘ri nomlaydi (12.32). Demak, bu asbob o‘sha davrdayoq Xorazmshohlar saroyida ishlatilayotgan ekan. Xalq orasida tor atamasi kam ishlatiladi. Bu atamani ko‘proq professional musiqashunoslar ishlatrsa, xalq orasida rubob deganda tor tushuniladi. Albatta o‘sha davrdagi rubob (tor) hozirgi shaklidan jiddiy farq qilgan.

Yana bir narsaga e’tiborni jalb qilish lozim. Ma’lumki, har qanday musiqa asbobi bir tomoni bilan uni yaratgan xalqning dini va urf-odatiga borib bog‘lanadi.

Buxorolik tadqiqotchilarning ta’kidlashlaricha, qashqar rubobidagi shoxlar ramziy jihatdan xitoyliklar dinining qadimgi urf-odatlaridagi madaniy-mifologik tasvirga aloqadordir (13.38).





Xorazmda yaratilgan qo‘shqorinli rubobning yaratilish tarixi xususida ham rivoyatlar bor. Bu rivoyatlarning bittasi Nuh payg‘ambar faoliyati bilan aloqaga ega.

To‘fon natijasida Nuh kemasi uzoq suzib oxiri baland bir tepalikka kelib to‘xtaydi. Ammo quruqlik ko‘rinmaydi. Oxiri Som ibn Nuh oqqush bilan kabutarni uchradi. Ular uzoqdan “quvoq”, “quvoq” deya ovoz chiqarishadi. Suzib borsalar quruq yer ekan. “Quvoq” so‘zidan “Xivoq” nomi paydo bo‘lgan ekan.

Shu sababdan ham Xiva Som ibn Nuh tomonidan otasining kemasiga o‘xshatib qurilgan ekan (14.10).

Taniqli dostonchi, Xorazmning yetakchi baxshisi Bola baxshi Qurbonnazar Abdullaevning hikoya qilishacha, zardushtiylikka e‘tiqod qilingan davrlarda “jon, tana gir” kuyini chalish uchun cholg‘u asbobi yasashga kirishilgan va ko‘p izlanishlar natijasida Xorazm qo‘shqorinli rubobi yaratilgan. Dastlab u qayiq shaklida bo‘lgan. Keyinchalik, uchlari bir-biriga tegib turgan ikkita qayiqcha shaklini olgan. Torlari ikki qavat bo‘lib, yuqorisidagilari ichakdan, pastdagilari sof oltindan ishlangan ekan.

Nuh qayig‘i bilan aloqador narsalar Xorazmda anchani tashkil etadi. Jumladan, Xorazm erkaklari kiyadigan papaqlar ham qayiq shaklida bo‘lgan. Bu bosh kiyimi o‘tgan asrning 70-yillarigacha iste’molda bo‘ldi.

Bizning san’at, cholg‘u asboblari haqida batafsilroq fikr yuritishimizga sabab bo‘lgan narsa Xorazm dostonchilik an’alarining tarixiy ildizlarini yoritishdir. Yuksak san’at taraqqiyotiga doston kuylash an’alarining ta’siri katta ekanligini unutmash kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Matyoqubov O. Risola xususida (so‘z boshi) // Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqa tarixchisi. –T.: “Yozuvchi”, 1998. –B.4.

2. Ismoilov S. Qadimgi Xorazm qal’alari. –T.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. –B.48.

3. Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi, 7-bet.





4. Karimov I.A. Xivaning 2500 yilligi munosabati bilan so‘zlangan nutq. // “Urganch universiteti” gazetasi, 1997 yil, 20 oktabr.
5. Fitrat. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. –T.: “Fan”, 1993. –B.29.
6. Forobiy. Risolalar. –T.: “Fan”, 1975. –B. 61.
7. Тимофеев И. Бируни. –М.: «Молодая гвардия», 1986. –С. 167.
8. Fish R. Jaloliddin Rumiy. –T.: G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1986. –B.58.
9. Matyoqubov O. Maqomot, 49-bet.
10. O‘zbek ensiklopediyasi, II tom. –T.: “O‘zbek ensiklopediyasi”, 1972. –B. 54.
11. Беруни и гуманитарные науки. Т.: «Фан», 1972. –С. 34.
12. Komil Avaz. Ibrat manzili. Т.: O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. –B.32. (303)
13. Saidiy S.B., Qayumov I.G‘. Qashqar rubobi qisqacha tarixidan. // San’at yo‘nalishlarida yoshlarni ma’naviy-axloqiy-tarbiyalash: izlanish, yechim va istiqbollar mavzusidagi ilmiy-amaliy konfensiya materiallari. –Buxoro, 2013. –B.38-40.
14. Xudoyberganov K. Xiva dunyodagi eng ko‘hna qal’a. –T.: 2012. -B. 9-10.(346)





## O‘ZBEK DOSTONCHILIGINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

(Xorazm baxshilar repertuari va ijrochilik mahorati)

**Nasiba SABIROVA,**

*Xorazm viloyati Pedagoglarni yangi  
metodikalarga o‘rgatish milliy markazi*

*“Tillarni o‘qitish metodikasi” kafedrasi mudiri,  
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent.*

[sabnas1@yandex.ru](mailto:sabnas1@yandex.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xorazmda doston ijrosida soz, musiqaga asosiy e’tibor qaratilishi, har bir nag‘ma-kuy maxsus nomlangan bo‘lganligidan kuylarni esda saqlash baxshi zimmasiga yanada ko‘proq mas’uliyat yuklashi, baxshilar repertuari va ijrochilik mahorati haqida so‘z boradi. Bundan tashqari baxshida o‘z kasbiga e’tiqod, kuch-g‘ayrat bo‘lishi shart ekanligi, xorazmlik Suyav baxshi Muhammad Rahimxon Soniy-Feruz dargohida “Ero‘g‘li” dostonini 21 kecha muntazam kuylagani, hatto poyariqlik Amin baxshi “Alpomish” dostonini uch oy mobaynida kuylagani va bunday real ma’lumotlar hozirda afsonaday bo‘lib tuyulishi, baxshi mahorati ko‘p narsaga bog‘liq ekanligi, eng avvalo an’anadan boshlanishi lozimligi xususida fikr-mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, doston kuylash an’anasi asrlar bo‘yi avloddan avlodga o‘tib kelganligi, iqtidorli baxshilar uni muntazam takomillashtirib kelishgani, ammo ijrochining shaxsiy mahorati faqat an’ana doirasidagina ro‘yobga chiqshi maqolada misollar asosida keltirib o‘tilgan. Dostonchilikning sir-asrorini puxta bilmagan ijrochi o‘z mahoratini namoyon qila olmasligi, bu sir-asror asosan, doston kompozitsiyasida namoyon bo‘lishi, folklorshunoslikda bu hodisani epik qolip deb yuritilishi yuzasidan qiziqarli ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** baxshichilik, baxshichilik repertuari, ijrochilik mahorati, baxshichilik maktabi, doston ijrosi, soz, musiqa, dostonchilik, doston kuylash an’analari.

**Abstract:** This article discusses the emphasis on words and music in the performance of epics in Khorezm, the fact that each melody has





*a special name, so the memorization of melodies puts more responsibility on the baxshi, the repertoire of baxshis and performance skills. Besides, Bakhshi must have faith and energy in his profession. Suyav Bakhshi from Khorezm Muhammad Rahimkhan sang the epic "Eroqli" for 21 nights at Soniy-Feruz. It has been suggested that the skill of the bakhsh depends on many things, starting with tradition. The article also cites examples of the fact that the tradition of singing epics has been passed down from generation to generation for centuries, and talented bakhshis have constantly improved it, but the personal skills of the performer are realized only within the tradition. Interesting information is given about the inability of the performer, who did not know the secrets of epic poetry, to demonstrate his skills, the fact that this mystery is mainly reflected in the composition of the epic, and in folklore this phenomenon is called an epic pattern.*

**Key words:** *baxshichilik, baxshichilik repertoire, performance skills, baxshichilik school, epic performance, soz, music, dostonchilik, epic singing traditions.*

Doston xalqimiz bisotidagi buyuk obidadir. Uning asrlar osha saqlanib, ajdoddan-ajdodga o‘tib kelishida ko‘plab baxshilar shajarasining hissasi bor. Shu boisdan ham “...keng mundarijali, chuqur mazmunli, xilma-xil obrazlarga, rang –barang badiiy vositalarga, arxaik va barhayot lug‘atga, tadqiqotchilar hali payqab ololmagan grammatik xususiyatlarga juda boy xalq dostonlarining asrlar osha saqlanib kelishida zo‘r qobiliyat egasi bo‘lgan xalq shoirlarining xizmati g‘oyat katta va tahsinga sazovordir”[1], deb yozganida talantli folklorshunos Hodi Zarif mutlaqo haqdir. Darhaqiqat doston o‘z ijrochisi bilan tirikdir. Baxshi yoki xalifa, qolaversa qissaxon matndagi tafilotga jon bag‘ishlaydi. Biroq, bu ijrochilar orasida baxshiga tenglashadigani yo‘q[2]. Chunki baxshi kuy, qo‘shiq va badiiy nutqni jozibali qilib birlashtirgan holda auditoriyaga yetkazadi. “Baxshi ijrosida uning betakror ijrochilik iqtidori, talanti va musiqiy mahorati namoyon bo‘ladi[3]. Shu nuqtai nazardan qaraganda professional baxshi darajasiga erishish hammaning ham qo‘lidan kelavermaydi. “O‘zbek xalqi va barcha baxshichilik maktablarining estetik printsiptiga ko‘ra chinakam xalq baxshisi birinchi navbatda tabiiy talantga ega, ya’ni xalqona ta’bir bilan aytganda “Xudobergan” bo‘lishi kerak”[4].







Shu boisdan ham professor M.Saidov: “Doston murakkab san’at asari bo‘lib, uning doston bo‘lishi uchun adabiy tekst, musiqa bo‘lishi, kuylovchi hofizlik san’atini puxta egallagan va soz cherta bilishi zarur”[5], deb yozadi. Albatta doston ijrochisi yuksak xotira egasi bo‘lishi ham shart va zarurdir. Ayniqsa Xorazmda doston ijrosida soz, musiqaga asosiy e’tibor qaratilib, har bir nag’ma-kuy maxsus nomlangan bo‘lganligidan kuylarni esda saqlash baxshi zimmasiga yanada ko‘proq mas’uliyat yuklaydi. Bundan tashqari baxshida o‘z kasbiga e’tiqod, kuch-g‘ayrat bo‘lishi shart. Aks holda xorazmlik Suyav baxshi Muhammad Rahimxon soniy - Feruz dargohida “Ero‘g‘li” dostonini 21 kecha muntazam kuylamagan bo‘lar edi. Hatto poyariqlik Amin baxshi “Alpomish” dostonini uch oy mobaynida kuylagan[6]. Bunday real ma’lumotlar hozirda afsonaday bo‘lib tuyuladi. Baxshi mahorati ko‘p narsaga bog‘liq bo‘lib, avvalo an’anadan boshlanadi. Doston kuylash an’anasi asrlar bo‘yi avloddan avlodga o‘tib kelgan. Iqtidorli baxshilar uni muntazam takomillashtirib kelishgan. Ammo ijrochining shaxsiy mahorati faqat an’ana doirasidagina ro‘yobga chiqadi. Dostonchilikning sir-asrorini puxta bilmagan ijrochi o‘z mahoratini namoyon qila olmaydi. Bu sir-asror asosan doston kompozitsiyasida namoyon bo‘ladi. Folklorshunoslikda bu hodisani epik qolip deb yuritishadi. Professor M.Saidovning ta’kidlashicha, epik qolip va an’anaviy formulalar ot ta’rifi, poyga tavsifi, safarga otlangan qahramonga ota, ona yoki biror yoshi ulug‘ kishining nasihati, yo‘l bo‘lsin va unga javob, jang oldidagi faxriya yoki maqtanish-manmanlik kabilar doimiy o‘rinlarda ishlatilib, dostonchilikda muhim o‘rin tutadi[7]. Epik qolip baxshi uchun tayyor andoza bo‘lib xizmat etadi. Agar iqtidorli ijrochi bo‘lsa, o‘zi tomonidan yangi lavhalarni ham qo‘shib, syujetni yanada boyitadi. Epik qolip doston kompozitsiyasi bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Stilistik formulalar esa dostondan dostonga ko‘chib yuradi. Shu jarayonda tobora sayqallashib boradi. Xorazm dostonlari romanik xarakterda bo‘lganligi sababli ularda ot ta’rifi, poyga tavsifi kam uchraydi. Ushbu lavhalarnifaqat “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlaridagina uchratish mumkin. “Oshiq” turkumida esa epik ot obrazi yo‘qligi uchun ot ta’rifi va poyga tavsifi umuman tushirib qoldirilgan. “Go‘ro‘g‘li” eposida g‘irotning ta’rifi juda ko‘tarinki ruhda madh etilgan Go‘ro‘g‘li





mo‘jizali g‘irotga ega bo‘lib, eranlardan fotiha olgandan so‘ng jo‘shib  
ketib bedovining ta’rifini boshlaydi:

Bedov otning ta’rifini boshlasam,  
Shunqorligi uch yoshinnan ballidir.  
Horimas oyoqli, toshdan tuyoqli,  
Ko‘zi tog‘ boshinda, bo‘yni yollidir.

Uch yoshinnan qadam qo‘ysa beshina,  
Qashlaganda qo‘llar yetmas boshina,  
Olazarak boqar degra-deshina,  
Kishnaganda chiqqan sasi ballidir.  
Nor tuyaday masdir yetti yoshinda,  
G‘animlari qaltiraydi qoshinda.  
Baland-baland tog‘ go‘rinar tushinda,  
Burgut sifatlidir ovda ballidur.

Bedov otning orzu-joni tandadur,  
Pirim Shohimardon, dastim sandadur,  
Go‘ro‘g‘libek bir Xudog‘a bandadur,  
Tablada bosh bedov yovda ballidur[8].

Bola baxshi ijrosidagi ushbu dostonda Go‘ro‘li tomonidan ot ta’rifi ikki –uch o‘rinda berilgan bo‘lib, unda epik qahramonning epik otga bo‘lgan sadoqati, muhabbati madh etiladi. O‘z navbatida epik qolip tarkibidagi faxriyalar, maqtanishlar ham ko‘zga tashlanadi. Baxshi o‘z ijrosida faxriyalarni go‘yo o‘zi haqida aytayotgandek ishtiyoq bilan kuylaydi. Faxriya–maqtanish-manmanlikning yorqin ko‘rinishi “Go‘ro‘g‘li” eposining “Bozirgon” shoxobchasida keltirilgan. Unda Go‘ro‘g‘li o‘zini juda ulug‘lagan holda ta’riflab, manmanlikkacha borib yetadi:

O‘n sakkiz archin ot mindim,  
Mindim, armonim qolmadi.  
Zardan to‘shaklar ustinda,  
Yotdim, armonim qolmadi.

Savash guni quyruq eshdim,  
G‘anim bilan ko‘p tashlashdim.  
Dushman bilan qilichlashdim,





Chopdim armonim qolmadi.

Man surdim ajab davronni,  
Tanda qo‘ymadim armonni.  
Urushg‘anda yov qonini,  
Do‘kdim armonim qolmadi.

Umrin o‘tar qolmas boqi,  
Man gazdim yaqin yiroqi,  
Go‘rdim Shirvonu Iroqi,  
Yurdim armonim qolmadi.

Dog‘lardan jayron qochirdim,  
Daryodan otni oshirdim,  
Eramnan pari gatirdim,  
Surdim armonim qolmadi.

Go‘ro‘g‘li der: ot chopdirdim,  
Yeddi fildan o‘q o‘tirdim,  
Do‘stlarga sharob ichirdim,  
Ichdim armonim qolmadi.

O‘n to‘rt banddan iborat ushbu faxriyada Go‘ro‘g‘li barcha faoliyatini bir-bir maqtab o‘tadi. Baxshi ulardagi maqtanish ifodasini alohida urg‘u bilan ifodalashga harakat qiladi. Chunki, dostonning ushbu joyi syujet tuguni bo‘lib, voqealar rivojini boshlab beradi. Shu sababli ijrochi faxriyaning, o‘zicha maqtanishning oqibatimalarga olib kelishini ko‘rsatish uchun Go‘ro‘g‘lining faxriyasiga Og‘a Yunus parining munosabatini so‘z orqali ifodalashga o‘tadi: Go‘ro‘g‘li bu so‘zni aytib tamom qilg‘onnan keyin, Og‘a Yunus pari qarasa, Go‘ro‘g‘li suvchisinacha maqtadi, lekin parizodni dila olmadi, Go‘ro‘g‘li bu so‘zni aytib durg‘onda parizod dolonning u yoqinann bu yoqina o‘tib, ashulani eshitib: tomosha qilib durg‘on adi.

Parizod Go‘ro‘g‘lini so‘zlarini eshitgannan keyin, qopisini gumburdatib ochib yubordi: ey, Go‘ro‘g‘li sulton san na dab maqtanib o‘tiribsan, dedi. O‘n ikki ming uyli takali turkmanim bor, yigirma to‘rt ming uyli ali ilim bor, mani na armonim bor, dab aytasan dadi. Qirq





yigitim yonimda bo‘lsa, olg‘on yerni oldim, chopg‘on yerni chopdim dab aytasan, zo‘rdan zo‘r ko‘p, dadi. Magaram bir yera borsang, qazong yetib o‘lsang, izingda og‘adan ining, otadan zuryoding yo‘q, bu sango bir armon amasmi, dadi. Go‘ro‘g‘li lol bo‘lib o‘tirvadi, zuryod so‘zini eshitib, mazasi qochib getavardi. Saiston viloyatida Salsolni o‘g‘li Bozirgon dagan do‘ragan akan dadi, sani talab qilib, galib, qal’angni bir hafta qamal qilib getdi, bu sango bir armon amasmi, dedi. Agarda mani so‘zima ishonmido‘vin bo‘lsang, darvozog‘a bir xat diqib getdi, chiqib olib go‘r na dagan akan dadi. Go‘ro‘g‘li shatta o‘rninnan turib, xatni go‘rib, Bozirgonni galganligini bilib, yigitlarini chaqirib yonina oldi. Yigitlarina maslahat barib, yigitlarini urusha tayyorlab otlarni zardan zabardan egarlab, o‘q-yoylarini bo‘ynina osib, qalqona cho‘lanib Go‘ro‘g‘li Bozirgonni izinnan sharpildab otlandi [9]. Bola baxshi nasriy bayonda eshituvchilarning ruhiyatiga kirib, bosh qahramonning ichki kechinmalarini tasvirlash orqali ularga ta’sir o‘tkazadi. Og‘a Yunus pari erining maqtanishiga quloq solib, o‘zining nomiga bir og‘iz xushomad so‘z aytilmaganidan jahli chiqib, Go‘ro‘g‘liga Bozirgon raqibi haqida xabar beradi. Ayniqsa Og‘a Yunus parining befarzandlik haqidagi so‘zi Go‘ro‘g‘liga jiddiy ta’sir o‘tkazadi. Baxshining ushbu bayoni tinglovchilarda jiddiy e’tibor uyg‘otadi. Voqeaning endi qaysi tomonga yo‘nalishini baxshidan orziqib kutishadi. Shu tariqa doston voqealari o‘z rivojiga chiqa boshlaydi. Baxshining badiiy nutqdagi mahorati auditoriyani to‘la doston voqealari ichiga olib kiradi. Barcha doston ijrochilari ham asar voqealariga auditoriyani to‘la rom qila olmaydi. Buning uchun baxshi soz va so‘z qudratini o‘zida jamlagan bo‘lishi, yuksak talant va mahorat egasi sifatida shakllanishi zarur.

Bola baxshi-Qurbonnazar Abdullaev og‘zaki badiiy nutqda turli stilistik usullarga murojaat qiladi. Ayniqsa, “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari ijrosida badiiy nutqqa ko‘proq e’tibor qaratadi. Dialog personaj xarakterini, ichki tuyg‘usini ochib berishda asosiy omil bo‘lib xizmat etadi. “Go‘ro‘g‘lining uylanishi” dostonida Og‘a Yunus pari bilan Go‘ro‘g‘lining uchrashuvi epizodi bo‘lib, unda Og‘a Yunus pari Go‘ro‘g‘li bilan Chamlibelga yo‘l olmoqchi bo‘ladi. O‘shanda uning enaga kampir bilan o‘zaro so‘zlashuv sahnasi baxshi tilidan dialog shaklida juda ta’sirchan ifodalangan. Parcha keltiramiz





“Darrov xizmatkor kampirni chaqirdilar. Xizmatkor kampir deshona chiqib, “Go‘ro‘g‘liga bir qaradidon ortina qaytavardi. Galib parizoda aytdiki, ey Og‘a Yunus parizod, dushingda go‘rgan odamzod shumi, dadi.

-Top o‘zi, shu-dadi parizod.

-Agar shu bo‘ladovin bo‘lsa, san mani so‘zima quloq sol-dadi kampir. –Ammo lekin so‘zimni qabul qilsang ham ixtiyoring qilmasang ham ixtiyoring o‘zingda, dadi kampir.

-Qani na gaping bo‘lsa aytavar, - dadi parizod.

-Agar aytsam, -dadi kampir, - bu galgan odamzoddur, san parizodsan. Odamzod tuproqdan, parizod nurdan yaralg‘an, sizlar bir-biringa hech do‘g‘ri galmisan, -dedi kampir.

-Yo‘q, -dedi parizod, man rost dushimda shungo al bardimmi, tuproqmi, doshmi shungo o‘z tanimni baxsh etaman, dadi parizod. Shunda kampir aytdiki, odamzodning boshqa hunarlari ham bor. San odamzoda borsang, xaros qo‘shasan, yer ag‘darasan, non yopasan, maydonnan tazak yig‘nisan, o‘joqa o‘t yoqasan, bu ishlar saning alingnan galavo‘larmakin, dadi kampir.

-Roziman – dadi parizod.

-Agar san munga rozi bo‘lsang, odamzodning yana bir hunari bor, mungo rozi bo‘lmasan, - dadi kampir.

-Na hunar akan, dadi parizod.

-Bu odamzod dagani bir –ikki xotina qanot atmidi, ustinga o‘ylanadi, yor so‘vadi, -dadi kampir. Hamma gapa rozi bo‘lib durgan parizod shu yera galganda sal o‘ylanib qoldi.

Go‘ro‘g‘li qopida durip bu gaplarni eshitib durvadi. Oxirgi gapdan so‘ng parizodning ikkilanganini ko‘rib, sal mazasi qochdi. Kampirni bu gapina ishonib ishni buzjoq-ov, bu dap, parizoda qarab, ko‘nglini go‘tarib” [10].

Ikki ayolning ichki kechinmasi dialog shaklida juda ta’sirchan ifodaga tortilgan. Unda ayollarga xos bo‘lgan andisha, xavotir, ehtiyotkorlik, tashvish, rashk, sevgi, iztirob kabi turli tuyg‘ular aralashib, oilaviy-maishiy hayotga oid kartina yuzaga kelgan. Ammo oxir oqibat sevgi-muhabbat bularning barchasidan ustun keladi. Bu lavhani baxshi tabiiy, ravon badiiy nutq orqali bayon qiladi. Eng asosiysi ayol tuyg‘usiga jiddiy ta’sir etadigan nuqtani ijrochi aniqtopa olgan. Og‘a Yunus pari enaganing aytgan barcha e’tirozlariga befarq





qaraydi. Biroq, “Odamzoti bir-ikki xotinga qanoat qilmaydi, ustingga xotin oladi”, degan so‘zini eshitgach, ikkilanib qoladi. Ushbu epizod ayolning ruhiy holatiga aloqador bo‘lib, baxshi uni qahramon ichki tuyg‘usini yoritish uchun kiritgan va real kartinani namoyon qilib, tinglovchilarda hayotiy tuyg‘u uyg‘ota olgan. Chunki auditoriya ahli Og‘a Yunus parining qaysi tomonga rizolik bildirishiga qiziqib, uning Go‘ro‘g‘li bilan bosh qo‘shishiga hayrixoh sifatida qarashadi. Bola baxshining badiiy nutqida kinoya, qochirim, shama, kesatik kabi leksik usullar ham ko‘p uchraydi. Uning repertuarida “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari asosiy o‘rinni egallaydi. Og‘zaki nutq negizida namoyon bo‘ladigan badiiy tasvir ijrochi mahorati orqali o‘zining rangin qirralariga ega bo‘lgan. Unda Xorazm xalqining og‘zaki so‘zlashuv nutqidagi milliy kesatq va kinoyalar faqat o‘g‘uz lahjasi vakillari leksikasi bilan aloqadordir. “Avazxon” dostonidagi badiiy nutqda tilning leksik ma’nodorligi baxshi mahorati orqali original tarzda namoyon bo‘lgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Hodi Zarif. Ulkan xalq san’atkori. // Ergash shoir va uning dostonchilikdagi o‘rni. –T.: Fan, 1971. –B.8. (8-40).
2. Ro‘zimboyev S.R. Epos haqida qaydlar. // Saylanma. – Urganch, “Xorazm”, 2012. –B.222. (222-295).
3. Vozorov A. Вопросы авторство и творческой индивидуальности бахши в узбекском нпродном дастанном сказительстве. АКД. –Т.: 1991. –S.15. (18).
4. Qahhorova Sh. Baxshi estetik ideali haqida. / O‘zbek folklorshunosligi masalalari. Vtom, -T.: 2015. –B.41. (40-44)
5. Saidov M. O‘zbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat. –T.: Fan, 1969. –B.21. (264).
6. Mirzayev T. Эпос и сказитель. –S.47-48.
7. Saidov M. Xalq dostonlarida epik qolip va an’anaviy formulalar. // O‘zbek filologiyasi masalalari. Научные труды ТашГУ вып. 362. –Т.: 1970. –S.52.
8. “Go‘ro‘g‘li”. –Urganch, “Xorazm”, 2004. –B.41 (476 ).
9. Sabirova N. Xorazm baxshichilik va xalfachilik an’analari.- Toshkent, “FAN” 2021.-B.56-68







## BAXSHICHILIK TA’LIMIDA UZLUKSIZLIKNING INTEGRATSIYA USULLARI

**Botir MATYOQUBOV,**  
O‘zDK, Yunus Rajabiy nomidagi  
O‘zMMSI professori,  
san’atshunoslik fanlari nomzodi,  
Ardaxan (Turkiya) universiteti go‘zal  
San’atlar fakulteti doktori.

**Annotatsiya:** Maqolada ta’lim tizimiga yangi kiritilgan baxshichilik kasbi va uning kelgusida bozor sharoitidagi ish o‘rni, OTMdagi o‘quv reja, dastur va o‘quv metodik hujjatlariga kiritiladigan o‘zgartishlar, darslik, o‘quv qo‘llanma, va kitoblardagi informatsiya va zamonaviy texnika hamda innovatsion texnologiyalaridan foydalanish oldimizda turgan muhim vazifa ekanligi bayon etiladi.

**Kalit so‘zlar:** baxshichilik, maqom, doston, axborot, ish o‘rni

**Аннотация:** В статье описывается статус профессии бахши, вновь введенной в систему образования, место работы в рыночных условиях в будущем, изменения в учебном плане, программе и учебно-методической документации в вузах, использование инновационных технологий в настоящее время, когда в учебниках, учебных пособиях, сборниках и других книгах развивается современное техническое развитие и совершенствуется электронное оборудование.

**Ключевые слова:** бахши, маком, дастан, информация, рабочее место

**Abstract:** The article describes the status of the profession of Bakhshi, newly introduced into the education system, the place of work in market conditions in the future, changes in the curriculum, program and teaching documentation in universities, the use of innovative technologies at the present time, when textbooks, compilations and other books form modern technical development and improve electronic equipment.

**Key words:** Bakhshi, makom, dastan, information, employment.





Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ilm-fan, adabiyot, madaniyat, san’at, qolaversa, maqom va baxshichilik yo‘nalishini yuksaltirish ijtimoiy sohani rivojlantirishning asosiy yo‘li sifatida belgilangan. Bugungi kunda yoshlarning madaniy saviyasini oshirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish, shu asosda ma’naviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste’dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ustoz-shogird an’anasini davom ettirish masalalari davlatimizning ustuvor vazifalariga aylanib bormoqda. Ayniqsa, “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF6097-son farmoni, 2023-yil 25-dekabrda “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-405-son qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 5-iyundagi 253-son buyrug‘i hamda “Ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi asosida ilmiy loyihani bajarish to‘g‘risida”gi 2023-yil 12-iyunda taraflar o‘rtasida tuzilgan IL-662204254-son Shartnomaga muvofiq “Innovatsion texnologiyalar asosida baxshichilik maktablari uchun yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihaning tasdiqlangan ish rejasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi “2024-yilga mo‘ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 16-son buyrug‘i va ushbu buyruq bilan tasdiqlangan 2024-yilda respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy texnik tadbirlar rejasi 65/48 bandiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti, Respublika baxshichilik san’ati markazi, Baxshichilik san’atiga ixtisoslashtirilgan Respublika maktab-internati, Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti bilan hamkorlikda bu kungi anjuman o‘tkazilmoqda.

Yunus Rajabiy nomidagi o‘zbek milliy musiqa san’ati instituti o‘z sohasi bo‘yicha asosiy (bazavoy) OTM bo‘lganligi sababli ba’zi bir





takliflarni o‘rtaga tashlamoqchiman: Men bu takliflarni oldingi chiqishlarimda ham aytib kelmoqdaman.

1) O‘zbekiston davlat kasblar klassifikatorida institutimiz bitiruvchi (bakalavr)lari diplomiga dostonchi, o‘qituvchi, badiiy jamoalar rahbari ixtisosligini yozilishiga erishish. Chunki, bitiruvchi talabalarimizni bozor sharoitida ish bilan bandligini ta’minlash eng dolzarb masalardan biridir. Yuqorida ko‘rsatilgan ixtisosliklarni diplomda yozilishiga o‘quv rejasiga kiritilgan fanlar (pedagogika, psixologiya, uslubiyat, pedagogik va ijrochilik amaliyoti) to‘la javob bera oladi. Buni dalillash maqsadida o‘quv rejasi doimo takomillashtirilib boriladi. Shuning uchun 2023-2024 o‘quv yilida “Doston ijrochiligi” O‘quv rejasiga quyidagi o‘zgartirishlar kiritish taklif qilinadi: Eng avvalo o‘quv reja nomini va kasblar klassifikatoridagi raqamini ham 5151600 “Xalq ijodiyoti” emas “Doston ijrochiligi” qilib o‘zgartirish lozim. Sabab, bu ixtisoslik San’at va madaniyat institutidagi aynan shu soha ixtisosligi bilan parallel ravishdagi kadrlarni yetishtirib chiqaradigan kafedra va o‘quv rejasining takrori bo‘lib qolmoqda. Shuningdek, quyida ko‘rsatilgan fanlar optimallashtirilib ixchamlashtirilishi zarur:

2) “O‘zbek folklorshunosligi” (300 soat) , “Sahna nutqi” (150 soat), “Sahna madaniyati” (120 soat), “Musiqiy pedagogika va psixologiya” (60 soat), “Kasbiy pedagogika” (120 soat), “Jahon epik san’ati ijrochiligi” (270 soat) “Doston ijrochiligi asoslari” (570 soat), fani aslida sinkretik janrni barcha jabhalarini qamrab olishi kerak.

Fan dasturidagi ko‘pchilik mavzular “O‘zbek folklorshunosligi” fanidagilarni aynan takrolanishidir. Shuningdek, “Jahon epik san’ati” (120) soat, yarmigacha qisqartirilishi, “Sahna nutqi” (90) soat, va “Sahna mahorati” (150) soat fanlari umumlashtirilishi maqsadga muvofiq.

O‘quv rejasidagi jami 10 fan qayta ko‘rib chiqilishi lozim. Chunki institutimiz musiqa sohasida yagona Akademik Yunus Rajabiy nomidagi o‘zbek milliy musiqa san’ati oliygohi bo‘lganligi sababli folklor va xalq ijodiyoti fanlariga qaraganda musiqiy fanlarga ko‘proq e’tibor qaratilmog‘i va yo‘naltirilmog‘i lozim. Yuqoridagi fanlar San’at va madaniyat instituti hamda Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universitetlarining folklor bo‘limlarida o‘qitilmoqda.





3) Umumlashtirish va optimallashtirishdan ortib qoladigan soatlar hisobiga O‘quv rejasiga o‘tgan yil kiritilgan “Ovozni yo‘lga qo‘yish” fanini baxshilar sinfi uchun 1- va 2 - bosqichlarda mutaxassislik baxshijirov o‘qituvchisiga berish lozim. (Chunki akademik yoki maqom xonanda o‘qituvchisi ichki-sulligi, bo‘g‘izdan kuylash ovoz qo‘yish uslubini mutaxassis baxshi yoki jirov o‘qituvchisidek bilmaydi).




4) Doston kuy-nomalarini notaga olish (rasshifrovka) darsini ham 2-4 - semestrsgacha har ikki talabaga individual (23+22=45) 45 minutdan kiritish va doston kuylarini notaga olish malakasi bor o‘qituvchiga berish maqsadga muvofiq. Chunki kelgusida “Doston solfedjiosi” fani ana shu notaga olingan kuy-nomalardan tashkil topadi.

5) Doston ijrochiligi (baxshi, jirov, xalfa) yakka fanini “Mutaxassislik” deb nomlash va uni boshqa sohalar (maqom xonandaligi, sozanda, akademik xalq cholg‘ulari, vokal va h.k.) kabi eng kamida har bir talabaga haftasiga 3 akademik soat qilib belgilash zarur.

6) Akademik va doston solfedjiolarini haftada 4 soatdan (15 kishilik guruh hisobidan) 4 - bosqichgacha kiritish takliflari inobatga olinishi so‘raladi. Buning asosiy sababi Kafedraga o‘qishga kirayotgan talabalar musiqiy tayyorgarliksiz kelishmoqda. Bunday nomutanosiblik musiqa savodiga ega bo‘lib kirgan Qoraqalpoq guruhi bilan solishtirganda yaqqol sezilmoqda. Xalqaro doiradagi musiqiy o‘quv yurtlarda (Ozarbayjon va Turkiya 1-2 kurslarida fransuz musiqashunosi Lavinyak (lad) va turk musiqashunosi Bonnalarining ritmik) solfedjiolaridan akademik mashg‘ulotlar olib boriladi va 3-4 kurslarda maqom yoki doston solfedjiolari o‘tiladi.

Endi darsliklar yozilishiga keladigan bo‘lsak, Baxshilar qadimda dostonlarni kitobdan o‘rganmaganlar. Ular ustozdan-shogirdga, otadan o‘g‘ilga og‘zaki tazrda o‘tib kelgan. Lekin bizning davrimizga kelib dostonlarning nasr va nazm qismlari alifbo harflari orqali yozib olingan bo‘lsa, kuy-ohanglari nota belgilari vositasida qog‘ozga tushirilmoqda. Hozirgi kunda dars mashg‘ulotlarida doston matnlarini o‘rgatilishi bo‘yicha ma’lum umumuslubiy-metodika shakllanmagan. Shuningdek, Gramplastinka, AUDIO yozuv DISK kabi vositalar orniga QR kod dastur tizimlaridan foydalanilmoqda. Ayniqsa 2021-2024 yillarda nashrdan chiqqan 60 bosma taboq hahmidagi darslik va o‘quv qo‘llanmalarimiz shular jumlasidandir.





Bu borada misol sifatida biz O‘zbekiston xalq baxshisi Qaxxor Raximov ijro etgan “Alpomish” dostoni dars uslubini taklif qilmoqchimiz. Dostonning AUDIO yozuvi mavjud bo‘lib, uning davomiyligi 14 soatni tashkil qiladi. O‘quv uslubiy qo‘llanmada uni QR-kod dasturiga o‘tkazilib. Bitta Alpomish dostonining o‘zi 16 mavzu, amaliy va seminar mashg‘ulotlar tarzida taqsimlangan. Har bir qismi 45-50 daqiqa lik akademik soatni tashkil qiladi. Talaba dostonni eshitish jarayonida oldidagi kitobdan hikoya, she’r va nota matnini ko‘rib kuzatib boradi. Bunda insonning ko‘rish va eshitish orqali matnni xotirada mustahkamlash ko‘nikmalari sayqallanadi. Mutaxassislikdan amaliy o‘rganishi, yodlash va badihago‘ylik bilan ijro qilish uchun butun umr o‘rganadi. Hozirgi kunda Respublikamizning nufuzli festivallari ishtirokchilari yoki institutimizga kirish istagini bildirayotgan abituriyentlar va hatto joylardagi bolalar musiqa va san’at maktabi o‘quvchilari ham o‘z repertuarlariga “Alpomish” dostonidan parcha aytishni (ijro sifati alohida masala) majburiy dastur qilib olganlar. Bizning taklifimiz: sinov va festivallarda ijro qilinishi kerak bo‘lgan dostonni qismlarga bo‘lib, biletlarga yozib, har bir qatnashchi tortgan biletidagi savol (dostonning parchasi yoki qismni) ga muvofiq ijro qilib bera olsagina dostonni to‘liq o‘zlashtirgan hisoblanadi. Bunday dars uslubini dostonlarning murakkabligi, janlari va turlariga qarab bolalar musiqa-





san’at va ixtisoslashtirilgan maktablar turli sinflari darslarida qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bu albatta taklif. Lekin ustozlarimizning o‘z ustoz-shogirdlik an’anaviy uslublari barchamiz uchun juda qadrli. Bugungi kunga kelib ustozlar tomonidan qo‘lyozma hoida tayyorlangan va darslarda qo‘llanish mumkin bo‘lgan o‘z uslublarda yaratilgan darslik va qo‘llanmalar mavjud. Masalan: To‘ra Mirzo va Fayzulla Karomatli tomonidan Alpomish dostonning 1000 yilligiga bag‘ishlab 1999 yili nashr etilgan Qiyas jirov Qayratdinov ijro etgan “Алпамыс” dostonining qoraqalpoqcha qisqartirilgan versiyasi jirovlar uchun qo‘llaniladi (Jirov nomalarini Suren Gabrielyan notalashtirgan). Otaxon Matyoqubovning “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, “Avaz uylangan”, “Chambil qamali”, “Arab Rayxon”, “Toxir va Zuxra”, “Oshiq G‘arib va Shoxsanam” (Yoshlik qismi), “Shahidlar maskani”, “Oqqan daryo oqar begumon” kabi 8 ta doston jamlangan o‘quv qo‘llanmasi (qo‘lyozma hoida), B.Matyoqubovning Qaxxor baxshi Raximov ijrosidagi “Alpomish”, “Temur va Boyazid”, Bola baxshi Qurbonnazar Abdullaev va Qalandar baxshi Normatov ijro etgan “Avazxon”, “Baziryon”, “Xirmondali”, “Oshiq Maxmud”, “Oshiq G‘arib va Shoxsanam” singari 8 ta dostonlar kiritilgan “Doston navolari” nomli monografiyasi va elektron variantlari tayyorlangan holda dars mashg‘ulotlarida qo‘llanilmoqda (doston kuy-nomalarni B.Matyoqubov notalashtirgan). Yuqorida qayd etilgan dostonlarning (“Алпамыс” dan tashqari) audio, nota yozuvlari va QR kod belgilari bor. Ammo boshqa ustozlar ijro etgan dostonlarni o‘quv qo‘llanmasi va darslik holatiga keltirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim bo‘ladi. Doston ijrochiligi ta’lim tizimiga yangi kiritilgan kasb bo‘lganligi sababli uni o‘qitish uchun yangi o‘quv metodik hujjatlar va albatta darslik, o‘quv qo‘llanma, to‘plam va boshqa kitoblar zarur. Bularning barchasi dostonni o‘rganishdagi maqsad bo‘lishi bilan birgalikda, o‘zlashtirishdagi vositalardir. Xususan, zamonaviy texnika taraqqiyoti rivojlanayotgan va elektron jihozlar takomillashayotgan hozirgi davrda innovatsion texnologiyalaridan foydalanish oldimizda turgan muhim vazifalardandir. Ta’lim sifatini oshirish Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir. Bugungi davr talabi dunyo ta’limi oldiga katta vazifalarni qo‘ymoqda. Respublikamizning musiqiy ta’lim muassasalari uchun tayyorlanayotgan darsliklarning yangi avlodini yaratishga ilk qadamlar







qo‘yildi. Axborot-texnologiyalarning ildam rivojlanishi, QR-kod belgilarning kashf etilishi, ayniqsa yaqinda taomilga kiritilgan “Antiplagiat” dasturini joriy qilinishi bosma nashrlarga elektron resurslarni bog‘lash imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. Albatta, bu kabi o‘zgarishlar darslikni sifatiga o‘quvchilarda qiziqishni tobora orttiradi.

Eng asosiysi fan majmualari, ma’ruza matnlari, turli hisobotlar, dars xaritalari, AUDIO va VIDEO yozuvlar va ortiqcha qog‘ozbozlik hamda disklardan voz kechish vaqti yetdi. Uni o‘rniga yangi tashkil topgan kafedramiz professor-o‘qituvchilarni ilmiy izlanishlarga jalb qilish, talabalar uchun suv va havodek zarur bo‘lib turgan o‘quv qo‘llanma va darsliklar yaratish, yetishmayotgan o‘qituvchi kadrlar bilan to‘ldirish va ularni salohiyatini oshirish hamda rag‘batlantirish oqilona ishlardan bo‘lur edi. Agar yangi o‘quv yilidan yuqoridagidek o‘zgarishlar qilinsa OTMmiz talablariga javob beruvchi kadrlar yetishtirib chiqarishga keng yo‘l ochiladi degan umiddamiz.

***Dostonlar sinkretik san’at bo‘lib,  
unda so‘z, soz, tomosha va boshqa janrlar mushtarakdir.  
Uning so‘z jihati ko‘p o‘rganilgan, ammo musiqiy omili kam tadqiq  
qilingan. Vaholanki, dostonlarning musiqasi  
umumiy va yaxlit tizim ichidagi yana bir alohida tizim hisoblanadi,  
demak musiqiy o‘milni yanada ko‘proq o‘rganmog‘imiz lozim”.***

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. PQ-4320-son 14.05. 2019.
2. PQ-112-son 02.02. 2022.
3. O‘quv reja va fan dasturlari 2020-2021.





## O‘LAN VA LAPAR JANRLARINING TADRIJIY TAKOMILI

*Shomirza TURDIMOV,*  
*filologiya fanlari doktori, professor.*

**Annotatsiya:** Maqolada o‘lan va lapar janrining o‘ziga xos xususiyatlari, ijro jarayoni va tarqaluv hududlari, she’riy qurilishdagi tafavutlarning janrning o‘ziga xos belgilarini ko‘rsatishdagi o‘rni xususida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** o‘lan, lapar, qo‘shiq, atama, janr, o‘lan tashlash, lapar solish.

O‘zbek xalq lirikasi tarkibida o‘lan va lapar alohida janrlar sifati qaraladi. O‘lan va laparlarning to‘planishi, nashrlari, o‘rganilishi majud tadqiqotlarda alohida qaralib, alohida baholangan<sup>10</sup>. Bu o‘rinda ortiqcha to‘xtalishga ehtiyoj yo‘q.

O‘lanchilik respublikamizdagi deyarli barcha viloyatlarining charvodor aholisi o‘rtasida keng tarqalgani, ammo lapar aytish va laparchilik an‘analari, asosan, Farg‘ona vodiysi va Toshkent atrofida yoyilganlini tadqiqotchilar qayd etishgan. Biz bu o‘rinda o‘lan va lapar janrlarining kelib chiqish asoslari, atamalar etimologiyasiga to‘xtalmoqchi emasmiz. Asosiy e‘tiborni o‘lan va laparlar ijrosining tadrijiy taraqqiyoti, bugungi holatidagi farqli jihatlar hamda janrlar chegarasi masalasiga qaratamiz.

Avvalo, o‘lan va laparlarning maxsus boshlamaga egaligi, bu jarayonning “o‘lan tashlash”, “lapar solish” deb yuritilishiga diqqat qilaylik<sup>11</sup>.

Baland tog‘lar boshida tuman toshi-yo,  
To‘y oldidan tortganim so‘qim oshi-yo,  
Hadding bo‘lsa qanikan o‘lan boshla,  
Bu elatning man degan keksa, yoshi-yo.

<sup>10</sup> Jo‘raYev M, Tohirov O‘, Imomnazarova Sh. O‘zbek folklorida o‘lan janri // O‘lan aytgani keldik. Respublika xalq ijodiy madaniy-ma‘rifiy ilmiy-metodik markazi, Toshkent, 2013. – 11-15 betlar.

<sup>11</sup> Imomnazarova Sh. O‘zbek folklorida o‘lan janri. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi. – 48 bet.





Keltirilgan parcha o‘lan uchun an’anaviy boshlamalardan biri bo‘lsa, lapar deb yuritilayotgan namunadagi quyidagi boshlama ham she’riy qurilishi, ohangi va mazmunan aynan o‘lan misolidan farq qilmaydi.:

Tomdan tuproq tushadi yel turganda,  
Laparni kim aytadi biz turganda.  
Qoshu ko‘zi qiyilgan boyning qizi,  
Yotsam uyqu kelmaydi siz turganda<sup>12</sup>.

E’tiborli jihat shundaki, aksariyat hollarda lapar sifatida taqdim etiladigan namunalarni o‘lanlardan kompazitsion qurilish, qofiyalanish, misralar soni va ohang jihatidan farqlash qiyin. Yanada aniqroq aytilsa, ularning deyarli bir xil ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Faqatgina “Soy bo‘yida turgan yigit”, “Boshginam og‘riydi-yo”, “Qoshingni qora deydilar...” kabi namunalar misolida o‘lan bilan laparlar solishtirib ko‘rilsa, keskin farqli jihatlar aniq ko‘rinadi. Bu holatda laparlar ikki xil ko‘rinishga egami, yoki bu namunalardan biri aslida o‘lan bo‘lib, Farg‘ona vodiysining bir qator hududlarida lapar deb yuritilganmi, degan mantiqiy savollar tug‘iladi. Chunki o‘lan bo‘yicha maxsus tadqiqot olib borgan Sh.Imomnazarova ham an’anaviy tadqiqotlarga ergashgan holda, laparning biz shartli ravishda ikkiga ajratib ko‘rsatayotgan bu ikki turini bir xilda baholaydi. Aslida esa o‘lanlarga har jihatdan uyg‘un keluvchi lapar namunalarini o‘lanlar qatoriga kiritish, “Soy bo‘yida turgan yigit”, “Boshginam og‘riydi-yo”, “Qoshingni qora deydilar...” kabi namunalarni esa sof lapar janri sifatida baholash mavjud voqelikka mos keladi.

Ayni namunalarning barchasida xariflar tarafma-taraf bo‘lib – yigit va qizlar yoki ikki dovlashayotgan guruh tarzida ijro etishadi. Lekin o‘lan va laparning o‘larga mos namunalarida ijrochilar mavzuga erkin yondashib, vaziyatga ko‘ra badihago‘ylik qiladilar, biri ikkinchisini to‘ldiradi, natijada, tomonlarning biri g‘olib bo‘ladi. Ammo biz lapar deb qarayotgan “Soy bo‘yida turgan yigit”, “Boshginam og‘riydi-yo”, “Qoshingni qora deydilar...” kabi namunalarda she’riy matn deyarli o‘garmas shaklga kelgan va

---

<sup>12</sup> Oy oldida bir yulduz (O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari). To‘plab, nashrga tayyorlovchi M.Jo‘raev. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000. – B.52.





ushbu muhim jihati bilan ham o‘landan ajralib turadi. Yana bir farqli belgisi shuki, laparlar ijrosida musiqa sozlari, xususan, doira ishtirok etadi. O‘lan ijrosi sozlar ishtirokisiz ro‘y beradi.

Yuqorida aytilgan fikrlardan kelib chiqib, biz bu paytgacha lapar janri doirasida qarab kelinayotgan va shartli ravshda birinchi guruh deb ataganimiz – laparlarning o‘lanlarga uyg‘un namunalarini o‘lanlarga qo‘shishni va o‘lanlar tarkibida o‘rganishni taklif etamiz.

Laparlarning “Soy bo‘yida turgan yigit”, “Boshginam og‘riydi-yo”, “Qoshingni qora deydilar...” va boshqa namunalarlarini esa laparlarning tayanch ijrolari sifatida olib ular asosida lapar janri mezonlarini qaytadan qarab chiqish lozim deb bilamiz.

Bu o‘rinda yakka ijrochilar tomonidan raqs tushib ijro qilinuvchi aksariyat ashulalarni ham laparlar sirasida sanash, janr mezonlaridan kelib chiqib ularni qayta baholash kerak bo‘ladi. Aslida esa bu xil ijro namunalarini asar mohiyatidan kelib chiqib tegishli janrlar ichida tadqiq etish mumkin. Aksariyat hollarda bu namunalar folklorshunoslikda lirik qo‘shiqlar sifatida qaraluvchi janrga tegishli bo‘lib chiqmoqda.

Vaziyat taqozasi bilan folklorshunoslikda lirik qo‘shiqlar deb yuritiluvchi, asosan, marosimlarga tegishli bo‘lmagan va mavzu jihatidan ishq-muhabbat kechinmalari kuylanuvchi qo‘shiqlar nomlanishiga ham to‘xtalib o‘tish lozim. Bu o‘rinda “lirik qo‘shiqlar”, “o‘zbek xalq lirik qo‘shiqlari” kabi atamalardagi “lirika” so‘zi folklorshunoslikda keng va tor ma’noda qo‘llanilishi bilan noqulaylik tug‘diradi. Ikkinchidan, atamaning ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topishi atamashunoslik o‘lchamlariga mos emas. Shu sababi biz bu atama o‘rniga xalq orasida qadimdan mavjud bo‘lgan “yalla” yoki “ashulla” atamalarini qo‘llashni taklif etamiz. Folklorshunosligimizda sheva so‘zlari orasidan muqobilini tanlab, shartli atama sifatida qabul qilish tajribasi mavjud. Masalan, xalq dostonlari ijrochilarini bildiruvchi baxshi, yuzboshi, soqi, jirchi atamaları orasidan baxshi so‘zi tanlangan va bugun rasman qabul qilingan. Ertak atamasi ham shunday taqdirga ega bo‘lib, matal, ushuk, vorsaqi so‘zlari orasidan tanlangani barchaga ma’lum. Xuddi shu kabi “lirik qo‘shiq” atamasini “yalla”





yoki “ashulla” kabi nisbatan mohiyatga mos atamaga almashtirib qo‘llashimiz har jihatdan maqbul bo‘ladi. Qolaversa, musiqashunoslik tadqiqotlarida ushbu atamalar faol qo‘llanib kelinmoqda. Musiqa folklori va xalq og‘zaki ijodi atamalarini yaxlitlashtirish nafaqat xalq ijodini, balki fan yo‘nalishlarini ham yagona maqsad sari boshlaydi va rivojiga munosib hissa qo‘shadi.

O‘lan va lapar janrlarining bugungi taraqqiyoti ularning har birini alohida-alohida o‘rganish barobarida, tarixan o‘zaro kesishgan nuqtalarini umumlashtirib, bir-biridan kesin farq etuvchi o‘rinlarini urg‘ulab, janr mezonlari talablari asosida aniq baholash kerakligini bugungi folklorshunosligimiz ham talab etadi. Shu sababli biz yuqorida sanab, ko‘rsatib o‘tgan holatlar shunchaki qayd bo‘lib qolmay, jamoatchilik va mutaxassislar diqqatini jal etadi hamda tegishli xulosalarga kelishga sabab bo‘ladi, deb umid qilamiz.

Bugungi kunda bevosita o‘qitish jarayonida ham ushbu farq va uyg‘unlikka alohida e’tibor bilan qarash va mutaxassislar tuzayotgan o‘quv qo‘llanma va darsliklarda alohida diqqat qratish talab etiladi. Ana shunda folklor janrlarini o‘quvchi ommasiga mukammal yetkazib berish imkoni tug‘iladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Jo‘rayev M, Tohirov O‘, Imomnazarova Sh. O‘zbek folklorida o‘lan janri // O‘lan aytgani keldik. Respublika xalq ijodiy madaniy-ma’rifiy ilmiy-metodik markazi, Toshkent, 2013.
2. Imomnazarova Sh. O‘zbek folklorida o‘lan janri. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi.
3. Oy oldida bir yulduz (O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari). To‘plab, nashrga tayyorlovchi M.Jo‘rayev. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000.





## JANRLAR MUNOSABATIDA MUVOFIQLASHUV HODISASI

*Saidqul ALIMOV,  
O‘zDSMI dotsenti,  
filologiya fanlari nomzodi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek folklorida janrlarning o‘zaro ta’siri va munosabatlari jarayonlarida muvofiqlashuv hodisasining o‘rni haqida ilmiy fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** folklor, muvofiqlashuv, syujet, folklor, janr, mif, obraz, poetik tasavvur, doston, ertak, qo‘shiq, badiha, ijro.

O‘zbek folklori janrlar tarkibining shakllana borishi va hozirgi holatiga kelish jarayonida muvofiqlashuv hodisasining ham ta’siri bor. Zotan, har bir janr shartli ravishda o‘ziga xos xususiyatlar nuqtai nazaridan tabaqalashtirilgan ekan, albatta mushtarak badiiy prinsip asosida folklor asarlari o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlash, ularning tarixiy-folkloriy jarayon rivojida holatiga baho berish kerak.

Tarixiy-folkloriy jarayonda janrlarning motiv, syujet va poetik vositalariga ko‘ra o‘zaro funksional munosabati shartli ravishda muvofiqlashuv deyiladi. Bu ko‘proq ijro va badihalashda namoyon bo‘ladi.

Muvofiqlashning eng yorqin ko‘rinishi folklor asarlari ijro jarayonida o‘zi tomonidan tinglovchi yoki tomoshabinlar tarkibi hisobiga olinishi orqali bir janr namunasidagi motiv yoki syujet voqeasi yoki uning vazifasini ikkinchi janr tarkibiga an’anani buzmasdan singdirishdir.

Masalan, “Alpomish” dotoni syujet voqeasiga xalq hikmatli so‘zi-  
paremlarning muvofiqlashganligini:

Davlat qo‘nsa bir chivinning boshiga,  
Semurg‘qushlar salom berar qoshiga.  
Ot chopsa, gumburlar tog‘ning darasi,  
Urushda bilinar mardning sarasi







Kabi o‘rinlar ko‘plab ko‘rish mumkin. Albatta, muvofiqlashtirishda ijrochining mahorati, o‘zi ijro etayotgan asarning funksiyasiga o‘zga janr vazifasiga mosligi inobatga olinadi. Masalan, “Ravshan” dostonidagi:

Qo‘lingan kelgancha chiqar yaxshi ot,  
Yaxshilik qil bolam, yomonlikni ot.  
Nasihatim yodingda tut, yolg‘izim,  
Yolg‘iz yursa, chang chiqarmas yaxshi ot.<sup>13</sup>

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan o‘zgarishi, turli sinfiy tabaqalanish vujudga kelishi va ziddiyatlarning kuchayishi natijasida muvofiqlashuv folklor janrlararo an’anasi paydo bo‘ldi. Chunki tarixiy-folkloriy jarayon bir tekis rivojlanmasligi, jamiyat taraqqiyot sur’ati bilan bog‘liq ravishda yuksalishlar, pasayishlar bo‘lib turishi qonuniy holdir. Demak, muvofiqlashuv hodisasi ana shunday hayot taqozosi bilan tug‘ilgan folklor an’anasi hisoblanadi. Chunki ijro jarayonida har bir folklor janri namunasi sharoitga ko‘ra u yoki bu darajada o‘zgarishi tabiiydir.

O‘zbek folklori janrlar tarkibining shakllana borishi va hozirgi holatiga kelish jarayonida muvofiqlashuv hodisasining ham ta’siri bor. Zotan, har bir janr shartli ravishda o‘ziga xos xususiyatlar nuqtai nazaridan tabaqalashtirilar ekan, albatta mushtarak badiiy prinsip asosida folklor asarlari o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash, ularning tarixiy-folkloriy jarayon rivojida holatiga baho berish kerak.

Xalq og‘zaki ijodi merosini o‘rganish, uning ma’naviy-estetik manba sifatidagi ahamiyatini ilmiy-nazariy yoritishda janrlararo munosabatdagi muvofiqlashuv hodisasi alohida ahamiyatga ega. Chunki insoniyat aqliy faoliyati, tafakkuri taraqqiy etgan sayin, uning ruhiy ehtiyojini qondirish vositalari ham shu darajada yuksalib boradi. Inson tafakkurining borliqqa, ruh va ongning tabiatga munosabatini dialektik birlikda o‘rganish bevosita folklor asarlari taraqqiyotiga ham tegishlidir. Agar masalaga mana shu nuqtai nazardan yondashilsa, san’atning eng birinchi ijodiy shakli bo‘lgan folklor asarlari rivojlanishida o‘ziga xos an’ana hisoblangan muvofiqlashuv hodisasi

<sup>13</sup> Bulbul taronalari. 2-T. T.: “Fan” 1972. B-386.





ongning atrof-muhitga, tafakkurning inson hayot kechirish tarziga munosabatlarini ko‘rsatuvchi hodisasi ekanligi namoyon bo‘ladi.

Muvofiqlashuv hodisasi turli folklor asarlari orasidagi o‘zaro *sevmantik* va funksional bo‘linish munosabatlarini anglatadi. Xalq og‘zaki poetik ijodida muvofiqlashish hodisasi turli xalqlar folklorshunoslarini ham qiziqtirib kelmoqda.<sup>14</sup> Bu masala alohida mavzu sifatida tadqiq etilmagan bo‘lsa-da, biroq umumfolklor janrlari xususiyatlariga tegishli ishlarda qayd etilgan.<sup>15</sup> O‘zbek folkushrdunosligida mazkur muammo birinchi marotaba folklorshunos B.Sarimsoqov, keyinchalik G‘.Akromovlar tomonidan kun tartibiga qo‘yildi.<sup>16</sup>

O‘zbek folklorshunoslari K.Imomov, M.Jo‘raevlarning xalq nasri janrlarini tasnif etish mezonlariga bag‘ishlangan tadqiqotlaridagi xalq nasri namunalarini ijro etish ijrochining hikoya voqealari, obrazlar, epik vaqt va munosabatlarning semantik-funksional jihatlariga ham tegishlidir.

Darhaqiqat, xar bir janrga oid folklor namunasi mohiyati dunyoning paydo bo‘lishidan tortib, unda inson hayot kechirishi bilan bog‘liq turli-tuman muammolarni xalq tasavvuridagi model vositasida yechishga qaratilgan.

Folklor janrlari sostavidagi janrlar taraqqiyotini o‘rganishda mif va folklor munosabatlari muhim muammolardan ham qiziqtirib keladi. Xususan, A.N.Veselovskiyning “Mif va ramz” deb nomlangan tadqiqotida bizni o‘rab turgan moddiy borliq va undagi turli voqeahodisalarni poetik aks ettirishning ilk badiiy tasvir vositasi - ramzlar bo‘lib, keyinchalik ramzlar hozirgi biz tasavvur etayotgan folklor janrlariga ko‘chgan, har xil obrazlariga aylanganligini ta’kidlaydi. Folklor janrlari munosatidagi biridan ikkinchisiga muvofiqlashuvchi an’anaviy ramzlar ham tasodifiy hodisa emas ekan. Ramzlar dastlabki badiiy tasavvur mahsuli hisoblangan miflardan faqat folklor namunalariga emas, balki xalq so‘z boyligiga o‘tgan. Lekin folklor janrlaridagi ramzlar og‘zaki so‘zlashuv jarayonidagi ramzlarga nisbatan o‘ziga xos badiiy holatini saqlanganligi uchun ularda

<sup>14</sup> Валиев В.А. Жанры азербайджанского устного народного творчества. – Баку, АДДб 19726 Халидова М.Р. Малые дидактические жанры аварского фольклора.-Махачкала, 1974, Кербелите. К вопросу о диффузии жанров// Проблемы фольклора. –М.: Наука, 1975.,1975, с. 100.

<sup>15</sup> Прозаческие жанры фольклора. Народов СССР. –Махачкала, 1974.

<sup>16</sup> O‘zbek folklorining epik janrlari. – T.: Fan, 1981.





mifologiyaga yaqinlik sezilib turadi. Shuning uchun ham mifologik obrazlar, tushunchalar va elementlar folklorning epik janrlarida o‘z ahamiyatini bir oz saqlagan. Folklorshunos B.Sarimsoqov: “Mif, umuman, mifologiya borliq haqidagi insonning badiiy ijodi emas, aksincha, izchil sistemaga solingan tasavvurlar yig‘indisidir”<sup>17</sup>, deganida mifologik tushuncha va ramzlardan hosil bo‘la boshlagan poetik tasavvurlarni nazarda tutgan edi. Bunga xalq afsona va rivoyatlari ma’lum vaqt o‘tishi bilan o‘zlaridagi informativlik, ma’rifiy-axloqiy tarbiyaga yo‘naltirilgan vazifalarni ertaklarga muvofiqlashtirib, ijtimoiy-estetik funksiya bajarishga xizmat qilganligini ko‘rsatish o‘rinlidir.

Bizgacha yetib kelgan janrlar taraqqiyoti kuzatilar ekan, eng qadimgi ramzlar, empirik tasavvurlar, sodda motiv va syujet qurilmalar butunlay inkor etilmay, ularning izlari u yoki bu darajada saqlanib qolganligini afsona, rivoyat, qo‘shiq, ertak, tomishmoq, doston va boshqa janrdagi namunalar tarkibida saqlanib kelayotganligini ko‘rish mumkin. “Pahlavon Rustam” nomli ertak tarkibiga “Birovning yurtida shox bo‘lgandan ko‘ra, o‘zingning yurtingda gado bo‘l” tarzidagi maqol<sup>18</sup>, “Nima eksang, shuni olasan” naqli syujet voqealari bu nomdagi maqol mazmunini sharhlashi<sup>19</sup> va “Ayozi” nomli ertak syujeti tarkibi bir necha janrlarning o‘zaro moslashuvidan hosil bo‘lganligini misol keltirish mumkin.<sup>20</sup> O‘zga janr namunasi tarkibiga muvofiqlashgan janr elementi mazkur asarning g‘yaviy-estetik ta’sirchanligi yana ham kuchli bo‘lishiga xizmat qiladi. “Ayozi” nomli ertagidagi Ayozi, Chol va uning qizi o‘rtasidagi savol-javoblar topishmoq janrining metaforik shaklidir.<sup>21</sup> Chunki shartlilik asosiga qurilgan folklorning epik janri syujeti tarkibiga an’anadan kelib chiqqan holda boshqa motiv, epizod, syujet voqeasidagi muhim o‘rinlarini, maqol, topishmoq, qo‘shiq va boshqa elementlarni muvofiqlashtirish mumkin. Xalqda: “Mehmon – Xudoning elchisi”, “Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan” kabi mehmonga nisbatan yuqori izzat-hurmat an’anasi mavjud. Bu etnomadaniyat an’anasi xalq turmush kechirish taomiliga shu qadar

<sup>17</sup> Sarimsoqov B. Epik janr diffuziyasi. // O‘sha manba, 103-bet.

<sup>18</sup> Qari na’ matak. O‘zbek xalq ertaklari. – T.: Yosh gvardiya, 1990, 7-bet.

<sup>19</sup> Ko‘rsatilgan manba, 217-bet.

<sup>20</sup> O‘zbek xalq ertaklari. – T.: O‘zkompartiyasi nashriyoti, 1990, 7-bet.

<sup>21</sup> Ko‘rsatilgan manba, 14-15-betlar.





singib ketganligidan o‘zbeklarni boshqa millatlar “mehmondo‘st xalq” deb ataladi. Ushbu xususiyat o‘zbekning folklori orqali davom etib kelayotganligini ko‘rsatish joiz.

Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li repertuaridagi “Avazxonning o‘limiga mahkum etilishi” nomli dostonida xalqning mehmonga nisbatan ko‘rsatib kelayotgan hurmat an’anasi syujet voqealariga muvofiqlashgan.

Avaz Ahmad Sardorni arablardan qutqarib Chambilga olib kelayotganida unga Ahmad Sardor fitna uyushtirib o‘zini Avaz tomonidan haqorat qilingan deya Go‘ro‘g‘liga shikoyat qiladi. Avaz Ahmad Sardor tomonidan bu fitna uyushtirilayotganda bir kiyikni quvlab, odamlardan ajralib qolgan edi. Shunda Go‘ro‘g‘li ham voqeaning sababini surishtirmasdan Avazni orqavorotdan o‘limga hukm qiladi. Avaz bu tuxmatni fosh etish uchun borayotganida, yo‘l-yo‘lakay Qariya shoh mamlakatiga borib qoladi. U shaharda Chambildan bir vaqtlar arazlab ketgan Ashurbek sardorni uchratib qoladi. Avaz unikada mehmon bo‘lib turganida Qariya shohning josuslari uni Go‘ro‘g‘li o‘gli ekanligini bilishadi va Ashurbekning uyiga borib, undan Avazbekni tutib berishlarini talab qilishadi. Shunda Ashurbek Sardor va xotini Donagul: “Uyida panohtopgan mehmoni” Avazning boshi o‘rniga ikatta o‘g‘illarini so‘yib, uning boshini podshoh odamlariga olib chiqib bermoqchi bo‘ladidar. Avaz bu xarakatlarni sezib, ularni koyiganida, Ashurbek

Tutiyo ayladim, izingni tavob,  
Bunday ishga, Avaz, bergaysan javob,  
Seni mehmon dedik, izzat ayladik,  
Sening-chun o‘g‘lim boshin bergan savob,  
deydi.<sup>22</sup>

Tarixiy-folkloriy jarayon dinamikasida muvofiqlashuv hodisasiga bir xil maromda qarab bo‘lmaydi. Buni murakkab kompozitsiyali janr tarkibida muvofiqlashgan afsona, rivoyat naql, ertak, qo‘shiq, maqol, marosim folklori namunalari misolida kuzatish mumkin. Masalan, doston janri tarkibidagi boshqa janrga xos elementlar uning poetik xususiyatini yuksaltirish bilan birga, g‘oyaviy-estetik ahamiyatining kuchayishiga yordam berganligini “Alpomish”, “G‘o‘ro‘gli”

<sup>22</sup> Avazxonning o‘limga mahkum etilishi. Doston. –T.: Fan 1977, 58-bet.





turkumidagi “Avazxon kichik turkum dostonlari ham tasdiqlaydi.<sup>23</sup> Chunonchi, “Balogardon” dostoni syujeti chizig‘ida inson uchun yolg‘izlikdan og‘ir dard yo‘q ekanligini folklor an’anasi uslubida shunday ifodalanadiki, uni tinglagan, o‘qigan odamda og‘zaki ijod asarining mantiqiy ta’sir kuchiga yana bir bor tan beradi:

Bir otadan to‘rtni yarat, beshni yarat,  
Yolg‘iz yaratganga toshni yarat.  
To‘rtning biri o‘lsa, biri qolar boshiga,  
Yolg‘iz o‘lsa, kim keladi qoshiga.

Matal janriga xos misralar doston qahramoni ichki kechinmasi tarzida berilsa ham, u epik asar mazmun mohiyatini boyitishga xizmat qilmoqda. Dostonlarga muvofiqlashtirilgan bunday o‘rinlar ko‘plab uchraydi. Masalan, mazkur dostonda Avazning Balo bilan uchrashuvi epizodi bo‘lib, u xalq ertagi, afsonasi motivlarining syujet voqealariga qanday muvofiqlashgani va dostonning epiklik quvvatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etganligini ko‘rish mumkin. Mifik personaj Balo doston qahramoni aqli, tadbirkorligi va oqilligi qarshisida ojiz bir narsaga aylanishi folklorona tasvir bilan qiziqarli bayon qilingan.

“Avaz qarasa, bir jondor tos tepasi bilan yurib kelayotibdi, ikki buti osmonda objuvoz tuyib kelayotibdi. Sandalday, sandalday toshlarni upaday mayday-mayda qilib yanchib kelayotibdi”. Shundn keyin u Baloning qarshisida dovdirab qolmay, “yotib qolguncha otib qol” degan maqolga amal qilib, Chambilda o‘rgangan “ko‘xna qozoqi do‘qdan do‘q qilib” o‘zini Balogardon – Balo va uning yor-jo‘ralarini yeydigan qilib tanishtiradi.<sup>24</sup>

Dostonning ushbu epizodi orqali xalq ertaklaridagi an’anaviy sinov motivi muvofiqlashganligini ko‘rish mumkin. Ya’ni Avaz Balo bilan oq toshni siqib yog‘ini chiqarish, bitlarini solishtirish kabi shartlarini tadbirkorlik bilan bajarib, Baloni o‘ziga xizmatkor qilib oladi. Dostonning keyingi sarguzashtlarida Balo qahramonga yordamchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. U avazni yelkasiga mindirib, Bog‘i eramga olib boradi.

<sup>23</sup> Qarang: “Bahrom va Gulandom”. O‘XI. –T.; G‘.G‘ulom, 1986. Balogardon. O‘XI.-T.: G‘.G‘ulom, 1986 va boshqalar.

<sup>24</sup> Balogardon. O‘XI. –T.: G‘.G‘ulom, 1986, 24-bet.





Dostonning she’riy o‘rinlarida xalq aforizmlari ham muvofiqlashganligi, ular g‘oyaviy-badiylikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi:

Jafolar solganda tandagi jonga,  
Xazon bo‘lsa zog‘lar qo‘nar gulshanga,  
Ajalli kasratki tegar ilonga,  
Indan chiqib pishak bilan hazillar,  
Magar ajal qamsab kelsa sichqonga  
Jafolar solganda tandagi jonga,  
Xazon bo‘lsa zog‘lar qo‘nar gulshanga.<sup>25</sup>

misralari mazmuniga e’tibor berilsa, jon – uymoq ruh doimo tana – vujud tufayli azob chekishi yoki qurigan daraxt va o‘simliklarni bor boqqa bulbullar emas, balki qarg‘a-zog‘lar qo‘nim topadigan behosiyat joyga aylanishi haqidagi folklorona tushunchalar doston tarkibiga muvofiqlashganligi janrlararo munosabatlarning ahamiyati naqadar muhimligini ko‘rsatadi.

Janrlar tarkibiga boshqasining muvofiqlashish hodisasi folklor asarlariga xos bo‘lgan ko‘pfunksiyalilikning yuzaga kelishi uchun sabab bo‘ladi. Ayniqsa, epik turga mansub janrlarda mifologik tasavvurlardan tortib, xalqning axloqiy-ma’naviy qarashlari, falsafasi, turmush kechirish madaniyati, urf-odatlar, marosimlari va qolaversa, o‘tmish tarixiy sahifalarining izlari borligini kuzatish lozim. Buni birgina o‘zbek xalq qahramonlik eposi “Alpomish” dostoni misolida ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir.<sup>26</sup> O‘zbek folklori jonkuyari H.Zarifov xalq dostonlari tarkibiga muvofiqlashtirilgan bunday o‘rinlarni “xalq chechanligi bilan yedirilib yuborilgan” deya izohlangan edi.<sup>27</sup>

O‘zbek folklori janrlar tarkibi tarixi uzoq ildizga ega. Janrlar o‘zining spesifik xususiyatiga erishishi birdaniga emas, balki turli an’anaviy hodisa va holatlarga to‘la folkloriy jarayon taraqqiyoti qonuniyatlari asosida sodir bo‘lgan. Hozirgi og‘zaki merosdan joy olgan asarlar diffuziya, transformatsiya va muvofiqlashish kabi munosabatlar orqali muayyan shaklga kelgan. Bu haqda o‘zbek folklorshunosligi asoschisi Hodi Zarif “Devonu lug‘otit turk”dagi

<sup>25</sup> Balogardon. O‘XI. –T.: G‘.G‘ulom, 1986, 34-bet.

<sup>26</sup> Mirzaev T. “Alpomish” dostoni, uning versiya va variantlari // “Alpomish” - o‘zbek xalq qahramonlik eposi. – T.: Fan, 1999, 5-6-betlar.

<sup>27</sup> Zarifov H. Ajoyib doston // Fozil shoir. –T.: Fan, 1973, 57-58-betlar.





she’riy parchalar, qo’shiqlarni tarixiy-tipologik tahlil qilib, Mahmud Qoshg’ariy to‘plagan bu she’riy asarlar XI asrga qadar turkey xalqlar tomonidan kuylab kelinayotgan yirik aalarning qismlari bo‘lishi mumkinligini qayd etgan edi.<sup>28</sup> Demak, xalq epik janr namunalari tarkibidagi xalq marosim folklori an’analari, aforistik janrlar va xalq nasri elementlarining mavjudligi sababi ham tarixiy-folkloriy jarayon rivojlanishi qonuniyatlari natijasi ekan. O‘zbek qahramonlik epos – “Alpomish” dostonidagi mifologiya va ertak janriga dunyo, yer osti dunyosi kabi o‘rinlarining zindon bilan almashinishi folkloriy jarayonda reallikka intilishining ta’siri deb qarash kerak.

### **Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Пропп В.Я. Трансформация волшебных сказок, -в кн.: «Поэтика. Временник отдела словесных искусств», 1928, с.64;
2. Путилов Б. Историко-фольклорный процесс и эстетика фольклора // Проблемы фольклора.-М., Наука, 1975, с.12;
3. Короглы Х.Г. Трансформация заимствованного сюжета // Фольклор. Поэтическая система.-М., Наука, 1977, с.106;
4. Sarimsokov B. Epik janrlar diffuziyasi // O‘zbek folklorining epik janrlari. T.: 1981, B.95.
5. Samo tulpori. Sehrli ertaklar. – T., Yosh gvardiya. 1987. B-153
6. Shaxsiy arxiv material. 1982 yil, Samarqand viloyati, Payariq tumani, Chinobod qishlog‘ida yashovchi onaxon Buvnor Mavlon qizidan yozib olingan.
7. Jo‘rayev M. O‘zbeklarning mifologik tasavvurari. O‘zbek folklorshunosligi masalalari: Fan; T., 2010 yil. B-131.
8. “Teshiktosh”. Afsonasi gidrogeolog Asror Nizomov arxividan olingan. Yozib oluvchi: S.Alimov. Qo‘shrabod tuman, Oqtepa qishlogi, 1991 yil.
9. “Ketmontosh” afsonasini gidrogeolog A.Namozov shaxsiy arxividan yozib olingan. 1991 yil.
10. Bulbul taronalari. 5 tomlik. I-jild, - T., Fan, 1971.B-175.

---

<sup>28</sup> Ko‘rsatilgan kitob, 46-bet.







11. Luqmoni hakim. Ko‘p tomlik.-T.: G‘.G‘ulom nashriyoti 1990, B-5; Allomalar ibрати.-T.: Yosh gvardiya, 1982, Asotirlar va rivoyatlar.-T.: Yosh gvardiya, 1990 y.

12. Oltin olma. O‘XI Ko‘p tomlik, I-kitob.-T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1966.

13. Asotirlar va rivoyatlar. – T.: Yosh gvardiya, 1990. B-34-35.

14. Egamov X. Sayyor syujetlar. – T.: O‘zbekiston, 1979, B-7.

15. Mirzayev T. “Alpomish” dostoni, uning versiya va variantlari/

16. “Alpomish”-o‘zbek xalq qahramonlik eposi.-T.: Fan, B-18-21;

17. Musina G‘. O‘zbek xalq dostonlarida xotin-qizlar obrazi.-O‘qituvchi, T.: 1983, B-19.

18. Ravshan. Doston.-T.: O‘zFA nashriyoti, 1963, Alpomish, Rustamxon. Dostonlar.-T.: G‘.G‘ulom nashriyoti. 1985, B-349 va boshqalar.

19. “Alpomish” dostoni. Turkiy xalqlar versiyalari. “Muharrir nashriyoti.-T.: 2020, B-10-19.

20. Фольклор. Поэтическая система. Наука. М., 1977. с. 126.

21. Alimov S. Moziy qadriyatlar. “Sirli olam” jurnali, 11-son, 1994.

22. Malika ayyor. –T.: 1988, B-37-38; Og‘a Yunusning olib qochilishi.-T.: 1988, B-129

23. O‘zbek xalq ertaklari. – T.: O‘qituvchi, 1988, B-7

24. Ravshan. Go‘ro‘g‘li dostonlari. – T.: O‘zFA, 1963, B-40.

25. Alpomish. Rustamxon. Dostonlar.-T.: G‘. G‘ulom nashriyoti, B-356.

26. Qari na’matak. O‘zbek xalq ertaklari. –T.: Yosh gvardiya, B-36-196.

27. Turdimov Sh. “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari. Dkt.diss. T., 2011.





## BAXSHI SAN’ATINI O‘QITISHDA UZLUKSIZ TA’LIM INTEGRATSIYASI

**Oygu AXMEDOVA,**

*Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros  
ilmiy-tadqiqot instituti Ilmiy kotibi,  
filologiya fanlari nomzodi, professor v.b.*

**Annotatsiya:** *“Innovatsion texnologiyalar asosida baxshichilik maktablari uchun yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida olib borilgan ishlar xususida gap ketadi.*

**Kalit so‘zlar:** *baxshi, epos, doston, ta’lim, integratsiya.*

*Har qaysi xalqning azaliy tarixi va madaniyati, eng avvalo, uning og‘zaki ijodi - folklor san’atida, doston va eposlarida mujassam topgan bo‘lib, ular millatning o‘zligini anglash, uning o‘ziga xos milliy qadriyatlari va an’analarini saqlash va rivojlantirishda bebaho manba hisoblanadi.*

**Shavkat Mirziyoyev**

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti*

Mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilishning bugungi yangi bosqichida madaniyat va san’atning hayotimizdagi o‘rni va ahamiyatini oshirish, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ona yurtga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalash hamda maqom va baxshichilik san’atini muhofaza qilish, milliy qadriyatlarimizni keng namoyon etish bilan bog‘liq faoliyatini yanada takomillashtirish, nomoddiy madaniy merosni asrab-avaylash, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni yanada rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning baxshichilik san’atini rivojlantirish, uni ta’lim tizimida o‘qitish bo‘yicha bir qator qarorlari yuzaga keldi. Qolaversa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-





dekabrda “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-405-sonli qarori [1] qabul qilinishi baxshichilik sohasini nafaqat uzluksiz ta’lim tizimida, balki ilmiy-tadqiqot institutida ham chuqur o‘rganish masalalari kun tartibiga qo‘yildi.

Xalq: “Baxshilik el - botir”, deb aytgan. Bu shunchaki kelingan xulosa emas. Qadim-qadimdan baxshining jamiyatda tutgan o‘rni, xalqning ma’naviy, ijtimoiy hayotidagi mavqeidan kelib chiqib berilgan bahodir. Baxshilik san’atining paydo bo‘lishini xalq shoirlari:

*Soz bilan suhbatni yolg‘on demanglar,*

*Odam Ato bino bo‘lgandan bordir.*

*Hobil bilan Qobil Momo qornida,*

*Ular yer yuziga kelgandan bordir -*

deya, odamzod ibtidosi bilan bog‘lab talqin etishadi. Bu fikr qanchalik mubolag‘ali tuyulmasin, bir haqiqatni qo‘njida saqlagan. U ham bo‘lsa badiiy so‘z va kuyning odam nasli o‘zini anglagan davrdan beri borligi va baxshilik san’ati ham bilvosita unga daxldor ekanligidir [2].

Yuqoridagi fikrni o‘qir ekansiz, baxshilar ijodini mukammal o‘rganish, bu borada tadqiqotlar olib borish, xalq og‘zaki ijodi yodgorliklarini to‘plash, nashr etish, yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish, ta’lim tizimiga baxshichilik san’atini to‘laqonli olib kirish yuzasidan yana ko‘pgina chora-tadbirlarni amalga oshirishga ehtiyoj sezilayotganini his etasiz.

Baxshichilik va dostonchilik san’atini rivojlantirish, baxshi-shoirlar ijodining o‘zbek madaniyati va san’atidagi o‘rni hamda ahamiyatini yanada oshirish, shuningdek, o‘quv-uslubiy adabiyotlar yaratish, baxshichilik va dostonchilik san’atini ommaviy axborot vositalari, internet tarmog‘i orqali mamlakatimizda hamda chet ellarda targ‘ib etish, ustoz baxshilar, soha olimlari va mutaxassisleri, iqtidorli yosh baxshilar hamda doston ijrochilari faoliyatini moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, yosh avlodni mardlik, halollik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ona yurtga va ajdodlar merosiga yuksak sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 5-iyundagi 253-son buyrug‘i hamda “Ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi asosida ilmiy loyihani





bajarish to‘g‘risida”gi 2023-yil 12-iyunda taraflar o‘rtasida tuzilgan IL-662204254-son Shartnomaga muvofiq **“Innovatsion texnologiyalar asosida baxshichilik maktablari uchun yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish”** mavzusidagi amaliy loyiha tasdiqlandi.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-apreldagi 304-son “Baxshichilik va dostonchilik san’atini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish” qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan 2018-2022 yillarga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi” ning 5,6,7,8 bandlarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Samarqand Surxondaryo, Xorazm va Qashqadaryo, viloyatlaridagi ayrim bolalar musiqa va san’at maktablari qoshida baxshichilik va dostonchilik yo‘nalishi bo‘yicha ochiladigan sinflar uchun o‘quv reja va dasturlar asosida uslubiy qo‘llanmalar chop etish hamda media ilovalar va ko‘rgazmali vositalar bilan ta‘minlash, O‘zbekiston xalq baxshilari haqida qisqa va asosiy ma‘lumotlarni to‘plab, ularning portretlarini tayyorlash va joylardagi 312 ta bolalar musiqa va san’at maktablariga yetkazish vazifalari belgilangan.

Amaliy loyiha tasdiqlangan ish rejasiga ko‘ra 2023-yilning 22-23 sentabr kunlari loyiha a‘zolari Surxandaryo viloyati Termiz shahrida joylashgan Respublika baxshichilik san’atiga ixtisoslashtirilgan maktab internatning mavjud o‘quv-uslubiy ta‘minotini o‘rganib, tahlil qilib qaytdi. Shu bilan birga Respublikadagi mavjud bolalar musiqa va san’at maktablaridagi baxshichilik va doston ijrochiligi sinflarida mavjud o‘quv adabiyotlarni ta‘im standartlariga mosligi o‘rganildi, tahlil qilindi va sohadagi mavjud kamchiliklar aniqlandi.

Respublika baxshichilik markazi, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor arxivi materiallari asosida nashr etilayotgan “O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari” 100 jildligiga kiruvchi dostonlarning dastlabki 17 jildi misolida qo‘lyozmalari o‘rganildi hamda Respublikadagi kutubxona fondlarining baxshichilik san’atiga tegishli man‘balar tahlil etilid. Olib brilgan ishlarning natijasida yig‘ilgan materallarni 6-sinf o‘quvchilari uchun yaratilishi rejalashtirilgan “Mutaxassislik” va “Baxshichilik san’ati tarixi” fanlari bo‘yicha 2 ta darslik nashrga tayyorlandi. Darsliklarni o‘quvchilar yoshiga moslab tayyorlash jarayoni loyiha a‘zolariga oson bo‘lmaganini ham ta‘kidlab o‘tish joiz. Chunki mavjud ilmiy manbalar asosan monografiyalar, ilmiy tadqiqotlar ko‘rinishida





bo‘lgani sababali, bu materiallarni saralash, ularni o‘quvchilar yoshiga moslashtirish o‘ziga xos ish jarayonini tashkil etishin talab etdi. Bu yaratilgan darsliklar mavjud bolalar musiqa va san’at maktablaridagi baxshichilik va doston ijrochiligi sinflari o‘quvchilar uchun tayyorlangan ilk ish bo‘ldi. Ammo loyiha a’zolari o‘z navbatida darsliklarni tayyorlash bo‘yicha tajribaga ham ega bo‘ldilar. Kelgusida ushbu darsliklarni 7-8-9-10-11 sinflarga ham yaratish masalasi kun tartibida turibdi.

Yaratilgan darslik natijalarini may oyida Surxandaryo viloyati Termiz shahrida joylashgan respublika baxshichilik san’atiga ixtisoslashtirilgan maktab internatida abrobatsiyadan o‘tkazish ko‘zda tutilgan.

Xulosa qilib aytganda, sohada davlat boshqaruvining samarali olib borishi natijasida, bugun kunda madaniyat va san’atning barcha yo‘nalishlariga yangicha zamon ruhi kirib keldi. Endilikda turli xil adabiyotlarimizda milliy qadriyatlarimiz, an’analarimiz, yaqin va yiroq tarixning shonli sahifalarini o‘zida aks ettiruvchi asarlar paydo bo‘la boshladiki, xalqimiz, eng avvalo yoshlarimiz qalbida milliy g‘urur, milliy iftixor tuyg‘ularini shakllantirish, ularni Ona Vatanga muhabbat, umumbashariy qadriyatlarga hurmat, gumanizm g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash madaniyat va san’at yo‘nalishlarining asosiy vazifasiga aylandi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 25- dekabrda PQ-405-sonli “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.

2. Turdimov Sh. Poygada o‘zadi o‘zbekning oti... “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi 2013-yil 11-son.





## QAHRAMONLIK VA ROMANIK DOSTONLARIDA UMUMIYLIK

*Manzura NARZIQULOVA,  
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti  
katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi*

***Annotatsiya:** Maqolada “Alpomish” va “Bahrom va Gulandom”  
dostonlaridagi umumiy va o‘ziga xos xususiyatlari haqida batafsil  
yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Qahramonlik, romanik dostonlar, palang ot, oila.*

***Abstract:** The article describes in detail the common and specific  
features of the epics “Alpomish” and “Bahrom and Gulandom”.*

***Key words:** heroism, romantic epics, horse, family.*

Har bir xalq dostoni – u qahramonlik, romanik yoki tarixiy xarakterda bo‘lmasin, ma’lum darajada millatning ezgulik va yovuzlik, inson va tabiat, oila va jamiyat, sevgi va sadoqat, hayot va o‘lim haqidagi qarashlarini badiiy ifoda etadi. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li kuylagan “Bahrom va Gulandom” romanik dostonlar turkumiga mansub bo‘lib, unda ov, safar, yakkama-yakka kurash, jang epizodlari juda katta o‘rin egallaydi. Dostonda qahramonlik dostonlarining, xususan, atoqli shoir o‘zi kuylagan “Alpomish”ning ta’siri epizodlar, asar badiiyatida ham juda yaqqol sezilib turadi. Masalan, “Alpomish”da Qorajon Ko‘kaldoshni yenga olmasligini ochiq e’tirof etadi. Bu qahramonlik dostonlariga xos xususiyat fikrimiz isboti sifatida har ikki dostondagi an’anaviy ot egarlash epizodini qiyoslab ko‘rsak:

**“Alpomish”da:**

Osha elga oshgan tortar xo‘rlikni,  
Bek Alpomish qilar bugun erlikni,  
Bismillo, deb soldi otning ustiga  
Kimxobi mayindan bo‘lgan terlikni.

Mard bo‘lganlar qaraydakan durbini,  
Ustalar ishlatar po‘lat qirg‘ini,  
Shu zamonda soldo otning ustiga





Zarligu zarbobdan bo‘lgan chirgini.  
Chirgining ustidan qo‘ydi bellikni,  
Boz ustidan soldi jahaldirikni...[1;83]

**“Bahrom va Gulandom”da:**

Osha elga oshgan tortar xo‘rlikni,  
Dushman chiqsa Bahrom qilar zo‘rlikni,  
Shu vaqtda soldi otning ustiga  
Kimxobi mayindan bo‘lgan terlikni.

Er yigitlar mudom ko‘rar durbini,  
Ustalar ishlata po‘lat qirg‘ini,  
Shu vaqtida soldi otning ustiga  
Zarligu zarbobdan bo‘lgan chirgini.  
Chirgining ustidan qo‘ydi bellikni,  
Boz ustidan qo‘ydi jahaldirikni[2;16].

Yuqoridagi epizodlarning har ikkisida otni egarlash uning boshiga yugan solish bilan yakunlangan. Ehtimol diniy so‘zlar, tushunchalar o‘rtasidagi farqni davr taqozosi, hukmron mafkura ta’siri bilan izohlash mumkindir. Biroq bu epizodlarda so‘z, aniqrog‘i, epitet qo‘llash bilan bog‘liq farqlar borki, ular doston turlarining ichki tabiatidan kelib chiqqan deyish mumkin. Jumladan, “Alpomish” dostonida **tilla korson, qoshi oltin egar, tilla yugan deyilsa**, “Bahrom va Gulandom”da **tilla korson, olqormugiz egar, kumush yugan**, deyilgan.

Qahramonlik va romanik dostonlarda ko‘zga tashlanib turadigan farqlardan biri epik otdir. O‘zbek dostonchiligida eng mashhur epik otlar Boychibor va G‘irot bo‘lib, ularning epik tarixi juda mufassal bayon qilingan. Garchi Go‘ro‘g‘li turkumi dostonlari romanik turga mansub bo‘lsa-da, G‘irot obrazi bevosita qahramonlik dostoni va u orqali xalqning ot bilan aloqador qadimiy qarashlariga bog‘lanadi. Biroq G‘irot ishtirok etmaydigan barcha romanik dostonlarda qahramonning oti haqida qisqagina ma’lumot beriladi va ularning birortasi ham asar syujeti, g‘oyasining yuzaga chiqishi, badiiyatida Boychibor yo G‘irotdek ahamiyatga ega emaslar. **Bedov, tulpor** sifatlashlari va an’anaviy o‘xshatishlarni e’tiborga olmasa, ularning







oddiy baquvvat otlardan hech ham farqi yo‘q. Bu “Bahrom va Gulandom” dostonida ham ko‘zga tashlanib turadi:

“Shunda podshohning boquvda tarbiya topgan, yetti pushti **tulpor** otdan, bir oti bor edi. Shu vaqtgacha Bahrom uni hali minib ko‘rgani yo‘q edi.

Xisrav shoh: “Shu otni egarlab, choqlab, Bahromga keltirib bergin”, – dedi. Sohibi miroxuri egarlayin deb qoshiga bordi. Otning sag‘risi toshib, yoli qulog‘idan oshib, uchadigan qushday, quloqlari qamishday, yulduzni ko‘zlab, parvoz qilib, og‘zini tezlab turibdi”[2;16].

Doston bilan tanishgan har bir kishi bu otning an’anaviy sifatlashlaridan tashqari birorta epik xususiyati yo‘qligiga, uni egarlash motivi esa bevosita qahramonlik dostonlaridan ijodiy o‘zlashtirilganiga guvoh bo‘ladi. Xorazm ishqiy romanik dostonlarida esa epik ot o‘rnini oshiqning doimiy hamrohi bo‘lgan sozlar egallaydi. “Qahramonlik dostonida epik ot qahramonni mushkul ahvollarda qutqarib qolsa, Xorazm dostonlarida oshiq sozi tufayli g‘olib chiqadi. Xuddi Boychibor Alpomishning aniqlovchisi bo‘lganidek, soz ham Oshiq turkum dostonlari bosh qahramonining atributi bo‘ladi”[3]. Ertaklarda bo‘lsa, ot egarlash tasviri umuman uchramaydi.

Demak, “Bahrom va Gulandom” dostonidagi ot egarlash motivi ham ayrim o‘zgarishlar bilan bevosita qahramonlik eposidan o‘tgan, deya olamiz.

Ot kultiga aloqador qarashlar natijasida xalq og‘zaki ijodida otning epik badiiy timsoli paydo bo‘lgan. Jumladan, o‘zbek xalq dostonlaridagi G‘irot, G‘irko‘k, Boychibor, Jiyronqush, Majnunko‘k kabi epik ot obrazlari bunga misol bo‘la oladi. Folklorshunos olim Hodi Zarifov epik ot obrazidagi qanotlilik, palang ot va boshqalarni qiyosiy tahlil qilar ekan, tabiiy naslli otlarda mavjud sifat va xosiyatlarni folklorga xos bo‘rttirib, badiiy bo‘yoqlarda bezab ko‘rsatish, bunda totemistik qarashlar ham o‘z ifodasini topganligi hosilasi ekanligini alohida ta’kidlaydi[4]. Jangovor ot obrazini yaratishda otlarning real hayotdagi chopqirlik, epchillik, chidamlilik xususiyatlari, real hayotiy sifat va xosiyatlar keng miqyosda asoslangani, ulardagi fantastik elementlar ikkinchi darajali ahamiyatga ega, degan xulosaga keladi.

“Palang ot” yog‘ochdan yasalgan afsonaviy uchar ot bo‘lib, Hodi Zarifovning qayd etishicha, bu “yog‘och ot (palang ot, bodpoy) mohir





hunarmandlarning mehnati bilan yasaladi. Bunda yog‘och, metal, ba’zan qog‘oz ham ishlatiladi. Otning gavdasi qattiq yog‘ochdan, otni harakatga keltiruvchi murvatlar metaldan, qanotlari esa qog‘ozdan ishlanadi. Bu ot yerda yurmaydi, doim ko‘kda uchadi. Uning ko‘kka parvoz qilishi, uzoq masofalarga tez uchishi va yana yerga tushishi murvatlarning buralishiga bog‘liqdir”[5].

“Alpomish” dostoni singari “Bahrom va Gulandom” dostoni ham jahon xalqlari folklori uchun tipologik hodisa bo‘lgan farzandsizlik motividan boshlanadi. Farzand bo‘lmagach, oila bo‘lmaydi. Oila bo‘lmagach, insoniyat nasli qurib ketadi. Ko‘plab etnografik adabiyotlardagi ma’lumotlarga ko‘ra, qadimgi ajdodlarimiz farzandsizlikni tabiiy-biologik nuqson emas, balki ruhlarning qarq‘ishidan deb bilishgan. Ular kimningdir farzandsizligi butun tabiat va jamiyatga salbiy ta’sir ko‘rsatishiga ishonganlar. Xalq e’tiqodiga ko‘ra, farzandsizlik oxir zamon, qiyomatning ramzi bo‘lgan. “Bahrom va Gulandom” dostonida bunday qarash asar boshidanoq yarq etib ko‘zga tashlanadi:

Endi mening tirikligim gumon-a,  
Bozirgonman, ko‘zim to‘ldi tumana,  
O‘zim o‘lgan kuni oxir zamon-a.[2;5]

Kishining ismi o‘lgancha, joni o‘lmasligiga ishonch juda qadim zamonlardan mavjud bo‘lgan. Qadimgi turkiy ajdodlarimiz ham ismni kishining tarkibiy qismi, deb bilishgan. Biroq kishi befarzand bo‘lsa, bora-bora uning ismi ham unutilib ketadi. Bu esa, har ikki dunyoda eng katta baxtsizlikdir. Chaqaloqqa ism qo‘yish marosimi ifodasi ko‘pgina o‘zbek dostonlarida saqlanib qolgan. Biroq biz o‘rganayotgan dostonida bu motiv tushib qolgan. Shunday bo‘lsa-da, asarda **“Xisrav shoh yaxshi bino – joylar, gulzor – gulshan, chorbog‘lar solib, bolasini(ng) otini Bahrom qo‘ydi”**, degan qayd uchraydiki, bu epik xotirasida qadimiy qarashlar va inonchlar saqlanib qolgan baxshi va uning tinglovchilari uchun juda ko‘p ma’nolarni anglatadi.

Sevgi-muhabbat sarguzashtlari barcha qahramonlik va romanik dostonlarda u yo bu darajada o‘z ifodasini topgan. Shu sababli normal **oila g‘oyasi** romanik dostonlarning ham asosidir. Xalq dostonlarida oila g‘oyasi, insoniyat umrining davomiyligi, manguligini ifodalash yo‘lidir. Farzandsizlik, sevgi, jang, sarguzasht, safar, shart, musobaqa kabi o‘nlab yordamchi motivlar pirovard natijada ana shu g‘oyani





poetik shakl va mazmunda ifodalashga xizmat qiladi. Bu g’oya nafaqat dostonchilik, umuman o‘zbek xalq ijodining ham poydevori, rivojlanish shartidir. Shu sababli xalq ertaklari, dostonlari so‘ngida qahramonlarning murod-maqсадlariga yetishi, to‘y bilan, aniqrog‘i nikoh to‘yi bilan tugashi o‘zbek folklori uchun qonuniyatdir va “Bahrom va Gulandom” dostoni ham bundan mustasno emas. Chunki real hayotda ham nikoh oilaga asos soladi. Oila paydo bo‘lgach, farzandlar tug‘iladi, farzandlar hayotni davom ettiradi, jamiyat davomiyligiga sabab bo‘ladi. Dostonlardagi sevgi, do‘stlik, jasorat, vatanparvarlik mavzulari ham oila g‘oyasiga xizmat qiladi, deyishga hayotiy asosimiz shuki, agar oila bo‘lmasa, ularning birortasi ham yuzaga chiqmaydi. Shu sababli o‘zbeklarda **vatan** so‘zining **oila** ma’nosi ham bor. “Otdan oltov bo‘lsang, vatanningga yolg‘izsan” maqoli ota-onang qanchalik serfarzand bo‘lishmasin, sen o‘z oilangda qadrlisan yoki chinakam mavqega egasan, degan ma’noni anglatadi. Oddiy xalq “falanchi vatanli bo‘libdi”, deganda kimningdir uy-joy qurib, oilali bo‘lgani tushunishadi.

Oddiy xalq uchun **ideal** so‘zi tushuncha ham, erishish mavhum bo‘lgan voqelik ham emas. Balki farovon yashash, o‘tgan ajdodlar ruhini shod qilib, o‘g‘il-qiz ko‘rish, to‘ylar qilish, nabirali bo‘lish orzu-istagidir. Bu orzu-istakka esa ajdodlar qayta-qayta erishib kelishgan. Shu sababli o‘zbeklar o‘z niyatlariga yetishib, ma’lum bir yoshga kirgach, hatto o‘limga ham xotirjam, rozilik bilan tayyorgarlik ko‘ra boshlaydilar. So‘nggi yo‘lga ketishda ham o‘zidan keyin qoladigan oilasining qadrini chuqur his qiladi. Shuning uchun xalq ideali qanday darajada badiiy aks etgan bo‘lmasin, romanik eposlarning poydevori oila g‘oyasidan iboratdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Alpomish. O‘zbek xalq dostoni / Aytuvchi: Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, yozib oluvchi: M.Zarifov. – Toshkent: Sharq, 1998.
2. Bahrom va Gulandom (doston) / O‘zbek xalq ijodi. Aytuvchi: Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li. – Toshkent, 1986.
3. Ro‘zimboyev S. Xorazm dostonlari. – Toshkent: Fan, 1985.
4. Mirzayeva B. O‘zbek folklorshunosligi shakllanishi va taraqqiyotida Hodi Zarifovning o‘rni: filol. fan. b-cha falsafa dokt. ...diss. – Toshkent, 2022.





5. Zarifov H. O‘zbek xalq dostonlarining tarixiy asoslari bo‘yicha tekshirishlar / Po‘lkan shoir. O‘zbek xalq ijodi bo‘yicha tadqiqotlar. 4-kitob. – Toshkent: Fan, 1976. – B.65-99.

## “AVAZNING UYLANISHI” DOSTONINING PO‘LKAN SHOIR VARIANTI HAQIDA

**Munis JO‘RAYEVA,**  
*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va  
folklori instituti katta ilmiy xodimi,  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD).*

**Annotatsiya:** O‘zbek xalq dostonchiligidagi “Avazxon” nomi bilan bog‘liq epik syujetlar asosida yaratilgan dostonlarning aksariyati xalq shoirlarining ijodi mahsuli sanaladi. Bu tip dostonlarda Avazxonning Chambilga olib kelinishidan tortib uning uylanishi, ko‘rsatgan bahodirliklari keng tasvirlanadi. Jumladan, Avazxonning uylanishi bilan bog‘liq epik syujetlar asosida qurilgan dostonlarda xalq-oqibatlilik, el-yurtga sadoqat, insoniylik, sevgi va vafodorlik to‘g‘risidagi ezgu qarashlari o‘z badiiy ifodasini topgan. Maqolada chechan baxshi Muhammadqul Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan shoirning “Avazning uylanishi” dostoni haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** doston, repertuar, Avazxon, Go‘ro‘g‘li, baxshi.

**Аннотация:** Как известно, основные эпические сюжеты, связанные с «Авазхан» в народных дастанах, являются плодом своеобразного поэтического таланта узбекских народных сказителей и встречаются только в репертуаре представителей узбекских сказительских школ. В дастанах этого цикла широко повествуется эпическая биография героя, т.е. от момента прибытия Авазхана в Чамбиль, до его женитьбе и героических подвигах. В частности, в дастанах, основанных на эпических сюжетах, связанных с героическими походами Авазхана, своё художественное отражение нашли такие благородные идеи, как милосердие, преданность Родине, человечность, любовь и верность. В статье рассказывается об дастане «Женитьба





*Аваза» проницательного бахши Мухаммадула Джанмурада оглы Пулкан.*

**Ключевые слова:** *энос, репертуар, Авазхан, Гороглы, бахши.*

**Abstract:** *As you know, the main epic stories associated with “Avazkhan” in folk dastans are the fruit of a peculiar poetic talent of Uzbek folk storytellers and are found only in the repertoire of representatives of Uzbek storytelling schools. The epic biography of the hero is widely narrated in the dastans of this cycle, i.e. from the moment Avazkhan arrived in Chambil, to his marriage and heroic deeds. In particular, in dastans based on epic stories related to the heroic campaigns of Avazkhan, such noble ideas as mercy, devotion to the Motherland, humanity, love and fidelity found their artistic reflection. The article tells about the dastan “The Marriage of Avaz” by the insightful bakhshi Muhammadkul Janmurad oglu Pulkan.*

**Key words:** *epic, repertoire, Avazxon, Gorogly, bakhshi.*

Asrlar davomida chechan baxshilarimiz tomonidan kuylab kelingan, donishmand xalqimizning yuksak badiiy salohiyati aks etgan muhtasham epos namunalari eng sara ezgu qadriyatlarimiz sanalib, bunday nodir nomoddiy madaniy merosni yanada chuqurroq o‘rganish, tadqiq etish millatimizning o‘ziga xos mentalitetining yorqin qirralarini ochib beradi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: “Dostonchilik va baxshichilik – milliy g‘ururimiz. Uning zamiridagi ezgu qadriyatlarni xalqimizga yetkazish lozim”[1], deb ta’kidlaganidek, ajdodlardan meros benazir nodir durdonalarni tadqiq va targ‘ib etish milliy ma’naviyatimizni yuksaltirish borasida hamisha dolzarblik kasb etadi.

Bilamizki, xalq dostonlari mavzu jihatidan xilma-xil bo‘lib, ular orasida necha-necha yillar davomida epik ijodkorlar tomonidan sevib kuylab kelingan “Go‘ro‘g‘li” turkumiga mansub dostonlarning o‘rni beqiyos. Nafaqat o‘zbek folklori, balki O‘rta Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari og‘zaki ijodida alohida o‘rin tutgan “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlar mohiyatan juda ko‘p qadrli an‘analar mujassamligi, g‘oyaviy mukammalligi, mazmunan boyligi, badiiy jihatdan yuksakligi bois bu qadar keng tarqalib, uzoq yillar davomida yashab kelmoqda.





“Go‘ro‘g‘li” turkumiga mansub, o‘zbek dostonchiligida mashhur bo‘lgan “Avazxon”, “Avazning arazi”, “Avazning uylanishi”, “Qunduz bilan Yulduz”, “Bo‘tako‘z”, “Intizor”, “Zulfizar”, “Gulixiramon”, “Malikai ayyor”, “Balogardon” kabi dostonlar Avazxon nomi bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu dostonlarda Avazxonni bosh qahramon sifatida ko‘rish mumkin. Mazkur dostonlarda o‘zbek xalqining sevimli qahramoni Avazxonning biografiyasi yoritiladi, aniqrog‘i Go‘ro‘g‘lining Avazxonni Chambilga olib kelishidan tortib, uning mardonavor jangu jadallari, bahodirlik safarlari, turli afsonaviy mamlakatlarning go‘zallarini olib kelishdagi jasoratlariga qadar hikoya qilinadi. Garchi Avazxon haqidagi dostonlar alohida turkumlikni tashkil etsa-da, ularda Go‘ro‘g‘li yetakchi obraz sifatida ishtirok etadi. “Avazxon” turkumligida ikkala obraz bir-birini to‘ldirgan holda, Avazxon otasi xizmatiga hamisha shay bo‘lgan mard va jasur, sodiq farzand, deya ta’riflansa, Go‘ro‘g‘li farzandi uchun qalqon bo‘la oladigan, uning mushkulini oson qilish uchun jonini ham ayamaydigan mehribon ota sifatida gavdalanadi.

Ma’lumki, Go‘ro‘g‘li turkumidagi dostonlardan eng ko‘pini atoqli baxshi Muhammadqul Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan shoir kuylagan. Uning turkumlikdagi ijodiy meros sanalmish har bir dostonida o‘ziga xos rang-barang voqea-hodisalarning mohirona tasvirlanishini, badiiy mukammallikni kuzatish mumkin. Chechan baxshi Muhammadqul Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan ijrosidagi “Avazning uylanishi” dostoni “Avazxon” biografik turkumligida alohida o‘ringa ega ishqiy-romanik doston bo‘lib, unda Avazxonning qahramonligi va sarguzashtlari tasvirlangan.

Mohir so‘z ustasi Po‘lkan shoir kuylagan “Avazning uylanishi” dostoni O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor arxivida 31-inventar raqami ostida saqlanadi.[2] 286-betdan iborat qo‘lyozma qattiq muqovali, ko‘k rangli kitob shaklida bo‘lib, qora rangli siyoh bilan arab alifbosiga asoslangan eski o‘zbek yozuvida bitilgan. Ushbu epik asar 1927-yilda folklor to‘plovchi Muqim Hamzabekov tomonidan Navoiy viloyatining Xatirchi tumanidagi Qatag‘on qishlog‘ida yashovchi Muhammadqul Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan shoirdan yozib olingan. Doston noma’lum sabablarga ko‘ra, yakunlanmagan. Biroq chechan baxshi repertuaridagi “Avazning uylanishi” dostoni voqealarning boyligi, bosh qahramon va yordamchi





epizodlarning xususiyatlarini ochib berishdagi mahorat, badiiy tasvir vositalarining ko‘p va xo‘p qo‘llanilishi kabi qator yuksak jihatlarini bo‘is mazmunan mukammal sanaladi. Shu sababli ham mazkur qo‘lyozma “O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari” 100 jildligining 28-jildiga kiritilib, nashr qilingan[3].

Doston syujeti qiziqarli voqealar asosida muntazam ravishda bir-biriga ulanib rivojlana boradi. Asarda Chambilning ikki parisi: Yunus va Misqol parilarning Go‘ro‘g‘lini asossiz rashk qilishlari oqibatida Qo‘hi Qofga G‘irotini olib qochib arazlab ketishlari va ularni Avazxon yurtiga qaytarib olib kelish maqsadi bilan boshlangan sarguzashtlari bayon qilinadi. Dostondagi Avaz obrazi orqali yuksak insoniylikning ifodasini ko‘rish mumkin. Parilar ketganidan so‘ng ham otidan ham xotinlaridan ajralgan Go‘ro‘g‘lining og‘ir tushkunligi, el-yurt tinchligi xavfdaligini ko‘rib, o‘z farzandlik burchini ado etishga, vatani osoyishtaligi yo‘lida qalqon bo‘lishga chog‘lanadi. Bu mashaqqatli yumush ekanligini bilsa-da, mardlarcha hech qachon chekinmaydi, cho‘chimaydi. Chunki, Chambil xoni, yurti, xalqini G‘irotsiz tasavvur qilib bo‘lmasdi. Rashk motivi bilan boshlangan voqealar rivoji safar motiviga ulanadi. *Besh yuz yillik* masofadagi Eram yurtiga otlangan Avazxon dastlab mifologik personaj – dev bilan to‘qnashadi. Shoir devni *chaqaloq* deb ataydi va o‘sha chaqaloq ta’rifini keltiradi: “...past yoqdagi qulog‘i o‘ttiz qo‘yning terisidan bo‘lgan *supraday*, baland yoqdagi qulog‘i ellik gaz surpdan bo‘lgan *ko‘rpaday*. Burni *qirday*, kavagi *g‘orday*, ko‘zi do‘ltaning *iniday*, tishining kavaklari pokining *xiniday*, soqoli, bo‘yinlarining yungi chakalak gujumday bo‘lib yotibdi. Bo‘ri, ayiqlar soqolida soyalab yotibdi”. Chechan baxshining alleteratsiya, o‘xshatish, mubolag‘a badiiy tasvir vositalarini qo‘llab mahorat bilan tasvirlagan devdan Avaz cho‘chimaydi. Shoir ijodiy salohiyatining yuksakligi shundaki, bosh qahramon - Avaz ana shunday ta’riflangan maxluqni yengadi. Dev va Avaz o‘rtasidagi musobaqa sinovni kuch sinash emas, aqliy tortishuv deyish mumkin. Garchi dev jasadi bahaybat, o‘zi vajohatli bo‘lsa-da, Avaz uni insonga xos mantiqan fikrlash, uddaburonlik, jasurlik, topqirlik kabi xislatlarini bo‘is bo‘ysundiradi. Bu o‘rindagi sinov motivining yechimida qahramon yanada ideallashadi, unga yuklangan jasorat, tadbirkorlik tasdiqlanadi.

Avazxon Eram bog‘i sari yo‘lda davom etarkan, uning oldidan nafsining quli, el-yurtiga xiyonatkor, parilarning yolg‘oniga uchgan





Gajdumxon chiqib qoladi. Dostonda bu obraz shunday ayanchli: ko‘zlari o‘yib olingan ko‘r, manglayi sho‘r, “bir pul berib o‘t, yo kulcha berib o‘t”, - deb zorlangan tilanchi holatida tasvirlanadi. Qanchalik yomon ish qilgan bo‘lmasin, uning bu tarziga Avazning rahmi keladi. Ushbu obraz orqali baxshi tarbiyaviy g‘oyani ilgari suradi. O‘z vataniga xiyonat qilgan Gajdumxon o‘zga yurtidan rohat - farog‘at istaydi. Biroq har qanday zamonda ham bunday istak xoru zorlik keltirgan. Obrazning xatosiga iqrori ibrat sifatida ko‘rsatiladi.

Dostondagi opa-singil yovuz kampirlar obrazi qahramon yo‘liga to‘siq bo‘lmoqchi esa-da, ularning yomonligi o‘z boshiga yetadi. Bu bilan baxshi ezgu maqsad yo‘lida hech qanday to‘siq g‘ov bo‘lolmasligini hamda qahramonning yana bir bor zehnli ekanligini namoyon qiladi.

Doston davomida qahramon Eram bog‘iga kiradi, onalari bilan ko‘rishadi. Qattiq arazlagan Yunus pari Avazni hiyla bilan Tilbilmas eliga jo‘natadi. G‘irotni mingan Avaz u yerda To‘xtamish dev bilan to‘qnashadi. Bahaybat devni yengish uchun Avaz G‘irotidan maslahat so‘raydi:

Sen g‘ayrat qilmasang egang o‘ladi,  
Arvohim chirqillab g‘arib bo‘ladi,  
Tos tepamga aylantirib soladi,  
Gulqizning ahvoli qanday bo‘ladi,  
Nazarkarda jonivor bergin maslahat.

Dostonning shu o‘rnida baxshi tomonidan G‘irotning afsonaviy zotligi, uning qahramonga zarur ko‘makchi, maslahatgo‘y ekanligi ta’kidlanadi. Otga nisbatan “nazarkarda zot” sifatlashini ishlatadiki, bu sifat qahramon otining qandayligini namoyon etadi. Qolaversa, ot ta’rifini keltirish bilan shoir mubolag‘a, sifatlash, jonlantirish badiiy vositalarini qo‘llab, tinglovchi ongida voqealar tavsilotini yorqin gavdalantiradi. Odam gapiga tushunadigan, maslahat berish qobiliyatga ega, qush misol qanot yoza oladigan otining yordami bilan Avazxon To‘xtamish devni yengadi.

Doston so‘ngida Avaz Misqol pari tunda: “O‘n besh kunlik oyday yuzi balqib, shaharni yop-yorug‘ qilib ketadi”, - deb ta’riflagan Orzugulga erishadi.

Xulosa qilib aytganda, “Avazning uylanishi” dostonini o‘qir ekanmiz, Avaz timsolida mashaqqatli yo‘lidagi har qanday to‘siqlarni







yenga oladigan, o‘z maqsadiga sobitqadam barkamol obrazni ko‘rish mumkin. Yurti parokanda bo‘lishi oldini olgan, oilaviy munosabatlarni tiklashga harakat qilgan, otasi qayg‘usini aritishni o‘zining farzandlik burchi deb bilgan Avaz obrazi chin ma’noda qahramon sifatida namoyon bo‘ladi. Uning ana shunday xususiyatlarini chechan shoir quruq bayon bilan emas, harakat-u amallari orqali ko‘rsata bera olgan. Ana shunday buyuk so‘z mahorati egasi, epik xotirasi beqiyos bo‘lgan xalq baxshilari kuylagan har bir doston yuksak ma’naviy-axloqiy g‘oyalarni o‘zida mujassamlashtirgan. Ularning epik ijodi zamiridagi ezgu qadriyatlar bugungi va ertangi kun egalari uchun muhimu munosib ma’naviy meros ekanligi shubhasiz!

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Istiqbolli loyihalar xalqimiz farovonligiga xizmat qilmoqda. // Xalq so‘zi. – 2018.
2. O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor arxivi. Inv.№ 31.
3. O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari. Avazxon. 28-jild. Toshkent.: G‘afur G‘ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi. 2023.





## ЗНАЧИМОСТЬ ИСКУССТВА БАХСЫ И ЖИРАУ В ВОСПИТАНИИ ДУХОВНО РАЗВИТОГО ПОКОЛЕНИЯ

**Шахида БЕРДИХАНОВА,**

доктор философии по искусствоведению (PhD), и.о. доцент  
кафедры «История и теория узбекского макома»

Института узбекского национального  
музыкального искусства им. Ю.Раджабий,

Узбекистан г.Ташкент

[shahida88@bk.ru](mailto:shahida88@bk.ru)

**Аннотация:** В статье рассматривается искусство сказителей, представлен краткий исторический обзор традиции исполнительства каракалпакского эпического наследия, затрагиваются вопросы научно-теоретического освещения и необходимость внедрения в учебно-образовательный процесс изучение музыкального искусства баксы и жирау.

**Ключевые слова:** Каракалпакская музыка, искусство, сказитель, традиция, исполнительство, дастанное творчество.

**Annotatsiya:** Maqolada dostonchilik san’ati, qoraqalpoq epik ijrochilik an’analari borasida qisqacha tarixiy ma’lumotlar yoritilgan. Muallif shuningdek, qoraqalpoq musiqa san’atini ilmiy nazariy o’rganish, baxshi va jirov musiqa san’atini o’quv jarayoniga tadbiriq etish borasidagi ayrim masalalarga xam tuxtalib o’tgan.

**Kalit so’zlar:** Qoraqalpoq musiqasi, san’at, an’ana, ijrochilik, dostonchilik ijodi.

**Abstract:** The article examines the art of storytellers, presents a brief historical overview of the tradition of performing the Karakalpak epic heritage, touches on issues of scientific and theoretical coverage and the need to introduce the study of the musical art of baksy and zhiru into the educational process.

**Key words:** Karakalpak music, art, storytellers, traditions, performers, epic creativity, folklore.

В Новом Узбекистане особое внимание уделяется вопросам воспитания гармоничного развития молодёжи, формированию в





них чувства патриотизма, уважения национальных традиции и ценностей, о котором не раз утверждал, глава нашего государства Шавкат Миромонович Мирзиёев. Как отметил президент: «...один из важнейших вопросов, который всегда нас волнует, касается нравственного облика нашей молодёжи, ее мировоззрения... Мысль о том, кто мы, потомками каких великих предков мы являемся, пусть всегда отдается эхом в ее сердцах и призывает быть приверженными национальному самосознанию. За счет чего мы достигнем этого? Только благодаря воспитанию, воспитанию и только воспитанию» [1]. Эти задачи представляю собой особую значимость в период стремительного развития времени, и возлагает большую ответственность в сферу образования. В этой связи, изучение и внедрение в образовательный процесс искусство каракалпакских народных сказителей имеет немаловажное значение.

История возникновения искусства сказителей в целом, уходит в глубокую древность. Благодаря сказителям веками, а подчас тысячелетиями в устной форме сохранились легенды и предания, передававшиеся от поколения к поколению, от народа к народу. Первые шаги в изучении и записи устного творчества были сделаны в XIX веке, такими учеными, как Армин (Герман) Вамбери, Чокан Валиханов, Абубакир Ахмеджанович Диваев, Василий Васильевич Радлов, заложившими базу для последующих исследований эпоса в XX столетии.

Следует отметить, что в отличие от других народов центральноазиатского региона, в каракалпакском эпическом наследии исторически сложились две исполнительские традиции дастанного творчества – *бахсы* и *жырау*, которые сохраняются и в настоящее время. Необходимо подчеркнуть, что *бахсы* и *жырау*, являются ведущим направлением творческой деятельности каракалпаков, олицетворяющих специфику музыкального языка каракалпакского эпоса. *Бахсы* исполняют в основном дастаны лирического содержания, а *жырау* – героического. Музыкальным инструментом *бахсы* является дутар, а у *жырау* – кобыз [4,32].

Известно также, что и среди других народов Средней Азии и Казахстана с ранних времен бытовало искусство *жырау*. О популярности исполнительской традиции *жырау* среди тюркских





народов писали в XIX веке известные ученые Н.Т. Ильинский, В.В.Радлов, И.М. Буданов, Ч.Ч.Валиханов. В своих исследованиях они убедительно доказали что слово «жырау» («сказитель») произошло от слова «жыр» («эпос», «эпическая поэма»), а слово «жырлау» обозначает «исполнять эпическую поэму под аккомпанемент кобыза».

Эпическое наследие центральноазиатских народов имеют много общего и связаны, как указывалось, с древним эпическим памятником «Книги моего деда Коркута». Как отмечает И.Сагитов: «Многие каракалпакские эпические поэмы по своему содержанию, сюжету очень схожи с эпическими произведениями казахского и узбекского народов». В качестве примера можно привести эпосы «Алпамыс», «Коблан», «Шэрьяр». И.Сагитов отмечает сходство ряда эпизодов и образов эпоса «Шэрьяр» с казахским эпосом «Мунглик-Зарлык», «Маспатши» и «Кыз Жипек», что, несомненно, находит свое отражение в художественной и обще композиционной основе каракалпакских дастанов.

В последний период в Узбекистане особое внимание уделяется развитию культуры, в частности музыкальному искусству и восстановлению эпического наследия, что, безусловно, послужило стимулом для развития и обогащения культуры Узбекистана. В Указе Президента Республики Узбекистан «О проведении международного фестиваля искусства бахши» определены такие актуальные задачи, как сохранение и развитие образцов национального узбекского искусства бахши и дастана (сказителей), воспитание в сердцах молодежи уважение и внимание к данному виду искусства, укрепление дружбы и братства между различными народами, дальнейшее расширение творческого сотрудничества, духовно-культурных отношений на международном уровне. «Исконная история и культура любого народа олицетворяются, прежде всего, с его устным творчеством – фольклором, народным эпосом и является бесценным источником в сохранении и развитии национальных ценностей и традиций» [2] делает актуальным вопрос исследования устного народного творчества, которая составляет базовую основу богатейшего духовного наследия каракалпакского народа. Также,





наиболее актуальным стоит вопрос о внедрении в учебно-образовательный процесс основательное изучение традиционного музыкального наследия и их представителей, обучение подрастающего поколения на основе исконно национальных традиции во благо сохранения и дальнейшего развития музыкального наследия. В этом отношении, утверждение проекта «Создание на основе инновационных технологии нового поколения учебной литературы для специализированных школ бахши» способствовало широкому освещению и интеграции творчества бахши, впервые на основе научных трудов филологов и музыковедов созданию и внедрению в систему специализированного образования учебной литературы, что послужило достойной реализацией Указа Главы Государства по развитию данной области.

Резюмируя, отметим, что изучение творческого наследия жырау и бахсы, представляется одним из основных средств воспитания молодого поколения прививая в них любовь к родине, музыкальному наследию передающегося из поконов веков, от уст в уста, а их мелодии доставляют им эстетическое наслаждение являющейся на сегодняшний день актуальным вопросом мирового значения.

#### **Список литературы:**

1. <https://president.uz/ru/lists/view/651>
2. Постановление Президента Республики Узбекистан от 1 ноября 2018 года «О проведении международного фестиваля искусства бахши» ПП–3990. Электронный ресурс: <https://nrm.uz>
3. Абдуллаев Р. Обряд и музыка. – Т., 2008.
4. Бердиханова Ш.Н. Метроритмические основы каракалпакских дастанов. Автореф..дисс (PhD). – Т., 2022., 52 с.





## O‘ZBEK XALQ DOSTONLARINI JONLI IJRO HOLATIDA YOZIB OLISH VA ILMIY O‘RGANISH ISHLARI

**Barno MIRZAYEVA,**

*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va  
folklori instituti katta ilmiy xodimi,  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).*

**Annotatsiya:** *Maqolada baxshi shaxsi hamda uning ijrochilik va ijodkorlik mahoratiga alohida e’tibor bergan folklorshunos olim Hodi Zarifovning ilmiy qarashlari haqida so‘z boradi.*

**Kalit so‘zlar:** *baxshi, doston, jonli ijro, yozib olish, dostonchilik maktablari.*

**Abstract:** *The article talks about the scientific views of the folklorist scientist Khodi Zarifov, who paid special attention to the personality of the bakhshi and his performing and creative abilities.*

**Key words:** *bakhshi, epic, live performance, recording, epic schools.*

Dostonchilik san’ati, undagi ijrochi va ijodchilarning repertuari, ijro usullari ijodiy mehnati bilan jonli og‘zaki ijro sharoitlarida yuzaga keldi, shakllandi va rivojlandi. Folklorshunos olim To‘ra Mirzayev bergan ma’lumotlariga qaraganda, XIX asrning oxiri va XX asrning boshlari dostonchilikning eng gullagan, ijro usullarining g‘oyatda professionallashgan va mukammallashgan davri hisoblanadi.

Hodi Zarifov folklor namunalarini baxshilar, ertakchilar, qo‘shiqchilar va boshqa ijodkor-ijrochilar og‘zidan aynan, o‘zgartirmay, aytuvchi shevasida yozib olish ishini boshlab bergan olimdir. Folklorshunos olim 1923-yildan folklor va etnografiya materiallarini yozib olish maqsadida folklor ekspeditsiyalarini uyushtirib, barcha janrlarga oid folklor asarlarini yozib olish ishini tashkil etdi. O‘zbek xalq dostonlarini jonli ijro sharoitida to‘la ravishda, bevosita ijrochi shevasida yozib olish ishlarini esa 1925-yilning oxirlaridan boshlab berdi. O‘sha davrdan boshlab olimning tashabbusi bilan o‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodi namunalarini jonli ijro holatida yozib olish, nashr etish va ilmiy o‘rganish ishlari amalga oshirildi.





Birinchi marta xalq shoirlarining ijodi ilm ekanligini aytib o‘tgan Hodi Zarifov hamda V.M.Jirmunskiy o‘zbek baxshilari haqida shunday deydi: “Har qanday xalq poeziyasi, jumladan, xalq qahramonlik eposi, o‘ziga xos jonli og‘zaki an’ana sharoitida rivojlanadi, bunda yoddan ijro etish qisman ijodiy badihago‘ylik bilan bog‘liq. Shu tariqa, xalq baxshisi siymosida badiiy asar ijrochisi va uning ijodkori (yoxud, kamida, hammuallifi) gavdalanadi. Shu sababli xalq poeziyasini tushunish uchun uning yashash sharoitlarini, avvalambor, xalq ijodkorlari – bir vaqtning o‘zida muallif va qo‘shiq ijrochilari bilan tanishish katta ahamiyatga ega”[1;23].

U birinchi marta epik repertuarining tarqalish va yashash sharoitlarini, xalq san’atkorlarining ijodi va ijrochilik faoliyatini tadqiq qildi. Xalq baxshilarining ijodini o‘rganishning ahamiyati ularning repertuaridagi dostonlarni yozib olish bilan birdek, deb hisobladi. Olim xalq ijodi namunalarini uning ijrochilari va ijodkorlari bilan birgalikda o‘rganish zarurligini ta’kidladi.

Hodi Zarifov ekspeditsiyalarga borgan hududlarida xalq baxshilarini, shoirlarini, qo‘shiqchilarini izladi, ularning ijodini, repertuarini yozib oldi. Hodi Zarifov ilk to‘plovchilik faoliyatida Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Muhammadqul Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan kabi mashhur baxshilarni aniqlashi, ular bilan do‘stlashuvi natijasida boy materiallar yig‘ildi. “...O‘shandan beri Samarqand hamda Buxoro viloyatlari, Farg‘ona vodiysi, Xorazm va respublikamizning boshqa joylaridan turli to‘plovchilar tomonidan 56 ta syujet va 25 aytuvchi o‘rtasida tarqalgan eski repertuardagi 80 ga yaqin epik asarlar yozib olindi” [1;20]. Bu ma’lumotlar og‘zaki ijodning yashovchanligiga ilmiy baho berishda kerakli hujjat ekanligini angladi. Xalq dostonlari xalq orasida og‘zaki yashadi va bizgacha etib keldi. Dostonlarning bizgacha etib kelishida uning ijrochilari – baxshilarning xizmatlari katta.

Olim baxshilar hayoti hamda ijodiga oid qimmatli ma’lumotlar to‘pladi. Folklor arxivida saqlanayotgan baxshilar haqidagi materiallar orasida uning 1942-yil 13-avgustda Toshkentda Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan yozib olingan Ollanazar baxshi haqida hamda Tuyoqli urug‘idan Mamat Manqa baxshi haqida transkripsiya bilan ma’lumotlari mavjud[2]. Ushbu ma’lumotni qo‘lyozmada qanday bo‘lsa, asl hoida berishni lozim topdik: “Jämänjarda (Bödänädä)





Tuyāqli uruvidan Mā:mat Manqa baxshi degān bāridi. Mā:mat Manqa baxshi qobuzam tārtārdi, do‘mbirayām chertārdi, dāstānām āytardi. Ādamam bāg‘aridi. Ādamnar Mā:mat Manqa degich edi. Ul jaqin qishlāqta uyalg‘ānidan uzāq-uzāq qishlāqlarg‘a bārip ādam bag‘āridi”. Bu yozib olingan ma’lumotga qaraganda, baxshida qushnochlik xususiyatlari ham bo‘lib, tabiblik ham qilib odamlarni davolagan. Xalq orasida baxshi so‘zini shaman, qushnoch, parixon ma’nosida ham qo‘llangani bejiz emas.

Atoqli olim mahoratli baxshilarning ijodi xalqning necha asrlar davomidagi orzu armonlarini, tarixini, dono so‘zlarini yetkazgan ensiklopedik meros ekanligini angladi. Hodi Zarifov dostonchiga ijodchi sifatida qarab original kuzatishlar olib bordi. “Natijada traditsiya va improvizatsiya, dostonchilik maktablari va turli sotsial muhitdagi ijrochilik sharoitlarining o‘zaro munosabatlari, aytuvchi tarbiyalangan muhit va uning epik repertuariga ta’siri, ustoz va shogird tutish, kuychi va uning tinglovchilari, xalq dostonlarining yashash va tarqalish sharoitlari masalalarida muhim kashfiyotlar qildi. Tadqiqotchining to‘g‘ri pozitsiyada turishi dostonchilar uslubi bilan bir-biridan farq qilishini aniqlashga, ularning har biriga xos individual ijodiy xususiyatlarni belgilashga imkon berdi. Har bir dostonchi va dostonchilar guruhining o‘ziga xos poetik yo‘li, stili borligini o‘zbek folkloristikasida birinchi bo‘lib aniqlagan olim uni shartli ravishda baxshilar maktabi deb atadi va Qo‘rg‘on, Bulung‘ur, Shahrisabz kabi dostonchilik maktablarining spesifik xususiyatlarini yoritdi. Xorazm dostonchiligining o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini qayd etdi”[3;11].

Ulkan san’atkorlarning aniqlanishi bevosita Hodi Zarifov nomi bilan chambarchas bog‘liq. Baxshi-shoirlar hayoti va ijodi, ijrochilik va ijodkorlik mahorati, ular tomonidan kuylab kelingan dostonlarni hamda ular haqidagi ma’lumotlarni yozib olish va tadqiq qilish olim ijodida alohida o‘rin egallagan. Hodi Tillaevich Zarifov to‘plagan juda boy materiallar doston kuylash tartibi, kuychi va uning tinglovchilari, ustoz va shogird munosabatlari, traditsiya va improvizatsiya, dostonchilik maktablari, an’ana va badiha kabi qator masalalarni yoritishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Hodi Zarifov xalq baxshilarining faqat repertuari bilangina cheklanib qolmaydi. U baxshining dunyoqarashi, badiiy tafakkuri, fe’l







atvori-yu ichki dunyoqarashigacha chuqur o‘rgandi. Xalq baxshilari muhim bir maktabni o‘tagan xalq daholari ekanini Hodi Zarifov o‘z vaqtida payqadi. Hodi Zarifov xalq baxshilarining mahorati haqida fikr yuritib shunday deydi: “Ergashda qofiyalar rang-barang. U radifdan foydalanish bilan barobar qiyin shakllarni ham topib, ishlata biladi. Ergash dostonlaridagi vazn ham boshqa dostonchilarimizga nisbatan boyroq. Ergash katta talant egasi ekanini uning asarlarida ko‘rish qiyin emas”[4;23]. “Fozil shoir o‘zbek xalq dostonchiligida ulkan san’atkor, buyuk dostonchi hisoblanadi. U xalq tili, ta’birlari, urf-odatlar va xalq ruhini yaxshi bilardi”[5;28].

“Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Po‘lkan, Berdi baxshi, Islom shoir, Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li, Abdulla Nurali o‘g‘li, Saidmurod Panoh o‘g‘li kabi yetakchi dostonchilarning aniqlanishi, XIX va XX asrda yashagan va yashab kelayotgan ikki yuzdan ortiq baxshilarning ro‘yxatga olinishi va ularning barhayotlaridan qariyb yuzta syujetga bo‘lingan uch yuzdan ortiq dostonlarning yozib olinishi o‘sha davrining chinakam ilmiy kashfiyoti bo‘ldi”[6;4]. Bugungi kunda Folklor arxivida besh yuzdan ortiq dostonlar saqlanmoqda.

Hodi Zarifov o‘zining dostonlarini xalqqa manzur qila olgan Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Po‘lkan shoir, Berdi baxshi, Islom shoir, Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li, Abdulla Nurali o‘g‘li, Saidmurod Panoh o‘g‘li kabi yetakchi baxshilarning ijodiy portretini yoza turib, ular haqida ma’lumotlar yozish orqali o‘zbek baxshilarining o‘ziga xos xususiyatlari, shoirlik mahorati, og‘zaki kuylanish usullari, og‘zaki dostonning yozma dostonlardan farqlarini izohlab berdi. Bu mahoratli baxshilar ijodiyotini tahlil qildi.

Folklorshunos olim o‘zbek baxshilari haqida ma’lumotlar to‘plab, o‘zbek baxshilarining ijodi, hayoti, ustozlik va shogirdlik an‘analari, o‘zbek dostonlarining qaysi baxshida qay darajada ijro etilganiga ahamiyat bergan hamda chuqur tadqiq etgan birinchi olimdir. Baxshi shaxsi hamda uning ijrochilik va ijodkorlik mahoratiga alohida e’tibor berish Hodi Zarifovning barcha asarlariga xosdir. Bu jihatdan uning Ergash shoir, Fozil shoir, Po‘lkan shoir, Islom shoir, Abdulla shoir, Bola baxshi haqidagi maqolalari, nashr etilgan dostonlarga yozgan so‘zboshilari alohida diqqatga sazovordir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**





1. Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – М.: ОГИЗ, 1947. – 520 с.
2. ЗЎФА. Инв. №2256.
3. Mirzayev T. H.T.Zarifovning ilmiy ijodi / O‘zbek xalq ijodi. – Toshkent: Fan, 1967. – B.3-15.
4. Zarif H. Ulkan xalq san’atkori / Ergash shoir va uning dostonchilikdagi o‘rni. Tadqiqotlar. 2-kitob. – Toshkent: Fan, 1971. – B.8-40.
5. Zarifov H. Fozil shoir – mashhur dostonchi / Fozil shoir. O‘zbek xalq ijodi bo‘yicha tadqiqotlar. 3-kitob. – Toshkent, 1973. – B.5-29.
6. Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. – Toshkent: Fan, 1979. – 152 b.





## BUXORO VA NAVOIY TO‘Y MAROSIM QO‘SHIQLARINING AREAL XUSUSIYATLARI XUSUSIDA

**Feruz** **ABDURAXMONOVA**,

*O‘zDSMI dotsenti v.b.,*

*filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

*[feruzaxon8484@gmail.com](mailto:feruzaxon8484@gmail.com)*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada marosim qo‘shiqlari bo‘lmish Yor-yor, yor-yor-yoroni janrlarining nikoh marosimi va nikohda urf-odatlar bilan bog‘liqligi haqida so‘z yuritiladi. Qo‘shiq badiiy matnida o‘tkazilayotgan marosim yoki urf-odatlarining mazmuni ham aks etadi. Qo‘shiq bajarilayotgan ma‘lum odatning ijobati sifatida marosimning ta‘sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Bugungi jonli ijro jarayonlarida ham marosim bilan, yoki biron odat bilan bog‘langan qo‘shiqlar ijro etib kelinmoqda.*

**Kalit so‘zlar:** *areal, marosim, nikoh to‘yi, urf-odat, qo‘shiq, toponim, gomogen, getrogen.*

**Аннотация:** *В данной статье говорится о связи жанров обрядовых песен «Ёр-ёр», «Ёр-ёр-ёрони» со свадебным обрядом и традициями в браке. Художественный текст песни также отражает содержание обряда или традиций. Песня служит для повышения эффективности церемонии как ответа на совершение определенного ритуала. В сегодняшних живых выступлениях исполняются песни, связанные с ритуалами или обычаями.*

**Ключевые слова:** *местность, обряд, свадьба, традиция, песня, топоним, однородный, разнородный.*

**Abstract:** *This article talks about the connection between the genres of ritual songs “Yor-yor” and “Yor-yor-yoroni” with wedding rituals and traditions in marriage. The artistic text of the song also reflects the content of the ritual or tradition. The song serves to enhance the effectiveness of the ceremony as a response to the performance of a particular ritual. Today's live performances feature songs associated with rituals or customs.*





**Key words:** *areal, ritual, wedding, tradition, song, toponym, homogeneous, heterogeneous.*

Marosim va urf-odatlar bilan birga, to’y qo’shiqlari ham hududiy jihatdan farqlanadi. Xalq og’zaki ijodi va etnografiyasini o’rgangan olimlarimiz ma’lum bir hududga doir bir necha etno-folkloristik tadqiqot ishlarini amalga oshirishgan. O’zbek nikoh to’y marosimi folklorini muayyan hududlar materiallari asosida o’rgangan folklorshunos, etnograf va musiqashunos olimlar M.Alaviya, J.Qobulniyozov, F.Karomatov, H.Razzoqov, O.Sobirov, K.Ochilov, O.Safarov, S.Ro‘zimboyev, B.Sarimsoqov, A.Musaqulov, D.O‘rayeva, M.Jo‘rayev, O.Ismonova, Sh.Turdimov, J.Eshonqulov, S.Davlatov, G.Tosheva, S.Soatova, L.Xudoyqulova, N.Sabirova va boshqa olimlarning tadqiqot ishlarida ko‘rishimiz mumkin.

O’zbek folklorini areal tadqiq etishning ba’zi masalalarini xususan, to’y marosim janriga tegishli kelin-salom qo’shiqlarini areal o’rganishning ayrim muammolarini yoritishga adabiyotshunos F.Ikromxo‘jayev e’tibor qaratadi. Kelin-salom boshqa turkiy xalqlarda ham keng tarqalganligini hisobga oladigan bo‘lsak, F.Ikromxo‘jayev janrni tarqalish xususiyatiga ko‘ra gomogen(bir xalq doirasida) va getrogen(turli xalqlar doirasida) areal o’rganishni tavsiya etadi. [1;44-47] Bu ajratib o’rganish o‘rinli qayd etilgan bo‘lib, avvalo janrni bir xalq doirasida chuqur o’rganish kerakligi, turli xalqlar doirasida o’rganish, ularni qiyoslash orqali aniq umumiy xulosalarga kelish, janrning xususiyatlari, poetikasini tahlil etishda muhim ahamiyatga ega. Shunga ko‘ra, Yor-yorlarni ham turli xalqlar doirasida o’rganish imkoniyati mavjud.

Marosimlarni areal o’rganishda, o’zbek va tojik xalqlarining ko‘p asrlik qo’shni ekanligi, aralash hayot kechirishi, turmush tarzidagi umumiylik ularning badiiy tafakkurida ma’lum mushtaraklik kasb etishi muhim rol o‘ynaydi. Bu hududlar bo‘yicha o’rganilgan tadqiqotlarda ham yaqqol seziladi. Turli millatlar birga yashaydigan hududlarda ham urf-odatlarda o‘xshashlik va farqli jihatlar ajralib turadi. Shuning uchun, hududlar alohida o’rganilganda turli metodlardan birgalikda foydalanish ma’lum xulosalar berish





imkonini tug‘diradi. Masalan, ma’lum hudud Yor-yorlarini tipologik, lingvopoetik, qiyosiy tahlil etish va hokazo.

Yor-yor janrini bunday hududlarga bo‘lib o‘rganishda ba’zi areal tarqalishini ham hisobga olish lozim. Chunki ular bir viloyatda, tuman va qishloqda ham turli ko‘rinishga ega bo‘lib, shevasi, toponim belgisi va ohangi o‘zgaradi. Unda qo‘shiqning ijro o‘rni, ijro usuli, urf-odat va biron udum yoki marosim bilan bog‘liqligi, obrazlar tavsifi, musiqaga munosabati, aholining etnik tarkibi kabi jihatlarga alohida e’tibor qaratiladi. Olimlarning bir xil hududni kuzatishlarida ham ba’zi farqlar mavjud bo‘lib, bular ma’lum hududdan kelib chiqib xulosa qilishga ham bog‘liqdir. Chunki Yor-yorning bir hududda bir necha yo‘llari ham kuylanaveradi.

Yor-yor qadim davrlardan buyon kuylanib kelayotgan marosim qo‘shig‘idir. U bilan bog‘liq urf-odatlar ham talaygina. Zero, har bir hududning Yor-yor bilan bog‘liq bo‘lgan urf-odatlar va irim-sirimlari bir-biridan farq qiladi. Janrning hududiy o‘ziga xos jihatlari aniqlash maqsadida ayrim hududlarning ba’zi Yor-yor namunalarini bir-biridan farqli jihatlari tahlil qilish lozim.

Nikoh marosimlarining hududiy o‘ziga xosligini ajratib turuvchi muhim belgilaridan biri uning qaysi urf-odatlar bilan bog‘liqligidir. Bu qo‘shiq va aytimlarda ham ko‘rinadi. Bunda aytuvchi, mazmun, uslub va ohang o‘zgaradi. Bir hududda har xil millat vakillarining yashashi ham areal farqlanishiga va urf-odatlarining o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Buni G.Toshevaning tadqiqotida ham ko‘rish mumkin: “Vohada istiqomat qiluvchi o‘zbeklar, tojiklar, arablar, turkmanlarning nikoh to‘yi marosimlarida mushtarak va o‘xshash tomonlar mavjud bo‘lsa-da, muayyan farqli tomonlari ham borligi dala tadqiqotlari orqali aniqlandi”[4;84].

Samarqand – Buxoro viloyatlarining ko‘plab hududlarida to‘y marosim qo‘shiqlarining boshqa hududlardan farqli jihatlari talaygina. O‘zbek folklorshunosligida ushbu mintaqa ekspeditsiyalarda eng ko‘p xalq og‘zaki ijodi namunalari yozib olingan va o‘rganilgan hududlardan hisoblanadi. Viloyatning ayrim hududlarida, ayniqsa, tojiklar ko‘pchilikni tashkil qiladigan hududlarda Yor-yorning an’anaviy shakli bilan birgalikda, shu mintaqaning Qorako‘l va Olot tumanlarida saqlanib qolgan “Yor-yor, yoroni”, “Ishimma” [2;97-102] kabi hududiy o‘ziga xoslik kasb





etuvchi, Yor-yor o‘rnida, uning mazmunida kuylanuvchi, boshqa viloyatlarda uchramaydigan to‘y qo‘shiqlari keng tarqalgan. Ularning mazmuni Yor-yor so‘zlari bilan juda o‘xshash, ba’zan aynandir:

*Osmonda oy tug‘ibdi, oyni bulut quvibdi,  
Olib bergan uzugi barmog‘imni bug‘ibdi,  
Ishimmajon, ishimma, ahur-juhur ishimma. [2;101]*

Folklorshunos M.Jo‘rayev nikoh marosimida kuylanadigan bu qo‘shiq turlari haqida quyidagicha ma’lumot beradi: “Buxoro viloyatining Qorako‘l, Olot tumanlarida, shuningdek, Turkmaniston Respublikasining Forob tumanida o‘tkaziladigan nikoh to‘yi marosimi folklorida “yor-yor, yoroni” qo‘shiqlari mavjuddir. Aslida, umumo‘zbek folkloriga xos janrlaridan biri – yor-yor badiiy shakli va ijro usuli asosida yuzaga kelgan bu qo‘shiq asosan ayollar tomonidan aytiladi”[2;102]. Darhaqiqat, ko‘proq kuyovlar yo‘lga chiqqanda aytiladigan bu qo‘shiqlar an’anaviy Yor-yor asosida yuzaga kelgan bo‘lib, ayollar tomonidan ham, kuyov jo‘ralar tomonidan ham kuylanaveradi. Hozirgi paytda bu qo‘shiqning ijro o‘rni kengaygan bo‘lib, nikoh marosimlarida kuylovchi erkak xonandalar, san’atkorlar repertuaridan ham keng o‘rin olgan. “Yor-yor, yoroni” qo‘shiqlari Yor-yorlardan farqli o‘laroq, to‘rtliklardan iborat bo‘lgan an’anaviy qo‘shiq bo‘lib, lirik xarakterdagi bu qo‘shiq *aaba, aaaa, abab* yoki *abbb* tarzida qofiyalangan va  $7+5=12$  bo‘g‘inli vazn tuzilishiga ega. Unda matn tez, har bir misra oxirida “yor-yor, yoroni” naqorati qo‘shiladi. Bu qo‘shiqlar o‘zining murakkab doira usullari, ijro yo‘lining o‘zgachaligi, kuyining o‘ynoqiligi va ohangdorligi bilan ajralib turadi.

O‘rta Zarafshon vohasi materiallari asosida o‘zbek nikoh marosimlari janrlari tarkibini o‘rgangan olim M.Murodova ham Jizzax, Navoiy, Samarqand viloyatlarida yigitlarning Yor-yori an’anaviy Yor-yordan farqlanishini aytadi: “qadimda kuyov kelinnikiga otda, uning jo‘ralari esa qo‘llarida mash’ala ko‘tarib yayov borishgan. ... kuyovjo‘ralar yo‘l-yo‘lakay hamda kelinning mahallasiga yaqinlashganlarida Yor-yor aytib boraverganlar. Biz o‘rgangan hudud aholisi orasida yigitlar tomonidan “kuyov eltish” udumi chog‘ida ijro etiladigan Yor-yorning ikki xil lokal tipi mavjudligi aniqlandi. Birinchisida, asosiy matnni kuyovjo‘ralardan





biri ijro etgani holda kuyovga hamroh bo‘lib borayotgan boshqa yigitlar “alyor, yor-yorey” va “gulyor, yor-yorey” poetik takroriga jo‘r bo‘lib turishgan: [3;54]

*Dukur-dukur ot kelar, alyor, yor-yorey,  
Aravada suv kelar, alyor, yor-yorey.  
Aravaning bir chetida, gulyor, yor-yorey,  
Kuyov bola xush kelar, gulyor, yor-yorey. [3;53-54]*

Ikkinchi tipi Samarqand va Buxoroda ko‘p uchrovchi “yor-yor-yoroni” bilan tugaydigan Yor-yorlar bo‘lib, u ham yakka ijrochi tomonidan aytilib, jo‘ralar unga jo‘r bo‘lishadi.

*Qaldirg‘och qaro bo‘lur, yor-yor yoroni,  
Qanoti ola bo‘lur, yor-yor yoroni,  
Yoshlikda qo‘ygan ko‘ngil, yor-yor yoroni,  
Ayrilmas balo bo‘lur, yor-yor yoroni. [2;109]*

Samarqand-Buxoro va tojiklar yashaydigan ko‘plab hududlarda kuylanuvchi mazkur Yor-yorlar faqat kuyov uchun kuylanadigan Yor-yorlardir. Bizningcha, bu ikki tipdagi Yor-yorlar an’anaviy Yor-yordan ijro uslubi jihatidan farq qilsa-da, aynan nikoh to‘yi bilan bog‘liqligi, mazmun qamrovi, misralarida keluvchi “yor-yor” radifi bilan an’anaviy Yor-yorlardan o‘sib chiqqan Yor-yorning bir ko‘rinishi sifatida qabul qilish lozim deb o‘ylaymiz. Yigitlar aytadigan bu qo‘shiqlar an’anaviy Yor-yorlar bilan birga kuyov uchun kuylanadi.

Qizlar tomonidan ushbu hududlarda kuylanadigan Yor-yorlar boshqa hududlardan farq qilmaydi:

*Bog‘ ko‘chaning bag‘rida rayhon bo‘lib, yor-yor,  
Birga o‘sgan dugonalar, yaxshi qoling, yor-yor.  
Onajonim ko‘zlari kulib kelar, yor-yor,  
Bag‘ri bo‘shab, yuragi to‘lib kelar, yor-yor.  
Muncha ayab silaysiz peshonamni, yor-yor,  
Mehri daryo onajonim yaxshi qoling, yor-yor. [5;12]*

Buxoroda kelinni olib qaytuvchi yigitlar tomonidan ham an’anaviy Yor-yorlar kuylanaveradi:

*Qat-qatgina qatlama qatlanadi, yor-yor,  
Qizni olib yigitlar oatlanadi, yor-yor. [5;14]*

Navoiyning Nurota tumanida esa o‘zbeklar yashaydigan (aslida, bu yerda ham tojiklar ko‘p) hududlarda Yor-yorning





an’anaviy shakli keng tarqalgan. U yerlarda ham kelinga Yor-yorlarni ayollar, kuyovni kuzatib keluvchi yigitlar esa kuyov uchun Yor-yorlar kuylaydilar.

Navoiyda o‘z otasining uyidan o‘zga xonadonga ketayotgan qizning mungli holati, hazin kayfiyatini kuylanishi ham an’anaviylik kasb etgan:

*Yor-yor aytsam jamahat xo‘sh dermikan, yor-yor,*

*Xo‘sh allayor degani do‘st bormikan, yor-yor.*

*O‘ng jaq bilan so‘l jaqni qo‘shirdilar, yor-yor,*

*O‘ng jaqdagi mungliqni uchirdilar, yor-yor.*

*Tovda qulun kishnaydi, ot bo‘ldim deb, yor-yor,*

*Uyda mungliq jilaydi, yot bo‘ldim deb, yor-yor,*

*Jilamag‘in mungliq qiz, yot bo‘ldim deb, yor-yor. [6; №1643/1]*

O‘zbekiston viloyatlari (Buxoro, Samarqand, Jizzax, Surxondaryo, Qashqadaryo, Namangan, Andijon, Xorazm va hk.) Yor-yorlarining har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Kuylari mungli, jozibali, o‘ynoqi, mazmuni lirik, hajv, madhiya va boshqa shakllarda ijro etilib kelingan. Yor-yorlar turli folklor-etnografik jamoalar repertuaridan, o‘zbek bastakorlari va kompozitorlari ijodidan ham salmoqli o‘rin olgan.

Xulosa qilib aytganda, Yor-yorlar juda keng tarqalgan to‘y qo‘shig‘i bo‘lib, O‘zbekistonning barcha hududlarida ijro etiladi. Albatta, geografik joylashishi, shevadagi rang-baranglik, voqeiylik, joy, toponim nomlar, mahalliy aholiga xos bo‘lgan urf-odatlar sabab, har bir turkiy xalqlar og‘zaki ijodi o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Ikromxo‘jayev F. “Kelin-salom” qo‘shiqlarini areal o‘rganishning ayrim muammolari. // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2001. – № 6. – B. 44-47.

2. Oy oldida bir yulduz. / O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari. / To‘plab, nashrga tayyorlovchi, kirish so‘zi va izohlar muallifi: M.Jo‘raev. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000. – B. 97-109.

3. Murodova M. O‘zbek nikoh to‘yi folklorining janrlar tarkibi va badiiyati (O‘rta Zarafshon vohasi materiallari asosida): Filol. fan.







bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. – Toshkent, 2018. – B.54.

4. Tosheva G. XX asrda Qashqadaryo vohasi o‘zbeklarining nikoh to‘yi marosimlari: Tarix fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2002 – B.84.

5. To‘y muborak, yor-yor. / To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi: O.Safarov. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000. – B.12-14.

6. O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti. Folklor arxivi. Inv. № 1643/1. Aytuvchi: Ortiqoy Qoraboy qizi, 76 yoshda. Navoiy viloyati, Nurota tumani Jo‘sh qishlog‘i, 1971 yil iyul. Yozib oluvchi: Z.Husainova.





## **“OSHIQ NAJAB” DOSTONI TURKIY VERSIYALARINING BADIY XUSUSIYATLARI**

**Sayat JEPBAROVA,**  
*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti, f. f. f.d, (PhD),*

**Annotatsiya:** *Bu maqolada turkiy xalqlar uchun mashhur “Oshiq Najab” dostonining badiiy xususiyatlari o‘zbek, turkman va qoraqalpoq versiyalari bilan taqqoslab tahlil etiladi. Ulardagi tipologik o‘xshashliklar aniqlanadi.*

**Tayanch so‘zlar:** *Doston, metafora, o‘xshatish, obraz, nazm, nasr*  
**Аннотация:** *В данной статье сравниваются и анализируются художественные особенности известного у тюркских народов эпоса «Ашик Наджаб» с узбекским, туркменским и каракалпакским вариантами. Выявляются типологические сходства в них.*

**Ключевые слова:** *Эпос, метафора, сравнение, образ, стихотворение, проза.*

**Abstract:** *This article compares and analyzes the artistic features of the epic “Ashiq Najab” famous for the Turkic peoples with the Uzbek, Turkmen and Karakalpak versions. Typological similarities in them are identified.*

**Key words:** *Epic, metaphor, simile, image, poem, prose*

Barchamizga ma’lumki, xalqimiz qadim davrlardan musiqa va sozni ulug‘lagan, sozga qo‘shib o‘zlarining ichki tuyg‘ularini, turmush sharoitlarini ham tasvirlashga harakat qilgan. Ayniqsa, bu an’ana dastlab folklor asarlarimizda keng saqlanib qolgan. Xalqimizning musiqa san’atiga bo‘lgan havasini o‘zida jamlagan xalq dostonlaridan biri “Oshiq Najab” dostoni turkiy xalqlar, jumladan o‘zbek, turkman va qoraqalpoq xalqlari orasida keng tarqalgan. Bu doston asosan baxshichilik san’ati, musiqaning qudrati, xalqning baxshichilik san’atiga bo‘lgan yuksak hurmati, muhabbati, qahramonlik, sabrlilik, kamtarinlik, insoniylik g‘oyalarini tasvirlaydi. Bundan tashqari ustoz-





shogird va baxshichilik san’atining vazifalari masalalarini ham e’tirof etadi.

Dostonning syujeti “Oshiq Najab” va “Oshiq Alband” dostonining voqealari bir-biri bilan uzviy bog‘langan. Shu bois “Oshiq Najab” dostonini “Oshiq Alband” dostonining davomi sifatida qarash mumkin. Ya’ni, “Oshiq Alband” dostonida voqealar baxshichilik san’ati sirlari Alband obrazi orqali tasvirlanib, sozning qudrati va inson turmushidagi ahamiyati, insoniylik fazilatlar, sabr-toqat, kultlar va h.k. keng tasvirlanadi. “Oshiq Najab” dostonida esa o’sha Alband baxshining keyingi taqdiri Najab bilan uchrashtirib, uning onasi Sonaga Alband baxshining uylanishi, ularning uchrashishida esa demonologik obrazlarning xizmati katta ekanligi, shuningdek, Najabning keyingi taqdiri, musiqa san’atining sirlari va h.k. tasvirlanadi.

Dostonda musiqa san’ati va baxshichilik bilan bog‘liq voqealarni tasvirlashda nasr bilan birga nazm ham keng qo‘llanilgan. Shu bois turkman xalqining “Oshiq Najab” dostonini tadqiq qilgan S.Gutlieva doston syujetining asosiy qismida nazm ko‘proq o‘rin egallashini alohida ta’kidlaydi. Haqiqatan ham qahramonlarning ma’naviy ichki kechinmalari, his-tuyg‘ulari, xarakterini ochishda poeziya katta poetik vazifani bajaradi. Shu bois dostonda oddiy qora so‘zlarga qaraganda she’riy satrlarning ko‘p qo‘llanilishi asarning asosiy bosh xususiyatlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Dostonda she’riy satrlar birinchidan, voqealarga qahramonlarning munosabatini ifodalashda, ikkinchidan, voqealarni ta’sirli, emotsional ko‘rinishda ifodalash uchun keng qo‘llanilgan. Dostonning musiqa dunyosi haqida fikr bildirgan tadqiqotchi G.Yazmammedova dostonda aytilgan qo‘shiqlarni katta ikki guruhga bo‘lib ko‘rsatadi. Masalan, tasvirlarning mazmun badiiyati jihatdan aniqligi “Oshiq Najab” dostonining musiqa dunyosini katta ikki guruhga bo‘ladi: o‘zida 10ta qo‘shiqni jamlaydigan birinchi bo‘limning musiqa dramaturgiyasi ham o‘z ichida 2 guruhga bo‘linadi. Guruhlarning birinchisiga dastlabki 4 qo‘shiq tegishli bo‘lib, ular tushida ko‘rgan yorini izlab yo‘lga chiqqan Albandning ismi bilan keltiriladi. Qo‘shiqlarning uchalasi dostonidagi Sonaning portreti bilan bog‘liq bo‘lib, ular: “Yadımdan chıkmayar adı Sonanıń”, “Tóvriziń begleri, Sonam geldimi?”, “Sona gelin” kabi qo‘shiqlar bo‘lib, “Injıtmasın” nomli to‘rtinchi qo‘shiq Albandning nomidan aytiladi, u shu vaqtning o‘zida aloqadorlik xarakterga ega.





Ikkinchi guruhga 6 qo‘shiq tegishli bo‘lib, ular Najab bilan bog‘liq voqealarni o‘z ichiga oladi. Ikkinchi guruhi shartli ravishda katta bo‘lmagan uch turga ajratish mumkin. Ularda bosh qahramon xarakterining har xil o‘rinlarda ochilishi bilan Najabning sozanda sifatida shakllanishini ko‘rish mumkin” [1,27].

Dostonda qahramonlar va personajlarning o‘zaro aytishuv qo‘shiqlari ham buning yaqqol dalilidir. Masalan, dostonda Najabning “Kimning yorisan?”, “Ko‘rsat menga chinor bo‘ying”, “Nozli kelin” kabi qo‘shiqlar orqali o‘ziga oshiq bo‘lib qolgan Abadanga murojaat qiladi.

Shuningdek, dostonda Alband bilan Najabning aytishuvlarida dramatik xarakterler ochib beriladi. Ziddiyatlarning keskinlashuv holatlarini ko‘rsatadi.

“Oshiq Najab” dostonining ikkinchi yarmida voqealarning echilishida qarama-qarshilik ko‘zga tashlanadi. Masalan, Najabning Munayim xon bilan uchrashuvi orqali dostonda voqeaning yana bir yangi epizodining boshlanganini ko‘rsatadigan joylar ko‘zga tashlanadi. Ya’ni, shu voqealar bilan birga dostonda yana bir qahramon – Munayim obrazining yaratilganini ko‘ramiz. Unda asosan “Mılayım han gelsin diydi”, “Kemal yarım”, “Ózún úchin al gach meni”, “Yar menińki”, “Toya geldińmi?”, “Gurban bolayın”, “Gurbana geldim” kabi qo‘shiqlarda qahramonlarning oshiqlik xarakteri tasvirlanadi. Shu bois doston voqealarining birinchi yarmiga qaraganda ikkinchi bo‘limida qarama-qarshiliklar ko‘p so‘z etilgan. Dostonda qo‘shiqlarning keng qo‘llanilishi birinchidan, dostonlarga xos dasturlar bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, oshiq-ma’shuqlarning his-tuyg‘ulari bir-biriga juda yaqin ekanini belgilaydigan xususiyatlaridan biri.

Dostonning asosiy xususiyatlaridan yana biri u o‘zida epik, lirik va qahramonlik, insoniylik fazilatlar kabi xarakterlarni jamlanishida ko‘zga tashlanadi. Shu kabi ko‘zqarashdan doston qahramonlarining obrazi ikki turga ya’ni, ijobiy va salbiy obrazlarga bo‘linadi. Dostonda obrazlarning xarakterlari ham ko‘pincha qo‘shiqlar orqali ochib berilganini ko‘ramiz. Dostonda qo‘shiqlarning badiiy xizmati masalalari haqida fikr bildirgan S.Gutlieva ham dostonda qahramonlarning ma’naviyatini, ichki kechinmalarini, his-tuyg‘ularini ochish vazifasi, xususan poeziya orqali amalga oshirilganini alohida qayd etib o‘tadi. “Doston qo‘shiqlari syujetning o‘sishi bilan uzviy





bog‘liq. Qahramonlarning ichki dunyosini, o‘y-fikrlarini, tuyg‘ularini, xarakterlarini, o‘zaro munosabatlarini ochib berishda har bir detalning, epizodning, voqeaning ta’sirli ifodalanishida asosiy qurol bo‘lib xisoblanadi. Unda umumiy 128 banddan iborat bo‘lgan 23 qo‘shiq mavjud bo‘lib, ularning oltmish uchta 8 bo‘g‘indan, oltmish beshtasi esa 11 bo‘g‘indan iborat. Dostonning qo‘shiqlari turkiy xalqlar poeziyasiga xos sillabik vaznda tuzilgan” [2,20].

Dostonda bu qo‘shiq shakllarining keng qo‘llanilishi musiqaga xos bo‘lib keladi. Masalan, turkmancha versiyasida:

Ovazín arsha // ulashdı,	a
Mılayım xan // gelsin diydi.	b
Seni sorashdı // ızlashdı,	a
Mılayım xan // gelsin diydi.	b

Bu qo‘shiq qatorlari 8 bo‘g‘inli bo‘lib, a b a b shaklida qo‘fiyalanadi. Qo‘shiqda 2 va 4 qatorlar radif shaklida keladi.

Munayimxonning salomini Najabga etkazgan Gulchamanning aytgan qo‘shiqlari o‘zbekcha versiyasida ham shu shaklda keltiriladi. Masalan:

Ovozing arsha ulashdi,  
Muloyimxon kelsin dedi,  
Seni so‘rashdi, ızlashdi,  
Muloyimxon kelsin dedi [3,12].

Dostondagi qo‘shiqlar 11 bo‘g‘inli bo‘lib ham keladi. Masalan, dostonda Alband bilan Najabning aytishuv qo‘shiqlarini aytib o‘tish joiz. O‘zbekcha versiyasida:

**Alband:**

Bizdin salom bo‘lsin el ushog‘ina,  
Odam Safiullo ne shahar soldi.  
Ne makanda turub qalam chaldilar,  
Necha yil jasadda lamyazal qoldilar.

**Najab:**

Dunyo chorqo‘chadur o‘rta erinda,  
Odama jon berib qalam chaldilar.  
Mundin avval hech bir shahar yo‘q erdi,  
Avval boshda Ko‘fa shahrin soldilar





degan qo‘shiq qatorlari 11 bo‘g‘inli bo‘lib keladi. Qo‘shiqda metaforalar ham keng qo‘llanilib, dunyoning tor ekanligini – “chorko‘cha” deb keltiradi.

Yoki bo‘lmasa, Najabning kelinga qarab aytgan qo‘shiq satrlariga e’tibor beraylik.

Eronda, Turonda ajam elinda,  
Ko‘rmadim seningday obodon juvon,  
Xo‘blar orasinda, jannat gulinda,  
Ko‘rmadim seningday obodon juvon.

Bu qo‘shiqda 11 bo‘g‘inli bo‘lib, a b a b shaklida qofiyalanadi. Qo‘shiqda o‘xshatishlar keng qo‘llanilib, go‘zal kelinning savlatini chizishda, ya’ni portretini ifodalashda “Xo‘blar orasinda, jannat gulinda” bilan taqqoslab, uning hayotda ko‘rmaganini “Ko‘rmadim seningday obodon juvon” deb keltiradi. Yoki:

Bo‘ylaring uzundur, yanog‘ing nordur,  
Lablaring shakkardur, zulflaring tordur,  
Gul yuzing ko‘rmaka ko‘zlarim zordur,  
Ko‘rgazgil, yuzingni sabodan juvon.

degan qo‘shiq qatorlarida qizning bo‘yi uzun ekanligini, labining qizil ekanligini tasvirlab, uni “nor” ga o‘xshatadi. Sochlarining uzunligini esa “dutorning tori” bilan taqqoslab o‘xshatadi. Bu erda “dutorning tori” badiiy detal sifatida qahramonning qizga bo‘lgan ichki tuyg‘ularini, uning portretini chizishda badiiylik vazifasini bajaradi.

Dostonda Najabga oshiq Munayimxonning aytgan ushbu she’riy satrlarida allegorik ma’no bilan ichki fikrlar keng ma’noda anglatishini ham ko‘rish mumkin. Masalan:

Chólde gezen axularım,  
Suvda yúzen maxılarım,  
Eshidiń, beg dayılarım,  
Nejebe gurbana geldim.

Sháxeriń dań yıldızıyam,  
Esen veziriń gızıyam,  
Mılayım xanıń ózúyem,  
Nejebe gurbana geldi.

Bu erda Munayimxonning Najabni yaxshi ko‘rganini, unga oshiqlik hislarini, ichki tuyg‘ularini bayon qilishda “axu – kiyik, махы





- baliq” metaforalari allegorik ma’noda qo’llanilgan. U o‘zini yulduzga o‘xshatib, “Sháxeriń dań yıldızıyam” deb keltiradi. Shu o‘rinda qo’llanilgan troplar o‘z navbatida dostonning badiiyligini orttirib, emotsionalligini oshirish vazifasini bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, “Oshiq Najab” dostoni o‘zining badiiy xususiyati bilan o‘quvchilar qalbidan keng o‘rin olganini alohida ta’kidlash maqsadga muvofiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Ýazmämmedowa G. “Nejep oglan” dessanynyň saz dünýäsi. Türkmenistan gazetini. 2020-nji ýyl 27-nji iýuny,
2. Гутлыева С. «Нежеп оглан» дессаны. –Чаржев. 1990
3. Хоразм дostonlari. Oshiqnoma. Nashrga tayyorlovchilar: S.R.Ro‘zimboev, S.S.Ro‘zimboev. Хоразм, 2009.





## XORAZM DOSTONCHILIGI VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Nazokat MATKARIMOVA,**  
MA’MUN-UNIVERSITETI”

Tarix fanidan falsafa doktori, (PhD)., dotsent.

[ms.mnm.79@mail.ru](mailto:ms.mnm.79@mail.ru)

**Annotatsiya:** Xorazm xalqi e’zozlab kelayotgan folklor hazinasining eng qimmatbaho durdonalaridan biri dostonlar hisoblanadi. Ushbu maqolada Xorazm dostonchilik maktabi, baxshilik san’ati va uning repertuar xarakteri, o’ziga xos uslub va ijro yo’nalishlari haqida ma’lumot beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Xorazm xalq san’ati, folklor, xalq og‘zaki ijodi, musiqa san’ati, baxshichilik, dostonchilik, dostonchilik maktablari, baxshi repertuari, matn, musiqa, soz, nasr, nazm, sozchi, hofiz, yakkaxon ijro, jo’rnavozlik.

**Аннотация:** Эпосы являются одним из ценнейших шедевров фольклорной сокровищницы, которую почитают хорезмийцы. В данной статье представлена информация о Хорезмской эпической школе, искусстве бахши и его репертуарном характере, специфическом стиле и направлениях исполнения. Ключевые слова: Хорезмское народное творчество, фольклор, музыкальное искусство, бахши, эпос, эпические школы, репертуар бахши, текст, музыка, песня, проза, стих, музыкант, хафиз, сольное исполнение, хоровое исполнение.

**Abstract:** The epics are one of the most valuable masterpieces of the folklore treasury, which is revered by the Khorezmians. This article provides information about the Khorezm epic school, the art of bakhsh and its repertory character, specific style and directions of performance.

**Key words:** Khorezm folk art, folklore, musical art, bakhshi, epic, epic schools, bakhshi repertoire, text, music, song, prose, verse, musician, hafiz, solo performance, choral performance.







An’anaviy xalq san’ati tarixi xalqning etnik tarixi bilan uzviy holda rivojlanishi asrlar davomida shakllanib kelgan chuqur ijtimoiy tafakkur olami bilan chambarchas bog‘liqdir. Shuning uchun ham o‘zbek xalq san’ati nihoyatda boyligi va hamisha navqironligi bilan alohida ajralib turadi. Xalq san’ati beqiyos xazina bo‘lib, ularni yoshlar ongiga singdirish o‘z xalqiga, vataniga, milliy an’analariga cheksiz hurmat ruhida tarbiyalashda ahamiyati kattadir.

Etnografik adabiyotlardan ma’lumki, xalqona qo‘shiq va o‘yinlar, milliy taomlar va kiyimlar turli xalqlarga daxldor etnomadaniyatning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim elementlardan biri hisoblanadi. Ularning barchasi insoniyat kundalik turmush tarzi va hayot faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bir necha yuz yillar mobaynida turli xalqlar oilaviy-maishiy hayotining muhim bo‘lagiga aylangan [1,31].

Dunyodagi har bir xalq milliy bayram va tadbirlarini, oilaviy marosimlarini sermazmun va chiroyli bo‘lishiga, ko‘tarinki kayfiyatda va quvnoq o‘tishiga katta ahamiyat beradilar. Bunday tadbirlarda ijro etiladigan qo‘shiqlar, dostonlar, laparlar va milliy xalq o‘yinlari o‘zbek xalqi hayotini, tarixi, etnografiyasi, diniy e’tiqodini yoritib berish bilan birga xalqning dunyoqarashi, hayot voqeliklari, orzu-istaklari, ma’naviy, madaniy va moddiy dunyosini o‘zida mujassam etadi [2,98].

Qadimdan madaniyat va san’at maskani bo‘lgan Xorazm hududida o‘ziga xos xalq qo‘shiqlari, xalfa laparlari, maqom (suvora) namunalari, baxshichilik va raqs san’ati keng o‘rin tutadi. Ana shunday san’at turlaridan biri bo‘lgan dostonchilik Xorazmda juda qadim zamonlardan buyon rivoj topgan. Bu yerda xalq an’anaviy dostonlari xalq baxshilari orqali og‘izdan-og‘izga o‘tib, sayqal topib kelgan. Shuning uchun ham Xorazm xalqi e’zozlab kelayotgan folklor xazinasining eng qimmatbaho durdonalaridan biri dostonlar hisoblanadi [3,99]. “Doston” so‘zi qissa hikoya, sarguzasht, ta’rif va maqtov ma’nolarida ishlatiladi. Adabiy atama sifatida u xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyotdagi yirik hajmli epik asarlarni anglatadi [4,228]. Doston murakkab san’at asari bo‘lib, uning doston bo‘lishi uchun adabiy matn, musiqa bo‘lishi, kuylovchi hofizlik san’atini puxta egallagan va soz cherta bilishi zarur [5,228].

Xorazm dostonchiligi maktabi san’ati boshqa dostonchilik maktablaridan uslubi jihatidan farq qiladi. Xorazm baxshilarining





kuylari ko‘p va xilma-xil bo‘lib, bularni baxshi yo‘llari yoki baxshi na‘malari deb yuritadilar. Xorazm baxshilari repertuarlaridagi ishqiy-romanik dostonlarning aksariyati respublikamizning boshqa yerlarida mavjud emas [6,81]. “Avazxon”, “Bozirgon”, “Sayyodxon va Hamro”, “Qorako‘z oyim”, “Gulruh pari”, “Shobahrom”, “Zavriyo”, “Qirq minglar” kabi dostonlar Xorazm xalqi og‘zaki ijodining nodir boyligidir [7,99].

Xorazm dostonlari yozma adabiyot va shahar madaniyatidan boxabar, savodli baxshilar tomonidan davralar osha qayta-qayta sayqal topavergan muntazam tekstga ega. “Oshiq Mahmud”, “Oshiq Oydin”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Oshiq Alband”, “Asil va Karam”, “Yusuf va Ahmad”, “Qumri bilan To‘ti”, “Layli va Majnun”, “Xirmondali”, “Go‘ro‘g‘lining arazi”, “Najab o‘g‘lon” kabi dostonlar fikrimizga dalil bo‘la oladi [8,50].

Shu o‘rinda baxshi so‘ziga ham ta‘rif berib o‘tsak. H.T. Zarifovning yozishicha, baxshi mo‘g‘ulcha va buryatcha “baxsha”, “bag‘sha” so‘zlaridan olingan bo‘lib, ustod, ma‘rifatchi degan ma‘nolarni beradi [9,230]. O‘zbeklarda baxshi – keng ma‘noda xalq dostonlarini kuylovchi, yodda saqllovchi va nasldan-naslga o‘tkazuvchi san‘atkor. Epik asarlarni elga yetkazishda O‘zbekistonning deyarli barcha yerlarida yakka ijrochilik hukmron bo‘lsa, Xorazmda asosan jamoaviy ijrochilik yetakchilik qiladi. Ijro davomida dostonlarning she‘riy qismlari kuylansa, prozaik o‘rinlari baxshilarning o‘zlariga xos ifodali tilda bayon etiladi.

Dostonchilik xalqimiz ma‘naviyatida asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. “Uni kuylovchi baxshilar nodir ma‘naviy boyliklarni mukammallashtirishda muhim vazifani amalga oshirishadi. Ular yuksak insoniy fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan obrazlarni badiiy qayta ishlash orqali asarning g‘oyaviy mazmunini yanada chuqurroq ildiz otishiga zamin hozirlashadi” [10,132]. Baxshilar o‘zlarining yuksak xotirasi, xonandalik qobiliyati, jonli xalq tilining xassos bilimdoni sifatida asrlar osha kelaëtgan epik an‘analarni, boy va rang-barang eposini avloddan avlodga yetkazishda ko‘prik vazifasini o‘tab kelishmoqda. “O‘zbek baxshilari g‘oyaviy yo‘nalishda, epik repertuarining yagonaligi, ijro usuli va kuy-qo‘shiqda bir xil an‘anaga ega bo‘lsalarda bari bir ular o‘ziga xos uslub, ijro yo‘nalishlari,





repertuar xarakteri bilan o‘zaro farqlarga ega. Bu hodisa dostonchilik maktablarini keltirib chiqaradi”.

Qadimdan buyon xorazmlik baxshilar odatda to‘y va tomoshalarda yaxshiroq ko‘rinadigan supacha ustida yoki yog‘och kat (karovot) ustida o‘tirib dutor chertib doston aytganlar [11,100]. Qishloq joylarida yerga oldin chim, ya’ni qamish yoyilib, ustidan kigiz yoki palos to‘shalib, odamlar davra bo‘lib o‘tirishgan va jim bo‘lib baxshining dam soz, dam she’riy misralardan iborat bo‘lgan dostonini tinglashgan [12,36].

Xorazm baxshilari dostonlarini, asosan, dutorda ijro etadilar, ularga g‘ijjak va bulomonda sozandalar jo‘r bo‘ladi. XX asrning 30-yillarida Xorazm baxshilari dostonlarni tor va rubobda kuylay boshladilar. Shu munosabat bilan ayrim baxshilar ansamblida g‘ijjak o‘rniga skripkadan foydalanish, ansablga doirachi, hatto o‘yinchi olib kirish hollari bo‘ldi. Xorazmda ba’zan epik asarlar yoki ularning parchalarini garmonda ijro etish hollari ham mavjud. Bunday hollarda ularni baxshi emas, balki, sozchi deb yuritilgan [13,231]. XX asrning boshlaridan shaharlarda baxshilar xizmatidan foydalanish yo‘qoldi, ularning o‘rnini hofizlar va ashulachilar oldi [14,78].

Xorazmda dostonchilik san’ati alohida o‘ringa ega. Dostonning nasriy qismi hikoya, nazmiy qismi esa qo‘shiq shaklida ochiq ovozda cholg‘u ansambl jo‘rligida ijro etiladi va shirvoniy va eroniy uslublarga bo‘linadi. Shirvoniy uslub Amudaryoning yuqori va o‘rta oqimidagi hududda tarqalgan bo‘lib, uning namoyondalari dutor, g‘ijjak, bulamon va doira jo‘rligida kuylaydilar. Unda 72 ta doston kuylari mavjud bo‘lib, bular: Muhammaslar turkumi (5 ta kuy), ilg‘orlar (4 ta kuy), eshvoylar (5 ta kuy), naylarmanlar (5 ta kuy), nolishlar (7ta kuy), shirvoniylar (3 ta kuy), zorinjilar (2 ta kuy), “Rahm ayla”, “Boboxonim”, “Gulandom” va boshqalar.

Janubiy Xorazm dostonchiligida baxshi dutor, garmon, tor vositasida kuylaydi. Ularning yonida hamisha bulamon va g‘ijjak jo‘rligi saqlanadi. Shu o‘rinda Janubiy Xorazm dostonchiligiga xos bo‘lgan yana bir an’ana xususida gapirishga to‘g‘ri keladi. Xiva baxshilari, xususan Bola baxshi doston ijro qilgan paytda nasriy qismni o‘zi bayon qiladi. Qo‘shiqqa navbat yetganda unga doirachisi yoki shogirdi jo‘r bo‘lib, she’r ikki ovoz birikuvida ijro etiladi.





Xorazmda maqom yo‘llariga yaqin mumtoz musiqa namunalari qadimdan ma’lum bo‘lgan. Bizgacha yetib kelgan shakli – olti maqom tizimi Shoshmaqom asosida XIX asr boshlarida shakllangan. Bular: rost, buzruk, navo, dugoh, segoh, iroq. Har bir maqom belgilovchi omil-muayyan lab tizimi va uning asosida yuzaga kelgan kuy yo‘llaridan iborat. Xorazm maqomlari Buxoro shoshmaqomi kabi mustaqil tuzilishga ega bo‘lgan chertim (cholg‘u) va aytim (ashula) bo‘limlarini o‘z ichiga oladi.

Cholg‘u yo‘li yakkanavozlik va jo‘rnavozlik usulida chalinadi. Yakkanavozlikda tanbur asosiy soz hisoblanadi. Jo‘rnavozlik, odatda, tanbur, dutor, nay, bulomon, qo‘shnay, g‘ijjak, chang, doiradan iborat ansamblda amalga oshiriladi.

Aytim yo‘li tani maqom, talqin kabi asosiy qismlar – sho‘balar va ular negizida tuzilgan tarona, suvora, naqsh, faryod va far deb nomlangan variant qismlardan tashkil topgan. Dastlab Xorazm maqom ijrosida fors – tojik va keyinchalik Navoiy, Fuzuliy, Ogahiy kabi o‘zbek mumtoz shoirlarining g‘azallaridan foydalanildi.

XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Xiva xonligida 40 dan ortiq baxshilar faoliyat ko‘rsatgan. Ulardan eng mashxurlari Eshvoy baxshi, Muhammadniyoz gurji, Rizo baxshi, Ernazar baxshi, Cuyov baxshi, Jumanazar baxshi, Ahmad baxshi, Bola baxshi Abdullaev va boshqalar hisoblanadi. Xorazm maqom ijrochiligining yirik namoyondalari Niyozxo‘ja, Komil Xorazmiy, Feruz, Matyoqub va Matyusuf Harratovlar, M.Xudoyberganov, K. Otaniyozov va boshqalardir.

O‘zbek xalqi turmush tarzidan mustahkam o‘rin olgan dostonchilik san’ati va uning namunalarini qayta tiklash, rivojlantirish va shu bilan birga ularni etnik an’analar tarkibiga singdirish va qayta jonlantirish yo‘lidagi sa’y-harakatlar millat mentalitetini saqlash va o‘ziga xos xarakter xususiyatini mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Baxshichilik san’atini rivojlantirish, ular ijodining o‘zbek madaniyati va san’atidagi o‘rni hamda ahamiyatini yanada oshirish, shuningdek, o‘quv-uslubiy adabiyotlar yaratish, ommaviy axborot vositalari, internet tarmog‘i orqali mamlakatimizda hamda chet ellarda targ‘ib etish, ustoz baxshilar, soha olimlari va mutaxassisleri, iqtidorli yosh baxshilar faoliyatini moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, yosh avlodni mardlik, halollik, milliy va





umuminsoniy qadriyatlar, ona yurtga va ajdodlar merosiga yuksak sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Ashirov A.A. O‘zbek xalqi an’anaviy turmush tarzida qadimiy diniy e’tiqodlar (Farg‘ona vodiysi materiallari asosida). Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2008. – B. 31.
2. Qilichev T. Xorazm xalq teatri. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988. – B. 98.
3. O.Madaev. Xorazm dostonlari. “Xorazm haqiqati” gazetasi, 1970 yil, 10 yanvar.; To‘ra Qilichev. Xorazm xalq teatri. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988, 99-bet.
4. Oxunjon Safarov. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. T.: “Musiqqa” nashriyoti, 2010, 228-bet.
5. Saidov M. O‘zbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat. T.: FAN, 1969, 21-bet.
6. M.Murodova. Folklor va etnografiya. Toshkent. Aloqachi, 2008, 81-bet.
7. To‘ra Qilichev. Xorazm xalq teatri. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988, 99-bet.
8. O‘rol O‘taev, Otayor. Toshkent.: Yozuvchi, 1994, 50-bet.
9. Oxunjon Safarov. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. T.: “Musiqqa” nashriyoti, 2010, 230-bet.
10. Chicherov V.I. Школы сказителей Заонежья.–М.: Наука, 1982.–С.132. (196)
11. T.Allanazarov. Karakalpakskiy sovetskiy teatr, str.39.; To‘ra Qilichev. Xorazm xalq teatri. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988, 100-bet.
12. J.Qobulniyozov. Kirish so‘zi. Oshiq Mahmud , Avazxon. Toshkent. FAN, 1969, 36-bet





13. Oxunjon Safarov. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. T.: “Musiqqa” nashriyoti, 2010, 231-bet.

14. M. Murodova. Folklor va etnografiya. Toshkent. Aloqachi, 2008, 78-bet.





## **QORAQALPOQ DOSTON IJROCHILIGIDA G‘IJJAK CHOLG‘USINING TUTGAN O‘RNI**

***Injigul SOBUROVA,***

*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI  
“Doston ijrochiligi” kafedrasi o‘qituvchisi,  
Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat  
ko‘rsatgan madaniyat xodimi.*

***Annotatsiya:*** Ushbu maqolada Qoraqalpoq doston ijrochiligida g‘ijjak cholg‘usining o‘rni, kelib chiqish tarixi, doston namalarida baxshiga jo‘rnavoz cholg‘u asbobi ekanligi, g‘ijjak cholg‘usida yakka va jo‘r bo‘lib ijro etiladigan kuylar va g‘ijjak cholg‘usini mohir ijrochilari haqida fikr mulohazalar berib o‘tilgan

***Kalit so‘zlar:*** Doston, baxshi, nama, g‘ijjak, muxalles, qobuz dostonchilik maktablari.

Turli xalqlarning milliy o‘zligini, ularning tili va xayot tarzini, an’ana va urf odatlarini ifoda etadigan baxshi san’ati umumbashariy madaniyatning uzviy qismi sifatida barchamiz uchun qadrlidir. Jahon madaniy merosining bu o‘lmas asarlari bizga insoniyatning naslu nasabi, tarixiy ildizlari, olijanob ideallari bir ekanini, binobarin, turli millat va elat vakillarining kelajak sari intilishlari ham mushtarak ekanini anglatadi. [1] deb hurmatli prezidentimiz takidlaganlaridek, Xalqimizning asrlar davomida yaratilgan dostonlarimizni ijro etuvchi baxshi san’atini asrab-avaylash va uni yanada rivojlantirish uchun mamlakatimizda ko‘pgina ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi “baxshichilik sanatini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4320-sonli qarorida takidlanganidek, “Dostonchilik va baxshichilik-milliy g‘ururimiz, Uning zamiridagi ezgu qadriyatlarni xalqimizga yetkazish lozim”deb ushbu sohada ijod qilayotgan barchamizning zimmamizga g‘oyat muhim sharafli vazivalarni belgilab berganliklari bezij emas albatta. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2020-yil 2-sentyabrdagi “Yunus Rajabiy nomidagi





O‘zbek milliy musiqa san’ati institute faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 536-son qarori asosida 2020-2021-o‘quv yillardan boshlab doston ijrochiligi kafedrasida oliy talimda ilk bor yo‘nalish sifatida ish boshlagani bu sohaga bo‘lgan alohida etibor samarasi deb bilamiz Doston va musiqiy hikoyalarning ijrochilari va yaratuvchilari bo‘lgan o‘zan, jirov va baxshilar Qobiz, Tor, Do‘mbira, Dutor, G‘ijjak, Doira, Qo‘shnay, Bulamon va boshqa jo‘rnavoroz sozlarini doston sherlari kuy-namalariga solgan holda kuylab kelganlar. Qoraqalpoq doston ijrochilik uslubi ikki turga bo‘linadi: Jirov va Baxshi ijrochiligi. Qoraqalpoq qahramonlik dostonlarini faqat Jirovlar kuylaydi. Ular, baxshilardan farqli ravishda, o‘zi Qo‘biz chalib ichki ovozda yakka xolatda kuylashadi. Baxshilarga ijro davomida Qoraqalpoq olamo‘ynoq dutori, ananaviy uchtorli G‘ijjak jo‘r bo‘ladi. Baxshining o‘zi dutor chalib ijro etadi. Ular ishqiy-romanik dostonlarni ochiq ovozda kuylaydilar. [2]


O‘tmish tarixga ega O‘rta Osiyo xalqlari musiqa sanatida cholg‘u sozlarining turli-tumanligi, xilma-xilligi doimo jahon xalqlarini xayratlantirib kelgan. Torli, damli, kamonli va urma cholg‘ularga bo‘linib ular ham o‘z navbatida tanbur, dutor, chang, qonun, ud, nay, qo‘shnay, g‘ijjak, rubob, doira, sozlarini o‘z ichiga oladi. Shuningdek Qoraqalpoq xalqiga mansub qobuz, changqobuz, dutor, g‘ijjak bo‘lomon soz asboblari asrlar yukini yelkalab, moxir sozandalar qo‘lidan tushmasdan kelmoqda.

Dastlab Sulton Mahmud G‘aznaviy (988-1030) zamonida g‘ijjak soziga ilk bor asos solingan degan taxminlar mavjud bo‘lib, buyuk faylasuf olimlar Nosir Xusrav, Abu Nosir Farobiy va Ibn Sinolarning musiqa san’ati ravnaqiga, musiqa ilmiga qo‘shgan xissalari tarix zarvaraqlarida alohida qayd etilgan [3]

G‘ijjak milliy soz asbobi dastlabki tuzilishida ikki torli bo‘lib, rivoyatlarga ko‘ra o‘tmishning otashqalb kamon ustasi sexrli sozanda Qulmuhammad Udiy tamonidan uchinchi yo‘g‘on tor tortilib, takomillashib ovoz diapozoni kengaytirilgan, ijro imkoniyatlari ancha boyitilib sevimli soz asbobiga aylantirilgan ekan.







Qoraqalpoq g'ijjagining boshqa xaqlar g'ijjagidan farqi to'rtta tor emas, uchta tor tortiladi. Ustki tordan boshlanib mi-lya-re no'talarida kvarta uslubidan sozlanadi. Tuzilishi bo'yicha g'ijjak asosan uchta qismdan iborat.

1. G'ijjakning chanog'i-chanoq yumaloq bo'lib, suv qovoqdan, tut yoki jiyda yog'ochini o'yib olinadi va ustki qismini ochiq qoldirib yuzini laqqa baliqning terisi bilan qoplanadi. Lekin baliq terisi har xil namlikda g'ijjakning ovozigacha salbiy ta'sir ko'rsatadi va shuning uchun molning yurak pardasidan qoplanadi.

2. G'ijjakning tori- ilgari, o'tkan asrning o'ttizinchi yillariga qadar, g'ijjakning tori ipakdan bo'lgan. Keyinchalik esa skripkaning uchta torini olib hozirgi kunda ham foydalaniladi.

3. G'ijjakning qorpusi, yani dastasi asosiy qismidir-o'rik va tut daraxtidan yasaladi, Dastaning yuqori qismida torlarni ushlab turadigan uchta qulog'i bo'ladi. Torlarni ko'tarib turuvchi quloqning ostida shayton xarragi bo'lib, chanoqning dastaga yaqin yurak pardaning ustiga katta xarrak qo'yilib, shu orqali g'ijjakning torlari ko'tarilib ovozi jarangdor eshitiladi. Asosan g'ijjak cholg'usi tizzaga qoyib chalinadi.

Tarixga nazar tashlasak, g'ijjak soz asbobini mukammal ijro etgan o'tmishning sozandalar peshvosi Said Ahmad G'ijjakiy g'ijjakning ilohiy kuchiga inson ovozi beruvchi tovushiga mavtun bo'lib: “Falak Sharq Quyoshining Zarrin nurlarini faqat g'ijjak kosasi, Tosi uchun yaratganday, alqissa kamoning tori esa Jannat xurlarining soch tolalaridan yaratganday inson ruhiyatini, mungini orzu xavas, umidlarini asrdan-asrga ko'chiradi degan bashorati to bizning kunimizgacha ijro kuchini saqlab kelmoqda. Xaqiqatdan xam g'ijjak navosi odam ruxiyatidan so'ylaydi.

Qoraqalpoq milliy musiqasida g'ijjak soz asbobi dastlab uch torli “Dutor g'ijjak” deb atalib, baxshining ovozi bilan dutorning tovushini yoqimli shirali qochirimlarda bezagan namaning (navoning) hovuji (pardasi) ni ko'targan, baxshi-lar dutorda yangrata olmagan navolarni topib, dator bilan g'ijjak ijrosini uyg'unlashtirgan. Baxshining ovoz





diapozoniga qarab kuylar yaratganlar ham aslida g‘ijjakchilar bo‘lgan. XIX asrga kelib g‘ijjak sozining mohir ijrochilari ustozlar talqinida cholg‘uga xos qonuniyatlarga, maktab va shakllarga bo‘ysunib, ustozdan shogirtga o‘tib, milliylik, umrboqiylik zamiriga asos solingan.

Qoraqalpoq doston ijrochiligi maktabi asosan to‘rtga bo‘linadi

1. Aqimbet-Musa maktabi

2. G‘aribniyoz-Suyav maktabi

3. Arzi maktabi

4. O‘rinboy maktabi

Bu maktablar xar biri o‘z ijrochilik mahorati, soz sozlash va hakazo uslublari bilan bir-biridan farqlanib turgan. Baxshilar asosiy ijro etadigan dostonlari: Sayotxon-Hamro, Oshiq G‘arib va Shohsanam, Yusuf Ahmad, Bazirgon, Go‘ro‘g‘li, Xirmonda-li, Avaz uylangan dostonlari yuzlab qo‘shiq va termalarni o‘rganib ijro etishgan.[4] Qoraqalpoq baxshi san’ati garchi to‘rt maktabdan tashkil topgan bo‘lsa ham, ularni bir-biri bilan mustahkam bog‘lab, biriktirib va to‘ldirib turuvchi yagona vosita-bu Qoraqalpoq milliy xalq cholg‘u asbobi-g‘ijjak sanaladi. Mazkur uch torli g‘ijjak baxshining istedodi to‘laroq namoyon bo‘lishiga yordamlashgan va dutor navosini boyitishga xizmat qilganligi bois har bir baxshi o‘zi bilan g‘ijjakchi olib yurgan. Shu nuqtaiy nazardan qarasak uch torli kvarta uslubida sozlanadigan Qoraqalpoq g‘ijjak sozining moxir ijrochilari Qidirboy, Xolmurod, Ollanazar Boylibesov, Mambet Uzoqov, Qo‘yli Ahmedov, O‘rinboy Jumag‘alyev, Qurbonboy va Jarilqag‘on Esjaovlar, Karimboy Tniboyev va Qoraqalpoq ayol-qizlaridan chiqqan ilk g‘ijjakchi sozanda bo‘lib, ustozlar qatoridan o‘rin olganimdan faxrlanaman.[5]

Ustozlar tamonidan ko‘pgina g‘ijjakda yakkaxon ijro etiladigan xalq kuylari bor. Ulardan Halqali, Muxalles, Dem bermas singari ajoyib navolarni xalqimiz sevib tinglaydi. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki Qoraqalpoq doston ijrochiligi baxshi san’ati bilan barabar o‘sib-rivojlanib, xatto doston kuylarini to‘ldirib mukammallashtirib keloyotgan milliy cholg‘u asbobi g‘ijjakga ikkinchi darajali degan





nazar bilan qarash ayanchli, albatta. G‘ijjak cholg‘usi doston ijrochiligida o‘zining munosib o‘rniga ega, dutorga qo‘shimcha sayqal, baxshilarga tin beradigan, goh baxshi tilidan to‘qilgan soxir ovozga sehr ulashuvchi xususiyatga ega. Baxshilarning aksariyati dutordan tashqari do‘mbira, changqobuzni chalishni bilsalarda, uch torli g‘ijjak chalishni unchlik ham eplay olishmagan. Lekin g‘ijjakchilarning dutorni maxorat bilan chala olishi tarixiy haqiqat.

Xulosa qilib aytganda, milliy cholg‘u asboblarmizdan bo‘lmish g‘ijjakga ham alohida e‘tibor qaratilishi, baxshi sazandalar, san’atshunos olimlarimiz Qoraqalpoq doston ijrochiligida ushbu cholg‘u asbobining tutgan o‘rnini adolatli belgilash vaqti yetib keldi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 1-Xalqaro baxshichilik san’ati festivali ochilishiga bag‘ishlangan tadbirda so‘zlagan nutqi. Xalq so‘zi gazetasi. Toshkent, 2019-yil 7-aprel.

2. Qoraqalpoq xalq namalari, VIII-tom, Adabiyot nashriyoti, 1959-yil.

3. G‘ijjak sehri Gulruh Mamutova Toshkent fan va texnologiya nashriyoti, 2011-yil.

4. Немного о культуре Tamara Davletmurotova Nukus Qoraqalpog‘iston 2021-yil.

5. Matyoqubov B. Doston navolari. Toshkent, 2009-yil.





## BAXSHICHILIK - O‘ZLIKDAN O‘ZLIKKACHA

**Feruzaxon RAHIMOVA,**

*Respublika baxshichilik san’ati markazining*

*Ilmiy rivojlantirish bo‘limi xodimi*

[jj8345471@gmail.com](mailto:jj8345471@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, qadim o‘tmishdan to bizgacha milliyligimiz, urf-odatlarimizdan, o‘zligimizdan kuylovchi va yosh avlodga yetkazish va san’at da o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan baxshichilik haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Sayhun, do‘mbira, epos, doston, baxshi, dutor, Alpomish, Go‘ro‘g‘li,

**Аннотация** В этой пословице говорится о воспевании нашей народности наших традициях передача нашей идентичности от древнего прошлого молодому поколению а также о дарении которое занимает особое место в искусстве

**Ключевые слова:** Сайхун, думбира, эпоса, достон, Бахши, дутор, “Алпомиш”, “Гуругли”.

**Abstract:** It is about the art of bakhshi, which plays an important role in conveying our nationality, history, and identity to the younger generation.

**Key words:** Sayhun, do‘mbira, epic, Bakhshi, dutor, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”

Dunyoda har bir xalqning qadim o‘tmishi tarixi milliylikka yo‘g‘rilgan o‘ziga xos san'ati mavjud. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, Muhtaram Prezidentimizning 2019-yil 6-apreldagi “Xalqaro baxshichilik san’ati festivalining ochilishi tantanalarida so‘zlagan nutqi hamda baxshichilik san’atini saqlab qolish, qayta tiklash, o‘rganish va kelajak avlodga yetkazishda O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni, Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2010-yil 7-oktabrda tasdiqlangan “2010 — 2020 yillarda nomoddiy madaniy meros ob’yektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturi” huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda





Dostonchilik haqida so‘z borar ekan, xalq og‘zaki poetik ijodidagi qadimiy epik an’ana hisoblangan. Dastlab qo‘shiq shaklidagi, musiqa asbobisiz kuylanadigan asarlar yaratilgan. Keyinchalik X-XI asrlar do‘mbira jo‘rligida aytiladiganlari yuzaga kelgan. Dostonchilikning bunday namunalari Kaspiy va Orol dengizlari bo‘ylaridagi qadimiy ko‘chmanchi turkiy qabilalar orasida vujudga kelgan. Epik dostonlarni yaratuvchi va kuylovchi badihago‘ylar ko‘payib borgan sari ustoz-shogirdlik an’analari vujudga kela boshlagan. Natijada XV-XVI asrlarga kelib ko‘pgina dostonchilik maktabi paydo bo‘ldi. XVII-XVIII asrlar dostonchilik taraqqiyotida jiddiy ko‘tarilish bosqichi yuzaga kelgan bo‘lsa, XIX-XX asrlar esa uning eng rivojlangan davri bo‘ldi.

Bu davrda, Samarqandda Bulung‘ur, Narpay, Qo‘rg‘on, Qashqadaryoda Shahrizabz, Qamay, Surxondaryoda Sherobod, Xorazimda Xorazim dostonchilik maktablari yuzaga kelgan. Qashqadaryo va Surxondaryo dostonchilik maktablari an’ana, uslub jihatdan bir-biriga juda yaqin. Shu jihatdan, bu viloyatlar maktablari, bir nom bilan, “Janubiy O‘zbekiston dostonchilik maktablari” yoki “Voha dostonchilik maktablari” deb ham yuritiladi. Janubiy O‘zbekiston dostonchilik maktablariga, keyinchalik, yana bir qancha maktablar qo‘shilib, kengayib borgan. Boysun, Beshqo‘ton, Chiroqchi, Kofirun, shular jumlasidandir. Dostonchilikning taraqqiyoti, yetuk baxshilarning yetishib chiqishi, ustoz-shogirdlik an’anasi, yangi, faqat o‘zining repertuarda uchraydigan dostonlari va badihago‘ylik nuqtayi nazaridan yana bir qancha dostonchilik maktablarini qatorga qo‘shishimiz ham mumkin.

Baxshichilik – ikki buyuk daryo, Jayxun va Sayxun oralig‘idagi sivilizatsiyalarni yaratish qudratiga ega bo‘lgan ulug‘ ajdodlarimizdan meros. Baxshi doston va qo‘shiqdarni qo‘biz, do‘mbi-ra, dutor kabi sozlar jo‘rligida kuy-laydi. Xorazm Baxshilari dostonlarni asosan, dutor, qisman tor bilan ijro etadilar, ularga g‘ijjak va bo‘lamonda sozchilar jo‘r bo‘ladilar. Doston kuylash, shog‘ird yetishtirishda qat’iy tartib, qonun-qoidalarga rioya qilingan ( Dostonchilik);2) mo‘g‘ullar istilosi davrida budda dinidagi qalandarlarini, uyg‘ur alifbosi asosida turli hujjatlar tuzuvchi idora xodimlarini, mo‘g‘ullardajarrohlarni. Chig‘atoy ulusi, Oltin O‘rda, Qozon va Qrim xonliklarida kotiblarni, Boburiylar davlatidagi harbiy qismlarning hisobkitob ishlarini olib boruvchi va ularga maosh to‘lovchi yirik amaldorlarni, Buxoro





xonligida ma’muriy binolar qurishda mablag‘ (sarf-xarajat) hisobini olib boruvchi kishilarni, turkmanlarda urut oqsoqollarini ham Baxshi deb atashgan. Barcha turdagi dostonlarni ijro etuvchilar umumiy ma’noda baxshilar deb yuritildi. Ustoz folklorshunos H. Zarifov baxshi so‘zi mo‘g‘ulcha so‘z bo‘lib ustoz, ma’rifatchi ma’nolarini bildirishini ta’kidlaydi.

Baxshilar xalq hayotida katta o‘rin egallagan bo‘lib, dostonlarda mehnatkash ommaning ideal orzu-umidlarini kuylashgan. Hayratomuz xotira kuchiga ega bo‘lgan xalq baxshilari dostonlarda ijtimoiy-siyosiy xayotni ko‘tarinki tuyg‘ular, yuksak umid-istaklar bilan aks ettirgan holda tarixni badiiylashtirganlar. Baxshi xotirasi nihoyatda o‘tkir bo‘lib, u bir eshitganni yodda saqlab qola olishni talab qiladi. Ustoz ijro etgan doston matni ham, ijro usuli va yo‘li ham, musiqa ohanglari ham shogird ongiga jo bo‘lishi lozim.

Dostonlar musiqa jo‘rligida ijro etilgani uchun baxshilar soz (do‘mbira, qubiz, dutor)ni yaxshi bilishi, xilma-xil kuylarni cherta olishi, zaruriyat bo‘lganda, o‘zlari ham yangi kuy yaratishi talab qilingan. Turkiy xalqlar, xususan, O‘zbek xalqi tarixida xalq kitoblarining ajoyib namunalari behisob.

Respublikamizda, shuningdek, Janubiy Tojikiston va Turkmaniston hududlarining o‘zbeklar yashaydigan qismlaridagi dostonchilik maktablari, ularning xalq ma’naviy, ruhiy, axloqiy dunyoqarashiga ta’siri, baxshilar repertuari va ijodidagi o‘ziga xosliklar va umumiyliklar, bu san’atning davomiyligida ustoz-shogirdchilik va oilaviy shajara (an’ana)ning o‘rni, voha dostonlarini turkumlashda va tasniflashda umumo‘zbek eposiga o‘xshash va o‘ziga xos jihatlar, baxshilarning badiiy mahorati hamda umumo‘zbek madaniyatiga qo‘shgan hissasi kattadir. “Ibrohim Adham”, “Bobo Ravshan”, “Hazrat Ali”, “Yusuf va Zulayho”, “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin”, “Vomiq va Uzro”, “Sayful Malik”, “Hikoyati Go‘ro‘g‘li Sulton”, “Nuralining bandi bo‘lishi” singari asarlar qissaxonlar repertuaridan mustahkam o‘rin egallagan. Qissaxonlik shaharlarda rivojlangan bo‘lsa, baxshichilik qishloq va ovullarda keng tarqalgan.

O‘zbek xalq dostonlarning tarixiy taraqqiyotiga nazar tashlanar ekan, traditsion eposning yaratilish davri bilan uning keyingi rivojlanishini, ya’ni jonli og‘zaki an’anada yashashi, ijro va qayta ijod sharoitlarida o‘zgarishi, mukammallashishi yoki aksincha, jarayonlarni





ham hisobga olish kerak bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, keyingi davrlarda yozib olingan va qo‘limizda mavjud bo‘lgan an’anaviy eposning deyarli barcha namunalari XVI—XVIII asrlarda va undan keyin yaratilgan, degan mulohazalar jiddiy tekshirishni talab qiladi. Bizningcha, qahramonlik eposining yuzaga kelishi xalq dostonchiligining keyingi taraqqiyotiga jiddiy ta’sir etdi. Natijada jangnoma-dostonlar, tarixiy va romanik eposning bir qancha namunalari yaratila boshladi.

Bu jarayon taxminan XII asrlardan boshlanib, XVII asrlargacha davom etdi. Buni shartli ravishda an’anaviy eposning aktiv yaratilishi davri deb atash mumkin. Janubiy O‘zbekiston dostonchiligida ham “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Rustam”, “Avazxon”, “Nurali” va boshqa turkumdagi ko‘plab dostonlar sevib kuylangan. Ammo umumo‘zbek dostonchilik maktabi baxshilari repertuarida uchramaydigan “Ollonazar Olchinbek”, “Oychinor”, “Kelinoy”, “Oltin qovoq”, “Zayidqul”, “Malla savdogar”, “Shahidnoma” kabi dostonlar borligi va ijro etilishi bilan alohida ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, “Go‘ro‘g‘li” turkumiga mansub dostonlar Janubiy O‘zbekiston baxshilari repertuarida alohida joy olishi bilan bir qatorda Go‘ro‘g‘lining asrandi farzandi Avaz va uning farzandi Nurali haqidagi dostonlar ommalashgan. Hattoki, “Nurali” dostonlari alohida turkumlikni tashkil etgan. “Nurali” turkumidagi dostonlarning ko‘plab namunalari Janubiy O‘zbekiston dostonchilik baxshilari nomi bilan bog‘liqdir. Shunday bo‘lishiga qaramasdan bu vohada “Hasanxon” turkumi, “Kuntug‘mish”, “Murodxon” singari dostonlar ko‘p ijro etilmagan. Ammo ba’zi baxshilarning savodxonligi, chop ettirilgan doston variantlarini o‘qib o‘zlashtirishlari bu voha dostonchiligida ham ana shunday dostonlarning ijro etilishiga sabab bo‘lgan.

Baxshi — qo‘shiq va dostonlarni yoddan kuylovchi, aytuvchi, avloddan-avlodga yetkazuvchi san’atkor, xalq dostonchisi. Ular ijrochi va ijodkor baxshilarga bo‘linib, ijrochi baxshilar, asosan, ustozidan o‘rgangan dostonlarni juz’iy o‘zgarishlar bilan aynan kuylaydilar

Baxshichilikda, Surxondaryo va Qashqadaryo baxshilari bo‘g‘iq ovoza asosiy urg‘uni so‘zga ya’ni badixaga qaratadi. Xorazm baxshilari esa asosiy urg‘uni kuy, nag‘maga qarata ijro qilishadi. Qorqalpog‘iston respublika baxshilari jirovlari oxanga qaratishadi. Bunda Xorazm va Qoraqalpoq.... Yod olishib ijro etishadi.







Surxondaryo Qashqadaryo voaha baxshilari badixa asosida ijro qilishadi, bunda doston syujeti o‘z o‘rnida she’ri, qo‘shig‘i esa xar bir baxshining badixa qilish darajasidan kelib chiqib kuylanadi.

Baxshilar ijrosidagi “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Kuntug‘mish”, “Rustamxon”, “Murodxon”, “Misqol pari”, “Xasanxon”, “Avazxon”, “Ravshan”, “Intizor”, “Erali”, “Oysuluv” va boshqa ko‘plab shu kabi dostonlar el ardog‘iga sazovor etilgan. Dostonlar- xalqning tarixi , el-ulus o‘tmishining bayoni, orzu- armonlari kechmishi , bir siz bilan aytganda xalq tarixining qo‘shig‘i, taqdirining ohangi, qismatining mungli musiqasi, kelajakning shodon yallasi. Baxshilar esa ana shu xalq tarixining kuychisi, tengsiz hofizi, to‘g‘rirori, ajdodlar va avlodlar o‘rtasidagi oltin zanjir, tarixni tarixga og‘zaki ko‘chiruvchi , tarixni tarixga muhrlovchi, tarixni tarixda qoldiruvchi mohir ijodkor .Muxtasar aytganda biz o‘zbek xalqimizning ajdodlarimizdan yetib kelgan buyuk madaniy merosni asrashimiz va yoshlarga tanitish kelajak avlodga yetkazishda chora tadbirlari hamda yangi qator qarorlar qabul qilinmoqda. Badiiy an’analar xalq baxshilarining takrorlanmas amaliyoti va tinimsiz mehnati bilan bizgacha yetib kelgan. Shu tariqa bir-biridan go‘zal, bir-biridan sara termalar va dostonlar butun salobati va malohati bilan hali-hanuz tinglovchilarni bahramand etib kelmoqda. Ular qadimdan inson qalb torining eng nozik rishtalarini qo‘zg‘atgan, estetik va ruhiy ozuqa ulashib kelgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Abduolim Ergashev. Baxtiyor Ahmedov . “Baxshichilik san’ati va dostonchilik maktablari”.
2. “Baxshichilik san’ati - umuminsoniy qadriyat”. O‘zbekiston respublikasi San’ati arbobi professor Tursunali Qo‘ziyev
3. Afzalov M. O‘zbek xalq shoirlari // Sharq yulduzi, 1946.
4. Ergashev A. Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchiligi. – T. “Fan” 2008.
5. Razzoqov H., Mirzayev T. va b. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. 1980.
6. Qahhorov A., Yangi dostonlar, T., 1988.
7. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000.







8. Jirmunskiy V.M., Zarifov X.T. Uzbekskiy geroicheskiy epos.  
M.: GIXL, 1947.

9. Aliqulova H. Yor-yor qo‘shiqlari va xalqona so‘zning o‘ziga  
xos ifodasi // Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti Respublika  
ilmiy-maliy anjumani materiallari. T.: 2021.

10. <https://www.researchgat>





## SHARQ XALQLARINING BEBAHO BOYLIGI - DOSTONLARNING PARDA ASOSLARI

*Latofat MO‘MINOVA,*  
*Respublika musiqa va san’at kolleji*  
*katta o‘qituvchisi, O‘zDK doktoranti*  
[\*mominovalatofat@gmail.com\*](mailto:mominovalatofat@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Sharq xalqlarining og‘zaki ijodiyotida muhim o‘rin tutadigan eng qadimiy va boy san’at doston ijrochiligi san’ati hisoblanadi. Bu sinkretik san’at o‘z ichiga so‘z san’ati, soz san’ati, badihago‘ylik va tomosha kabi eng muhim ijodiy san’atlarni o‘zida mujassamlashtirgan.*

**Kalit so‘zlar:** *doston, baxshi, qaror, maqom, lad-parda, usul, sabboba, g‘usta, binsir, xinsir, sarparda, shirvon parda, miskin parda, lol parda, zorinji parda.*

**Аннотация:** *Древнейшее и богатое искусство, занимающее важное место в устном творчестве народов Востока – это искусство дастан эпического перформанса. Это синкретическое искусство включает в себя важнейшие творческие искусства, такие как искусство речи, музыки, драмы и зрелища.*

**Ключевые слова:** *дастан, бахши, макам, лад, ритм, саббаба, густа, бинсир, хинсир, сар парда, ширван парда, miskin парда, lol парда, зоринджи парда.*

**Abstract:** *The most ancient and rich art, which occupies an important place in the oral creativity of the peoples of the East, is the art of dastan of epic performance. This syncretic art includes the most important creative arts such as speech, music, drama and spectacle.*

**Key words:** *dastan, bakhshi, makam, lad, rhythm, sabbaba, gusta, binsir, khinsir, sar parda, shirvan parda, miskin parda, lol parda, zorinji parda.*

Dostonlar asrlar davomida insonlarning ma’naviy va ruhiy ozuqasi bo‘lib kelgan. Baxshilar tomonidan kuylanib, mazmunan yetuk, shakl va uslub jihatdan xilma-xil ijod qilingan dostonlar bizning davrimizgacha avloddan-avlodga, ustozdan-shogirdga yetib kelgan.





Ayniqsa, mutaqillik yillaridan keyin dostonchilik an’analariga elimizning jonli merosi sifatida qiziqish va e’tibor kuchaydi.

Xususan, mustaqillik yillarida “Alpomish” dostoni yaratilganligining 1000-yilligining keng nishonlanishi, “O‘zbekiston xalq baxshisi” faxriy unvonining ta’sis etilishi, bugungi kunda esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan qaror va farmonlarning joriy qilinishi soha rivoji uchun biz yosh olimlar zimmasiga katta mas’uliyat yukladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 31-maydagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 2018-yil 28-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, 2018-yil 26-apreldagi “Baxshichilik va dostonchilik san’atini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VMQ-304-son qarori, 2019-yil 14-maydagi “Baxshichilik san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4320-son qarori, 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF- 6097-son farmoni, 2023-yil 25-dekabrda “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-405-son qarorlari, qolaversa, YUNESKO tomonidan insoniyat nomoddiy madaniy merosi sifatida representativ ro‘yxatidan o‘rin olgan dostonchilik san’ati chuqur o‘rganishni taqozo etuvchi an’anaviy musiqiy yo‘nalish hisoblanadi.

Dostonchilik san’atining she’riy matnlari bir muncha tadqiq etilgan bo‘lsada, musiqiy asoslari ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotga muhtoj. Necha asrlik bu san’at hatto maqomlarning yaratilishiga asos bo‘lgan - deya e’tirof etadi san’atshunoslik fanlari nomzodi, professor B.Matyoqubov. Ya’ni, maqomlarning parda tovushqatorlari, ohang-u turkumlanish shakllari doston an’analari ta’sirida paydo bo‘lgan. Maqomlarda xuddi dostonlar kabi soqiynoma, muhammas, ufor, qadim zarb, gul ufor kabi doira zarblarining qo‘llanilishi, kichik yoki katta hanglarning qo‘llanilishi, lad pardalaridagi umumiy jihatlari, bunga asos bo‘la oladi. Masalan, “Avazxon” dostonida “Qirq ming ilg‘or” nomasining lad asosi “Ushshoq” pardalariga, “Naylarman II” nomasining lad asosi “Rost” maqomi pardalariga, “Gulandom”





nomasining lad asosi “Segoh” pardalariga to‘g‘ri kelishi parda tovushqatorlarida umumiylik borligini isbotlaydi. (Havola: B.Matyoqubov “Doston navolari” T.2009. 60-64 B.) Ayni chog‘da nomalardagi kuy va so‘z bog‘lanishi maqomlardan va yirik ashulalardan farqli o‘laroq, har biri nisbatan erkinligi, o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Shu o‘rinda parda so‘zini izohlashni lozim topdik. Parda bu-ohanglar tizimi, maqom. Qadim yunon yoki Rumlarda pardalarni sarhisob etish 4 tovushliklar ichida bo‘lgan va u **jins (tur)** deyilgan. Qattiq jins, yumshoq jins, mo‘tadil jins- deya pardalar munosabatiga nisbat berilgan.

Keyinchalik (XIII asr) Sharqda boshqacha, Yevropada boshqacha tizim qaror topgan. Yevropada 1 oktavada hisoblash odat tusiga aylandi. Ladlar – major, minor, xalq musiqasiga xos ladlar - doriy, frigiya, lidiya, ioniya, eoliya, gipofrigiya kabi ladlar pardalarning munosabatini bildirgan.

Sharqda esa pardalar maqom nomi bilan atalib har bittasi nomlab qo‘yilgan. Buzruk, Ushshoq, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq va h.k.

Parda tizimlari – amaliy misollarda keltirish uchun cholg‘u sozlarida ko‘rsatilgan. Masalan sharqda eng ko‘p shu sohada misol qilib olinadigan 2 ta cholg‘u tanbur va dutor bo‘lgan. Chunki bu sozlarning dastasida shu pardalarning hammasi chegaralangan. Dutor dastasiga qaraladigan bo‘lsa, pardalarning ajralgan qismini yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Boshqa cholg‘ularda bu bir muncha murakkablik tug‘diradi. Masalan, nayda, yoki g‘ijjakda pardalarning bo‘lingan joyi yo‘q. Shunday bo‘lsada, hammasida barmoq bosadigan o‘rni parda deb olingan. Shuning 4 tovushliklar ichidagi pardalarni barmoqlar nomi bilan tushuntirganlar.

Masalan, Farobiy, Ibn Sino, Xorazmiylarning risolalarida bu tizim notalarning o‘rniga - barmoqlarning qo‘yiladigan joyiga qarab pardalar bildirilgan.

Bosh barmoq (birinchi yoki ko‘rsatkich barmoq)- **sabboba**

O‘rta barmoq – **g‘usta**

Nomsiz barmoq – **binsir**

Jimjiloq – **xinsir** (Havola: O.Matyoqubov “Og‘zaki an‘anadagi professional musiqa asoslariga kirish” O‘qituvchi. T.1970.620 B)





O’rta barmoq – **g’usta** eng muhimi hisoblangan. Chunki binsir, xinsirlar doim bir joyda bir xil harakat qilgan. Lekin g’usta har bir parda tuzilmasida boshqacha bo’lib kelgan. Ularni maxsus nomlar bilan yuritganlar. Masalan, Farobiyning kitobida g’ustalarning 5 xili ko’rsatilgan. *Qadimiy g’usta, fors g’ustasi, zalzal g’ustasi* va h.k. Shunga qarab parda tuzilmasining nomlari yuzaga kelgan.

Vaqt o’tib, Sharq xalqlarida Forobiy, Xorazmiy, Ibn Sinolardan keyin, XIII asrdan boshlab “Ikkinchi Uyg’onish davri” deb e’tirof etiladigan zamonlarda shunday bir ta’limot yuzaga keldiki, u nafaqat Sharq, balki G’arb musiqiy tafakkuriga ham salmoqli ta’sir ko’rsatdi. Aql-idrok negizlariga tayangan ta’limot tarixda umuminsoniy musiqiy qadriyatlar kitobining yorqin sahifalaridan biri bo’lib muhrlandi. Bu – “ilmi advor” (“doiralar ilmi”) ta’limotidir. Hazrat Navoiyning “Sab’ai sayyor”ida xorazmlik Ulug’ Xoja tilidan aytilgan baytlarda musiqa ikki – ilmiy-nazariy (ilmi advor) va amaliy (fanni musiqiy) tarmoqlarga ajratiladi:

Menki tushmish buyon guzor manga,  
Mulki Xorazm erur diyoz manga.  
San’atim anda soz chalmoq ishi,  
Bilmayin men kibi ishimni kishi.  
Ilmi advoru fanni musiqiy,  
Mendin ul ilm ahli tahqiqiy.

Xorazm baxshilarining asosiy cholg’usi bo’lmish dutor pardalarining tuzilishi va qaysi nomani qay pardadan boshlanishini iliy tadqiq etish zarur. Biroq, Xorazmda Bola baxshi 1933-yildan boshlab tor cholg’usini o’ziga jo’rnavor soz sifatida qabul qilgani, keyin esa shogirdlari unga ergashib ketishlari natijasida tor baxshilarning jo’rnavor cholg’usi sifatida tan olinganini hisobga olish zarur. Keyinchalik bu vohaning baxshi va sozandalari orasida dutor va tanbur o’rmini tor cholg’usi egallay boshlagan. Tabiiyki, bunday sharoitda dutorning o’ng qo’l zarblari, ijro uslubining ba’zi qirralari torning o’ng qo’l ijrochiligiga xam ta’sir qilgan. Lekin chap qo’l, ya’ni parda tuzilishlaridagi va sozlanishdagi farqlar, ularning nomlanishini ma’lum darajada unutilishiga olib kelgan. Bola baxshi hamda farzandlari O’zbekiston xalq baxshisi Norbek va Matyoqub Abdullayevlar ko’magida dutorning parda tuzilishi va ularning qanday nomlanishini





tiklashga muvaffaq bo‘lindi. Pardalarning asosiylari beshta bulib quyidagicha nomlanadi:

1. Sar parda yoki bosh parda (besh parda).
2. Shirvon parda.
3. Miskin parda.
4. Lol parda.
5. Zorinji parda.

Bu pardalar xar biri uz xolicha alohida tovushqator tizimini xam anglatadi va muayyan tovushlar yirndisidan tashkil topadi. Ular dutor pardalari chizmasida quyidagicha kurinishga ega: Ushbu pardalar dutorda barmoq bosqichlarini aks etgirib qolmasdan, muayyan tovushlar tuzilmasini tashkil qiladi. (Havola: B.Matyoqubov “Doston navolari” T.2009. 57 B.)


**Sar parda**, dutor kichik oktava re tovushiga sozlanganda quyidagi besh pardani o‘z ichiga oladi:



Sar pardadan Xorazm dostonlarining rivojlangan, nomalari boshlanadi. Bu haqida “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonida ikki ko‘zi ko‘r bo‘lib qolgan G‘aribning onasi Ovodon momo o‘z o‘g‘lini tanimasdan uning mohirona dutor chalishini eshitib quyidagicha ta’riflaydi:

Halaf Shirvondan yo‘l olib,  
Galishing o‘g‘lima mangzar.  
Sar pardadan maqom kasib,  
Chalishing o‘g‘lima mangzar.

**Shirvon parda** - dutor kichik oktava re tovushiga sozlanganda quyidagi yetti parda yig‘indisidan tashkil topadi:



Avjlari uncha baland bo‘lmagan, shakli jihatidan ihcham nomalarning ko‘pchiligi shirvon pardasidan boshlanadi. Masalan, “Shirvoniy”lar, “Qirqming ilg‘or”, “Gulandom”, “Noma boshi” va boshqa ko‘pchilik nomalar shular jumlasidandir.






**Miskin parda** - bu tovushqator faqat Xorazm baxshilarida uchraydigan atamadir. U dutor kichik oktava re tovushiga sozlanganda quyidagi tovushlar yig‘indisidan tashkil topadi:



Xorazm dutor maqomlarida birinchi maqom “Miskin” deb yuritiladi va ikki qismdan iborat. (Havola: Mulla Bekchon Raxmon o‘g‘li, Muhammad Yusuf Devonzoda “Xorazm musiqiy tarixchasi” T., tuzuvchi. 1998 Y. 34-35 b.)

**Lol parda** - ovozi chiqmaydigan, bosganda tovush xosil bulmaydigan pardalarga aytiladi. Ular dutor dastasidagi 6 va 11 bosqichlardir:



Hozirgi dutorlarda 6 bosqich lol pardaligicha qolgan, 11 bosqich esa parda boylami bog‘lanib do diyoz tovushi hosil qilingan. Lol pardalardan hech qanday noma boshlanmaydi.

**Zorinji parda** - zorlanuvchi, yalinuvchi ma’nolarini bildiradi. Bu pardalar asosan “Zorinji” nomalari ichida aks etadigan orttirilgan sekundalardan tashkil topadi. Mazkur nomalar garchi Sar va Shirvon pardalarning birinchi bosqichlaridan boshlansa ham o‘rtada lol pardalar (baxshi ovozida) borligi seziladi va buning natijasida orttirilgan sekundalar hosil bo‘ladi.



Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, doston ijrochiligini musiqiy olami bugungi kungacha xalq ashulalari, xalq og‘zaki ijodiyotida saqlanib, sayqallanib kelayotgan bir jabha hisoblanadi. Shu o‘rinda baxshilar ijrolarini eshitib ulg‘aygan avlod vakillari ichida kompozitorlar Rustam Abdullayev, Mirsodiq Tojiiyev, xonandalar Komiljon Otaniyozov, Xojixon va Nurmuhammad Boltayev, Otajon





Xudoshukurov, Bobomurod Hamdamov, Ortiq Otajonov, estrada xonandasi Mahmud Namozov va boshqa ko‘plab san’atkorlar tomonidan doston nomalariga bir muncha murojaat etgan. Ular doston nomalari asosida mohirona asarlar yaratib xalq qalbidan joy egallaydigan ajoyib namunalar ijod qilishgan. Shunday ekan bu merosni abadiylashtirish, rivojlantirish, kelajak avlodga busbutunligini yo‘qotmasdan yetkazish biz yosh avlod zimmasiga yuklangan mas’uliyatli vazifadir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mulla Bekchon Raxmon o‘g‘li, Muhammad Yusuf Devonzoda “Xorazm musiqiy tarixchasi” T., 1998.
2. O. Matyoqubov “Og‘zaki an’anadagi professional musiqa asoslariga kirish” O‘qituvchi. T., 1970.
3. B. Matyoqubov “Doston navolari” Ilmiy nashr. T., 2009.







## XORAZM DOSTONCHILIGI VA ULARNING UMUMIY TAVSIFI

*Nasiba XO‘JANOVA,*  
*Respublika baxshichilik sa’nati markazi xodimi*  
[\*nasibaxujanova86@gmail.com\*](mailto:nasibaxujanova86@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xorazm xalq og‘zaki ijodi, uning tarixi va bugungi kundagi ahamiyati haqida so‘z boradi. Xorazm baxshichiligining o‘ziga xos xususiyati, baxshilarining repertuarlari hamda xalfachilik san’ati haqida atroflicha fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Siyovush, lapar, kishilik jamiyati, xalq ijrochiligi, xalfachilik san’ati,

**Аннотация:** В этой статье рассказывается о Хорезмском народном устном творчестве, его истории и значении сегодня. Подробно рассмотрены особенности Хорезмского бахшизма, репертуары Бахши, а также искусство халфата.

**Ключевые слова:** Сиёвуш, лапар, общество личности, народное исполнительство, народное искусство,

Xorazm xalq og‘zaki ijodi juda qadimiy va boy san’at turi bo‘lib, uning namunalari bugungi kunda ham saqlanib qolgan. Chunki barcha san’atlarning negizida xalq og‘zaki ijodi turadi.

Folklor ijrochiligi, xususan, Xorazm folklor ijrochiligi millatning ma’naviy, musiqiy boyligi bo‘lishi bilan bir qatorda uning mazmunida milliy urf-odatlarini, an’analarni, Xorazm mentalitetini o‘zida ifodalaydi. Xorazm xalq og‘zaki ijodi, bu yurtning betakror san’ati, laparlari tarixi uzoq tarixga borib taqaladi. Bu haqida Abu Rayhon Beruniy o‘zining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida quyidagicha yozadi: “Xorazm vohasiga odamlar miloddan avvalgi 1292-yillarda joylasha boshlaganlar. Shundan 92 yil o‘tgach, ya’ni miloddan avvalgi 1200-yilda Xorazmda Kaykovusning o‘g‘li Siyovush kelgan va afriq’iylar sulolasiga asos solgan. Ular kishilik jamiyatining ilk davrlaridan boshlab o‘zlarining boy madaniy va ma’naviy merosiga ega bo‘lgan”. Bu haqida S.P.Tolstovning “Qadimgi Xorazm sivilizitsiyasini izlab” kitobida shunday yozadi: “Tuproq qal’adagi





marosimlar zali devorlarida rombsimon kataklarga mashshoqlarning rasmi ishlangan. Shu rasmlardan biri arfa cholg‘u asbobini chalayotgan ayol sarg‘ish rangdagi nafis rasmi butunicha saqlanib qolgan. Shu xonada surnay va qum soati shaklidagi qo‘sh nog‘ora tasvirlangan naqsh fregmenti, yana bir xonadan esa niqob bilan o‘ynayotgan ayol tasviri topildi. Bularga o‘xshash rasmlarni Rim davridagi Suriya-Misr va qisman Qora dengizning Shimolidagi muzofoti tasviriy san’atida, O‘rta dengiz vohasi hamda Hindiston, Eron san’atida yaratilgan obrazlarda uchratish mumkin. Shu tariqa bu rasmlarda ikki badiiy uslub, ikki badiiy an`ana bir- biriga uyg‘unlashib ketgan, biroq ular qadimgi Xorazm san`ati negizida o‘ziga xos o‘zgarishlarga uchragan”(1). Qadimgi davridayoq shunday madaniyatga ega bo‘lgan xalqorasida iqtidorli baxshilarning yetishib chiqishi tabiiy holder. Xorazm ijrochilik san’ati folklor namunalarida o‘z aksini topgan. Bu qadimgi davrlardan davom etib kelayotgan o‘lmas an`anadir. Xorazmda “Yurtga balo kelar bo‘lsa, to‘ra bilan to‘zon kelur, yurtga davlat qo‘nar bo‘lsa, baxshi bilan o‘zon kelur” degan hikmatning keng tarqalgani bejiz emas. Shu narsa e’tiborni tortadiki, amiri, xonlar ham baxshilar xizmatidan foydalanganlar. Bunda ikki guruh baxshilar farqlanadilar. Birinchi guruh baxshilar xonu- beklar saroyida yashab, ularning turli safarlarida hamroh bo‘lgan. Masalan, Buxoro amiri huzuridagi Ernazar Qobon, Xiva xoni Muhammad Rahimxon II saroyidagi Riza baxshilar shunday baxshilardir. Ikkinchi guruh baxshilar maxsus chaqiriqlar bilangina saroyga kelib doston kuylaganlar. Xorazm baxshilari Oshiq Oydinni dostonchilarning piri deb hisoblaydilar. Bu tabarruk shaxs Turkman baxshilarining ham piri hisoblanadi. Xorazm baxshilarining repertuarlarida ularning kuylari juda ko‘p va xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bu yerda baxshilar eng avvalo yoqimli ovozga ega bo‘lgan sozanda va xonanda sifatida maydonga chiqdi. Ularda dostonning har bir she’riy parchasi ma’lum bir kuyda ijro etiladi. Xorazm dostonchiligi badiiy matnda improvizatsiya muhim rol o‘ynamaydi, balki musiqa yetakchilik qiladi. Baxshining mahorati, badiiy qobiliyati kuy hamda chiroyli ijroda namoyon bo‘ladi. Xorazm dostonchiligida qahramonlik dostonlari deyarli uchramaydi. Bu hudud baxshilari repertuarlarida ishqiy-romantik dostonlarning hamma turlari uchraydi. Ayniqsa, “ Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Oshiq Mahmud”, “Oshiq Oydin”, “Oshiq





Alvand”, “Sayyodxon va Hamro”, “Hurliqo va Hamro”, “Tohir va Zuhra”, “Layli va Majnun”, “Sanobar”, “Qumri”, “Yusuf bilan Ahmad”, “Tulumbiy” kabi dostonlar Xorazmda mashhur. Xorazmda tarqalgan “Go‘ro‘g‘li” turkumdagi dostonlari ham boshqa hududlaridagidan turkumlanish xususiyatlari, syujet tarkibi va dostonlar soni jihatidan, obrazlar talqini jihatidan ham farq qiladi. “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari Xorazm vohasida shunday keng yoyilganki, bu yerda uning shoxobchalaridagi she‘rlardan biror parchani bilmaydigan kishi topilmaydi. Shu sababdan bo‘lsa kerak, professor M.Saidov haqli ravishda “O‘zbek xalqi orasida bu eposni, avvalo Xorazmdan axtarish kerak” deb yozadi. “Go‘ro‘g‘li” turkumiga kiruvchi dostonlar ham “Oshiq” turkumi dostonlari kabi qo‘lyozma dostonlarga borib taqalishi sababli, hajman ancha ixcham, uzog‘i bilan 2,5-3 soatga mo‘ljallangan. Ta’kidlash lozimki, “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarining fanga 40 dan ziyodi ma’lum bo‘lgani holda, ular alohida-alohida olinganda hajman juda kichik, ya’ni 25-30 sahifani tashkil etadi. Ma’lumki, Xorazmda lisoniy jihatdan o‘zaro farqlanuvchi ikkita sheva bor: o‘g‘uz va qipchoq shevalari. Xorazmning janubiy qismida yashovchi aholining tili o‘g‘uz, shimoliy qismidagi aholining tili esa qipchoq shevasidir. Ushbu lisoniy xususiyatga asoslangan holda Xorazm dostonchiligi ham ikkita an’ana asosida o‘rganiladi:

1. Janubiy Xorazm dostonchilik an’analari. Uning markazi shartli ravishda Xiva bo‘lgani holda, Hazorasp, Bog‘ot, Yangiariq, Qo‘shko‘pir, Urganch, Xonqa, Shovot, To‘rtko‘l, Ellikqal’a tumanlarini qamrab oladi. Bu yerda tarqalgan dostonlar sof o‘g‘uz lahjasida ijro qilinadi: *Shu vaqtda bebori dushman (k>g) galsa xabar (e>a) barish uchun korovulda (t>d) durgan, Go‘ro‘g‘lining ikki yigiti ham ot solib qoldi.* (Xirmondali dostonidan). Muzikasi Xorazmning qadimgi kuylari, maqom yo‘llari bilan chambarchas bog‘langan.

2. Shimoliy Xorazm dostonchiligi an’analari. Uning markazi shartli ravishda Mang‘it shahri deb belgilangani holda, Gurlan, Amudaryo, Beruniy kabi shimoliy tumanlarini o‘z ichiga oladi. Shimoliy Xorazm dostonlari Janubiy Xorazm dostonlariga nisbatan keyinroq rivojlanganligi sababli, ular o‘rtasida ustozshogirdlik an’anasi mavjud. Jumladan, Shimoliy Xorazmda mahalliy sheva qipchoq lahjasi hisoblansa, dostonlarning nasriy o‘rinlarida qipchoq-o‘g‘uz, nazmiy o‘rinlarda o‘g‘uz-qipchoq lahjalarida ijro qilinadi: (x>q) *Xirmondali*





( $g > k$ ) Ko‘ro‘g‘lining ( $x > q$ ) koraz ( $y > j$ ) juklaganday minip, o‘ngirip, ( $k > g$ ) go‘zzi oqarip, qo‘rqip yotti. U kimsa o‘turlar ( $t > d$ ) do‘rda Muhabbat ocharlar ( $ga > a$ ) darda U kimsa ( $y > j$ ) jiynalgan yerda Tilni azbari ( $e > a$ ) nadi? Musiqasiga esa, Xorazmning qadimgi kuylari, maqomlari singishib ketgan bo‘lib, nisbatan mustaqil kuylarga ega ekanligi seziladi.

Xorazm dostonchilik maktabi bir qancha xususiyatlari bilan ajratib turadi. Buning sabablarini tadqiqotchilar Xorazmning hududiy o‘ziga xosligi bilan bog‘laydilar. Xorazm vohasi hududiy jihatdan bir necha xalqlarning - o‘zbeklar, turkmanlar, qoraqalpoqlar, tojiklar, qisman qozoqlarning madaniyati uchrashgan makondir. Shu sababli bu yerning dostonchilari “auditoriyaga qarab o‘zbekcha, turkmancha yoki boshqa tilda kuylay oladi”. Xorazm dostonlari hajman qisqa, mazmunli, bir vaqtda o‘ynoqi sozi, yig‘loqi nidosi bilan ham boshqa dostonchilik maktablari ijrosidan farqlanadi. Baxshilar doston ijrosi davomida tinglovchining yoshi, dunyoqarashi, kasbi-korini hisobga olib, o‘zidan shu tinglovchilar didiga, xohishiga mos jummalarni qo‘shib, davrada jonlanish paydo qiladi va doston oxiriga qadar shu holatni saqlab qoladi. Xorazm dostonchiligida shunday jumlar uchraydiki, ular doston jo‘shqinligini, ma‘nodorligini, xalqchilligini oshiradi. Shu bois Xorazm dostonchiligining o‘ziga xos jihatlarini alohida aspekt sifatida o‘rganish folklorshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Yana bir o‘ziga xoslik epik asarlarni elga yetkazishda O‘zbekistonning deyarli barcha yerlarida yakka ijrochilik hukmronlik qilsa, Xorazmda jamoviy ijrochilik yetakchilik qiladi. Xorazm baxshilari terma sifatida dostonlardan bo‘laklar, Maxtumquli she‘rlaridan, pand-nasihatlardan bilan bog‘liq turli parchalarni ijro qilganlar. Xorazm dostonlarida qahramonlarning his-tuyg‘ularini, ichki kichinmalarini nazm orqali, sarguzashtlarni nasr orqali bayon etish qat‘iy tartiblashgan. Xorazmda ba‘zan epik asarlar yoki ularning parchalarini garmonda ijro etish hollari ham uchraydi. Bunday hollarda ularni baxshi deb emas, balki sozchi deb atashgan. Xorazmda Kavkazda milliy cholg‘u asbobi hisoblangan “tor” cholg‘usi ham keng ommalashgan. XIX asrning oxirlaridan boshlab bu yerda “Garmon” cholg‘usi ham qo‘llanila boshlagan. Uni mahalliy xalq shevasida “soz” deb atashgan. Sozchilar epik asarlarni to‘la ijro etishdan ko‘ra, undan





parchalar, termalar va o‘zlari yaratgan asarlarni kuylashga alohida e’tibor berganlar. Xorazmda bunday doston ijrochilarini Qurbon sozchi, Qodir sozchi deb atashadi.

Xorazm dostonchiligining yirik namoyondalari safida Ahmad baxshi, Qurbonazar Abdullayev (Bola baxshi), Qodir baxshi Jumaniyozov, Jumaboy Xudayberganov, Ro`zimbek Murodov, Qalandar baxshi Normetov, Norbek baxshi Abdullayevlarni aytish mumkin. Xorazm mahalliy uslubida xalfachilik san’ati deb nomlangan yo`nalish bo‘lib, u dostonchilikning bir tarmog‘i bo‘lib keng tarqalgan. Xalfachilik san’ati asosan ayollar orasida keng yoyilgan bo‘lib, unda ko‘proq dostonlardan olingan parcha va termalar ijro etiladi. Xorazmda savodxon, gapga chechan, ayni paytda xonandalik qobiliyatiga ega bo‘lgan zukko ayollarni “xalfa” deb atashgan. “Xalfa” atamasi bu hududda ikki ma’noda qo‘llanilgan. Birinchisi, diniy kitoblarni o‘qiydigan, marosim va mavludlarda rahnamolik qiladigan otinbibilar ko‘zda tutilsa, ikkinchisi, kuy va qo‘shiqalar kuylab, ayollarni madaniy va ma’naviy ehtiyojini qondirishga xizmat qiladigan ijrochi ayollar ko‘zda tutiladi. Ularning har ikkala turi ham faqat ayollar uchun xizmat qilgan. “Sozi xalfa”lar san’atida jo‘rovozli va yakka ijrochilik mavjud. Ularning ansambli uch kishidan iborat. Xalfa, doirachi, raqqosa. Ularning uchchalasi ham qo‘shiq, lapar kuylashgan. Xalfalar o‘zlari ijro etgan kuy va qo‘shiqalar bilan cheklanib qolmasdan, xalq dostonlaridan term avay parchalarni ham kuylashgan. Ular, ayniqsa, Xorazmda mashhur bo‘lgan “Go‘ro‘g‘li”, “Gulqand”, “Xirmon” kabi dostonlar bilan birgalikda Navoiy, Fuzuliy, Mahtumquli, Ogahiy kabi shoirlarning g‘azallarini ham ijro etishgan.

Xulosa qilib aytganda, baxshilar ijrolarini audio, video tasmalariga yozib olish, ular ijodini kitob holiga keltirish, Xorazm dostonlarini notaga olish, shu dostonlardan imkon darajasida filmlar yaratishni yo‘lga qo‘yish, dostonchilik maktablarini rivojlantirishdagi asosiy vazifalardan biridir. Zero, adabiyot, she’riyat, musiqa va tomosha kabi birqancha san’at turlarini o‘zida mujassam etgan dostonlar tarbiya vositasi bo‘libgina qolmasdan, madaniy merosimizning noyob durdonasidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**





1. Tolstov S.P. Qadimiy Xorazm sivilizatsiyasini izlab.-T.: Yangi asr avlodi, 2014.
2. Matyoqubov B. Xorazm doston ijrochiligining zarhal sahifalari. –Xorazm, 1999.
3. Xorazm folklori.- Urganch, 2000.
4. Yusupbayev Mardonbek Shonazar o‘g‘li. Xorazm vohasi qo‘shiqchilik san’atida folklorizm.-Uzscience International journal of multidisciplinary research Volume 1, Issue 2 May-2023.
5. Nosir Shuhrat o‘g‘li Ahmedov. Xorazm dostonchiligi vositasida o‘rta sinf o‘quvchilarini badiiy g‘oyaviy tarbiyalash. – Science and Education.
6. Saidov M. O‘zbek dostonchiligida badiiy mahorat. -Toshkent: Fan, 1969.
7. Ro‘zimboyev S.R. Xorazm dostonlari. -Toshkent: Fan, 1990.





## TA’LIM TIZIMIDA BAXSHICHILIK VA DOSTON IJROCHILIGINI O’QITISHNING INNOVATSIYON USULLARI

**Zafar HAYITOV,**

*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMMSI*

*“Doston ijrochiligi” kafedrasi mudiri, katta o‘qituvchi.*

**Annotatsiya:** *Maqolada baxshi san’ati va doston ijrochiligining o‘ziga xos jihatlari, ta’lim tizimida o‘qitishning innovatsion usullari haqida fikr yuriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *baxshichilik, doston, innovatsiya, ta’lim tizimi, ijrochilik.*

Doston – o‘zbek xalq ijodining yirik epik janri bo‘lib, o‘ziga xos mavqeyi, mazmuni, shakli, ichki qonuniyatlari va ijro uslublari bilan ajralib turadi. Xalq dostonlarida epik tasvir ko‘pincha nasr (so‘z) bilan, lirik kechinmalar esa sher va musiqa orqali ifodalanadi. Xalq ijodkorligi va donoligining bu nodir janri ijtimoiy va madaniy hayotning barcha sohalarini qamrab oladi. Shu bois xalqning asrlar davomida to‘plagan tajribalari, voqeylikka xissiy munosabati badiiy matndagi sheriy misralar, nag‘ma va aytimlarda badiiy ifoda etilgan. Shu bilan birga, doston ijrochisining bevosita tinglovchilar davrasida to‘lib-toshishi, ijrochining tinglovchilar bilan jonli muloqotda bo‘lishi, badihago‘ylik mahoratiga tayanishi doston ijrochiligida muhim ahamiyatga ega. Musiqa ham hikoya va she‘r kabi dostonchilikning asosiy jihatlaridan hisoblanadi. Xalq dostonlari badiiy matn turli-tuman, cholg‘u turlari ijrochi (baxshi) birligida namayon bo‘ladigan o‘ziga xos ijro uslublari bilan e‘tiborni tortadi. Dostonlar baxshi – shoirlar tomonidan kuylanadi, demak, musiyqiylik bu janrning yashovchanligini ta‘minlaydigan eng muhim jihatlaridandir. Doston she‘riy va nasriy parchalardan iborat matndan, aytim va cholg‘u yo‘llaridan, doston aytuvchining baxshichilik san‘atidan va soz cherta bilish mahoratining uyg‘unligidan iboratdir. Har bir doston‘zining nasriy va nazmiy unsurlarini musiqa cholg‘usi jo‘rnavoziylikda namoyon etadi. Ijrochi baxshi shoir cholg‘u chertishni puxta o‘zlashtirgan sozanda, she‘riy





parchalarni kuyga solib aytadigan xonanda, matnlarni badihago‘ylik asosida bir zumda to‘qib keta oladigan iqtidorli shoir, dostonda hikoya qilinayotgan voqealarni mahorat bilan tinglovchiga etqazadigan so‘z ustasi, asar mazmunini harakat va mimika orqali ifodalovchi aktyor hamdir. Hajman yirik bo‘lgan dostonlar baxshilardan badihago‘ylik va musiqiy-nazmiy qobiliyatni, so‘zlash mahoratini talab etadi.

Bugungi kunda Shoberdi Boltayev, Qahhor Rahimov, Abdumurod Raximov, Safar Shaydilov, Baxshiqul Tog‘yev, Ismoilxon Anvarov, Boyqo‘chqor Ahmedov va boshqa iste‘dodli baxshilarning dostonchilik an‘analariga amal qilishlari, hamda yoshlarni ushbu san‘at turiga qiziqтира olishlari natijasida baxshichilik jonli ijroda shu kunlarda ham davom etayotgan bo‘lsa-da, uning ijro yo‘nalishlarida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Dostonlarning sahnaviy talqinlari yuzaga keldi. Bularning bari baxshichilik san‘atining og‘zaki ijro sharoitlarida ham asta-sekinlik bilan so‘nib borayotganligini ko‘rsatmoqda. Endilikda xalq dostonlari xalqimizning buyuk ma‘naviy boyligi folklor merosi sifatida o‘zining nashrlari hamda zamonaviy san‘atdagi yangicha talqinlari bilan avlodlarga xizmat qilishda davom etadi.

Baxshi va uning doston ijro etish usullari bilan bog‘liq o‘zgarishlarni o‘rganish, ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish hozirgi tarixiy-folkloriy jarayon dinamikasi va postfolklorning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, bugungi jonli ijro bilan bog‘liq so‘nish jarayonlari baxshichilik san‘atining an‘anaviy ijro usullarini o‘zgartirib, yangicha talqinlarni yuzaga keltirdi. Garchi dostonchilik respublikamizning bir qator hududlarida so‘ngan bo‘lsa-da, Janubiy O‘zbekiston vohasida ijro shakllari o‘zgargan holda davom etmoqda. Bunday holatlar folklordagi individual va jamoaviy ijod mutanosibligining buzilishiga olib keldi. Baxshilar dostonchilik an‘analari doirasida dostonlar ijro qilishga harakat qilsalarda, bugungi adabiy-madaniy muhit tufayli o‘zlarida mualliflik hissi, an‘anaviy doston matnlariga ijodiy yondashuv tuyg‘usini shakllantirmoqda. Epik ijro bilan bog‘liq bunday o‘zgarishlar esa baxshilarning o‘zlari kuylayotgan dostonlarga bilib-bilmay o‘zgartirishlar kiritib, doston matnlarini murakkablashtirish va buzishga, ijroda sun‘iy, yasama dostonlarning yuzaga keltirmoqda. Chunki baxshining xotirasida mavjud epik bilim ijtimoiy-madaniy omillar bilan uyg‘unlashib, u ijro etayotgan doston matnlariga ta’sir







ko‘rsatishi tabiiy jarayondir. “Doston ijrochiligi (baxshichilik)” fanining asosiy maqsadi - xalq musiqa merosi va o‘zbek dostonchilik san’ati vositasida bo‘lajak mutaxassislarining estetik va badiiy didini tarbiyalash, mahalliy, hududlarga xos bo‘lgan doston ijrochiligining uslubida kuylash malakalarini shakllantirishdan iboratdir. Doston ijrochiligi (baxshichilik)da ovoz yo‘llarining tuzilishi va harakatlanishi xususiyatlarini, xalq musiqa merosi va o‘zbek baxshichilik san’ati, doston kuylash mahorati to‘g‘risidagi asosiy tushunchalarni, ovoz hosil qilish va uning turlarini, talabalik nafasi, artikulyatsiya, intonatsiya va dinamik belgilarni bilishi, asosan qorindan shovqinsiz nafas olish va uni tejimli sarflash, barcha registrlarda yuqori holatda ovoz hosil qilib kuylay olish, sof va toza kuylash, turlicha ovoz attakalari bilan kuylay olish, legato va stakkatoda kuylash yo‘nalishlarining hududiy ijrosi, yakka va turli guruxlar bilan mustaqil ijodiy ishlash, talaba ovozinin registrlari va badiiy texnik imkoniyatlarini, ovozni qo‘yish va ishlatish usullarini, talaba bilan asar ustida ishlash, matn va lahjalarni ya‘ni xuxudlarga xos bo‘lgan she‘valar ustida ishlash kabi ko‘nikmalarni egallashi talab etiladi. Doston ijrosini o‘ziga xos uslubini tez singdirib olmaydigan va ijro mahorati yaxshi rivojlanmagan talabalarga esa mustaqil mashg‘ulot qilishlari uchun maxsus mashqlar berish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Dostonlarning murakkab qismlari ustida ishlash yaxshi natija beradi. Tanlangan doston parchalari malakali baxshilar tomonidan ijro etilgan audio, video, yozuvlarini eshittirish usulidan ham foydalanish ijobiy natija beradi. Shuningdek, talabalar mazkur fan asosida doston ijrochilik san’atining siru-asrorlarini chuqur bilishi, jo‘rsiz va musiqa asbobi jo‘rligida yakka kuylash, ijro etadigan doston mohiyatini bilishi, badihago‘ylik mahoratini muntazam oshirib borishi, mashqlar vositasida ovozni rivojlantirish, ovozda nuqsonlarni bartaraf etish, dastur tanlash, dastur ustida ishlash, ovoz registrlari, xajmini va ovoz imkoniyatlarini kengaytirish, nota matnlarini o‘qish va tahlil qilishni, ovozlar tasnifi xalq termalari, doston qo‘shiqlari ijro yo‘llarini bilish kabi masalalarni o‘rganadi. Odatda, baxshichilikning negizini tashkil etuvchi jarayon ovozdur.

Ovoz - bu zoxiriy ko‘rinish. Unga turli vosita, harakatlar bilan erishish mumkin. Pardalarni ma’noli, xis-tuyg‘ular orqali mukammal tarannum etishga eng avvalo inson ovozi qodir. Ijrochi ovozida tovush





kuchi, balandligi, qattiqligi va barchasini uyg‘unligida hosil bo‘ladigan tembri mavjud. Talaba ijro jarayonida ovozning barcha tarkibiy xususiyatlaridan keng foydalanib, barcha imkoniyatlari yordamida ijodiy yondoshib, tinglovchi qalbiga ta’sir eta olish, tinglovchilarning ruhiy ozuqa olishlarida o‘z ta’sirini ko‘rsata olishi kerak. Inson ovozining musiqiy jihatlarini belgilovchi xususiyatlari borligi aniq. Ularning bir qatori tabiiy iste’dod bilan bog‘liq bo‘lsa, ayrimlari saboq, mashq va tajriba jaryonida shakllanishini e’tirof etib o‘tishi lozimdir. Baxshichilik amaliyotida juda ko‘p ovoz turlari uchraydi. Ovoz o‘z xususiyat va sifatlaridan kelib chiqib nomlanib kelingan. Masalan: “Tik ovoz”, “O‘rtacha ovoz”, “Kuchli ovoz”, “Xasta ovoz”, “Mungli ovoz”, “Past ovoz”, va x.k. Ovoz faqat ularning eshitilishi bilan emas, balki ijro diapozoni, ovozning ohangdorligi, talafuzning to‘g‘riligi, hush yoqimlilik bilan ham xarakterlanadi. Ovozlarining balandligi nuqtai nazardan past va yuqori registrarga bo‘lish mumkin. Odatda, registr tushunchasi ovoz diapozonining bir qismini tashkil etadi.

Ma’umki, musiqa ijrochilik san’ati ijro talqini bilan bog‘liq usullarning ko‘pligi, o‘z o‘rnida bir-biri bilan bog‘lanib ketish xususiyatlariga egaligi bilan ajralib turadi. Doston ijrochiligi bir qator an’anaviy sifatlarga ega. Talqin jarayonida ovozni baland-past, bo‘rttirib, erkalatib, kuch bilan yoki umuman bo‘sh yurg‘izish, usulining bir tartibga solib talqin etilish kabi jarayonlar kechishi muqarrar. Oddiy so‘z bilan buni dinamik rivoj deyish mumkin. Chunki, og‘zaki an’anaga munosib bo‘lgan musiqa merosimizning ijro jarayonlari o‘ziga xos shart-sharoit, joy - makon bilan bog‘liqdir. Shu bois, doston ijrochiligi talqinida shiddat, zavq-shavq, joziba, yuqori tembr, badihago‘ylik va sayqal kabi jihatlar munosib tizimini topishi uchun ijro uslubini bilish va undan o‘rinli, munosib foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishlari lozimdir. Chunki, har bir ijro uslubi o‘ziga hos ijobiy va salbiy tomonlariga ega. Ularning ijobiy xususiyatlaridan foydalanish ijrochilikda o‘z samarasini ko‘rsatadi. Ovoz har bir jonli mavjudotda mavjud, lekin baxshichilikga xos ovoz, tabiatning in’omi hisoblanadi. Shu bois, uni ehtiyot qilinishi, muntazam tarzda parvarishlab turilishi, undan aql va idrok bilan foydalanilish maqsadga muvofiqdir. Doston ijrochiligida ovozning salomatligi va xastalanmasdan faoliyat olib borishda, bir qator ovozni asrash yoki ovoz gigiyenasiga e’tibor berib unga rioya qilish lozimdir. Bu -





o‘pkadan zarb bilan chiqarilayotgan havoning ovoz paychalariga urilishi bilan tebranishi natijasida, shovqin ko‘shilmagan holda hosil bo‘ladigan tovush ma’nosini anglatadi. Talabalarni ijro faoliyatining oxirigacha benuqson, saviyasini va imkoniyatini to‘la saqlanib qolishi bir qator ijro va jismoniy holatlar bilan bog‘liqdir. Talabalarning doimiy nazoratda saqlanishi lozim bo‘lgan tomonlari, ijroda tabiiy ovozga yaqinlikni saqlash. O‘qituvchi darsda doston ijrosidan oldin, talabaning ovozini joziba baxsh etuvchi mashqlar bilan shug‘ullanib, ovozni ijro uchun qizdirish va ishlashi uchun ovoz mashqlarini olib borishi lozim. “Doston ijrochiligi (baxshichilik)” fanida ovoz bilan ishlash jarayoni talaba ovoziga mos mashqlarni tanlay bilish dars samaradorligini oshiradi. Mashqlar uch tovushliklar asosida, liga va stakatto usulida bo‘lishi lozim. Bundan tashqari mashqlar o‘zbek xalq doston va termalaridan kuychan namunalari asosida amalga oshirilsa talaba zerikmaydi va baxshiyona qochirimlar, ohanglar talabalarga ijro paytida qo‘l keladi. Talabada o‘tilayotgan darsga nisbatan qiziqish uyg‘otadi. Mashqlar dastlabki ovozni to‘g‘ri yo‘naltirish, nafasni yo‘naltirib ishlatishga qaratiladi. Shubhasiz, birinchi o‘rinda bu jarayonda nafas olishiga alohida e‘tibor qaratiladi. Surxandaryo, Qashqadaryo baxshi ijrochiligi juda qadim va boy an’analarga ega bo‘lib, baxshi ovozlarning turlicha toifalarini hamda usluban rangbarang aytm xususiyatlarini o‘z ichiga qamrab oladi. Ushbu o‘ziga xosliklarni yoritish, nazariy va amaliy asoslarini ishlab chikish, shuningdek, ularni hozirgi zamon kasbiy musiqa ta’limi jarayoniga kengroq joriy kilish vazifalari bugungi kunda nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Endilikda doston ijrochisi ijodkorlari borasidagi milliy qadriyatlarimizni tiklash va rivojlantirish harakatida ekanmiz, bunga oid badiiy va ilmiy manbalarda, shuningdek biz, keksa baxshilarimiz xotiralarida saqlanib qolgan har bir doston termalarni, izlab, topib kelajak avlodga etqazib berishimiz lozim bo‘ladi.

### 1-mashq

Z.Hayitov tuzgan

Do'mbira  
sozi

hay-yorey

hay-yorey

hay-yorey



Talabaga doston tanlanadi va doston voqeasi orasida nag`ma kuyidagi ifodaviy vositalar, musiqiy jilolar, dinamika, mashq yordamida mukammallashtirib boriladi. Agar mashqlarda o`tiladigan mavzuning barcha xususiyatlari aks etgan bo`lsa, mavzuni o`zlashtirish oson kechadi. Talabaning musiqiy ongini milliy ohanglar bilan to`ldirish uchun, uning musiqiy qulog`ini ochish va pishirish uchun, mashqlarning barchasi butun va yarim pardalarda bajarishi talab etiladi. Dastlabki mashg`ulotlar uchun sodda, talabaga tovush hosil qilish jarayonida diqqatni jalb qilish imkonini beradigan mashqlarni tanlash lozim. Mashqlar dastlab og`izining tomoq qismida kuylanadi, bu esa ijrochi baxshiga eshitish hissini beradi.

Ovozni mashq oxirigacha tejamkor sarflashga e`tibor berish kerak bo`ladi. Xalq terma va dostonlaridan parchalar olib mashq bajarish, birinchisi matn bilan tanishish, ikkinchisi matinni kuylash usulida kuylanadi. O`qituvchi talaba bilan dars o`tishni boshlaganda, avval uyga berilgan vazifani talaba tomonidan xatoga yo`l qo`yilsa ham uni to`xtatmasdan, oxirigacha eshitish lozim. Talaba tomonidan yo`l qo`yilgan xatolarni ko`rsatish va tushuntirish ishlari berilgan vazifani qayta ijro etish jarayonida bajariladi. Talaba tomonidan ijro etilayotgan doston yoki terma matnini ya`ni so`zlari ustida ishlanadi. Bunda so`zlar o`z she`vasida ijro qilinishiga, talaffuz, diksiya, artikulyatsiyalarga e`tibor qaratiladi.

Baxshi ovozning tembrli ovoz xususiyatlari bilan belgilangan, biroq shuningdek, ovoz to`qimalari va nafas to`qimalarining muvofiqlashgan ishi, rezontorlar ishiga bog`liq shu sababli ta`lim jarayonida tembr sifatiga ma`lum darajada ta`sir etish mumkin tomoq va burun yontovushlarini to`g`rlash bunga misol bo`la oladi. Tembrli ovoz to`qimalari va talaffuz organlari ishiga ta`sir etib o`zgartirish mumkin. Baxshi ovozning tusi, jarangdorligi, kuchi, ko`lami, shiradorligi, uni ishlatish imkonlari va boshqa sifatlari tabiatan xilma-xil bo`lishi hisobga olinishi shart. Burungi davr ayrim baxshilar tomonidan ovozlarni ta`riflash, bir-biridan farqlash, kasbiy jixatdan baholash uchun kator maxsus atama va iboralardan foydalanilgan. Yangi o`qishga kelgan talabaga nafas olish tushunchasini dars jarayonida ijro davomida tushuntirib o`rgatib borish lozim. Nafas olish texnikasi doston, terma ustidagi mashqlarga qo`shib olib borish maqsadga muvofiq. Kuylash jarayonida nafas tabiiyki ovoz bilan birga





chiqariladi. Mashqlar xalq og‘zaki ijodining kuychan namunalari asosida amalga oshirilsa talaba zerikmaydi va unda o‘tilayotgan darsga qiziqish uyg‘onadi.

Dars jarayonida o‘qituvchi ijro qilinayotgan asarning mavjud bo‘lgan barcha milliy bezaklarni ovozda ko‘rsata olish va uni talabalarga singdira olishi lozim. Darsning maqsadi, talabaning ta’lim olishga bo‘lgan hohishini, qiziqishini yanada oshirib, ularning fan asoslarini yanada chuqur o‘rganish imkonini beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi: O‘quv qo‘llanma / Mas’ul muh.: fil.f.d., prof. H.Boltaboev. Toshkent:, 2010.

2. Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari / Mas’ul muharrir: O‘zR FA akademigi Shoabdurahmonov Sh. – Toshkent: Fan, 1979.

3. Yunusov R. O‘zbek xalq musiqa ijodi. II jild. Toshkent - 2000.

4. Mirzayev T., Turdimov Sh., M.Jo‘rayev., J.Eshonqulov., A.Tilovov. O‘zbek folklori: Darslik / Mas’ul muh. Fil.f.n., dots. O.Madayev. Toshkent: “Tafakkur bo‘stoni”, 2020.

5. Jo‘rayev M., Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish: O‘quv qo‘llanma / Mas’ul muh: Fil.f.n., dots. O.Axmedova. Toshkent: Barkamol fayz media, 2017.

6. Jo‘rayev M. Folklorshunoslik asoslari: O‘quv qo‘llanma / Mas’ul muh: O‘zb. xizm. ko‘rs. yoshl. murabbiysi S. Yo‘ldosheva. – Toshkent: Fan, 2009.

7. Matyoqubov B. Doston navolari / Mas’ul muharrir: san.f.n., prof. Yunusov R. – Toshkent, 2009.





## MAQOM VA BAXSHICHILIK SAN’ATINI MUHOFAZA QILISH, ILMIY O’RGANISH VA TARG’IB QILISH YANADA RIVOJLANTIRILADI

*Asatillo SUNNATILLAYEV,  
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI  
Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik  
kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakatning boy nomoddiy madaniy merosini asrab-avaylash va ko‘paytirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlarni yanada jadallashtirish maqsadida, 2023-yil 25-dekabrda “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 405-son Qarori va unda maqom va baxshichilik san’atini muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni yanada rivojlantirish masalalari ilmiy tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** folklor, maqom, baxshichilik, tadqiq etish, bilim, qadriyat, nomoddiy madaniy meros, ijrochilik san’ati, ko‘hna cholg‘ular, katta ashula.

**Abstract:** In this article, Decision No. 405 announced on December 25, 2023 by the President of Uzbekistan “On additional measures related to protection of intangible cultural heritage, development of scientific study and promotion” in order to further accelerate the large-scale work carried out to preserve and increase the rich intangible cultural heritage of the country and issues related to protection, scientific study and further development of promotion of makom (national singing style) and art of bakhshichilik (national singer) were scientifically analyzed.

**Key words:** folklore, makom, bakhshi, research, knowledge, value, intangible cultural heritage, performing arts, ancient musical instruments, katta ashula.

**Аннотация:** В данной статье в целях дальнейшего ускорения широкомасштабной работы принято Объявленное





*Президентом Республики Узбекистан от 25 декабря 2023 года  
Постановление № 405 «О дополнительных мерах по развитию  
охраны, научного изучения и пропаганды нематериального  
культурного наследия» научно проанализированы проводимые в  
целях сохранения и приумножения богатого нематериального  
культурного наследия страны вопросы, связанные с охраной,  
научным изучением и дальнейшим развитием пропаганды макома  
и искусства бахши.*

**Ключевые слова:** *фольклор, маком, бахши, исследование,  
знание, ценность, нематериальное культурное наследие,  
исполнительское искусство, старинные музыкальные  
инструменты, катта ашула.*

O‘zbek xalqining ko‘hna va boy musiqa san’ati juda qadimiy va serqirraligi bilan Sharq xalqlari madaniyati orasida alohida o‘rin tutib kelgan. Uning hozirgi davrga kelib mavqei buyuklashgani, behisob merosga ega bo‘lganligining asosiy sababi, bu – uning bevosita xalq ijodiyoti bilan bog‘langanligidir. O‘zbek xalqining ma’naviyati buyuk, uning tili va adabiyoti, san’ati, musiqiy merosi bunga yorqin misoldir. Shu bois o‘zbek mumtoz musiqa an’anasi, ijrochiligi dunyo miqyosida o‘zining buyukligi bilan ajralib turadi.

O‘zbek mumtoz musiqa san’ati olamining oltin xazinalari cheksiz va dunyodagi eng qadimiylardandir. Aytish mumkinki, biz bugun “Shashmaqom” deya atab, e’zozlayotgan boy mumtoz musiqamiz shakllanishi, takomillashuvi, umuman taraqqiyoti qadim davrlarda boshlangan. Dastlab o‘n ikki maqom, keyinchalik esa “Shashmaqom” shaklidagi bu merosning asosi yetuk bastakorlar, sozandayu xonandalar tomonidan bunyod etilgan va takomiliga yetkazilgan. Shu o‘lmas mumtoz asarlar xalqimiz o‘rtasida professional va havaskor sozandalar, xonandalar ijrosida doimo yangrab, asrlardan-asrlarga, ustozdan shogirdlarga o‘tib, mukammallashib, sayqal topib, boyitilib bizning davrimizgacha yashab keldi va xalqimizning bebaho mulkiga aylandi.

Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha xalqaro konvensiyada nomoddiy madaniy merosga quyidagicha ta’rif berilgan. Nomoddiy madaniy meros bu - tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so‘z, raqs, musiqa, tomosha san’ati), o‘ziga xoslikni ifodalash shakllari, bilimlar





va ko‘nikmalarni, shuningdek, ular bilan bog‘liq jihozlar, predmetlar, artefektlar va madaniy makonlarni aks ettiradi. Endi ushbu iboraning tilimizga kirib kelish tarixi to‘g‘risida bir oz to‘xtalib o‘tamiz.

Dunyo miqyosida nomoddiy madaniy meros va uning muhofazasi masalalari YUNESKOning 1989-yildagi “An’anaviy madaniyat va folklori muhofaza qilish” bo‘yicha Tavsiyalaridan boshlandi. 1994-yildan milliy tizimlar (davlatlar) tomonidan nomoddiy madaniy merosni o‘zida saqlovchi va boshqalarga yetkazuvchilarning rasman tan olishini va ular tomonidan ushbu merosning kelgusi avlodga yetkazilishiga ko‘maklashish maqsadida “Insoniyatning yashovchi (tirik) durdonalari” Dasturi boshlandi. YUNESKO tomonidan 2003-yil 17-oktabrda “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish” to‘g‘risidagi Konvensiya, 2005-yil 20-oktabrda esa “Madaniy ifoda shakllarining turfa xilligini muhofaza qilish va qo‘llab-quvvatlash” to‘g‘risida Konvensiyaning qabul qilinishi ushbu iboraning to‘laqonli iste’molga kirib kelish jarayonini yakunladi.

Mazkur Konvensiyaning O‘zbekistonda ratifikatsiya qilinishi bo‘yicha harakat 2005-yildan boshlangan edi. Konvensiya har tomonlama o‘rganib chiqilishi natijasida tegishli takliflar tayyorlanib, Vazirlar Mahkamasi orqali Oliy Majlisga kiritildi va buning oqibatida 2007-yil dekabr oyida “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish” Konvensiyasi ratifikatsiya qilindi. Xalqaro normalarga ko‘ra, ratifikatsiya hujjatlari taqdim etilgandan olti oydan keyin, ya’ni 2008-yil 29-apreldan boshlab O‘zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyaning ishtirokchi-davlatiga aylandi.

Xalqaro hujjatlarni qabul qilish qoidalariga asosan O‘zbekistondagi mavjud qonunchilikdagi nomoddiy madaniy meros bilan bog‘liq masalalar qayta ko‘rib chiqilishi va lozim bo‘lgan hollarda tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi zarur edi. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Oliy Majlisining Qonunchilik Palatasi boshchiligida ishchi guruhi tuzilib, 2001-yilda qabul qilingan “Madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha takliflar tayyorlandi. Ushbu takliflar Oliy Majlisning Senatida ham o‘rganib chiqildi va oxir oqibat 2009-yilning 9-oktabrida “Madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish







to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga o‘zgartirishlar kiritish haqida” O‘RQ-228-sonli Qonuni qabul qilindi.

2010-yil fevral oyida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining nomoddiy madaniy merosni muhofazasiga bag‘ishlangan Davlat dasturini ishlab chiqish bo‘yicha maxsus Farmoyishi e‘lon qilindi va 2010-yil iyun oyida ushbu Davlat dasturining loyihasi Vazirlar Mahkamasiga kiritildi. 2010-yilning 7-oktabrida Vazirlar Mahkamasining “2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros ob‘ektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 222-sonli qarori qabul qilindi.

Shu tariqa, nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish masalalari milliy qonunchiligimizda o‘z aksini topdi. Xalqaro Konvensiya va milliy qonunchiligimizda aks ettirilgan vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish shu sohaga ixtisoslashgan tashkilot va muassasalar va ulardagi mutaxassislarining zimmasiga yuklandi.

O‘tgan yillar davomida Davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosi muassasalar va ulardagi mutaxassislar, soha vakillari, olimlarimiz tomonidan bajarildi, bir qator ilmiy-amaliy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, respublikamiz bo‘ylab ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirilib, o‘rganilgan nomoddiy meros namunalari ro‘yxati shakllantirildi. Hali ilmiy jihatdan to‘liq o‘rganilmaganlari aniqlab olindi. Bu jarayonda har bir viloyatga xos nomoddiy madaniy merosni o‘zida saqlovchi va yetkazuvchilar ro‘yxatga olindi. Ular bilan joylarda uchrashuvlar o‘tkazib, faoliyat turlariga aniqlik kiritildi. Nomoddiy madaniy meros namunalari mahalliy ro‘yxatlari tuzildi. Bebaho xazina ijro san’ati, maqom va baxshichilik san’ati, an’anaviy hunarmandlik bilan bog‘liq bilim va ko‘nikmalar, jamiyatning urf-odat, marosim va bayramlari, o‘zlikni namoyon etishning og‘zaki shakl va an‘analari, tabiat va koinot bilan bog‘liq bilim va urf-odatlar, ularning aksariyati insoniyatning boyligi sifatida YUNESKOning representativ ro‘yxatiga kiritildi.

Maqom ijrochiligi va baxshichilik san’ati bo‘yicha yuqori malakali mutaxassislar va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash, ularning ilmiy-ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanishi uchun keng imkoniyatlar yaratish, maqom ijrochiligi va baxshichilik san’ati bo‘yicha fundamental, amaliy va ijodiy izlanish hamda tadqiqotlar olib borish, sohada shakllangan ijodiy maktablarning o‘ziga xos ijro uslublari va





an’analarini qayta tiklash va rivojlantirish maqsadida Yunus Rajabiy nomidagi Milliy musiqa san’ati instituti samarali faoliyat ko‘rsatmoqda.

Maqom va baxshichilik san’ati ajdodlardan biz avlodlarga o‘tib kelayotgan boy xazina. Uni asrab avaylash va bugungi kun yosh ijodkorlari uchun o‘z aslicha hech bir ziyonlarsiz yetkazib bera olishimiz shart. Buning uchun esa avvalo o‘zimiz bu oltin san’atning tub mazmunini anglashimiz, undagi sehrli jilolaru, qalblarni titratuvchi ohanglarni aynan asl holicha tushunmog‘imiz va ijro etmog‘imiz kerak. Aks holda o‘zimiz to‘laqonli anglab yetmagan tushunchani yosh avlodga yetkazgudek bo‘lsak bu durdona san’atga bo‘lgan bizning o‘quvsizligimiz va hurmatsizligimiz bo‘lib qolishi mumkin.

So‘nggi yillarda davlatimiz rahbari tomonidan madaniyat va san’at, ilm-fan sohasini yanada rivojlantirish maqsadida qator Farmon va qarorlar qabul qilinmoqdaki, bu amalda keng imkoniyatlar eshigini ochib, ijodiy yutuqlar, xalqaro miqyosdagi e’tiroflarga zamin yaratmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakatning boy nomoddiy madaniy merosini asrab-avaylash va ko‘paytirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlarni yanada jadallashtirish maqsadida, 2023-yil 25-dekabrda “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 405-son Qarori qabul qilindi. Qarorga asosan, mamlakatimizda nomoddiy madaniy merosni, xususan, maqom va baxshichilik san’atini muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilish hamda milliy qadriyatlarimizni keng namoyon etish bilan bog‘liq faoliyatni yanada takomillashtirish, shuningdek, “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasida nomoddiy madaniy merosni asrab-avaylash, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

nomoddiy madaniy merosni har tomonlama muhofaza qilish, keng jamoatchilikni jalb etgan holda uning namunalarini aniqlash, ro‘yxatlarga kiritish, raqamlashtirish, targ‘ib qilish va saqlash;

maqom va baxshichilik san’atini muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish, targ‘ib qilishni yanada rivojlantirish;





nomoddiy madaniy merosning noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida bo‘lgan namunalarning, shuningdek, merosni muhofaza qilish bo‘yicha ilg‘or tajribalarning Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya doirasida xalqaro ro‘yxatlarga kiritilishiga erishish;

nomoddiy madaniy merosni doimiy ravishda o‘rganishni yo‘lga qo‘yish maqsadida respublika va xalqaro miqyosda etnofolklor ekspeditsiyalari tashkil qilish, ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash, fundamental va maqsadli grantlar ajratilishini ta‘minlash;

nomoddiy madaniy merosning noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida bo‘lgan namunalarning, shuningdek, merosni muhofaza qilish bo‘yicha ilg‘or tajribalarning Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya doirasida xalqaro ro‘yxatlarga kiritilishiga erishish;

nomoddiy madaniy merosni doimiy ravishda o‘rganishni yo‘lga qo‘yish maqsadida respublika va xalqaro miqyosda etnofolklor ekspeditsiyalari tashkil qilish, ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash, fundamental va maqsadli grantlar ajratilishini ta‘minlash;

nomoddiy madaniy meros ta‘limning barcha bosqichlarida o‘rganilishini tashkil etish hamda soha uchun malakali kadrlar tayyorlash.

Shuningdek, qaror bilan taniqli baxshilar ishtirokida folklor teatrlashtirilgan tomoshalar sahnalashtiriladi va ularning respublika teatrlarida namoyish etilishi tashkil qilinishi, xalq dostonlari va ertaklar asosida bolalar uchun multfilmlar yaratilishi, qolaversa, Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi va uning asosiy vazifalari ham tasdiqlandi.

***Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot institutining asosiy vazifalari quyidagilar etib belgilandi:***

madaniyat sohasiga oid normativ-huquqiy baza, institutsional tizim va madaniyat muassasalari faoliyatini ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilish hamda ularni yanada takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosa va takliflar tayyorlash;

xalqimizning ma‘naviy-axloqiy va madaniy darajasini yanada yuksaltirish, yurtdoshlarimizni milliy madaniyatimiz va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalaridan keng bahramand etish, jamiyatning madaniy-esteti





ehtiyojlarini ta’minlash bo’yicha ilmiy asoslangan chora-tadbirlar ishlab chiqish;

madaniyat tashkilotlari, jumladan, madaniyat markazlari, teatrlar, sirk muassasalari, konsert tashkilotlari, madaniyat va istirohat bog‘larining faoliyatini, shuningdek, madaniy-ommaviy, konsert-tomosha, gastrol tadbirlari, xalq ijodiyoti, badiiy hunarmandchilik, amaliy san’at turlari hamda xalq o‘yinlarini ilmiy o‘rganish va ularni ilmiy-uslubiy jihatdan ta’minlash;

madaniyat, san’at, badiiy ijod, madaniyatshunoslik hamda nomoddiy madaniy meros sohasida fundamental va amaliy ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, etnofolklor ekspeditsiyalarini uyushtirish, sohada innovatsion texnologiyalarni keng qo‘llash, shuningdek, respublika va xalqaro miqyosda ilmiy va amaliy grant loyihalarini amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasida nomoddiy madaniy meros muhofazasini tashkil etishning nazariy va ilmiy metodologik asoslarini yaratish;

mamlakatimiz hududlaridagi nomoddiy madaniy meros elementlarining milliy ro‘yxatini yuritish, hujjatlashtirish, muhofaza va nazorat qilish, bu yo‘nalishda davriy hisobotlarning tayyorlanishi va doimiy ravishda yangilab, to‘ldirib borilishini ta’minlash, ularning namunalarini umume’tirof etilgan xalqaro ro‘yxatlarga kiritish uchun tegishli hujjatlarni ishlab chiqish;

aholi o‘rtasida, ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlarda nomoddiy madaniy merosni keng targ‘ib qilish, ommalashtirish hamda bu sohada ilmiy asoslangan uslublarni ishlab chiqish;

ta’limning barcha turlari uchun nomoddiy madaniy meros sohasi bo’yicha ta’lim standartlari va fan dasturlari, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, ilmiy-uslubiy tavsiyanomalar, shu jumladan, audio, video va elektron darsliklar, onlayn darslar hamda boshqa turdagi ilmiy-metodik materiallarni tayyorlash.

***Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot institutida etnofolklor laboratoriyasi tashkil etilib, unda quyidagi vazifalar belgilanmoqda:***





yo‘qolib ketgan noyob nomoddiy madaniy meros namunalari va ular bilan bog‘liq bo‘lgan asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlarni qayta tiklash;

nomoddiy madaniy meros namunalarining davrlar o‘tishi bilan o‘zgarib borishi va kelajakdagi holatini modellashtirish;

nomoddiy madaniy meros namunalarini saqlovchi materiallar, axborot tashuvchi vositalar, etnofolklor ekspeditsiyalarida to‘plangan materiallarni texnologiyalar o‘zgarishiga mutanosib ravishda zamonaviy formatga o‘tkazib borish hamda audiovizuallashtirish ishlari yo‘lga qo‘yiladi.

institutga 2024-yildan boshlab har yili to‘lov-kontrakt shartnomasi asosida tayanch doktorantura uchun kamida 3 tadan, stajyor-tadqiqotchilik uchun kamida 2 tadan kvota ajratiladi.

nomoddiy madaniy meros namunalarini tadqiq etish, xususan, maqom va baxshichilik san’ati bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi tanlovlari asosida shakllantiriladi.

2024-yildan boshlab har yili madaniyatshunoslik, nomoddiy madaniy meros sohalari, xususan, maqom va baxshichilik san’ati bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borayotgan ilmiy xodimlar xorijiy oliy ta’lim va ilmiy muassasalarga falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini himoya qilish uchun yuboriladi.

Qayd etilishicha, xorijiy oliy ta’lim muassasalariga falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini himoya qilish uchun yuboriladigan nomzodlar pedagogik-ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanayotgan, magistrlik darajasiga ega bo‘lgan iqtidorli va samarali faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlar o‘rtasida ochiq tanlov asosida saralab olinadi. Xorijga falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini himoya qilish uchun yuborish bilan bog‘liq xarajatlar esa “El-yurt umidi” jamg‘armasiga xorijda doktoranturada ta’lim olish dasturlarini moliyalashtirish uchun ajratiladigan mablag‘lar hisobidan qoplanadi.

***Qarorga muvofiq, 2024 - 2026-yillarda nomoddiy madaniy merosni ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilish bo‘yicha fundamental va maqsadli grantlar bo‘yicha davlat buyurtmalari rejasi tasdiqlandi, unga ko‘ra:***

Fundamental va maqsadli grantlar bo‘yicha: (*O‘zlikni namoyon qilishning og‘zaki shakl va an’analar, baxshichilik namunalari*)

“Alpomish” dostoni (2024-2025-yillar);





“Go‘ro‘g‘li” dostoni (2024-2025-yillar);

“Go‘ro‘g‘li” turkumidan “Oltin qaboq” dostoni (2025-2026-yillar);

“Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni (2025-2026-yillar)

Ijrochilik san’ati bo‘yicha: (*musiqa, raqs va xalq tomosha san’ati*)

Ko‘hna cholg‘ular ijrochiligi hamda uning tarixiy ahamiyati (2024-2025 yillar);

Katta ashula va Farg‘ona askiyasi ijrosi (2024-2025-yillar)

O‘zbek va qoraqalpoq xalq raqs san’atining o‘ziga xos xususiyatlari va tarixiy takomili (2024-2026-yillar) kabi maqsadli ilmiy-amaliy grant lohiyalari bajarilishi belgilangan.

***Nomoddiy madaniy merosning alohida namunalarini ilmiy-amaliy asosda kompleks rivojlantirish bo‘yicha o‘zaro hamkorligini yo‘lga qo‘yish rejasiga ko‘ra quyidagilar:***

***Maqom san’ati*** - O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq artisti, Munajat Yo‘lchiyeva, san’atshunoslik fanlari nomzodi, professor Soyibjon Begmatov, san’atshunoslik fanlari nomzodi, professor Otanazar Matyoqubov;

***Katta ashula*** - O‘zbekiston xalq hofizi Abdunabi Ibragimov, san’atshunoslik fanlari doktori, professor Rustam Abdullayev;

***Baxshichilik san’ati*** - O‘zbekiston xalq baxshisi Qaxxor Rahimov, filologiya fanlari doktori, professor Jabbor Eshonqulov, filologiya fanlari doktori, professor Shomirza Turdimovlar ushbu yo‘nalishlarni ijodiy va amaliy rivojlantirish va ilmiy tadqiq etishga mas’ul etib belgilangan.

Qarorga muvofiq, O‘zbek xalq dostonlarining jonli ijrodan yozib olingan namunalaridamda “O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari” 100 jildlik to‘plamini nashr etish ishlari yakuniga yetkaziladi.

2024-yildan boshlab, har yili mart oyida “Milliy qadriyatlar oyligi” tadbirlari va xalq sayillarini o‘tkazib borish yo‘lga qo‘yilishi, 2024-yil 1-oktabrga qadar “Qadriyat” elektron platformasi va uning mobil ilovasi yaratiladi hamda tegishli elektron xizmatlar va manbalar bilan integratsiya qilinishi belgilab qo‘yilmoqda.

***“Qadriyat” elektron platformasida:***

nomoddiy madaniy merosni, shu jumladan maqom va baxshichilik san’ati namunalarini o‘zida saqlovchi va yetkazuvchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlar hamda ularning ro‘yxati;





nomoddiy madaniy merosni, jumladan maqom va baxshichilik san’ati namunalarini elektron hujjatlashtirish, hisobini yuritish va ular haqidagi materiallar, matn, foto va boshqa audiovizual asarlar;

sohaga oid xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlar, mahalliy va xorijiy etnofolklor ekspeditsiyalari materiallari, xalqaro ro‘yxatlarga kiritilgan nomoddiy madaniy meros namunalari haqidagi batafsil ma’lumotlar joylashtiriladi hamda muntazam ravishda yangilab borilishi belgilanmoqda.

Qarorga asosan, nomoddiy madaniy meros namunalarini “tayyorlash-o‘rgatish-tiklash-ommalashtirish” yaxlit uzluksiz tizim asosida rivojlantirilishi, nomoddiy madaniy meros namunalarini kompleks rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy va ijodiy maktablar faoliyati yo‘lga qo‘yilishi sohani yangi bosqichga olib chiqishda ahamiyatlidir.

Ishonamizki, mazkur qaror nomoddiy madaniy merosimiz, qolaversa maqom, baxshichilik san’atining ilmiy-amaliy jihatdan yanada rivojlanishiga, qarorda belgilangan asosiy vazifalar esa ushbu sohani yanada taraqqiy etishiga turtki beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 405-son Qarori.

2. Sayfullayev B., Yo‘losheva S., Eshonqulov J., Ashirov A., Toshmatov O‘. Nomoddiy madaniy meros – folklor ijro san’ati an‘analari. O‘quv qo‘llanma. - T.: Navro‘z, 2017. 216 b.

3. O‘zbek milliy folklor san’ati va etnomadaniy qadriyatlar. O‘quv qo‘llanma. - T.: Navro‘z, 2014.

4. Toshmatov O‘., Isakulova N. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishning huquqiy asosalari. T.: Fan, 2014.





## QASHQADARYO BAXSHICHILIK SAN’ATINING IJRO XUSUSIYATLARI

**Gulruh BABANAZAROVA,**

*Qarshi Davlat Universiteti*

*“Musiqqa ta’limi” kafedrasida o‘qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Qadimda baxshi so‘zi sehrgarlik yordamida kasal odamning tanasidan yovuz ruhlarni quvib chiqaradigan tabib (shaman-baxshi yoki shaman-folbin) ma’nosini bildirgan. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida Bulung‘ur, Narpay, Kogon, Xorazm, Shahrisabz, Qamay, Piskent, Kulbo‘qon, O‘zbeklaqay va boshqa yirik epik maktablar bilan bir qatorda bunday markazlar ham bir-biridan ma’lum ijodiy tamoyillari, ijro texnikasi bilan farqlanadi.

**Kalit so‘zi:** baxshi, doston, do‘mbira, ijrochi, bastakor, maktab, shakl, she’riyat, baxshi.

**Аннотация:** В древности слово бахши означало целителя (шамана-бахши или шамана-гадателя), который каким-то образом изгонял злых духов из тело больного человека с помощью колдовства.

*Школа поэзии – центр искусства бакси. В узбекском фольклоре, помимо таких крупных эпических школ, как Булунгур, Нарпай, Когон, Хорезм, Шахрисабз, Камай, Пискент, Кульбоккон, Узбеклакай и других, подобные центры также отличаются друг от друга определенными творческими принципами и приемами исполнения.*

**Ключевые слова:** бахши, эпос, думбира, исполнитель, композитор, школа, форма, поэзия, бахши.

**Abstract:** In ancient times, the word bakhshi meant a healer (shaman-bakhshi or shaman-fortuneteller) who somehow expelled evil spirits from the body of a sick person using witchcraft.

*Poetry school – Baksi art center. In Uzbek folklore, in addition to such large epic schools as Bulungur, Narpai, Kogon, Khorezm, Shakhrisabz, Kamai, Piskent, Kulbokkon, Uzbeklakai and others, such centers also differ from each other in certain creative principles and techniques of performance.*







**Key words:** *bakhshi, epos, dumbira, performer, composer, school, form, poetry, bakhshi.*

Qashqadaryo va Surxondaryo baxshi ijrolari ham o‘ziga xos ijro yo‘llari hisoblanadi. Ayniqsa Qashqadaryo baxshichilik ijro yo‘llarini to‘plash, o‘rganish, targ‘ib qilishda atoqli fol’klorshunos olim Malik Murodovning xizmatlari beqiyos. Qarshi davlat dorilfunining o‘qituvchisi Abdimo‘min Qahhorov Toshkenga borib Qashqadaryo baxshilari haqida ba’zi olimlar bilan suhbat qilgan. Shundan so‘ng Malik Murodov bu ishga kirishib universitet dotsenti va fahriy pedagogi Abduolim Ergashev bilan birgalikda Qashqadaryolik mashhur xalq baxshisi Qodir baxshi Rahimovdan “Zaydinoy”, “Zarxun Maston”, “Guppanoy” nomli “Go‘ro‘g‘li” silsilasiga oid fanga noma‘lum yangi ijro yo‘liga xos dostonlarning do‘mbira jo‘rligidagi ijrolarini yozib olgan. Undan tashqari “Go‘ro‘g‘lining o‘limi” dostonining yetti ijro yo‘li “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”ni besh ijro yo‘li, “Nurali” ijro yo‘lining besh ijro yo‘li hamda “Gulsanobar”, “Avazxon”, “Shoxdarxon”, “Avaz va Ahmad” dostonlari magnit tasmaga yozib olgan hamda “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, “Shoxdarxon”, “Gulixiramon”, “Qora Ko‘zim oyim”, “Xilomon”, “Zexvarxon” dostonlarining ijrolarini to‘pladi.

Ijod - inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faolligi hamda butun bilim va tajribasi, iste‘dodining namoyon bo‘lishidir. Doston va termalar baxshi tasavvurida tug‘iladi, keyin badihaga mos ravishda kuy ijro etiladi.

Qashqadaryo-Surxondaryoda baxshi kuylarini nag‘ma deb atashadi, Xorazmda esa nola, Qozoqlarda nomad deyiladi. Bu nomlarning hammasi baxshi kuyidir. Dostonlarning eng muhim tomoni baxshilar kuylari nag‘malarining kuylanishidadir.

Olimlarning fikricha dostonchilik an‘analarida “Noma” va “Nag‘ma” alliteratsion o‘zgarishga uchrab mazmunan umumlashtirib yuborilganligi ehtimol. Aslida noma (forscha) va nag‘ma (arabcha) ham lug‘aviy, ham istilohiy jihatlardan turlicha, alohida va mustaqil tushunchalar bo‘lib, ma‘no jihatidan farqlanadi<sup>29</sup>.

<sup>29</sup> Matyoqubov B. Dostonlarning musiqiy hususiyatlarini o‘rganish. O‘quv qo‘llanma. T., 2023.





Doston kuy-nomalarini baxshilarning o‘zlari quyidagicha ta’riflaydilar: Dehqonobod maktabi namoyondasi Qahhor baxshi Rahimov dostonlarda ishlatiladigan cholg‘u kuylar ba’zida baxshi kuy, do‘mbira kuy, ko‘pincha o‘z nomlari bilan Cho‘poni noma, Ot haydash noma boshi deb yuritilishini agar bu kuylar doston so‘zlariga solib o‘qilsa nomalar deyilishini ta’kidlaganlar.

Doston kuy-nomalarini baxshilarning o‘zlari quyidagicha ta’riflaydilar. Qamay maktabi namoyondasi Qahxor baxshi Raximov dostonlarda ishlatiladigan cholg‘u kuylar ba’zida baxshi kuy, do‘mbira kuy, ko‘pincha o‘z nomlari bilan Cho‘poni noma, Ot xaydash nomasi, Noma boshi deb yuritilishini va agar bu kuylar doston so‘zlariga solib o‘qilsa nomalar deyilishini ta’kidlaydi<sup>30</sup>.

Qashqadaryo baxshilarining “**G‘aribnoma**” nomli noma<sup>31</sup>si bu nomani baxshilar har xil talqin qilishgan. Bu G‘aribnoma nomasi doston qahramonlarining juda tushkun vaqtlarida yaralanganida yoki otidan, elidan ayrilgan g‘arib bo‘lib qolgan vaqtida ijro etiladigan cholg‘u kuyidir.

#### №1 G'ARIBNOMA

QODIR BAXSHI



Ikkinchi noma “**Quvnoqnoma**” deb nomlanadi. Bu nomani O‘zbekiston xalq baxshisi Qodir baxshi Rahimov va O‘zbekiston xalq baxshisi Abdumurod baxshi Rahimovlar aka-ukalar ijro etgan nomadir. Qashqadaryo nomalarida bir zamonlar do‘mbirada 32 nag‘ma kuyi bor deb bilardik ammo bugungi kunga kelib Qashqadaryo nag‘malarining soni 200 dan ortiq darajaga yetdi. Musiqa ma’lumotga ega baxshilar o‘zlari ham juda ko‘plab nomalar yaratishgan va shu sababli nomalarning soni ham juda ko‘payib ketdi. Masalan Qodir baxshining

<sup>30</sup> Matyoqubov B. Dostonlarning musiqiy hususiyatlarini o‘rganish. O‘quv qo‘llanma. T., 2023.

<sup>31</sup> Noma – forshadan olingan bo‘lib, O‘zbekiston xalq baxshisi Qahhor baxshi Rahimovning aytishicha Noma - doston she’rlariga solib do‘mbira jo‘rligida kuylanadigan asarlarga aytiladi.

<sup>32</sup> Mazkur Noma va nag‘malarning nota namunalarini muallif tomonidan ilk bor notaga olingan.





o‘zi ham 100 dan ortiq noma kuylari yaratgan. Aliخان do‘mbirakash 50 ga yaqin, Bekmurod do‘mbirakash 15-20 nomalar, Abdumurod baxshi 20 dan ortiq nomalar yaratgan. Qahhor baxshi Rahimov ham 10 ga yaqin nomalar yaratdilar. Bu ham baxshichilik san’atining rivojlanish yo‘lida qilingan say-harakatlardandir.

## 2 Quvnoqnoma

Moderato O'rtacha

*f*

7

13

Yana bir nomamizning nomi “**Otni qamchilash**” nomasi deb nomlangan. Bunga sabab, qahramon janga kirayotganida otini qamchilab, jilovni burab, oyoqni o‘zaniga tirab ot choptirib ketayotganida aytiladigan nag‘ma kuyi.

## 3 Otni qamchilash

Vivo Tez

*f*

9

“**Loqay yig‘lash**” nomli nomamiz juda og‘ir, insonni hayratga soladigan nolakor usullarga boy nomalardan biri bu loqay jilash nomasi deb nomlangan. Bunga sabab Loqay degan bir urug‘ni dushmanlari ustiga ot bilan bostirib keladi va bu elatni otga boylab juda qiynagnida ulug‘ baxshilar ularga qarab yig‘lab shu nomani yozishgan.





## 4 Loqai yig'lash



“Ot haydash” nomasi bu nag‘ma qahramonning boshqa bir mamlakatga ot choptirib ketayotganida otning yugurishi, yo‘nalishiga ovozigiga qiyoslab yozilgan nag‘malardandir.

## 5 Ot xaydash nomasi



“Qahhornoma” nag‘ma<sup>33</sup>si Qahhor baxshi Rahimovning dostonlarning sho‘x-shodon joylarida, qahramonning g‘alaba qilgan vaqtlaridagi hursandchiligida ijro etiladigan nag‘ma.

## 6 Qaxxonoma



<sup>33</sup> Nag‘ma – arabchadan olingan bo‘lib, O‘zbekiston xalq baxshisi Qahhor baxshi Rahimovning aytishicha Nag‘ma – do‘mbirada chalinadigan kuy nag‘ma deyiladi.





“**Alixannoma-1**” nomli nag‘ma doston qahramonlarining ko‘tarinki kayfiyatli vaqtlarida ijo etiladigan nag‘ma. Alixan bobo do‘mbirakash ham 50 dan ziyod do‘mbira kuylarini yaratganlar.

### 7 Alixonoma



“**Omoniyoz**” bu nag‘ma xalqimiz orasida mashhur baxshi (lo‘lilardan) Omoniyoz bobo baxshining yaratgan nag‘masi. Omoniyoz bobo baxshining nag‘malari ayniqsa Qashqadaryo va Surxondaryo baxshilari orasida juda ham mashhur bo‘lib yosh baxshilar juda ham sevib ijro etiladilar.

### 9 Omoniyoz



“**Eslashnoma**” bu nag‘mani baxshilar to‘y-hashamlarda ijro etmaydilar. Eslashnomaning yaratilish tarixi baxshilar o‘zlari yig‘ilib turganlarida ustozlari, ota-bobolarini eslab, xotirlab ijro etib yaratilgan nag‘ma.

“**Lo‘linoma**” – bu noma lo‘lilar (Qashqadaryoda jo‘gi deyiladi) haqida shuning uchun nomi Lo‘linoma deyilgan. Lo‘lilar orasida ham juda mashhur lo‘lilar o‘tgan ayniqsa Omoniyoz bobo nomli lo‘li o‘tgan va bu nag‘mani baxshi, baxshilar dam olib hordiq olayotgan vaqtida xalqni zeriktirmaslik uchun ijro etiladigan nag‘ma.





## 11 Lo'linoma



“Qodirnoma-1” nomasi – bu nomani Qodir baxshining o‘zi yaratgan bo‘lib bugungi kunga qadar shogirdlari tomonidan ijro etib kelinmoqda. Dostonlarning eng og‘ir joylarida g‘am-qayg‘uni ifodalash maqsadida ijro etiladigan nomadir.



“Qodirnoma-2” – nomasi. Bu noma Qodir baxshi tomonidan juda maorat bilan ijro etilgan bo‘lib bu noma dostonlarda qahramonlarning og‘ir ahvolga tushib qolganda, yurtini, oilasini sog‘inib kuyga soling nomadir.

“Qodirnoma-3” – nomasi. Respublikada ayniqsa baxshichilik keng rivojlangan hozirgi bir paytda dostonlarga va termalarga asosan 3 kishi do‘mbira nag‘malarini yaratgan. Bular Qodir baxshi Rahimov, Alixan do‘mbirakash va Abdimurod baxshilardir. Abdimurod baxshi o‘zining otasiga bag‘ishlab yaratgan, dostonlarning o‘rtasiga tinglovchilar tomonidan baxshi o‘z nag‘malarizdan ijro etib bering deb so‘rashganida ijro etiladigan Qodirnoma nag‘masi.





“Qodirnoma-4” nag‘masi Qodir baxshining doston voqelariga ko‘p to‘xtalmaydi, bu noma esa baxshi dam olayotgan vaqtda, tinglovchilar tomonidan so‘ralganida ijro etiladigan nag‘ma. Ayniqsa bu nag‘mani faqat Qashqadaryo baxshilaridan eshitish mumkin.

“Sarvinoznoma” nag‘masi – bu qizning nomiga nomlangan bo‘lib, Qashqadaryo va Surxondaryo vohasiga maktab yaratgan baxshi Sherna baxshi bir boyning qiziga oshiqi beqaror bo‘ladi. U qizning ismi Sarvinoz bo‘lib boy qizini kambag‘al yigit Sherna baxshiga bermaydi. Shunda baxshi o‘z muhabbatini kuyga solib Sarvinoznoma nag‘masini yaratadi. Bu kuy qo‘shiq va dostonlarda ko‘p ishlatilmaydi. Faqat baxshilar doston boshlash, tugatish va o‘rtasida dam olish vaqtlarida tinglovchilarni jalb qilish maqsadida ijro qilinadi.

Sherna baxshi



Dostonchilik san’atining tarixiy rivojlanish jarayonida o‘ziga xos ijrochilik maktablari shakllanib kelgan. Har bir maktab dostonlar mavzusi va ijro uslubi, ijrochilar tarkibi va namoyondalari bilan ajralib turadi. O‘zbekistonda Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo hamda Xorazm va Qoraqalpoq dostonchilik maktablari mavjud; har biri musiqiy poetikasi va ijro uslubi bilan ajralib turadi.

Musiqqa madaniyatida sozandalik, honandalik, shoirlik va bastakorlikni bir vaqtning o‘zida o‘ziga jamlagan baxshichilik san’ati ham rivojlangan. Xalq orasida shunday ibora bor: “Ustozing kimligini aytsang, qanday shogirdligingni aytib beraman”. Ustoz ilmi va ustozlar maktabi tufayli bugungi kunda baxshichilik san’atining yo‘qolib ketmay aksincha, yanada rivojlanayotganiga kundan-kunga guvoh bo‘lmoqdamiz.





**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Matyoqubov B. Dostonlarning musiqiy hususiyatlarini o‘rganish. O‘quv qo‘llanma. T., 2023.
2. Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. T., 1997.
3. Ergashev A. Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchiligi. T., 2008.
4. Matyoqubov B. Doston navolari. T., 2009.
5. Абдуллаев Р. Бытование дастанов в Узбекистане // Музыка эпоса Ешкар-Ола, 1989.







## IJROCHILIK (DOSTON IJROCHILIGI) SAN’ATIDA NUTQNING O’RNI VA AHAMIYATI

**Ma’ruf QODIROV,**

*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI*

*“Doston ijrochiligi” kafedrasi katta o‘qituvchisi.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada, san’atkor nutqi jamiyatda nutq madaniyatini qanday shakllanishida muhim ahamiyatga ega ekanligi, nutq texnikasi bo‘yicha va tilga e’tibor berish har jihatdan dolzarb masala hisoblanishi bo‘yicha qisqacha fikr va mulohazalar keltirilgan. Aynan doston ijrochiligi san’atiga alohida e’tibor qaratilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *kommunikativ, hunarmand, plastika, majoz.*

**Аннотация:** *В этой статье дается краткий обзор того, насколько важна речь исполнитель в формировании речевой культуры в обществе, и насколько актуальными во всех отношениях являются речевая фокусировка и языковое внимание. Особое внимание уделено искусству эпического исполнения.*

**Ключевые слова:** *коммуникативен, ремесленник, пластичен.*

**Abstract:** *This article provides a brief overview of how actor speech is important in shaping speech culture in society, and how speech focus and language attention are topical issues in all respects. Particular attention is paid to the art of epic performance.*

**Key words:** *communicative, artisan, plasticity, figurative.*

Xalq ijodiyoti baxshilarni yetishtirishning barcha bosqichlarida so‘z san’ati ustida, ya’ni yozma nutqning, badiiy matnning estetik ta’sirchan talqini ustida ishlash jarayoni uzluksiz va tadrijiy mukammallashib borish tamoyilida davom etadi. Doston ijrochiligida tahsil olayotgan talaba texnik mashqlar boshlanishi bilan talaba o‘zi bilgan narsalami emas, balki ustod-pedagog yo‘llanmasi doirasidagi matnlar - doston dan parchalar, matallar, tez aytishlar, she’riy lavhalar, hikmatli so‘zlar va hadislar bosqichiga o‘tishi bilan mas’uliyat oshadi va ana shu bosqichning o‘zidanoq professional tarbiya jarayoni





boshlanadi. Xalq ijodiyoti baxshilarni yetishtirishning barcha bosqichlarida so‘z san’ati ustida, ya’ni yozma nutqning, badiiy matnning estetik ta’sirchan talqini ustida ishlash jarayoni uzluksiz va tadrijiy mukammallashib borish tamoyilida davom etadi. Oliy ta’lim dargohiga tahsil olayotga doston ijrochilarining imkoniyatlarini sinab ko‘rish, o‘zlashtirgan ko‘nikmalarini mustahkamlash, nuqsonlar bartaraf etib boorish muhimdir. Nafas vujudimizga sog‘lomlik va quvvat baxsh etuvchi, jismoniy va ruhiy harakatlarimizning tayanchi bo‘lgan hayotiy manba. To‘g‘ri nafas olish, uni turli ijodiy jarayonlarda unumli sarflash professional ijro mahoratining asosiy omillaridan biridir. Nafas olish va uni maromli sarflash ko‘nikmalarimizni mustahkamlashga, sahna nutqiga oid darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarda keng o‘rin berilgan. Ammo, uning yangi uslubiy va amaliy tizimlarini ishlab chiqilishiga ham ehtiyoj katta. Biz o‘quv mashg‘ulotlarmizda talabalarning qiziqishlari, o‘ziga xos tabiatiga monand yangicha yondashish, turli izlanish, turlicha shart-sharoitlar, hatti-harakatlar orqali nafasni chiniqtiruvchi tavsiyalarga e’tibor qaratamiz. Professional va havaskorlik teatr san’ati hamda ommaviy teatr- lashgan tadbirlardagi so‘z san’ati uchun ham aralash diafragmal nafas bazasini mukammal egallash juda muhim amaliy ahamiyatga ega. Nafas mashqlarini o‘zlashtirishda eng oddiy sanoq mashqlaridan boshlab, keyinchalik matnli harakatli mashqlarga (she’riy matnlar, maqol va sajlardan foydalangan holda) o‘tib boriladi.<sup>34</sup>

Jamiyatda har bir ijtimoiy qatlam, tabaqa yoki toifaning o‘ziga xos yashash tarzi, saviyasi, dunyoqarashi, fikrlashi, g‘ururi, kayfiyati, jamiyatdagi vazifasi bo‘ladi. Bu masala bilan tarixda ko‘pgina allomalar shug‘ullangani bizga ma’lum albatta. Bu kabi toifalanishda insonlarning birinchi ko‘zga tashlanib turadigan jihati ularning tili va nutqida namoyon bo‘ladi. Bizningcha, qator fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan, biroq nutqiy kamolatga erisha olmagan odamni shakllangan inson toifasiga kiritish biroz qiyin. Chunki, til insonning madaniy va ma’naviy darajasini uning o‘zi yashab turgan borliqqa: tabiatga, jamiyatga munosabatini aks ettiruvchi ko‘zgudir. Masalan, hayotda o‘z nutqlari ordali tilimizga sayqal beruvchi oddiy shaxslar bilan birga unga (ya’ni tilga) e’tiqodsiz va e’tiborsizlik bilan

<sup>34</sup> Nosirova A. “Sahna nutqi” Darslik -T., 2013. 19- bet





yondashuvchi til egalarini yoki o‘zlarini yetuk inson; qomusiy alloma deb biluvchi ziyolilar qatlamini ham kuzatamiz.

XX asr boshlariga kelib dunyoning barcha borliq narsalariga bo‘lgan munosabatlarning o‘zgargani kabi so‘z san’atiga nisbatan ham qarashlar o‘zgardi. Endi uni *tabiatga taqlid* (Arastu), *ob’ektiv borliqning sub’ektiv ifodasi* (Hegel), *kishilar o‘rtasidagi tuyg‘u yetkazish vositasi* (L.Tolstoy) deb bilishlik bilan cheklanmay so‘zning kommunikativ imkoniyatlarini birinchi navbatga olib chiqishlar bo‘ldi. Garchi o‘zbek shoirlari tilni “*vositai robitai olam miyondir*” (Avaz) deb atagan bo‘lsa—da, G‘arbdagi mavjud qarashlar o‘zbek nazariy tafakkuri tarziga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qo‘ymadi. “Tanglayi mumtoz adabiyot an’analari asosida ko‘tarilgan” professor Abdurauf Fitrat ham dastlabki asarlarida so‘z san’atining qimmatini uning hissiy quvvatidan izlagan bo‘lsa, 20-yillarning o‘rtalariga kelib o‘z qarashlarini ovro‘pacha andozalarga sola boshladi. Bu esa san’at sohasida ham, xususan teatr san’atida o‘z ifodasini ko‘rsata boshladi.

Biz bilamizki, sahna san’atida qahramonlarning fikran to‘qnashuvlarida, muddaoga erishish uchun kurashda so‘z san’atkorning asosiy qurollaridan biridir. Ko‘zlangan maqsadni amalga oshirishda so‘zning ma’nosi aniq va ta’sirchan bo‘lmog‘i lozim. Shu bois ijrochilik san’atida san’atida so‘zga katta mas’uliyat bilan qarash talab etiladi. Masalan teatr san’atida “Dramatik asar uchun sahnaviylik muhim bo‘lganidek, sahna nutqi uchun ham asosiy shartlardan biri bo‘lib, so‘z harakatini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir sanatkor ijrochining nutqi uning ruhiy va jismoniy holatining natijasidir”. shu kabi asoslarda, san’at ijrochidan tinimsiz mehnat, o‘z ustida ishlashni talab qiladi. Bu mehnatni ijrochi bilim va aql-idrok orqali amalga oshiradi. Shu bilan birga, sahnaviy ijrochilik tabiati o‘zining kuchli va asoslangan qonun-qoidalariga ega.

Har bir asar ustida ishlaganda ijrochi oddiy qiziqish yoki taxminlarga emas, aynan ijrochilikda sinalgan usullarga tayanishi kerak. Shundagina u muvaffaqiyatlarga erishadi. Sahna nutqi qonuniyatlarini o‘rganishda o‘ylaymizki, talabalar azaliy bir ta’rifga e’tibor berishlari shart. Unga ko‘ra, san’atkor ovozi yaxshi charxlangan, tiniq talaffuzga ega va nutq madaniyati talab-qoidalariga to‘la javob bera olsa, demak, u so‘zlashuv munosabatida tayyor mutaxassis hisoblanadi. Bundan tashqari, nutq madaniyati texnikasini





ham amaliy tarzda to‘laqonli egallashi zarur. Ko‘pchilik ijodkorlar orasida, “Agar sahnada san’atkor organik xatti-harakatni to‘g‘ri bajara olish xususiyatiga ega bo‘lsa, u holda qolgani sahnada o‘z-o‘zidan sodir bo‘ladi”, degan fikr mavjud. Biroq, unutmazlik lozimki, sahnada partnyorga ta’sir o‘tkazish uchun, avvalo, so‘zlarni to‘liq va adabiy til qonuniyatlariga muvofiq talaffuz etish zarur. Xatti-harakatning aniq maqsadga yo‘naltirilgani, mantiqiyliги esa ifoda qilinayotgan nutq urg‘ulariga ta’sir etib, ovozga va tovushga kerakli sayqal beradi. Nutq sahna ijrochisining asosiy quroli va u sahnada aynan mana shu qurolga tayanadi. Ba’zi san’atkorlar nutqidagi nuqson va kamchiliklarni yo‘qotish uchun quyidagi mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir: 1) unli va undosh birikmali so‘zlar; 2) tez aytish; 3) ertaklar; 4) hikoyalar; 5) kichik she’rlar.

San’atkorni san’atkor bo‘lib yetishishida yana bir muhim narsalardan biri bu tasavvur va fantaziyadir. Tasavvur va fantaziyaning ishga solish, avvalo, ijrochini kelajakda professional teatr sahnasida turli xil xarakterlar yaratishida muhim o‘rin tutadi. Chunki bo‘lajak ijrochining tasavvuri uning ilk qadamidanoq ijrochilik mahoratida nutqiy vositalarning o‘rni kengayib borishi kerak. Fantaziya ham tasavvur bilan birga mashqlar yordamida, qolaversa, xalq ertaklarini ko‘plab o‘qish bilan o‘stirib borilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. K.S. Stanislavskiy fikriga ko‘ra “hunarmand ijrochi umumijrochilik nutqi va plastikasining vazifasi og‘zaki ovozni, diksiyani va harakatlarni oliyjanob qilish, ularni chiroyliroq ko‘rsatish, sahnaviy effekt va obrazli ifoda ta’sirini kuchaytirishdan iborat. Ijrochining hunarmandga xos nutqi va plastikasi, ko‘r-ko‘rona effektga, soxta olijanoblikka olib keladi, bulardan faqat teatrga xos bachkana go‘zallik kelib chiqadi. Shartli shtamp kechinmaning o‘rnini bosolmaydi. Yana shunisi yomonki, shtamp yelimday yopishqoq, ajratib bo‘lmaydi.”<sup>35</sup>

Yangi davrda teatr san’atida ham ijodiy izlanishlar kuchayib, teatrlar o‘z faoliyatini xalqimiz ijodida va jahon san’atida mavjud uslublar va oqimlar asosida qurish, realistik uslubdan tortib, majoziy va mistik tasvirgacha bo‘lgan rang-barang vositalarni qo‘llash yo‘lidan bormoqda. Mumtoz asarlarni sahnalashtirishda an’anaviy

<sup>35</sup> К.С.Станиславский, Актёрнинг ўз устида ишлаши. Тошкент «Янги аср авлоди»2011, 27-бет





yechimlardan qochib, erkin talqin etish (tabdil uslubi, majoziy-falsafiy yechim kabi) butun bir yo‘nalish tusini oldi. Tarixiy mavzuni ishlashda chinakam uyg‘onish yuz berdi. Zamonaviy mavzularni tadqiq etishda dramaturglar va teatr jamoalari hayotning barcha jabhalariga tobora chuqurroq kirib borgan holda maishiy yechimlardan dolzarb ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy muammolarni ko‘tarib chiqishga dadil kirisha boshlaganlarini va bunda badiiy so‘z, xususan o‘zbek tili imkoniyatlaridan ham keng foydalanilayotganligini ko‘rish mumkin.

Biroq, badiiy so‘zni his qilish masalasi ikki tomonlama ekanini anglash kerak. Biri ijrochilar jamoasiga daxldor bo‘lsa, ikkinchisi tomoshabinlarga aloqadordir. Chunki, badiiy so‘z mohiyatini tomoshabin inkor etib ta’sirlanmas ekan, ijrochining qancha bilishi va amalda qo‘llay olishi ham ahamiyatsiz bo‘lib qolishi tayin. So‘zning o‘z va ko‘chma ma’nolarini tomoshabin ham ilg‘amas ekan mantiq buzilishi tabiiy. Shu boisdan ham sahna tili va sahna nutqi oddiy maishiy nutqdan sifati va ta’sir kuchi bilan ajralib turadi. To‘g‘ri nafas olmaslikning ovozga ham ta’sir qilishi tabiiy. Fikrning tasdig‘i, muhri shubhasizki, yuz-ko‘zdagi imo ishoralar va qo‘l harakatlaridir. Boshqacha aytganda, bu tana tili bilan tushuntirish demakdir. Shu o‘rinda “qo‘llar fikrni to‘ldirishini” (K.Stanislavskiy), “qo‘llar inson tanasining ko‘zlari”(Yevg. Vaxtangov) ekanligini unutmaslik kerak. Albatta, bir tomondan qaraganda, ijrochi nutqida bu mulohazalar noo‘rindek tuyuladi. Notiq nutqida buni qabul qilish mumkin. Chunki, noverbal vositalarsiz u nutq ta’sirini to‘la ifoda eta olmaydi. Ijrochi nutqida u o‘zini emas o‘zgani o‘ziga aylantirib, o‘zini o‘zgaga aylantirib ijro etadi. So‘z, harakat va ruhiy holatga kirishilganda, his etganda ijrochi noverbal vositalarni ixtiyorsiz tarzda qo‘llaydi. Qizig‘i, bir ijrochi muayyan holatda o‘z dublyorini o‘sha holatdagi noverbal vositalarni qo‘llamasligi ham mumkin. Bir ijrochiga shu holat, xatti-harakat yarashishi dublyoriga esa yarashmasligi mumkin. Ular har bir obrazga o‘z nazari, o‘z gavda tuzilishi, o‘ziga xos noverbal vositalarni qo‘llashi bilan yondoshadi. Barchasida tomoshabinning nigohi, qabul qilishi muhim mezon sanaladi.

Shu o‘rinda aytish kerakki, ijrochi nutqi va notiq nutqi borasida ham chalkash, bir biriga zid fikrlar ham yuradi. Ularning mushtarak va farqli jihatlarini e’tirof etgan holda, ta’bir joiz bo‘lsa, shunday taqqosni keltirish o‘rinlidir. Notiq nutqi va sahna (ijrochi) nutqi ta’sirchanlikni





ta’minlashda har ikkalasi bir-birini to’ldiradi, boyitadi. Lekin birida ijod, ikkinchisida ijro muhim rol o’ynashini yodda tutish kerak. Avtobus va tramvayni ko’z oldingizga keltiring. Avtobusni boshqarishda rulni o’ng-u so’lga burib harakatlantirish, qayrilish mumkin. Tramvayni esa yotqizilgan temir yo’li(rels) va ustidagi elektr manbai(simlarisiz) uning harakatini tasavvur qilish mushkul. Faqat harakatning sekin va tezligigina, uning izmida. Notiq nutqi avtobus haydovchisiga, ijrochi nutqi esa tramvay boshqaruvchisiga o’xshaydi.

Ma’lumot o’rnida aytadigan bo’lsak, qadimgi rimliklar, yunonlarning “Ommaga non va tomosha bering” degan mashhur iborasi adabiy-ilmiiy manbalarda ko’p bor keltiriladi. Bu uning moddiy va ma’naviy ehtiyojini qondirish zarurligini bildiradi. Shu o’rinda qanday non va qanday tomoshani qanday usulda berilishi maqsadga muvofiq degan masala ko’ndalang turadi. Bugungi kunda yuksak bilimli intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti ekan, teatr san’ati ham bu borada o’zining munosib hissasini qo’shishi kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.**

1. Alimjonova Z. Sahna nutqi. - Toshkent., Fan, 2005-yil
2. Jumaniyozov R. Nutqiy mahorat. - Toshkent., 2005-yil
3. K.S. Stanislavskiy. Ijrochining o’z ustida ishlashi. Yangi asr avlodi, toshkent. 2011-yil
4. Muhsin Qodirov. O’zbek teatri tarixi. “Ijod dunyosi” nashriyoti. Toshkent. 2003-yil
5. Saidov U. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. O’quv qo’llanma– T.:, 2007.
6. Wikipediya.uz sayti.





## **OSHIQ TURKUM DOSTONLARIDA TUSH MOTIVI**

**Rasulbek ABDURAXMANOV,**

*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI*

*“Doston ijrochiligi” kafedrasi o‘qituvchisi.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada o‘zbek xalq og‘zaki ijodining nodir durdonasi bo‘lgan Xorazm Oshiq turkum dostonlarining asrlar davomida avlodlardan-avlodlarga o‘tib shakllanib kelayotganligi gavdalantirilgan. Bugungi kunda bu san’at turi milliy qadriyatlarimiz sifatida tan olinayotganligi hamda yoshlarimizning bu san’at turiga qiziqishlari ortib borayotganligi o‘z aksini topgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Dostonchilik, baxshichilik, folklor, milliy qadriyat, an’ana, madaniyat, san’at, sadoqat, afsona, hikoyat.*

**Аннотаци:** *Эта статья воплощает тот факт, что искусство бахши и эпоса, редкая жемчужина узбекского фольклора, передавалось из поколения в поколение на протяжении веков. Сегодня этот вид искусства признан одной из наших национальных ценностей, и интерес нашей молодежи к этому виду искусства растет.*

**Ключевые слова:** *Поэзия, щедрость, фольклор, национальные ценности, национальные традиции, культура, искусство, преданность, легенда, рассказ.*

**Abstract:** *This article embodies the fact that the art of baxshi and epic, a rare gem of Uzbek folklore, has been passed down from generation to generation over the centuries. Today, this art form is recognized as one of our national values, and the interest of our youth in this art form is growing.*

**Key words:** *Poetry, generosity, folklore, national values, national traditions, culture, art, devotion, legend, story.*

Har qaysi xalqning azaliy tarixi va madaniyati eng avvalo uning og‘zaki ijodi folklore san’ati, doston va eposlarida mujassam topgan bo‘lib, ular millatning o‘zligini anglash, uning o‘ziga xos miiliy qadriyatlari va an‘analarini saqlash va rivojlantirishda bebaho manba hisoblanadi[1]. Turkiy xalqlar orasida qadimdan keng tarqalgan





obrazlar tizimi,voqelikni tasvirlash usuli jihatidan alohida guruhni tashkil etadigan,asosan ishqiy sarguzasht mazmunga ega bo‘lgan dostonlar Oshiq turkum dostonlari deb yuritiladi Oshiq turkum dostonlariga Oshiq G‘arib va Shohsanam, Oshiq Mahmud va Nigorxon, Toxir va Zuhra, Sayodxon Hamro,Gul Bulbul,Asl va Karam, Oshiq Najab va shunga o‘xshagan ko‘plab dostonlarni misol qilib ko‘rsatish mumkin.O‘zbekistonning Xorazm xududida tarqalgan “Oshiq” turkumi dostonlarining aksariyatidagi asar bosh qahramonlari nomiga qo‘shib aytiladigan “oshiq”atamasi genetik jihatdan o‘zining dastlabki asosi-baxshi manosiga borib taqaladi.Chunki ulardagi bosh qahramon siymosida kuch-qudratga ega bo‘lgan kurashuvchi qahramon emas,balki baxshi oshiq tarzidagi kuylovchi lirik qahramon gavdalanadi. Darhaqiqat, mazkur dostonlar o‘zlarining yaratuvchisi bilan “oshiq”larning bevosita ishtirokida ro‘y bergan voqealar asosida ijod qilingan va bu asarlarning ko‘pchiligida ularning o‘zlari bosh qahramon sifatida harakat qiladilar[2].

Xorazm dostonlarini, shu jumladan “oshiq”turkum dostonlarini ham mifologik asos va motivlarsiz tassavur qilish mumkin emas.Hatto Xorazm Go‘ro‘g‘li turkumi dostonlariga nisbatan “oshiq” turkumi va ishqiy sarguzasht mavzusidagi dostonlarda mifologiyaning tasiri kuchliroq ekanligini bu tib dostonlarning syujeti qurilishi va yetakchi motivlari misolida aniq ko‘ramiz.Xalq og‘zaki ijodida eng ustun turuvchi dostonlarimizda tush va tush bilan bog‘liq ramzlarga duch kelamiz.Shu jumladan “oshiq”turkum dostonlari ham shular sirasiga kiradi. “Oshiq”turkum dostonlarining ekspozitsiyasi o‘ziga hos an’anaviy sxema asosida tuzilib,voqeaning boshlanishi ko‘pchilik hollarda tush ko‘rish epizodi bilan bog‘liq tarzda ifodalanadi[3].

Doston qahramoni tush ko‘radi va tushida qaysidir qizga oshiq bo‘ladi va o‘sha qizni axtarib yo‘lga chiqadi va ko‘plab qiyinchiliklarga duch keladi,va oxirida mashuqasiga yetib murodu maqsadiga yetadi.Dostonlarda uchraydigan tush motivini quydagi dostondan parcha misolida ko‘rib chiqishimiz mumkin.

### **Oshiq Mahmud va Nigorxon dostonidan parcha**

Ganjiqorabog‘ degan viloyatda Ganjaboy degan boyning Mahmudjon otli o‘g‘li bor edi. Mahmudjon o‘n yetti,o‘n sakkiz yoshlarina kirgan vaqtda bir kun yotib yotgan joyinda tush







ko‘radi. Tushida shahri Lut shahrida Mansur podshohni qizi Nigorxonga oshiqu beqaror bo‘ladi. G‘aflatdan ko‘zini ochib qarasa Nigorxon parizot ko‘zini oldindan g‘oyib bo‘ladi, erta bilan turib otasini bo‘lgan voqeani bayon qiladi. Otasi Ganjaboy o‘g‘lina qarab bu so‘zni aytadi

Dunyoni endarding mani boshima  
Bolam Mahmud mani hayron aylama  
Rahming galsin ko‘zdan oqqan yoshima  
Bolam Mahmud mani hayron aylama.

Bu ne sirdir bunga yeto bilmadim  
Ayrilibon sandin qolo bilmadim  
Mahmudjon siringa yeto bilmadim  
Bolam Mahmud mani hayron aylama[4].

Tush motivini boshqa ishqiy zarguzasht dostonlarida ham uchratish mumkin, masalan:

### **Toxir va Zuhra dostonidan parcha**

Tatar degan viloyatda Bobohon degan Podshoh uning Bohir otli vaziri bor edi. Ular ancha yoshga kirgan bo‘lsalar ham befarzand edilar. Bir kuni Podshoh vazirga qarab kel ikkovimiz qadamjolar sari boraylik allohdan farzand tilaylik deb ikkovlari ziyoratgohga borib duo fotihalar qilib yotib qoldilar. Shu kechasi vazir bir tush ko‘rdi tushida vazirga o‘g‘il Podshohga esa qiz farzand ko‘rishi ayon bo‘ldi. erta bilan turib bu voqeani Podshohga aytdi Podshoh hursand bo‘lib agar farzand ko‘rsak, farzandlarimiz o‘sib, ulg‘ayib voyaga yetsalar juft bo‘lsinlar deb ahti poymon qildilar[5].

Bu dostonda kelgan voqea boshqa Oshiq G‘arib va Shohsanam, Oshiq Alband, Oshiq Najab dostonlardaham uchraydi.

“Alpomish” dostonining barcha variantlarida biz tush motiviga duch kelamiz. Dostondagi voqealar boshlanishida, rivojida va yakunida kelgan bunday tushlar o‘rniga qarab bir-biridan farqlanib turadi. Misol uchun, dostonning Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantida tush motivi voqeaning boshida va rivojida keladi. Qahramon, ya’ni Alpomishning dunyoga kelishi, ulg‘ayishi, uylanishi, hayot qiyinchiliklarini yengib, murod-maqсадiga yetishi tush motivi orqali ochib beriladi. Agar dostondagi tush motivi tushirib qoldirilsa, unda syujet jiddiy zarar





ko‘radi. Dostondagi befarzandlik, ulg‘ayish, sinov, safar, uylanish va uyga qaytish motivlari bevosita tush motivi bilan chambarchas bog‘liq holda keladiki, tush bu o‘rinda voqealar rivoji uchun asosiy poydevor vazifasini o‘taganini ko‘ramiz.

Tush motiviga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlardan biri uning ko‘pincha boshqa motivlarni o‘zi bilan birga yetaklab kelishidir. “Alpomish” dostonida Alpomish, Barchin va Qorajon bir vaqtning o‘zida ayni bir tushni ko‘radi: “Alpomish cho‘ponlarning qo‘shxonasida uxlab yotdi. Kechasi fayzi sahar vaqtiga yetdi, sahar vaqti cho‘ponlarning qo‘shxonasida yotib bir tush ko‘rdi. Izlab borayotgan Barchin yori, bul ham baxmal o‘tovda yotib, subhi sodiq tuqqan vaqtda bir tush ko‘rdi. Kashal g‘orida, to‘qson qalmoqning ichida Qorajon alp ham bir tush ko‘rdi. Uchovining tushi oldin keyin, do‘g‘ulish ko‘rdi”. Ana shu tush motivida butun doston voqealari oldindan bashorat qilinib, ramzlar tilida bayon etiladi. Ya’ni doston syujetining butun keyingi voqealari rivoji ana shu parchada ko‘rsatib beriladi. Ushbu motivdan so‘ng doston voqealari tezlashib, syujetning keyingi halqalari uchun vaziyat yaratiladi. Qorajon ana shu tush tufayli Alpomish bilan do‘st tutinadi. Sinovda o‘zi tug‘ishgan akalarining yonida turib emas, Alpomish tomonda turib davraga tushadi. Alpomishning do‘sti, sirdoshi, yaqin ko‘makchisiga aylanadi. Shuning uchun ham ana shu tush parchasini doston syujetining “yadrosi” deb qarash mumkin.

O‘zbek dostonlaridagi tush motivi sinov, uylanish, safar, qaytish kabi keyingi motivlar bilan chambarchas bog‘langan holda keladi. Doston syujetining keyingi “taqdiri” ana shu tush motivi bilan bevosita bog‘likki, agar Alpomish, Barchin va Qorajon ana shu tushni ko‘rmaganlarida, Qorajon Alpomish bilan do‘st tutinmagan va voqealar tizimi boshqacha rivojlangan, bu esa syujet o‘zgarishiga olib kelgan bo‘lardir. Bu holat barcha variant va versiyalarning ichida eng mukammali hisoblangan Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantining badiiyatiga ham salbiy ta’sir qilmay qolmasdi.

Epik ijodda motivlar hamisha rang-barang bo‘ladi. Shuning uchun ham syujetda har bir motiv o‘ziga xos “yuk”ka ega. Motivlarning o‘zaro bir-biriga bog‘liqligi, syujetdagi barqarorligi doimo ham bir xil bo‘lavermaydi. Shuning uchun ularni ikki yo‘nalishda olib qarash mumkin. Birinchisi, biror bir motivning tushib qolishi yoki o‘zgarishi





syujetda ham tub o‘zgarish bo‘lishiga olib keluvchi barqaror motivlar. Bunday motivlar asar strukturasi mustahkam o‘ringa ega bo‘ladi. Ikkinchisi, motivlar o‘zgarishi hech qanday syujetning o‘zgarishiga olib kelmaydi. Bunday motivlar boshqa bir motiv bilan almashtirish mumkin bo‘lgan nobarqaror bo‘lgan motivlar.[6]

Xulosa qilib shuni aytish kerakki “oshiq”turkum dostonlarda tush motiviga ulkan badiiy-estetik vazifa yuklanadi. Tush qahramonlar taqdirini avvaldan belgilab beradi. Noestetik hodisaning “oshiq”turkum dostonlarida estetik hodisaga aylanishi timsolida namoyon bo‘lishini, turli badiiy-estetik vazifalarni ko‘rsatadi. Bu motivlar birlashib dostonlarni strukturasi tashkil etadi. va eshituvchi qalbida dostonga bo‘lgan sevgi muhabbatni oshiradi. Bu dostonlarni eshitgan yosh avlod insoniylik, vatanparvarlik, ota-onaga bo‘lgan hurmat ruhida tarbiya topadi.

#### **Foydalanilgan adaboyotlar ro‘yxati:**

1. “Xalqaro baxshichilik san’ati festevalini o‘tkazish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2018-yil 1-noyabrdagi qaroridan.
2. Oshiqnoma. Ro‘zimboyev S. Urganch 2006.
3. Eshonqulov J. O‘zbek folklorida tush va uning badiiy talqini.
4. Matyoqubov B. Doston navolari. Toshkent 2009.
5. Oshiqnoma 5. Ro‘zimboyev S. Urganch, 2011.
6. Eshonkulov J. O‘zbek folklorida tush va uning badiiy talqini.





## BAXCHISHILIK SAN’ATINING BOLALAR TARBIYASIGA TA’SIRI

*Nazira PRIMBETOVA,  
O‘zDSMI Nukus filiali katta o‘qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qoraqalpoq milliy baxshichilik san’atining kelib chiqish tarixi, yosh bolalarning tarbiyasida katta ahamiyati, xalqning ijtimoiy sharoitlari, dostonlarni ijro etishda: jirovlarning, baxshilarning, qissaxonlarning mahorati to‘g‘risida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** doston, baxshi, jirov, qissaxon, balalar tarbiyasi, mahorat, repertuar, musqka, doston mazmuni, xalq sharoiti.

**Аннотация:** В этой статье рассказывается о происхождении национального искусства бахши, его важность в воспитании детей и социальном положении народа.

В исполнения дастанов: рассказывается об искусстве жырау, бахши и сказителей.

**Ключевые слова:** дастан, бахши, жырау, сказитель, воспитание детей, искусство, репертуар, музыка, содержание дастана, положение народа.

Baxshi va doston so‘zlari mohiyatan olib qaralganda egizak so‘zlar, ularning biridan ikkinchisini ajratib bo‘lmaganidek, ushbu so‘zlar mazmunan ham bir-birini to‘ldirib turadi. Baxshi (baxsi, baqsi) so‘zi lug‘atlarda turkiy so‘z bo‘lib, murabbiy va muallim ma’nolarini anglatadi, umuman, tarbiyachi, yetakchi, yo‘lboshchi kabi talqinlar ham unda mujassam.

Qoraqalpoqlarning og‘zaki an’anadagi professional musiqasining markaziy qismini doston musiqasi egallaydi. Qoraqalpoq doston ijrochilari 3 turga bo‘linadi: jirovlar, baxshilar va qissaxonlar, ularning har biri o‘ziga xos ma’lum ijtimoiy-siyosiy sharoitda yuzaga kelgan. Shuningdek, ular bir-biridan repertuaridagi dostonlar mazmuni, ijro uslubi, dostonning maxsus aytimlari hamda musiqiy cholg‘u jo‘rnavorligi jihatidan farq qiladi. Jirovlar faoliyati an’anaviy ijodning eng qadimgi qatlamiga mansub bo‘lib, qahramonlik dostonlarni





(“Qoblan”, “Sharyar”, “Yedige”, “Alpamis”, “Maspatsha”), tarixiy to‘lg‘ovlarni ichki ovozda qo‘biz jo‘rligida ijro etadi.

Baxshi (baqsi)lar ishqiy-lirik va qahramonlik dostonlarni (“Yusuf-Zulayha”, “Zaure-Tayir”, “Yusuf-Ahmet”, “Go‘ro‘g‘li”) hamda mumtoz she‘riyat asarlarini ochiq ovozda, dutor va g‘ijjak jo‘rligida (gohida bo‘lamon ham qo‘shiladi) ijro etishadi. Kuylar murakkabligi, ifoda vositalar boyligi bilan jirovdan farq qiladi.

Qissaxonlar ko‘pincha savodxon shaxslar bo‘lib, xalq yig‘inlarida doston qo‘lyozmalarini o‘qib yoki yoddan aytib berishadi. Ular she‘rlarni faqat o‘ziga xos, nutq intonatsiyasiga yaqin aytm kuy (nama) larga solib, musiqiy cholg‘u jo‘rligisiz ochiq ovozda ijro etishadi.

G‘ijjak (girjek) va bo‘lamondan tashqari changqo‘biz, qamish surnay va bolalar xushtagi (“iskirauik”) kiradi. O‘tmishda qoraqalpoqlarda chindovul, surnay, karnay, nog‘ora, dap (doira) kabi cholg‘ularning mavjudligi haqida qahramonlik dostonlarida ma‘lumotlar saqlangan. Bulardan qo‘biz va dutor keng tarqalgan, ularda mohir sozandalar tomonidan qoraqalpoq mumtoz cholg‘u kuylari chalinadi. Ayniqsa, dutor kuylari orasida “Muxalles”, “Nalish” kabi turkumiy kuylar shaklan murakkab va ifoda vositalarining boyligi bilan ajralib turadi. Qoraqalpoq xalq an‘anaviy musiqa rivojlanishiga XX asrda Nurabullo jirov, Yerpo‘lat jirov, Ho‘qiz jirov, Jumaboy jirov, Qiyos baxshi Hayratdinov, Japaq baxshi Shomurotov, Yesjan baxshi Qospo‘latov, Kenjaboy baxshi Tilevmurotov, Qoraqalpog‘iston xalq artisti T.Qurbonov va boshqalar salmoqli hissa qo‘shdilar.

1960-1980 yillar qoraqalpoq dramaturgiyasida P.To‘legenovning “Onalar”, “Ko‘lanka”, “Inson taqdiri”, J.Aymurzaevning “Berdaq”, “Qadr don doctor”, S.Xojaniyozovning “Suymaganga suykanma”, “Ahmoq podsho”, T. Seytjonov, I. Yusupovning pesalari (A.Shamuratov bilan birgalikdagi) muhim ahamiyat kasb etadi. Shu davrda lirik-epik she‘riyat mazmuni va mavzusi, uning janr jihatdan o‘ziga xosligi rivojlandi va boyidi. Hozirgi zamon qoraqalpoq she‘riyatini g‘oyaviymavzuli badiiy-estetik jihatdan boyitishga I.Yusupov salmoqli hissa qo‘shdi. 1980-yillarning ikkinchi-yarmida K.Mambetovning “Xujdan”, O.Abdurahmonovning “Bo‘sag‘a”, A.Otepbergenovning “Do‘zax ichida”, K.Rahmonovning “Oqibat”, Shahri Seytovning “Xalqobod” romanlari yaratildi. She‘riyatga o‘z ovozig a ega bo‘lgan K.Karimov, K.Reymov, N.Toreshova,





M.Jumanazarova, O.Seytaev, O.Satbaev, J.Xo‘shniyozov,  
X.Dauletnazarov, J.Izboskanov, X.Ayimbetov kabi iste’dodli  
ijodkorlar kelib qo‘shildi.

XX asrning ikkinchi-choragidan boshlab milliy kompozitorlik ijodiyoti shakllana boshladi. Musiqali dramalar, kichik simfonik asarlar, xorlar, kamer asarlar va hokazolar yozildi. Bu sohaga Japaq baxshi Shomurotov va O. Halimov salmoqli hissa qo‘shdilar. 1970-1990-yillarga kelib opera, oratoriya, simfoniya, konsert, sonata kabi yirik janrlardagi asarlarning ilk tajribalari paydo bo‘ldi: N. Muhammeddikovning “Ajiniyaz” operasi (1974 yil), “Birinchi qoraqalpoq simfoniyasi” (1971 yil), birinchi milliy baleti “Oyjamol” (1996 yil), G.Demesinovning 2 simfoniyasi, fortepiano va orkestr uchun konsertlari va boshqalar O.Shomurotova, G.Sherazieva, R.Seitov, S.Mambetova, O.Otamurotova, I.Rafiqova, D.Kaipov va boshqalar zamonaviy musiqa madaniyatiga salmoqli hissa qo‘shdilar. Respublikaning madaniy hayotida simfonik orkestr, katta xor jamoasi va balet truppasi faol ishtirok etmoqda. Shuningdek, Berdaq nomidagi filarmoniya (1946 yil), Qoraqalpoq davlat teleradioqo‘mitasi qoshidagi xalq cholg‘ulari orkestri, “Ayqulash” ashula va raqs ansambli, “Muxalles” dutorchilar ansambli va boshqalar musiqiy jamoalar faoliyat yuritmoqda. Qoraqalpog‘iston ommaviy (estrada) musiqasi sohasida “O‘ynasin” vokal cholg‘u ansambli, “Gulzor”, “Saubet”, “Miyras”, “Jigitlar” guruhlari, Z.Xo‘janazarova (1961-1992 yil), R.Kutekeeva, M.Sapaeva, D. Mambetmuratov, G.Munteeva, M.Otamurodov, G.Ollabergenova kabi estrada xonandalari mashhur. Musiqiy bilim sohasida bolalar musiqa maktablari, Nukusda musiqa kolleji, madaniyat kolleji, oliy o‘quv yurtlari (Nukus universiteti va boshqalar)da musiqiy kafedralar faoliyat ko‘rsatmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Древнетюркский словарь. – Ленинград: Наука, 1969. – С. 82
2. Hikmatlar shodasi – T. “O‘zbekiston” 2013 y.
3. M.Ashurova “Mehrardan yaralgan olam” (Toshkent – 2018 y.)
4. Sundukova V.N., Ahmedova Z.A. “K.S.Stanislavskiy sistemasi atama va unsurlari”. O‘quv qo‘llanma–Toshkent, 2012.-45 b.





5. K.S.Stanislavskiy – Aktyor o‘z ustida ishlashi O‘quv  
qo‘llanma–T.Xo‘jayev tarjimasini T.2010.

## BAXSHICHILIK SAN’ATI VA UNING MAHORATI

**Gulbahor FOZILOVA,**

*O‘z.RFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori  
instituti mustaqil tadqiqotchisi,  
Madaniyatshunoslik va nomoddiy  
madaniy meros ilmiy-tadqiqot  
instituti ilmiy xodimi.  
[fozilovagulbahor88@gmail.com](mailto:fozilovagulbahor88@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Baxshichilik san’ati tarixi va uning rivojlanish jarayonlari hamda maktablari, ularda faoliyat olib borgan baxshilar mahorati, ustoz-shogird an’analari haqida fikr yuritilgan.

**Abstract:** This article examines the history of the Bakhshi art and the processes of its development, as well as the schools, the skills of the Bakhshi who practiced in them, the “teacher-student” traditions.

**Аннотация:** В этой статье рассматривается история искусства Бахши и процессы его развития, а также школы, мастерство Бахши, практиковавшееся в них, традиции “учитель-ученик”.

O‘zbek xalq poetik ijodining ulkan janrlaridan biri dostonchilik bo‘lib, uning rivojlanishi shu xalqning milliy qadriyatlari va an’alarining saqlanishida asosiy vosita hisoblanadi.

Baxshi so‘zi turli davrlarda shomon, kohin, qalandar, jarroh, folbin, kotib, hisobchi, ustod, ma’rifatchi kabi turli ma’nomlarni ifodalab kelingan. Baxshi – xalq og‘zaki ijodining epik va lirik turga xos namunalarini aytuvchi, kuylovchi professional ijrochilarni ifodalovchi tushuncha. Baxshi, ya’ni san’atkor dostonchilarni el orasida yuzboshi, soqi, sannovchi, sozchi, jirov deb ham ataydilar. Bundan 2-3 ming yil avval doston ijrochilariga – “baxshi” nomi berilgan bo‘lib, “baxshi” so‘zi mo‘g‘ulcha va buryatcha – baxsha (bag‘sha – ma’rifatli,





o‘qituvchi), turkmanlarda – bag‘shi, qoraqalpoqlarda – baqsi va hokazo tarzida ishlatilgan<sup>36</sup>.

Baxshi – terma, qo‘shiq va dostonlarni saqlovchi, yoddan kuylovchi, aytuvchi, avloddan-avlodga etkazuvchi san’atkor, xalq dostonchisidir. Uning shirali ovozi, do‘mbirasidan taralayotgan kuy inson qalbini beixtiyor to‘lqinlantiradi, junbushga keltiradi. Baxshi xalq turmushi va madaniyatini, o‘zi yashab turgan yurt tarixini va biror cholg‘u sozini chalishni bilishi, xonandalik san’atini puxta egallagan bo‘ladi. U jonli xalq tilining turli shakllaridan, so‘z o‘yinlari va qochirimlaridan, xalq maqollari va iboralaridan unumli foydalana oladigan san’at namoyondasidir.

Baxshilar tinglovchilarni o‘ziga rom etuvchi ohang topa bilishi, dostonni jozibali va qiziqarli qilib aytishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o‘z navbatida aytuvchidan tabiiy iste’dod, kuchli idrok, muntazam ravishda qunt va chidam bilan mashq qilishni talab qiladi. Ona yurtga sadoqat, muhabbat, do‘stlik, birodarlik, qahramonlikni tarannum etuvchi xilma-xil mazmundagi dostonlarni baxshilar sevib kuylaydilar. Baxshilar tomonidan ijrochilik ijodi baxshichilik san’ati deyiladi.

Yurtimizning Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlarida baxshichilik san’ati rivojlangan bo‘lib, hozirgi kunda Bulung‘ur, Qo‘rg‘on, Shahrisabz, Qamay, Chiroqchi, Dehqonobod, Sherobod, Boysun, Xorazm hamda Qoraqalpoq dostonchilik maktablari mavjud. Ular bir-biridan ijro usullari va repertuarlari bilan farqlanadilar. Jumladan, Bulung‘ur dostonchilik maktabi azaldan qahramonlik dostonlarini ijro etib kelgani bilan mashhur bo‘lgan bo‘lsa, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li va Po‘lkan shoirlar nomi bilan bog‘liq bo‘lgan Qo‘rg‘on dostonchilik maktabida, asosan, lirik ishqi qissalar kuylanadi.

O‘zbek xalqining dostonchilik ijodi favqulotda hodisalardan biri bo‘lib, baxshilar va dostonchilik maktablarining faoliyati hamda ustozshogird an’analari ko‘plab doston namunalarining etib kelishiga sabab bo‘lgan. Unda xalqimiz badiiy tafakkurining boy va qadimiy an’analari mujassamlashganligi mutaxassis olimlar tomonidan isbotlangan. Baxshichilik san’ati qadimiy an’analarga asoslanib, bir kishi ijrosida,

<sup>36</sup> O‘zbek xalq poetik ijodi B.Sarimsoqov, T.Mirzaev Toshkent-1992.







ichki ovozd, do‘mbira jo‘rligida badiha yo‘li bilan jonli jarayonda kuylanadi. Baxshi bir dostonni necha joyda kuylasa ham bir xilda kuylamaydi. Kuylash jarayonida do‘mbira nag‘malari o‘zgarishi, ohanglar, auditoriya va voqelikka qarab shakllanishi, voqealar tizimi goh qisqa, goh uzun bo‘lishi va matn ijodiy badihada o‘zgarib borishi kuzatilgan. Bu o‘zgarishlar baxshining kayfiyati va tinglovchilar auditoriyasiga qarab belgilanadi. Ammo baxshi kuylaganda goh terma, goh doston bo‘lsin, an’anaga qat’iy amal qilishi talab etiladi, -deydi O‘zbekiston xalq baxshisi Qahhor baxshi Rahimov.

Baxshilar repertuarining hajmi bir xilda bo‘lmaydi; quyma quloq, zehnli, qobiliyatli, iqtidorli, yuksak hofiza quvvatiga ega bo‘lgan baxshilar ko‘plab dostonlarni yod biladi. Baxshi o‘zlashtirgan va ijodiy tarzda kuylab kelgan barcha terma va dostonlar uning repertuari hisoblanadi. Misol uchun, Po‘lkan shoir 70 dan ortiq, Qodir baxshi 80 ga yaqin dostonlarni yod bilgani fikrimizning isbotidir. Bunday qobiliyatli dostonchilarni baxshi-shoir yoki shoir deb yuritamiz. Ergash shoir, Fozil shoir, Islom shoir, Po‘lkan shoir va Qodir shoirlar zamonamizning eng etuk, iqtidorli hamda davr bilan hamnafas shoirlaridir.

Baxshi shoir va baxshilarni bir-biriga qiyoslasak, ularning farqini tezda ilg‘ab olish mumkin. Baxshi shoir an’anaviylikni va individuallikni o‘zida jamlab olgan bo‘lib, ular shunchaki ijrochi emas, balki an’anaviylikka asoslanib, o‘z san’atini, o‘z asarini yaratayotgan kuychilardir. Baxshi, yoxud ijrochi ustozidan o‘rgangan o‘zi o‘qib o‘zlashtirgan doston va termalarni kuylab beruvchi kishilardir. Baxshining epik mahorati borasida folklorshunos A.Lord: “Xalq og‘zaki ijodi ijro uchun yaratilmaydi, balki ijro etayotganda yaratiladi”, deb izohlasa, yana bir mutaxassisimiz esa “Baxshi kuylayotganda epos yana bir marta yangilanadi, yangicha mazmun, yangicha ohang, yangicha mohiyat kasb etadi”, - deb o‘z fikrini bildiradi.

Xulosa qilib aytganda baxshichilik san’atiga baxshichilik san’atida voqealar qatlami keng, va bepoyon bo‘lib hudud va chegara bilmaydi. Bunda baxshilarning mahorati, badihago‘ylik san’ati, voqea va hodisalarning obrazli tarzda intilishi aynan ustoz baxshilar ijro etgan doston va termalarning epik an’analarga mos holda kuylab kelayotganligi ushbu san’atning bardavomligini ta’minlaydi.





**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. B.Sarimsoqov, T.Mirzayev O‘zbek xalq poetik ijodi Toshkent-1992
2. Mirzayev T. O‘zbek eposshunosligining dolzarb masalasi // Qodir baxshi abadiyati mavzusidagi respublika konferensiyasi materiallari. – Qarshi, 2012.
3. Eshonqulov J. Navoiy va folklor // Qodir baxshi abadiyati mavzusidagi respublika konferensiyasi materiallari. – Qarshi, 2012.
4. Ergashev A. Iste’dodli, zabardast baxshilar. – Qarshi, 2019.





## “XALQ – IJODIYOTI. BAXSHICHILIK-DOSTONCHILIK” YO‘NALISHIGA NAZARIY FANLARNING O‘QITILISHIDAGI MUAMMOLAR

**Nodira HAYDAROVA,**

*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMMSI*

*“O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrasida o‘qituvchisi,*

*Mustaqil tadqiqotchi (PhD.)*

*Ilmiy rahbar: Soibjon BEGMATOV,*

*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMMSI*

*“O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” s.f.n. professor.*

**Annotatsiya:** *Ushbu tezis O‘zMMMSI “Xalq ijodiyoti. Baxshichilik, dostonchilik” yo‘nalishida taxsil olayotgan talabalarga tarixiy, amaliy, nazariy fanlardan ta’lim berish jarayonida uchrayotgan ayrim muammoli masalalar, muammoning sababi, bartaraf etish uchun taklif va muloxazalarga bag‘ishlanadi. Fikr yuritiladigan fanlar “Solfejo. Doston solfejo.”, “Musiqqa nazariyasi”, “O‘zbek musiqasi tarixi”.*

**Kalit so‘zlari:** *Baxshi, doston, maktab, ta’lim, saviya, nazariya, solfejo, tarix, o‘zbek musiqasi, mahaliy uslub.*

Barchaga ma’lumki, 2018-yilning 26 aprel sanasida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 304-sonli “Baxshichilik va dostonchilik san’atini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori qabul qilindi. Qarordagi - “2018/2019 o‘quv yilidan boshlab Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Samarqand, Surxondaryo, Xorazm va Qashqadaryo viloyatlaridagi bolalar musiqqa va san’at maktablarida baxshichilik va dostonchilik yo‘nalishi bo‘yicha maxsus sinflar ochish hamda mazkur musiqqa va san’at maktablari o‘quv rejasiga va shtat jadvaliga o‘zgartirishlar kiritish” hamda “Bolalar musiqqa va san’at maktablaridagi baxshichilik va dostonchilik yo‘nalishi bo‘yicha maxsus sinflarni o‘quv dasturiga muvofiq o‘quv qo‘llanmalari va adabiyotlari bilan ta’minlash” [2] – deya belgilangan bndlari bugungi mavzuning asosidir.

2020-yil O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada





oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son Farmonining 13-bandida “O‘zbekiston davlat konservatoriyasining “O‘zbek maqom san’ati fakulteti“ hamda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining tegishli ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari negizida maqom ijrochiligi, baxshichilik va katta ashula yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlar tayyorlovchi tayanch oliy ta’lim muassasasi - Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek Milliy musiqa san’ati instituti tashkil etilsin” [3] belgilandi.

2020/2021 o‘quv yilidan o‘z faoliyatini boshlagan Yunus Rajabiy nomidagi o‘zbek milliy musiqa san’ati instituti 2023/2024 ya’ni ushbu o‘quv yilida “Xalq ijodiyoti. Baxshichilik, dostonchilik” yo‘nalishini tamomlaydigan ilk mutaxassislari oliy ma’lumotli baxshidoston ijrochilari bo‘lib yetishadi. Qisqa o‘qish davri mobaynida nomoddiy madaniy me’rosni kelajak avlodga yetkazishda o‘z hissalarini qo‘shayotgan yosh talabalar ta’lim jarayonida aksariyati tarixiy, nazariy, amaliy fanlarda turli mashaqqatlarga uchrayotgani kuzatilmoqda.

Baxshi – doston san’ati ijrochilari institutga asosan uchta Qoraqalpoq, Xorazm, Qashqadaryo-Surxandaryo maktablaridan tashrif buyurib tahsil olishmoqda. Har bir bosqichda 10-15 dan ortiq talaba (60 ga yaqin) bugungi kunda ushbu yo‘nalishda tahsil olmoqda.

Institutda oliy ma’lumotli baxshilarning tarbiyalanishi yo‘lga qo‘yilgani tahsinga loyiq. Lekin ta’lim jarayonida quyidagi muammolar kuzatilmoqda:

- Guruhdagi talabalarning bilim saviyasi bir-biridan tubdan farq qilishi;
- Musiqa savodining darajasi turlicha ekani;
- Mutaxassislik ijro uslubining turli yondoshuvda ekani;
- Institut o‘quv reja, dastur, kalendar rejada turli darajadagi talabalarga bir xil talab qo‘yilishi;
- Baxshi mutaxassislarning xususiyatidan kelib chiqib institutning tegishli fanlardan darslik, o‘quv qo‘llanma, uslubiy qo‘llanma ishlab chiqilmagani va boshqalar.

Ilk faoliyat olib borgan yilimda ushbu yo‘nalishning qoraqalpoq (balki xorazmni kiritsa bo‘lar) maktabidan kelgan talabalarga nota cho‘zimidan boshlab o‘rgatmay, musiqa nazariyasi 1 semestr va kerak bo‘lsa garmoniya fanini olib borsa bo‘ladigan bilim bilan o‘qishga





kirgani, Qashqadaryo-Surxondaryo maktabi esa aynan musiqaning elementar nazariyasidan qunt bilan o‘rganishi kerakligini kafedra mudiriga habar berganimda bir vaqtda, bir guruhda ikki hil mavzu o‘tishimni talab qilgan vaqtlari ham bo‘lgan. Reja noto‘g‘ri tuzilgani, institut yangi ochilganligi sababli, faoliyati hali yuqori tajribaga ega emasligi tushunarli. Axir guruhga bo‘lish uchun alohida soat ajratib bo‘lmaydi o‘quv yili o‘rtasida. Turli takliflar o‘rganilib, ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘yicha mas’ul shahs N.K. Yuldasheva jarayonga bevosita guvoh bo‘lganidan so‘ng 2023/2024 o‘quv yilidan 2 semestr kichik guruhli yakka mashg‘ulotlar olib borish uchun ham soat ajratib berildi. Bugungi 1-bosqich talabalari 3 maktabga ya’ni 3 guruhga bo‘lib umumiy mavzuni yakka tarzda ham chuqur o‘zlashtirishga kirishishdi. Lekin bu masalaning to‘liq yechimi bo‘la olmadi. Chunki Musiqaning elementar nazariyasi mavzularini maktab, o‘rta bo‘g‘inda o‘rganib kelgan Qoraqalpoq, Xorazm maktabi baxshi – doston ijrochi talabalar uchun *zerikarli* takrorlash bo‘lmoqda. Ta’limdan maqsad malakali, har tomonlama yetuk baxshi-doston san’ati ijrochilarini tarbiyalash. Samara va natija haqida fikr bildirish xozircha mushkil.

“Solfejo. Doston solfejo” fani haqida ham Musiqa nazariyasi faniga yaqin mulohaza. Fan amaliy lekin baxshi-doston kuylab, so‘zlab ijro etadigan talabalarning 30-40% da artikulyatsiya ishlatish, ravon so‘zlashish, aniq va toza intonatsiyalash masalasi o‘zgartirib bo‘lmas muammodir. Ushbu konferensiyaning o‘tgan galdagi sonida baxshilarga solfejo fani kerak emas deya targ‘ib qilgan o‘z sohasining yetuk ijrochilari haqida talabalar so‘zlab yurdi. Bu fikr shu fan topshiriqlarini bajara olmayotgan talabalarga ma’qul ham keldi. Lekin talab hammaga bir xil. Chunki “Solfejo” fani barcha ijrochilar umuman musiqachilar uchun muhim fan hisoblanadi.

Bu fanda ham intonatsiyasi shakllangan, nota savodi bor, kuylay oladigan Qoraqalpoq va Xorazm maktabi alohida, mutaxassislikdan yopiq ovozda kuylaydigan, oddiy so‘zlashish ovozida kuylashni shakllantira olmagan Qashqadaryo –Surxandaryo maktabiga esa reja va talab alohida ishlab chiqilsa masqadga muvofiq bo‘ladi.

Qoraqalpog‘istonda musiqa maktab, san’at bilim yurtlarida baxshilar ta’lim olishi 1992-yildan buyon yo‘lga qo‘yilgan. Xorazmda ham doston ijrochilari soz chalib ochiq ovozda, avjlari yuqori terma, noma, qo‘shiqlar ijro etadi.





“O‘zbek musiqasi tarixi” fani o‘qitilishi jarayonida esa achinarli holatga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Nafaqat Baxshi-doston ijrochi talabalari, umuman yoshlar kitob mutolla qilishni bilmaydi. Xattoki, umri davomida kitob ushlaymay institutga kelgan talabalar ham talaba yoshlarimiz orasida yo‘q emas.

Xulosa va taklif. Baxshi-doston ijrochilarining guruhli darslarida “ta’limmi yoki diplom” – deb savol yo‘lladim: 70% - diplom, 25% - ta’lim, 5% - bosgan qadamini bilmaydi. Ushbu foizlar statistik ma’lumot holos lekin ijtimoiy holat uchun juda achinarli albatta. Aksariyat talabalar esa hemis dasturida “yo‘q” belgilanmasligi uchungina auditoriyada o‘tiradi.

Qaror va farmonlar ijrosini munosib amalga oshirish, sohaga oid muhim darsliklarni zamon talabi darajasida shakllantirish hamda nashr etish, talabalarni aniq maqsad asosida tarbiyalash, darslarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkillash kerak.

**Foydalanilgan saytlar:**

1. [WWW.Lex.uz](http://WWW.Lex.uz)
2. <https://lex.uz/uz/docs/-3711930>
3. <https://lex.uz/docs/4829149>





## “ALPOMISH” DOSTONI TO‘RA MIRZAYEV TADQIQIDA

*Nigora ABDUSALOMOVA,  
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va  
folklori instituti tayanch doktoranti.*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada akademik To‘ra Mirzayevning “Alpomish” dostonini o‘rganish borasidagi ilmiy maqolalari, monografik tadqiqotlari va tekstologik izlanishlari tahlilga tortilgan. Tadqiqotchi ushbu doston o‘zbek variantlarining qiyosiy-tarixiy tahlili natijasida baxshilar badiiy mahoratini ochib berganligi ko‘rsatilgan.

**Kalit so‘zlar:** folklor, epos, qahramonlik eposi, doston, variant, versiya, baxshi, syujet, folklor ekspeditsiyasi.

**Аннотация:** В данной статье анализируются научные статьи, монографические исследования и текстологические работы академика Т.Мирзаева, посвященные узбекскому народному героическому эпосу “Алпамыш”. Доказана, что исследователь на основе сравнительно-исторического анализа узбекских вариантов данного эпического произведения определил своеобразные поэтические мастерства народных сказителей.

**Ключевые слова:** фольклор, эпос, героический эпос, дастан, вариант, версия, сказитель, сюжет, фольклорная экспедиция.

**Abstract:** This article analyzes the scientific articles, monographic studies and textual works of academician T. Mirzaev, dedicated to the Uzbek folk heroic epic “Alpamysh”. It is proved that the researcher, on the basis of a comparative historical analysis of the Uzbek versions of this epic work, determined the peculiar poetic skills of folk storytellers.

**Key words:** folklore, epic, heroic epic, dastan, variant, version, storyteller, plot, folklore expedition.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi To‘ra Mirzayev ijodisiz va To‘ra Mirzayev ilmiy ijodini “Alpomish” dostonisiz yaxlit tasavvur qilib bo‘lmaydi. Akademik To‘ra Mirzayev ilmiy ijodida markaziy o‘rinda o‘zbek xalq qahramonlik eposi sanalgan “Alpomish” dostoni tadqiqi





turadi. “Alpomish” dostonining ilmiy tadqiqini 1922 -yilda G’ozi Olim Yunusov boshlab bergan bo’lsa-da, olim dostonni ilmiy jamoatchilikka taqdim qilib, jamoatchilik diqqatini o‘zbek xalq dostonlarini o‘rganishga jalb etish bilan cheklangan. “Alpomish” dostonini ilmiy jihatdan o‘rganish va nashr etishni 30-yillarning oxirida Hodi Zarif va Hamid Olimjonlar boshlab bergani ma’lum. Ammo akademik To‘ra Mirzayevning keng va tizimli ilmiy tadqiqotlari natijasida esa o‘zbek eposshunosligida “Alpomish” va To‘ra Mirzayev nomlari yonma -yon o‘rinlashdi.

Akademik To‘ra Mirzayev O‘zbekistonning turli hududlariga uyushtirilgan folklor ekspeditsiyalari natijasida fan uchun qimmatli ma’lumotlar to‘plab, taqdim qilgani bizga yaxshi ma’lum. Shunday ekspeditsiyalardan biri 1963-yil iyun-avgust oylarida Janubiy Tojikistonning Vose’, Dang‘ara, Qo‘rg‘ontepa, Kolxozobod tumanlari bo‘ylab o‘tkazilgan bo‘lib, bu ekspeditsiyada folklorshunos olim Dang‘ara tumanining Joribqo‘l qishlog‘ida yashovchi 80 yoshli To‘la soqi Haybat o‘g‘li repertuarida “Alpomish” dostonining o‘ziga xos varianti mavjudligini aniqlab, bu dostonning bir necha namunalarini, jumladan, Bo‘riboy Ahmedov variantini yozib olgan. T.Mirzayev “Alpomish” dostonining o‘zbek baxshilari orasida mavjud bo‘lgan variantlari va dostonning prozaik namunalarini o‘rganib, har bir variantning o‘ziga xos xususiyatlarini oydinlashtirdi[6].

Mazkur ekspeditsiya materiallari asosida olim Janubiy Tojikistonda yashaydigan o‘zbek baxshilari repertuarini qiyosiy-tarixiy jihatdan tekshiradi, “Alpomish” variant va versiyalari asosida folklorda versiya va variantlilikni tadqiq qiladi, dostonchilikdagi jonli ijrochilik an‘analarining saqlanish darajasini aniqlaydi. Shuningdek, epik syujetlarning tarqalish chegaralarini aniqlashda ham bu ekspeditsiya olimga qimmatli manbalar beradi. Natijada T.Mirzayev ilmiy faoliyatida “Alpomish” dostonining o‘zbek variantlariga xos xususiyatlar hamda dostonchilikdagi versiya va variantlilik tadqiqi, doston syujetining tarixiy asoslari, rivojlanishi, tarqalish doirasiga doir bag‘ishlangan ilmiy maqolalari yuzaga keladi[7]. Jumladan, uning “variantlilik”, “versiya”, “variant” (“variatsiya”) istilohlarini bir-biridan ajratib, ma’nolarini differentsiatsiya qilgani va farqini ko‘rsatib bergani eposshunoslik metodologiyasi uchun, ayniqsa, ahamiyatlidir. Olim “Alpomish” eposi variantlarini o‘rganish asnosida doston







o‘zbeklar orasida jonli og‘zaki traditsiyada ikki versiyada tarqalgan va ikkalasi ham yashab kelgan, degan xulosaga keladi. Bularni shartli ravishda a) “keng tarqalgan versiya” va b) “kam tarqalgan versiya” - deb yuritadi. Bu ikkala versiyani Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantining ikkinchi qismini nazarda tutgan holda bir-biridan prinsipial farqlari borligini ko‘rsatib beradi. Shu bilan birga folklorshunos olim dostonning ayrim variantlariga yozma adabiyotning ta’sirini tadqiq qilib, Berdi baxshi, Mamadrayim, Bo‘riboy Ahmad o‘g‘li variantlarida badiiy tasvir elementlarining qadimiy xususiyatlari deyarli saqlanmaganligini ta’kidlaydi[8].

T.Mirzayev 1961-1964 yillarda aspiranturada tahsil olish davomida, folklorshunos olim H.Zarifov rahbarligida “Alpomish” dostonining o‘ttizga yaqin variantlarini qiyosiy tahlil qilgan. T.Mirzayev variantlarni tahlil qilar ekan, doston nashrining ba’zi o‘zbek dostonchilariga ta’siri masalasiga ham to‘xtalib o‘tadi. Ma’lumki, epos ustozdan shogirdga o‘tib, og‘zaki traditsiya hozirgacha davom etib kelmoqda. Chunki baxshi – ustozni repertuaridagi dostonlarni yillar davomida eshitib yodlash orqali o‘rganadi. Ammo epos nashr qilinar ekan, savodli baxshi dostonni ustozidan eshitish bilan birga bu nashr bilan tanishib o‘rganish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi. Bu tanishish baxshi repertuaridagi variantda aks qilishi mumkin. Olim Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan yozib olingan “Alpomish” dostoni nashrining o‘zbek dostonchilariga ta’siri haqida mulohaza bildirib, bu nashr katta shuhrat qozonganini va keyingi yillarda o‘zbek xalq dostonchilari og‘zidan yozib olingan “Alpomish” variantlarini kuzatishi natijasida ayrim baxshilar repertuariga Fozil Yo‘ldosh variantining nashri kuchli ta’sir etganligi sezilishini, ammo 1935-yilda “Alpomish” dostonining Berdi baxshi variantidan nashr qilingan qismining dostonchilarga ta’siri bo‘lmaganini dalillaydi hamda “Alpomish” dostoni variantlari kompozitsion qurilishi, mavzu va g‘oyaviy xususiyatlari, syujet tarkibi jihatidan bir-biriga juda yaqin va o‘xshash bo‘lsa-da, ularning tekstlari boshqa-boshqa, tekstual moslik yo‘q darajadiligini ta’kidlaydi.

Folklor asarlarini barcha tur va janrlar asosida yaxlit tadqiq etishning ilmiy metodlarini takomillashtirishga katta hissa qo‘shgan T.Mirzayev o‘zining o‘zbek xalq qahramonlik eposini o‘rganishga doir izlanishlarini umumlashtirib, 1965 -yilda “Alpomish” dostonining o‘zbek variantlari” mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya





qildi[4]. Nafaqat o‘zbek, balki turkiy xalqlar folklorshunosligida epos nazariyasiga doir ilmiy qarashlarni tubdan o‘zgartirib yuborgan bu dissertatsiya 1968-yilda “Alpomish” dostonining o‘zbek variantlari” nomi bilan kitob holida nashr etildi.

“Alpomish” dostonining versiyalarini T.Mirzayev “ko‘p tarqalgan versiya” va “oz tarqalgan versiya” deb atagani haqida yuqorida aytgan edik. Dostonning keng tarqalgan versiyasi qo‘ng‘irot urug‘i qahramonining tug‘ilishi, bahodirona yoshligi, birinchi bor qahramonlik ko‘rsatishi, qalmoq alplari bilan yonma-yon turib Barchin shartlarini bajarishi va yorini olib qaytishi, yetti yillik tutqunlikdan keyin xotining to‘yi ustiga kelishi va raqibini yengib o‘z hokimiyatini o‘rnatishi kabi sujet halqalari bilan belgilangan bo‘lsa, “oz tarqalgan versiya” esa qudalarning har xil urug‘dan bo‘lishi, bahodirlik shartlarini bajarib, yorga erishish, qahramonning uzoq muddatli tutqunligida cho‘pon bilan (ba‘zan dushman qizi bilan) do‘stlashuvi va o‘z xotini to‘yiga sozanda qiyofasida kelishi, raqibini yengib o‘z xotiniga va hokimiyatiga qayta erishishi kabi asosiy sujet chiziqlari bilan xarakterlangan. “Alpomish” dostonining o‘zbek variantlari” nomli monografiya hamda “Alpomish” dostonining o‘zbek versiyalari haqida” nomi bilan 1993-yilda e‘lon qilingan tadqiqotlarida oz tarqalgan versiya namunasi sifatida Farg‘ona viloyatida yashagan Bo‘ri baxshi Sodiq o‘g‘lidan 1937-yilda yozib olingan variant bilan Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan yozib olingan variantlarning ikkinchi qismini qiyoslab, ular orasidagi prinsipial farqlarni ko‘rsatadi. Bu farqlardan ba‘zilarini keltirsak:

– Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantida Alpomish qalmoq xoni Toychaxon tomonidan xo‘rlangan qaynotasi Boysarini qutqarish uchun Kashalga otlanadi. Bo‘ri baxshi Sodiq o‘g‘li variantida esa Alpomishning safari maqsadi boshqa. U ukasini Boysarining qizi Qorako‘zga uylantirish uchun O‘zgan eliga boradi;

– Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantida Alpomish Toychixon tomonidan tutqun qilinsa, Bo‘ri baxshi variantida qalmoqlar va Toychixon haqida hech narsa deyilmagani aytiladi va Alpomish O‘zgan xoni bo‘lgan Boysari tomonidan tutqun qilinadi. Olim Bo‘ri baxshi variantida Boysarining doston boshida Boybo‘rining ukasi deyilgani bilan, bu doston voqealari davomida asoslanmaganini aytadi;





– Har ikkala variantda ham qahramonning raqibi Ultontoz bo‘lsa-da, Bo‘ri baxshi variantida uning qulidir;

– Har ikkala variantda ham Alpomish xotini Barchinning to‘yi ustiga boshqa qiyofada kelib, o‘z hokimiyatini qaytib olsa-da, qahramonning qaytishi va to‘yxonada bo‘lishi epizodlaridan anchasi tushib qolgan.

Dostonning Bo‘ri baxshi variantida qalmoqlar haqida umuman gap bo‘lmagani asosida H.Zarifov ko‘rsatganidek birinchi davrlarda eposda qalmoqlar haqida umuman gap bo‘lmaganligi[5,7] asoslanadi. Eposning oltoy versiyasi “Alip-Manash”, boshqird versiyasi “Alpamisha va Barsin-hiluu”, tatar versiyasi “Alpamsha”larda ham qalmoqlar gavdalantirilmaganini keltirish bilan bu fikrni tasdiqlaydi[8,60]. O‘z -o‘zidan Qorajon bilan do‘st tutinish sujetini ham bu variantda uchratmaymiz.

T.Mirzayev bu tadqiqotlarida Bo‘ri baxshi variantidagi bir qancha detallarni “Bomsig-Bayrak”dagi detallar bilan qiyoslaydi: yurtiga qaytayotgan qalandar qiyofasidagi qahramonga singlisining aytadigan javobini o‘zon qiyofasidagi Bomsigga kichik singlisining aytgan javobiga; Alpomish Qaldirg‘och bilan uchrashgandan keyin Qultoy bilan uchrashib, kiyimlarini kiyib uning qiyofasida to‘yxonaga borishini Bomsigning katta singlisi bilan uchrashib, undan o‘zidan qolgan qo‘ftonni olib kiyishi, so‘ng yechib eski qopni bo‘yniga solib, “jinni o‘zon” sifatida to‘yxonaga jo‘nashiga. Shu bilan birga Bo‘ri baxshi variantidagi qahramonning o‘z xotini to‘yiga sozanda sifatida kelishi motivi “Alpomish”ning Ahmadjon Soibnazar o‘g‘lidan yozib olingan variantda ham uchrashini keltiradi[9,25-26]. Akademik T.Mirzayev yuqoridagilardan kelib chiqib o‘z qarashlarini quyidagicha xulosalaydi: “Demak, “Alpomish” dostonining o‘zbeklar o‘rtasida nisbatan qadimiyroq versiyasi va uning variantlari ham yashagan. Uzoq o‘tmishda bu versiya “Bomsig-Bayrak” dostoniga juda yaqin bo‘lgan.... Ammo 1937-yilda yozib olingan Bo‘ri baxshi varianti bu versiyaning barcha xususiyatlarini o‘zida saqlab qola olmagan. U kuchli o‘zgarishlarga uchragan. Bu narsa Bo‘ri baxshining dostonchilikdagi darajasi va o‘rni, uning professional mahorati va traditsiyaga mahorati bilan ham izohlanadi.... Demak, “Alpomish” dostoni o‘zbeklar o‘rtasida ikki versiyada tarqalgan bo‘lib, ikkalasi ham jonli og‘zaki traditsiyada yashab kelgan; ulardan birinchisining





variantlari respublikaning deyarli hamma yeridan to‘plangan bo‘lsa, ikkinchisining faqat birgina variantiga egamiz, xolos.[8,62-62] Folklorshunos T.Mirzayevning Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li va Bo‘ri baxshi Sodiq o‘g‘li variantlarini qiyoslagani vositasida versiyalardagi jiddiy farqlarni ko‘ramiz.

T.Mirzayev “Alpomish” dostonining o‘zbek variantlari” nomli tadqiqotida “Alpomish” dostonining keng tarqalgan versiyasiga tegishli yigirmata variantga: Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Muhammadqul Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan va Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li, Egamberdi baxshi, Hamroqul baxshi, Murod Otaboy o‘g‘li, Berdi baxshi, Saidmurod Panoh o‘g‘li, Amin jirov, Mardonaqul Avliyoqul o‘g‘li, Mamadrayim yuzboshi, Umir Safar o‘g‘li, Bo‘riboy Ahmad o‘g‘li, Abdulla Nurali o‘g‘li, Hamro Ergash o‘g‘li, Zohir Qo‘chqor o‘g‘li, Haydar sannovchi (Farg‘ona vodiysida doston aytuvchini “sannovchi” deganlar[8,55]), Razzoq qozoq o‘g‘li, Matnazar Jabbor o‘g‘li, Ahmadjon soqi (Janubiy Tojikistonda, Surxondaryoning ayrim joylarida doston kuylovchini “soqi”, “sozanda” deb yuritadilar[8,58]) variantlarga alohida-alohida to‘xtaladi. Ma’lumki, “Alpomish” dostoni hamma variantlarida uning syujeti, mazmun-mohiyati, g‘oyaviy yo‘nalishi bir xil. Ularda Boysin-Qo‘ng‘irot urug‘i boshliqlarining farzandsizligi, farzand tilagida yelib-yugurishlari, bo‘lajak qahramonning g‘ayritabiiy holatda tug‘ilishi, uning bahodirona yoshligi, Boysarining Boybo‘ri bilan arazlashib, Qalmoq yurtiga ko‘chib ketishi, Alpomishning qalmoq alplari bilan yonma-yon turib, Barchinoy shartlarini bajarishi va yorini olib yurtiga qaytishi, qaynotasi Boysarini qutqarish uchun Qalmoq yurtiga ikkinchi safari davomida yetti yillik tutqunlikda qolib ketishi, asirlikdan jangovar oti Boychibor yordamida qutilib, o‘z yurtiga xotini Barchinning o‘zini-o‘zi biy saylagan Ultontoz bilan bo‘layotgan to‘yi ustiga kirib kelishi hamda raqiblarini yengib, o‘z hokimiyatini o‘rnatishi voqealari tasvirlangan.[10,5-6]

Variantlar bir versiya doirasida bo‘lgani sababli ular orasidagi farqlar juda kam bo‘lib, ba’zi detallar, sujetning ayrim halqalari, voqeilik bayoni, badiiy tasvir vositalarida aks etadi. Bu farqlar ijro qiluvchining ijodchiligi, an’anaga munosabati, badiiy saviyasi, ijro qilinayotgan jamoa va muhit hamda ba’zi bir o‘rinlarda baxshi mansub maktab va ustozlari bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Ishimizda T.Mirzayev





to‘xtalgan variantlar orasidan Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Muhammadqul Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan va Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li, Berdi baxshi, Saidmurod Panoh o‘g‘li variantlaridagi o‘xshash, asosan, farqli o‘rinlarini keltirdik. Bu variantlardagi farqli tomonlar Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantiga nisbatan olindi.

T.Mirzayev “Alpomish” dostonining keng tarqalgan versiyasiga tegishli yigirmadan ortiq variantlar orasida Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantini eng yirigi, eng yetugi hisoblaydi. Buni variantning detallarga boyligi, epik mazmunning to‘laligi, badiiy mahoratning yuqori darajasi bilan boshqa variantlardan ajralib turishi bilan izohlaydi. Atoqli olmon olimi, o‘zbek xalq dostonlari tadqiqotchisi Karl Rayxl ham bu variantni alohida e’tirof qilgan. U 2001-yilda “O‘zbek qahramonlik eposi “Alpomish”. Tadqiqot, matn, tarjima” (“Das usbekische Heldenepos Alpomish: Einführung, Text, Übersetzung”) nomli yirik monografiyasini nashr etgan. Monografiyada....dostonning Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantining kompozitsion qurilishi va asosiy motivlarini yoritadi, versiya va variant muammolariga doir e’tiborli mulohazalarni bayon etadi. Kitobning maxsus bir bobida dostonning Saidmurod Panoh o‘g‘li varianti alohida tahlil qilingan. Chunki dostonning o‘nlab variantlari orasida eng qisqa, shu bilan birga badiiy jihatdan eng yuksak ana shu variant tarjima uchun tanlangan[11,18]. Karl Rayxl o‘zi ham “Alpomish” dostonining Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantini tarjima qilishni istagan. Ammo nima sababdan bu variantni tarjima qilmaganini shunday izohlaydi: “Mendan ko‘p marta “Alpomish” dostoni va uning variantlarini ingliz tiliga tarjima qilishimni so‘rashdi, ammo mening fikrimcha, dostonning men nemis tiliga o‘g‘irgan varianti ancha qisqa. Dostonning Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varianti hajman ancha katta asar. Agar men bu variantni ingliz tiliga o‘g‘irsam, doston qaytariqlarga to‘la, ohanglarsiz shaklga tushib qoladi. Chunki doston o‘zbek tilidagi ohangi bilan o‘ta jozibalidir. Balki dostonning rus tiliga tarjimasini o‘zgacharoq chiqsa kerak, deb o‘ylab qolaman. Chunki rus tarjimonlari ancha kuchli va ularda akadem tarjima maktabi mavjud”[14,32-33].

T.Mirzayev Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantining boshqa variantlardan farqli jihatlarini ko‘rsatishda baxshidan 1928-yilda yozib olingan qo‘lyozmadan foydalanadi. Buning sababi 1922-yilda yozib olingan qismning yo‘qolganligidir. Olim dastlab baxshidan yozib





olingan ikkala nusxadagi farqli o‘rinlarga diqqat qaratadi. Keyingisidagi farqlarni tasvirning kengayishi, ayrim misralarning qisqarishi yoki boshqacha talqin qilinishi, diniy tushunchalarning kamaya borishi bilan izohlaydi. Buni birinchi qo‘lyozmadan “Bilim o‘chog‘i” jurnalida nashr etilgan parchani solishtirish orqali tasdiqlaydi. Quyidagi parchalar misol tariqasida keltirilgan:

Birinchi qo‘lyozmada:

Maslahat bermaymiz Boysari boyga,  
Osilmaymiz Boybo‘rining doriga,  
Biring aka, biring uka, Boysari,  
Maslahatim, shohim, o‘zing bilasan.

Xudoyim deb yaratganga yig‘layik,

**Omin desa parishta-yu maloyik,**

Shohim, sizga ne maslahat berayik.

Ikkinchi qo‘lyozmada quyidagicha variatsiya bergani ko‘rsatiladi:

Maslahat bermaymiz Boysari boyga,

Osilmaymiz Boybo‘rining doriga,

Biring aka, biring uka, Boysari,

Maslahatni, shohim, o‘zing bilasan.

**Xudo deyik yaratganga yig‘layik,**

**Nor kesar olmosni belga chalayik,**

Shohim, sizga ne maslahat berayik.

Olim ikkinchi qo‘lyozmadagi **Nor kesar olmosni belga chalayik misrasini** qahramonlik eposi ruhiga mosligini keltirib, shoirning g‘oyaviy o‘sa borganiga dalil qiladi. Akademik T.Mirzayev bu kabi bir baxshidan u yoki bu dostonning qayta yozib olinganda birinchi matnning aynan takrorlanmasligi kabi holatni baxshining yuksak badihago‘ylik mahoratidan darak berishini aytadi.

Olim T.Mirzayev “Alpomish” dostonining o‘zbek variantlarini to‘plab, ularni o‘rganib, qiyosiy asosda tahlil qilish bilan xalq dostonchiligida variant va versiya talqinini, shu bilan birga dostonlarning badiiyatini, salmog‘ini, xalq ijodchilarining badiiy didi, ijodchiligi, badihago‘yiligini ham ko‘rsatib bera olgan. Olimning bu tadqiqoti Yevropa ilmiy jamoatchiligi tomonidan ham bir necha bor e’tirof qilingan. Buni olimning nemis olimi Karl Rayxlning “Alpomish” dostoni haqidagi monografiyasi haqidagi fikrlari bayonida ham ko‘ramiz: “Masalan, kaminaning 1968-yilda nashr etilgan “Alpomish





dostonining o‘zbek variantlari” kitobining ikkinchi bobi – “Alpomish dostonining o‘zbeklar o‘rtasida tarqalishi va uning versiya hamda variantlari” bobini erkin tarjima qilib, keyingi ma’lumotlarni ham qo‘shgan holda yuqoridagi monografiyasiga alohida qism sifatida kiritishi....unda Karl Rayxlning eskartmasi bo‘lmaganida, uning ikki tadqiqotchiga tegishli ekanligini oddiy kitobxon sezmay qolishi ham tabiiy edi”[12,374-375].

T.Mirzayev dunyo folklorshunosligida ilk marotaba o‘zbek xalq qahramonlik eposining klassik namunasi hisoblangan "Alpomish" dostonini to‘la o‘rganib, bu epik asarning o‘zbek baxshilari repertuarida qayd qilingan barcha variantlarini qiyosiy tadqiq etish bilan dostonning xalqimiz epik tafakkuri taraqqiyotida tutgan muhim o‘rnini belgilab berdi. Olim doston syujetining tarixiy asoslarini, shakllanish bosqichlari va badiiy rivojini, syujet tizimidagi yetakchi motivlar poetikasini izchil o‘rganib, "Alpomish" dostoni yaratilgan davrni aniqlab berdi. T.Mirzayev "Alpomish" dostonining epik asar sifatidagi shakllanish davrini X-XI asrlar bilan belgiladi va bu nufuzli dunyo ilmiy markazlari tomonidan ham e’tirof etildi. Buni olimning "Alpomish" dostoniga oid monografik tadqiqotlarining Turkiya, Rossiya, Germaniya mamlakatlari ham nashr qilinganligi, nufuzli folklorshunoslarning olim tadqiqotlariga bergan havolalari bilan ham dalillash mumkin[13,545-547].

T.Mirzayev “Alpomish” dostonini baxshilardan bir necha marotaba yozib olgan, variantlarini chop ettirib, ilmiy o‘rganish va tadqiq qilishni izchil davom ettirdi[1], doston matnining boshqa tillarga qilingan tarjimalarini[2] nashr ettirib, o‘zbek xalq qahramonlik eposini dunyo xalqlari madaniyatining badiiy qadriyatlaridan biriga aylanishiga xizmat qildi, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan yozib olingan namunaning ilmiy-akademik nashrini[3], ommaviy hamda maktab kutubxonasi uchun mo‘ljallangan nashrlarini amalga oshirdi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Алпомиш (Берди бахши вариантнинг матни, сўзбоши ва луғат). –Тошкент: Фан, 1969; Алпомиш. Бекмурод бахши варианты. Сўзбоши муаллифи ва матни нашрга тайёрловчи: Т.Мирзаев. –Т: Ёзувчи, 1999; Алпомиш. Пўлкан шоир варианты. Матни нашрга тайёрловчи: Т.Мирзаев. –Т: Ёзувчи, 1999;





Алпомиш. Ёдгор. Саидмурод Паноҳ ўғли ва Фозил шоир вариантлари. Сўзбоши муаллифи ва матнни нашрга тайёрловчи: Т.Мирзаев. –Т: Ёзувчи, 2000

2. Алпамыш (Вступительная статья, подготовка текста и примечания Т. Мирзаева). –Л., 1982; Алпамыш. Вступительная статья, подготовка текста и словарь Т. Мирзаева. –Ташкент: Фан, 1998; Alramis destani. –Ankara, 2000.

3.Алпомиш. Тадқиқот, матн, изоҳлар. Академик нашр. –Т: Фан, 1999.

4. Жўраев М. Ўзбек фольклоршунослигининг атоли намояндаси// Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. VII китоб. – Тошкент, 2018.

5. Зарифов Х.Т, Основные мотивы эпоса «Алпамыш», сб. «Об эпосе «Алпамыш», Ташкент, Изд– во АН УзССР, 1959.

6. Мирзаев Т. “Алпомиш” нашрининг ўзбек дostonчиларига таъсири // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1965. – №2. – Б.12-18; Яна ўша. “Алпомиш” дostonининг ғоявий йўналиши ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1965. – №3. – Б.21- 24; Яна ўша. “Алпомиш” дostonи вариантларидаги бир хусусият тўғрисида // Ўзбек халқ ижоди. Тошкент, 1970.

7.Мирзаев Т. “Алпомиш” дostonининг ўзбекча прозаик мазмунлари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. –1963. –№5. –Б.17-20; Яна ўша. “Алпомиш” дostonининг ўзбек версиялари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. –1963. –№6. –Б.23- 27; Яна ўша. Ўзбек эпосида вариация масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти. –1964. – №4.

8.Мирзаев Т. “Алпомиш” дostonининг ўзбек вариантлари. – Тошкент: Фан, 1968.

9.. Мирзаев Т. “Алпомиш” дostonининг ўзбек версиялари ҳақида// ЎТА. – 1993.– 6- сон.

10. Мирзаев Т. Бири биридан гўзал// Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. Тошкент– 2015.

11. Мирзаев Т. Карл Райхл – ўзбек фольклори тадқиқотчиси// ЎТА. – 2013. 4- сон.

12. Мирзаев Т. Карл Райхл – ўзбек фольклори тадқиқотчиси. Тўра Мирзаев.Устозлар.Сафдошлар. Издошлар. – Тошкент: Тафаккур томчилари, 2021.







13. Мирзаев Т. “Alpamis” destani uzerinde arastirmalar // Uluslararası türk dünyası halk edebiyatı kurultayı. –Ankara. 2000. – S.58– 59; Яна ўша. “Alpamis” destanining ogrenilmesi // Uluslararası türk dünyası halk edebiyatı kurultayı bildirileri. –Ankara, 2002.

14. Қаландарова Д.А. Карл Райхл – ўзбек фольклорининг таржимони ва тадқиқотчиси Филол. фан. бўйича фалсафа доктори(PhD)– Т, 2022.





## TA’LIMNI TEXNOLOGIYALASHTIRISHNING ASOSIY KOMPONENTLARI

**Ra’no ORIPOVA,**

*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI  
“Tillar, ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy  
madaniyat” kafedrası mudiri, p.f.n., dotsent*

Ta’limni texnologiyalashtirish g‘oyasi yangilik emas. Bundan 400 yil avval chex pedagogi Yan Amos Komenskiy ta’limni texnologiyalashtirish g‘oyasini ilgari surgan. U ta’limni “texnikaviy” qilishga undagan, ya’ni hamma narsa, nimaga o‘qitilsa, muvaffaqiyatga ega bo‘lsin. Natijaga olib keluvchi, o‘quv jarayonini, u “didaktik mashina” deb atagan.

Bunday didaktik mashina uchun: aniq qo‘yilgan maqsadlar; bu maqsadlarga erishish uchun, aniq moslashtirilgan vositalar; bu vositalar bilan qanday foydalanish uchun, aniq qoidalarni topish muhimligini yozgan. Hozirgi vaqtda pedagogik texnologiya “o‘qitishning texnik vositalari yoki kompyuterlardan foydalanish sohasidagi tadqiqotlardek qaralmaydi, balki bu ta’lim samaradorligini oshiruvchi omillarni tahlil qilish, ishlab chiqish hamda usul va materiallarni qo‘llash, shuningdek qo‘llanilayotgan usullarni baholash yo‘li orqali ta’lim jarayonining asoslari va uni maqbullashtirish yo‘llarini ishlab chiqishni aniqlash maqsadidagi tadqiqotdir”.

**Ta’limni texnologiyalashtirish sohasidagi asosiy toifa va tushunchalar.**

“**Texnologiya**” yunoncha so‘zdan kelib chiqqan bo‘lib “*techne*” - mahorat, san’at, malaka va “*logos*” - so‘z, ta’limot ma’nolarini anglatadi.

**Ta’limni texnologiyalashtirish** – bu o‘qitish jarayoniga texnologik yondashish asosida ta’lim maqsadlariga erishishning eng maqbul yo‘llari va samarali vositalarni tadqiq qiluvchi va qonuniyatlarni ochib beruvchi pedagogik yo‘nalishdir.

**Ta’lim texnologiyasi:**

- bu mavjud sharoit va o‘rnatilgan vaqtda belgilangan ta’limiy maqsad va ko‘zlanayotgan natijalarga kafolatli erishishni vositali





ta’minlovchi, muloqot, axborot va boshqaruvning eng qulay yo‘l va o‘qitish vositalarining tartibli yig‘indisi (ta’lim berish texnologiyasining jarayon-bayonli jihati);

- bu mavjud yuzaga kelgan ta’limiy jarayon sub’ektlarining hamkoriy harakatlari, haqiqiy jarayon (ta’lim berish texnologiyasining amaliy-jarayon jihati ) tartibi.

“**Pedagogik texnologiya**” - pedagogik hodisa va ta’limni texnologiyalashtirish sohasidagi jarayonda qo‘llaniladigan tushuncha.

“**Ta’limiy texnologiya**” - “ta’lim olish shakllarini maqbullashtirishni o‘z vazifalari deb qo‘yuvchi, ya’ni butun ta’lim berish jarayonini hamda texnikaviy va insoniy manbalarni hisobga olgan holda bilimlarni o‘zlashtirish va ularning o‘zaro harakatini yaratish, qo‘llash va aniqlashning tizimli usuli” (YuNESKO).

**Ta’lim jarayonida boshqaruvning o‘rni va mohiyati.**

**Boshqaruv** - bu tartibga solish darajasini oshirish orqali ijtimoiy tizim faoliyatini takomillashtirishga yo‘naltirilgan faoliyatning maxsus shakli.

Boshqaruv jarayonining mohiyati maqsad-natijani mos kelish yo‘nalishi bo‘yicha harakatni yo‘lga solishdan iborat bo‘ladi.

O‘qitish rejasini tuzishning har bosqichida o‘qituvchining boshqaruv harakatlarini ko‘rib chiqamiz.

*Maqsadni belgilash* - didaktik vazifalarni aniqlash, o‘quv natijalarini shakllantirish. Bu pedagogik faoliyatni asosiy omili bo‘lib, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchining birgalikdagi faoliyati harakatini umumiy natijaga yo‘naltiradi.

*Tashxis* - ta’lim oluvchilar xususiyatlarini va mavjud moddiy-texnik imkoniyatlarni o‘rganish. Bu maqsadni to‘g‘rilash zarurligi va ularga erishish vositalarini tanlashga imkon beradi.

*Bashorat qilish* - o‘rnatilgan vaqt ichida mavjud sharoitlarda pedagogik va o‘quv faoliyati natijalarini oldindan ko‘rish.

*Loyihalash* - oldindagi faoliyat modelini tuzish, mavjud sharoitlarda o‘rnatilgan vaqt mobaynida yo‘l va vositalarni tanlash uchun, maqsadga erishish bosqichlarini ajratish, ular uchun alohida vazifalarni shakllantirish, o‘quv axboroti va qaytar aloqani yetkazish vositasi va yo‘llarini aniqlash.

Tashxis, bashorat qilish va loyihalash rejani ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.





*Rejalashtirish* - oldindagi o‘zaro bog‘liq pedagogik va o‘quv faoliyatining rejasini ishlab chiqishdan iborat bo‘ladi. U texnologik xarita ko‘rinishida rasmiylashtiriladi.

*Tashkillashtirish* - ta’lim beruvchi tomonidan talabalarni belgilangan ishga jalb qilish, belgilangan maqsadga erishishda ular bilan hamkorlik qilish.

*Axborotli ta’minlash* - o‘quv axboroti va qaytar aloqani yetkazib berishning yo‘l va vositalarini amalga oshirish. Bunda yig‘ilgan axborot jarayonining borishini tezkorlikda o‘zgartirishni, ta’sir ko‘rsatadigan rag‘batlantiruvchi omillarni, samarali vositalarni kiritishga imkon beradi.

*Nazorat, baholash va o‘zgartirish kiritish* - rivojlanish jarayoniga ta’sir ko‘rsatadigan rag‘batlantiruvchi omillarni yaratish, pedagogik ta’sir etish ob’ekti o‘zgarishini muvofiqlash.

*Tugallangan jarayon tahlili* - samarasizlikni, ularning paydo bo‘lish sababini aniqlash, kelgusi takror ishlab chiqiladigan davrda unga yo‘l qo‘ymaslik choralari aniqlash.

Ta’limni texnologiyalashtirish – bu natijaga erishish, samaradorlikka erishish demakdir. Shu bois, uzluksiz ta’limning barcha bo‘g‘inlarida ta’limni texnologiyalashtirish, ta’lim oluvchilarning bir butun rivojlanishiga erishishni ta’minlaydi.

Quyida biz baxshichilik bo‘yicha 6-sinf o‘quvchilari uchun darsliklardagi 1 ta mavzuni texnologiyasini yoritib beramiz.

## 1-dars. BAXSHI SAN’ATI

**Bu mavzuda biz:**

- Baxshi atamasining mazmunini tahlil qilamiz;
- Baxshichilik san’atining jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini aniqlaymiz.

**Ta’limiy maqsad** – “Baxshi” atamasining mazmunini anglagan holda hulosa chiqarish.

**Tarbiyaviy maqsad** – Baxshichilik san’atining jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati yuzasidan qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantirish.





**Rivojlantiruvchi maqsad** – tasavvurni kengaytirish, mantiqiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish.

**Tayanch tushunchalar:**

Baxshi, qo‘shiq, doston, epik kuychi, ijrochi, ijodkor, meros, afsona, rivoyat.

**Baxshi** – terma, qo‘shiq va dostonlarni saqlovchi, yoddan kuylovchi, aytuvchi, avloddan-avlodga yetkazuvchi san’atkor, xalq dostonchisi. Uning shirali ovozi, do‘mbirasidan taralayotgan kuy inson qalbini beixtiyor to‘lqinlantiradi, junbushga keltiradi.

**Baxshi** – epik kuychi, ijrochi va ijodkor. Usozandalik, bastakorlik, hofizlik, aktyorlik va so‘z mahorati ijrochiligini mukammal o‘zlashtirgan, professional qobiliyatga ega ijodkordir.

**Baxshi atamasiga sinkveyn tuzing.**

1. Ot – Baxshi;
2. Sifat - \_\_\_\_\_
3. Fe’l \_\_\_\_\_
4. 4ta so‘zdan iborat jumla \_\_\_\_\_
5. Sinonim \_\_\_\_\_

Matn bilan tanishib chiqib,  
ma’lumotlarni quyidagicha  
toifalangi.

**“Toifalash” metodi**

Maqol	Hikmat
Mazmuni	Mazmuni





Baxshichilik san’ati tafakkuri keng ajdodlarimizdan bizga meros bo‘lib kelayotgan eng qadimiy san’atlardan biridir. Bu san’atning jonli ijro holatida bugunga qadar bardavomligi, avloddan-avlodga yetkazish yo‘lida baxshilarning xizmatlari katta. Shu sabab, baxshi san’atini rivojlantirish hozirgi davr talablaridan biridir. Negaki, dostonlarda xalqimizning azaliy orzu armonlari, yuksak tafakkur salohiyati, mardlik, hur fikrlilik, erkinlik, bunyodkorlik, halol mehnat, iymon-e’tiqod g‘oyalari ilgari surilganligi bilan ham ularning tarbiyaviy ahamiyati tobora ortib borayapti. Baxshilar qachonlardir yaratilgan xalq dostonlarini o‘zlarining hayratomuz xotirasida saqlab qolib, bizgacha yetkazgan. Ba’zan o‘zi ham eng qadimiy va barqaror epik an’analar asosida yangi asarlarni ijod qila bilgan baxshi xalqimizning hamisha hurmat-e’tiboriga sazovor bo‘lgan. Bu san’at ko‘pincha el orasida “ilohiy” tushuntirilib, baxshi nomi turli afsonalar, rivoyatlar, qo‘shiq va naqlarga burkangan. “Mullali ovul — qo‘rqoq, baxshili ovul- botir» degan maqol ham bejiz aytilmagan. Xalq nazdida elda baxshining bo‘lishi shodlik, xursandchilik, to‘qchilikdan nishonadir. «Yurtga balo kelar bo‘lsa, to‘ra bilan to‘zon kelur, yurtga davlat hunar bo‘lsa, baxshi bilan o‘zon kelur» degan hikmatning keng tarqalishi ham xalq ijodkorlariga bo‘lgan juda katta hurmat, izzat va ehtiromningnatijasidir.

Baxshichilikda ijro etiladigan doston, terma, bag‘ishlovlar orqali odob-axloq, pand-nasihati, yoshlarni ma’naviy tarbiyalash, o‘z yurtiga sadoqat, qahramonlik, vatanparvarlik, mardlik, insonparvarlik, erk va ozodlik, mehnatsevarlik, or-nomus, matonat kabi g‘oyalar tarannum etiladi. Baxshi san’atining asosini soz va so‘z, ijro uyg‘unligi tashkil qiladi. Birgina soz chala bilish, kuchli ovoza ega bo‘lish yoki dostonni yoddan bilish bilan baxshi bo‘lolmaydi. Chinakam baxshida mustahkam xotira, bilim, zakiylik, ijodkorlik, biror bir soz ijrosi, ovoz kuchi, yuksak mohirona ijro bir-birini to‘ldirib namoyon bo‘ladi. Shu sabab, baxshi shunday katta ijodiy imkoniyatiga ya’ni badihago‘ylik salohiyatiga ega. U doimo xalqni o‘ylaydi. Baxshi kerakli paytda davrning eng katta gapini qisqa, yorqin tarzda odamlarga yetkazishi mumkin. Demak, bugunning baxshisi eng murakkab holatlarda ham butun olam ahlini o‘ylantirayotgan masalalar mohiyatini odamlar ko‘ngliga badiiy tarzda yetkaza oladi.





Baxshi eng kerakli paytda, eng kerakli so‘zni aytib xalqni yaxshi, ezgu ishlarga safarbar eta olar ekan, demak bugun baxshi san’atini yanada rivojlantirish xalqmizning eng go‘zal ma’naviy, ijodiy boyliklarni qaytadan hayotga kiritish ekanligini unutmashimiz darkor.

**“Gapni to‘ldiring!” refleksiya mashqi**

1. Men bugungi darsdan menga kerakli bo‘lgan ..... ma’lumotni oldim.
2. Bugungi darsdan men uchun foydali bo‘lgan ma’lumotlar, bular.....
3. Darsda menga yangilik bo‘lgan ma’lumot bu ..... va takror bo‘lgan ma’lumot bu...

**Xulosa.** Pedagogik texnologiyalarning ishlanishida asosiy e’tibor oxirgi natijaga qaratilgan bo‘ladi va qo‘yidagi izchillikda ishlab chiqiladi.

Pedagogik texnologiyalar an’anaviy ta’limdan tubdan farq qilgan holda tuziladi. U o‘zaro yopiq siklni va o‘zaro izchil bog‘liqlikni taqozo etadi. Aniqlashtirilgan maqsadlar pedagogga nazorat ishini belgilashda, baholashda va usullarni aniqlashda katta imkoniyatlar yaratadi. Barcha etaplar bir maqsadga bo‘ysunadi va yuqori natijani kafolatlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. А.Мусақулов. Терма // Ўзбек фольклори очерклари. 1-том. – Тошкент: Фан, 1988. – Б.261-272.
2. Ўзбек фольклори. Тузувчи Ҳ.Зарифов. – Тошкент, 1939.
3. А.Мусақулов. Достон ва терма муносабатига доир // Адабиётшуносликка оид тадқиқотлар. – Тошкент: Фан, 1978. – Б.176-184.
4. А.Мусақулов. Ўзбек фольклорида терма ва оралик шакллар // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1981. – 4-сон. – Б.41-45.
5. Мирзаев Т. Ўзбек бахшиларининг эпик репертуари. Тошкент. 1979.





## JANRLAR MUNOSABATIDA IJRO VA BADIHA

*Nilufar SUNNATILLAYEVA,*

*Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros  
ilmiy-tadqiqot instituti kichik ilmiy xodim.*

**Annotatsiya:** *Folklor asarlari ijrosi va badihago‘ylik an‘analari shuni tasdiqlab turibdiki, folklor namunasining g‘oyaviy-badiiy darajasi qanday ekanligi uni ijro etuvchisi iste‘dodi, mahorati, an‘anaga sodiqlaigi va dunyoqarashi bilan ham bog‘liqdir. Ushbu maqolada janrlar munosabatida ijro va badiha xususida fikr yuritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Folklor, ijro, badiha, janr, doston, afsona, rivoyat, naql, maqol, topishmoq.*

Folklor merosining o‘ziga xos rivojlanish yo‘li haqida ma’lum bir tasavvurga ega bo‘lish uchun janrlararo munosabatlaridagi ijro jarayoni va badiha san’ati kabi an‘analar ustida to‘xtalish lozim. Chunki, bu masala xalq og‘zaki ijodi donishmandligi merosining tarixiy-folkloriy jarayoni rivojlanish qonuniyatlari bilan bog‘liq an‘anadir. Zotan, har qanday folklor na‘munasi og‘izdan-og‘izga o‘tib kelishi ijro va badiha jarayonlariga bog‘liqligini ham nazarda tutmoq kerak.

O‘zbek folklorshunosligida doston janri va ijro jarayoni, baxshi mahorati masalalariga doir e‘tiborga sazovor ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan<sup>37</sup>. Bu iliy ishlar yoki janrlarga oid tadqiqotlarda badiha va ijrochilik masalalarining janrlararo munosabatda o‘ziga xos o‘rin borligi ham qayd etilgan. Ustoz tadqiqoqtchilarning badixa va ijrochilik an‘analari bo‘yicha bayon etgan fikrlariga suyangan holda janrlararo munosabatlar masalasiga yondashamiz. Har qanday janrning sistemali ravishdagi tarixiy va evolutsion harakati xalq og‘zaki ijodi janrlar sostavi yuzaga kelishidagi sababchi faktordir. Janrlarning ma’lum bir sistemaga tushib, muayyan g‘oyaviy-estetik ma’no anglatuvchi kategoriya darajasiga yetgunga qadar folkloriy jarayonda ijrochilik va badixago‘ylik an‘analari o‘ziga xos rol o‘ynagan.

---

37 V.M.Jirmunskiy, X.T.Zarifov. O‘zbek xalq qahramonlik eposi. GIXL.M., 1947, B. 23-58, Saidov M.S. O‘zbek dostonchiligida badiiy mahorat, fan, Toshkent 1969. Mirzayev T.M Xalq baxshilari epik repertuarining asosiy xususiyatlari, fan, Toshkent, 1979.







Ma’lumki ijtimoiy ong shakllari orasida umuminsoniy g‘oyalarni eng sodda va qulay usuli bilan ommaga yetgaza oladigan folklor janrlarining tabaqalanishuvi, turli funksiyalarni ado etishi va amalda namoyon bo‘lishi ijro jarayoni bilan ham bog‘liq. Ijro esa boshqa ijtimoiy ong shakllaridan farqli o‘laroq, janrlar xususiyatiga qarab, uch yo‘nalishda olib boriladi<sup>38</sup>. O‘z-o‘zidan ravshankki, folklor asarlarining ijrosi tipologik ahamiyat kasb etib, badixago‘ylik san’ati an’anasi doimo u bilan bir jarayonda sodir bo‘ladi. Janrlararo munosabatlarda ijro va badixaning o‘rni qay darajada ekanligini ayrim xalq dostonlari misoli orqali yaqqol ko‘rsatish mumkin.

Masalan, “Ravshan” dostoni syujeti voqealari tizimida shunday bir epizod bor: o‘g‘li Ravshanni bandilikdan ozod etish uchun kelganida, Xasanxonga bir necha kallar kelib qo‘shiladi va jang ertaklardagi kabi doston qahramonning an’anaviy “murod-maqсадga erishuvi” bilan yakunlanadi. Ya’ni dostonchi o‘zi yashayotgan davr ruhini ijro jarayonida mohirlik bilan syujet yakuniga moslashtirgan. Bundan tashqari an’anaviy dostonlardagi xalq g‘oyasi bilan antipod o‘rtasidagi to‘qnashuv epizodlari baxshi ijrosida o‘sha davrlar uchun ommaviy bo‘lgan xalq masxarabozlik teatri sahnasi, xalq latifalari, qo‘shiqlari, termalari kabi janrlarni doston kompozitsiyasiga muvofiqlashtirish hollari ham mavjud. Bu jarayonlar, albatta, xalq so‘z ustalarining yuksak san’atkorlik maxoratlari, iqtidori va folklor an’analariga nisbatan xalol yondashganliklari ta’sirida sodir bo‘lgan deyish mumkin. Fikrimizni asoslash uchun istagan xalq dostoni syujetiga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir. Xususan, xalq yumori, latifa janriga xos obrazlarning “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlari, shuningdek, “Alpomish” dagi Qultoy, Malikai ayyor” dagi Zamongulning onasi, “Ravshan” dostonidagi Aynoq kal, Jaynoq kal, Ersak, Tersak, kabi aka-uka kallar, “Qunduz bilan Yulduz” dagi “Janjal kal” kabi obrazlar ijro jarayonida dostonning xalqchilligi g‘oyaning chuqur bo‘lishini ta’minlaydi. Shuningdek, latifa, naql, maqol, topishmoq, qo‘shiq, terma, janrlari ham ijro jarayonida baxshi yoki dostonchining dunyoqarashi doirasida improvizatsiya qilinadi. Demak, biror janr uchun bevosita xos bo‘lgan elementlarning boshqasida uchrashi ijro jarayoni yoki bir ijrochi repertuaridan boshqasining

38 O‘zbek folklori ocherklari. I Tom, Fan, Toshkent, 1988.





o‘rganib olish payti, shuningdek, badixalash natijasida ham sodir bo‘lar ekan. Buni ko‘proq afsona, rivoyat, ertak, doston kabi epik janrlar ijrosi va badixasida ko‘rish mumkin. Masalan, xalq yumuq iboralari, qanotli so‘zlari, maqol matallarning epik janrlar tarkibida uchrashi sabablaridan biri baxshi, dostonchi mahorati bilan bog‘liqligidir.

Folklor asarlari ijrosi va badihago‘ylik an‘analari shuni tasdiqlab turibdiki, folklor namunasining g‘oyaviy-badiiy darajasi qanday ekanligi uni ijro etuvchisi iste‘dodi, mahorati, an‘anaga sodiqlaigi va dunyoqarashi bilan ham bog‘liq ekan.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, so‘nggi yillar yozib olingan ayrim ertak, doston, qo‘shiq, askiyachilik kabi janrlar ijrosida majburiy, zo‘rma-zo‘raki badixago‘ylik sezilib turadi. Fikrimiz dalili sifatida 1987-yil folklor ekspeditsiyasi davrida Bola baxshi repertuaridagi doston va qo‘shiqlarni yozib olish bilan birga ijro jarayoni va badixago‘ylik an‘analari baxshi faoliyatida qanday amalga oshirilganligi holatini misol keltirish mumkin<sup>39</sup>. Bola baxshi o‘z repertuaridagi “Go‘ro‘gli va Bozirgon”, “Xirmon dalli”, “Oshiq Mahmud”, “Oshiq Oydin”, “Oshiq G‘arib va Shoxsanam” dostonlarini qayta ijro etish jarayonida ularning umumiy syujet fabulasi o‘zgarishligi, lekin doston syujetidagi ayrim aytishuv, munozara, dialog, monolog kabi o‘rinlari badixa natijasida o‘zgarishi, lekin bu o‘zgarishlar dostonning kompozitsiyasi syujetiga deyarli ta’sir etmaganligini kuzatgan edik. Bir o‘rinda keksa baxshi 20-yillar mafkuraviy organlarning baxshi, xalfalar repertuarlarini taftish qilib, qaysi doston va qo‘shiqlarni kuylash, ijro paytida asosiy urg‘uni partiyaviylik, sinfiylik maqsadlariga qaratish kerakligi haqida qat’iy ko‘rsatma berganligini bizga so‘zlab berdi. Ana shundan so‘ng dostonlardagi avliyo-anbiyolar, diniy o‘rinlar, o‘tmishda yashab o‘tgan tarixiy shaxslarni ideallashtiruvchi epizodlarni kuylash taqiqlanib, Go‘rog‘li, Alpomish, Avazxon, Xirmon Dalli kabi mexnat ahli idealidagi obrazlarga ham davr nuqtai nazaridan yondashilganini aytgan edi.

Xalq og‘zaki ijodining nisbatan avvalroq yozib olingan namunalari muayyan xalq milliy etnografiyasiga monand bo‘lib, har xil

---

<sup>39</sup> A.Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat instituti, Bolalar adabiyoti kafedrasida tashabbusi bilan Xorazm viloyatida o‘tkazgan folklor ekspeditsiyasi arxivi materiallaridan.





mafkuraviy tazyiqlardan holi bo‘lgan. Ularni ijro etish jarayoni, auditoriya va ayniqsa, an’anaga rioya qilish e’tiqodi tabiiy kechgan. Shuning uchun ham, N.P.Ostrsumov, A.Livaev, N.Likoshin, Nalivkin, L.Eyxengeri kabi rus missionerlari tomonidan XIX asr 60-70-yillarida yozib olingan ertaklar, maqollar, latifalar, afsona, rivoyat va boshqa janrlarga mansub folklor namunalari 90-yillar folklorshunosligi, etnografiyasi, tarixchilariga qimmatli ma’lumotlar berishi bilan ardoqlidir<sup>40</sup>. Bulardan tashqari, dastlabki nasriy-didaktik asarlar<sup>41</sup>, XVIII-XIX asrlar dunyoga kelgan “xalq kitoblari”, maktab va madrasa darsliklari uchun tanlangan xalq og‘zaki ijodiga oid materiallar ham o‘zining tabiiyligi bilan e’tiborni qaratadi<sup>42</sup>.

Folklor janrlari orasidagi bog‘lanish va munosabatlar qachonlardir ro‘y berib, keyinchalik to‘xtalib qolmay, balki u davom etuvchi jarayondir. Xalq baxshi shoirlari, xalfalari, ertakchilari, askiyachi, so‘z ustalari, aytimchilari kayvonilarining turli vaziyat va har xil tadbir, marosimlarda o‘tmish avlodlar tomonidan asrlar mobaynida yaratilgan badiiy ijod durdonalarini ijro etishlari bilan birgalikda, o‘zlari ham unga badixa orqali baholi qudrat xissa qo‘shadilar.

Ijro va improvizatsiya jarayonida bir janr tarkibida boshqasiga xos xususiyatlarning moslashuvi folklor janrlariga xos mushtarak hodisa ekanligi yuqorida ta’kidlangan edi. Masalan, Ergash Jumanbulbul og‘lining “O‘rtoq Lenin” dostonidagi “Oq it bilan qora it-baribir it”, “Mehnatning foydasi-rohat”, “Boy qarasa, baxt qaraydi”, “Kalta ip boylovga sira yetmaydi” kabi xalq maqol, matallari voqealar bayoniga singdirib yuborilishi baxshining yuksak ijrochilik maxorati va teran improvizatorlik qobiliyatini ko‘rsatuvchi misollardir.

Shu misollardan ham ma’lum bo‘ladiki, improvizatsiya hox u majburiy, xox ixtiyoriy-tabiiy, va xox u oldindan rejalashtirilgan tarzda bo‘lmasin, baribir, janrlararo munosabatdagi asosiy jarayonlardan biri xisoblanar ekan. Buning uchun hayotiy-maishiy va sehrli-fantastik ertaklar sifatida nashr qilingan “Quyosh bilan oy”, “Yarimta non”,

<sup>40</sup> Остроумов П. Сказки сартов в русском изложении. Ташкент, 1906; Он же Пословицы и загадки сартов. Ташкент, 1895; Диваев А.А. Этнофольклорические материалы. Сборник материалов для статистики Сирдарьинской обл., У Ташкент, 1896; Ликошин Н.С., Полжизни в Туркистане. Очерки бытия туземного населения. СПб., 1916; Наливкин В. Руководство к практическому изучению сартовского языка. Самарканд, 1898.

<sup>41</sup> Hazrati Ali haqida qissalar. “Nurnoma”, “Chor darvesh”, va boshqalar.

<sup>42</sup> Rabg‘uziy. Qissayi Rabg‘o‘ziy. A.Navoiy, “Maxhub ul -qulub”, “Xayrat ul-abror”, “Qobusnoma” va boshqalar nazarda tutilmoqda.





“Janjalning oqibati”, “So‘z- noyob gavhar”, “Ota vasiyati”, “Tan sihatlik-tuman boylik”, “Otangga qilsang, bolangdan qaytadi”, “Ilonning ishi zaxar solmoq” kabi folklor namunalari e’tibor berilsa, ular strukturasi ertak, afsona, rivoyat, va naql kabi janrlarga xos belgilar bor ekanligini sezish qiyin emas.

Odamlar moddiy borliq va turmushda uchragan muammolar, ziddiyatli masalalar, ma’naviy-ma’rifiy hodisalarga nisbatan to‘g‘ri javobni har doim folkloridan qidirganlar. Ana shu ehtiyoj natijasida afsona, rivoyat, metal, naql kabi epik janrlar, maqol, topishmoq, frazeologik iboralar, qayroqi so‘zlar, marosim va udumlar bilan bog‘liq folklor janrlari jonli ijroda hozirgacha davom etib kelmoqda. Masalan, “Kun bilan Oy” kosmogonik harakterdagi sexrli-fantastik ertakni janrlararo munosabatdagi ijro va badira an’analari bo‘yicha aniqlab ko‘raylik. Ertak Namanganlik mashxur ertakchi buvi Bibisora Xudoybergan qizidan yozib olingan. Ma’lumki, ertakchi yoki uni aytuvchi hech qachon ijro etayotgan asarga huddi folklorshunoslar nuqtai nazaridan yondoshmaydi, ya’ni uning qaysi tur, qanday janr xususiyatlari borligiga e’tibor ham bermaydi. Ular uchun yagona maqsad-aytayotgan folklor namunasiga nisbatan auditoriyada ishonch uyg‘otish, ularda biror taassurot hosil qilish, shuning uchun u ijro jarayonida tinglovchilar saviyasi, umumiy psixologik kayfiyatlarini o‘zicha chamalab ko‘rib, qadimdan an’ana bo‘lib kelayotgan va auditoriya qiziqishini orttirish maqsadida mantiq doirasidan chiqmay, turli sehrli vositalar fantasik voqealar hamda uydirmalarga murojaat qiladi.

Biz “Kun bilan Oy” ertagini yozib oluvchisi bilan mazkur ertakni yozib olish jarayoni, ertak aytuvchining ijro paytida o‘zi aytib berayotgan ertak voqealari syujetiga ruhan moslashuvi, har xil imo-ishoralar, mimikalar, ovozning turli ohangda tovlanishi-intonatsiya, yo pauza kabi qator xususiyatlar bilan birga, avvaldan ma’lum bo‘lgan, tayyor ertak syujeti fabulasiga badixa san’ati yordami bilan boshqa janrlarga xos motiv, syujet, elementlarni muvofiqlashtirish hollari yuz berishini bilib oldik<sup>43</sup>.

<sup>43</sup> M.Murodovning “O‘zbek xalq fantastikasi” turkumiga kiruvchi qator ertak to‘plamlari qo‘lyozmasi va ularni yozib olingan jarayonga bag‘ishlangan arxiv materiallardan. Toshkent Davlat Madaniyat shnstituti, 1982; Murodov M.Mo‘jizalar jilosi // hayotbaxsh hayolar, yosh gvardiya, Toshkent, 1985, 55, 90-betlar.





Demak, janrlar orasidagi o‘zaro munosabatlarda bir janrga xos belgi yoki xususiyatning unga nisbatan ommabop janrga singishi yoki uning aksi ro‘y berishi hodisasi ijro jarayonida sodir bo‘luvchi badihaga ham nechog‘lik bog‘liq ekanligini biz misol keltirgan tipdagi ertaklar ham tasdiqlay oladi. Misol tariqasida keltirilgan “Kun bilan Oy” ertagi syujeti quyosh, oy planetalari asosida xalq asrlar bo‘yi yaratgan kosmogonik afsona, rivoyatlarlarning ertakchi badihago‘yligi natijasida shakillangan. Darhaqiqat, bunday tipdagi mifologiya, afsona, rivoyat, ertaklar faqat o‘zbek folkloridagina emas, jahon xalqlari asotirlari, afsonalari, rivoyatlari, ertaklari syujetlarida ham uchraydi. Kishilar uchun qadim-qadim zamonlardan beri jumboq bo‘lib kelayotgan Quyosh, Oy, Yulduz kabi vaqt va masofa jihatdan olis bo‘lgan planetalar siri, ularning yer va undagi insonlarga nisbatan xarakati tabiiy ravishda biri ikkinchisini quvib yuruvchi, arazlovchi, visoliga yeta olmaydigan oliyanob fazilatli odamlar obraziga ko‘chishi aniq hodisa edi. Binobarin, bir ob’ekt asosida shakillangan turli ko‘rinishlardagi badiiy tasavvurlardan hisoblangan Kun bilan Oy afsonasi ham ertakchi, xalq ijodiyoti fidoyisi Bibisora Xudoybergan qizi repertuarida o‘ziga xos improvizatsiya qilingan epik janr namunasi. Mashhur ertakchi o‘zi yashab turgan ijtimoiy-iqtisodiy tuzum sharoitlari talabi va icki ma’suliyat burchidan kelib chiqish, xalq ideali g‘oyasini kelajak avlodlarga yetkazish zarurati natijasida afsona ertak janriga o‘xshatilib hikoyalanihiga sabab bo‘lgan. Jonlantirish san’ati usuli vositasida do‘stlik va inoqlik fazilatlari ulug‘lanib, manmanlik, ichi qoralik va kek saqlash singari salbiy holatlar afsonada qoralanishi “Kun bilan Oy” ning g‘oyaviy mundarijasini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, 60-70-yillar yozib olinib, nashrga tayyorlangan ertaklarning ko‘pchiligi bolalar auditoriyasiga mo‘ljallangan bo‘lib, bular orasida kichik yoshdagi bolalarni ovuntirish uchun aytiladiganlari ham salmoqli o‘rinni egallaydi<sup>44</sup>. Demak, “Kun bilan Oy” ertagi ham ana shunday ob’ektiv sharoit talabi asosida ijro etilib, bu afsona improvizatsiya jarayonida ertak uslubida hikoyalangan bo‘lishi kerak. Chunki ertak janriga xos eng muhim bir elementning “Kun bilan Oy” syujetida yetishmasligi bizga yuqoridagi hodisani chiqarishga turtki

---

<sup>44</sup> Jalolov G‘. O‘zbek xalq ertklari poetikasi. Fan, Toshkent, 1976, 23-b.





bo‘ladi. Odatda o‘zbek xalq ertaklari uchun tipik xususiyatlardan biri ertak syujetini tashkil etuvchi voqealarning yechimi doimo optimistik ruhda tugallanib, an’anaviy “Murodu maqsadiga yetishipdi” final formula bilan yakunlashadi. “Kun bilan Oy” ertagida ta’bir joiz bo‘lsa, ana shunday an’ana buzilgan. Janrlararo munosabatdagi proporsional bog‘lanish buzilsa, biri ikkinchisiga muvofiqlashayotgan janrlar mutanosibligi ham buzilib, folklorning asosiy qonuniyatlariga putur yetadi. Bunday holat xalq og‘zaki ijodi an’analaridagi sun’iy badixalashtirish hisoblanib, yuzaga kelgan namuna esa yozma adabiy asar sifatida baxslanadi.

O‘zbek folklorshunosligi tarixida janrlar munosabatidagi ijro masalasiga tegishli yana bir muhim masala bor. Ertak janri yoki doston janri syujetining ertak shaklida hikoya qilinishi, keyinchalik esa ertak syujeti fabulasi asosida doston janrini shakllantirish yoki dostonning ertak sifatidagi nasriy bayoniga suyanib, doston janrini rekonstruksiyalash ana shunday hodisalardan biri deyish mumkin.

O‘zbek xalq folklori an’anasini davom ettiruvchi baxshilar tarixiy mavzudagi afsona mazmuni bilan qadimdan tanish bo‘lganligi, doston janri an’analari rivojlangan paytlarga kelganda, muayyan tuzum sharoitiga moslab, To‘maris obrazi Oysuluvga, Sparganiz Kun botirga, Kir esa Qaysarga aylantirilgan bo‘lishi ham extimoldan holi emas. Ya’ni syujeti ko‘proq informativ xarakterga ega bo‘lgan afsona janri o‘zining dastlabki ijodiy akti- qabila uchun jonini fido qilish motivi keyinchalik ertak, doston janrlariga o‘tgach, mazmun mohiyati yanada kengaydi. Ertakchi va dostonni kuylagan kishilar ijro jarayonida xalqning qadimgi tushinchalarini ham yanada boyitib, o‘zlari yashab turgan sharoit taqozo etgan actual masalalarni kiritdilar. To‘maris obrazi bilan bog‘liq vatanparvarlik motivini ifodalagan, informativ xarakterdagi tarixiy afsona syujeti ertak, doston janrlari tarkibida estetik funksiya bajaruvchi katta hajmdagi epik asarlarga aylandi.

Demak, janrlararo munosabatda sodir bo‘ladigan bunday qonuniy holatlar xalq og‘zaki ijodining asrlar bo‘yi davom etib keladigan, xalq ijodiyotini avloddan-avlodga olib o‘tishda improvizatorlarning qon-qoniga singib ketgan genetik aloqalarga ham bog‘liq bo‘lib, har qanday tarixiy tuzum va turmush kechirish sharoitlarida ana shu xususiyat folklor an’analari qonunlari bilan uyg‘unlashgan holda o‘zini namoyon etadi.





### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. M.Murodovning “O‘zbek xalq fantastikasi” turkumiga kiruvchi qator ertak to‘plamlari qo‘lyozmasi va ularni yozib olingan jarayonga bag‘ishlangan arxiv materiallardan. Toshkent Davlat Madaniyat shnstituti, 1982; Murodov M. Mo‘jizalar jilosi // hayotbaxsh hayolar, yosh gvardiya, Toshkent, 1985, 55, 90-betlar.

2. Jalolov G‘. O‘zbek xalq ertklari poetikasi. Fan, Toshkent, 1976, 23-b.

3. Остроумов П. Сказки сартов в русском изложении. Ташкент, 1906; Он же Пословницы и загадки сартов. Ташкент, 1895;

4. Диваев А.А. Этнофольклорические материалы. Сборник материалов для статистики Сирдарьинской обл., У Ташкент, 1896; Ликошин Н.С., Полжизни в Туркистане. Очерки бытия туземного населения. СПб., 1916;

5. Наливкин В. Руководство к практическому изучению сартовского языка. Самарканд, 1898.

6. Hazrati Ali haqida qissalar. “Nurnoma”, “Chor darvesh”, va boshqalar.

7. Jirmunskiy V.M, Zarifov X.T. O‘zbek xalq qahramonlik eposi. GIXL.M., 1947, B. 23-58.

8. Saidov M.S. O‘zbek dostonchiligida badiiy mahorat, fan, Toshkent 1969.

9. Mirzayev T.M Xalq baxshilari epik repertuarining asosiy xususiyatlari, fan, Toshkent, 1979.

10. O‘zbek folklori ocherklari. I Tom, Fan, Toshkent, 1988.





## **“OYSULUV” DOSTONIDAGI OYSULUV OBRAZI HAQIDA**

**Shohinur RAHMATALIYEVA,**  
*O‘zRFA O‘zbek tili va adabiyoti va folklori  
instituti tayanch doktoranti.*

**Annotatsiya:** *O‘zbek folklorida doston janridagi “ayollar obrazi”ni o‘rganar ekanmiz, Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining “Oysuluv”dostonidagi Oysuluv obrazi, uning qahramonliklarini alohida ta’kidlash lozim. Mazkur maqolada Oysuluv obrazi haqida mulohazalar bayon qilingan.*

**Kalit so‘z:** *Oysuluv, jasorat, doston, massagetlar, obraz.*

**Abstract:** *While studying the “character of women’ in the epic genre of Uzbek folklore, it is necessary to highlight the character of Oysuluv in the epic “Oysuluv” by the son of Ergash Jumanbulbul, and her heroic deeds. This article describes comments about the image of Oysuluv.*

**Key words:** *Relaxation, courage, epic, massages, image.*

O‘zbek folklorida tarixiy dostonlar epik merosning anchagina qismini tashkil etadi. Tarixiy dostonlarda o‘tmishdagi tarixiy shaxslar, tarixiy joy nomlari, tarixiy voqealarni umumlashtirilgan bayoni, syujetda tarixiy voqe’likni aks etishi, obrazlar tasviri kabi qator o‘ziga xoslikni ko‘rish mumkin. Xalq tarixiy dostonlarining muallifi bilamizki, xalq. Har qanday xalq asari uning tarixi bilan bevosita bog‘liq holda yaratiladi. Undagi obrazlar xalqning o‘z orzu-istagidagi orazlar bo‘lib, epik an’ana doirasida madh etiladi.

Ana shunday obrazlardan biri “Oysuluv” dostonidagi Oysuluv obrazidir. Folklorshunos olimlarimiz doston yaratilishiga qadimgi massagetlar malikasi To‘maris haqidagi tarixiy rivoyat asos bo‘lganligini ta’kidlashgan.

To‘maris (mil. avv. VI asr) — Turon xalqlarining axamoniylar bosqiniga qarshi kurashiga rahbarlik qilgan jasur ayol sarkarda. U axamoniylar davlatining asoschisi Kir II ga qarshi muvoffaqiyatli kurash olib boradi va g‘alaba qozonadi. Urush qurbonsiz bo‘lmas deganlaridek, dastlabki, janglarda To‘marisning o‘g‘li Sparangiz







g‘animning hiylasi qurboniga aylanadi. Bu haqida qadimgi yunon tarixchisi Geradot o‘zining tarix kitobida quyidagilarni bayon etadi: “Mening bilishimcha, bu jang varvarlar o‘rtasidagi barcha janglardan ham dahshatli bo‘lgan. Avval har ikkala qo‘shin bir-birini uzoq masofadan turib, kamondan o‘qqa tutdilar. Kamon o‘klari tugagach, ular nayza va qilich bilan kurashdilar. Jang uzoq, vaqt davom etdi. Ko‘p qon to‘kildi. Nihoyat, massagetlar g‘alaba qozondilar. Fors qo‘shinlarining asosiy qismi, jumladan, Kir II ham jang maydonida halok bo‘lgan. U to‘liq 29 yil shohlik qilgan edi. Kir II ning jasaki topilgach, malika (To‘maris)ning buyrugi bn uning kesilgan boshi inson qoni bn to‘lg‘azilgan meshga solingan“.[2. 220-230-b].

Tarixiy dostonlarning yuzaga kelishi xalq tarixida ulkan ijtimoy voqealarning sodir bo‘lishi va bu voqealarni aks ettirishga qodir xalq badiiy tafakkurining qudrati bilan bog‘liq.[3.165-b.]. To‘marisning jasoratidan ilhomlanib yaratilgan, madh etilgan “Oysuluv” dostoni ham xalqimizning qadim yaratig‘idir. Ular To‘marisning iroadsi, kuch-quvvati, g‘animga mardonavor kurashini Oysuluv obraziga ko‘chiradilar. Oysuluv quvvatini alp ayollarga xoslaydilar: “Turon mamlakatida Oysuluv degan olp bir xotin podsholik qilar ekan, ko‘p suluv ayol ekan. Buning suluvligiga Eram bog‘ parilarining ham rashki kelar ekan. Oysuluvning olp bir o‘g‘li bor ekan, otini Kunbotir der ekan. Oysuluv podshoning lashkarboshisi o‘zining o‘g‘li Kunbotir ekan.[4. 7-b]

Bizga ma’lumki, qahramonlik dostonlarida “alp ayollar” obrazining yorqin namunasi Barchindir. “Alpomish” dostonining yaratilish davri ham ilk davlatchilik tuzumiga borib taqalishi, Barchinni alplarga xoslab tasvir etilishi, ayollik latofati bilan birgalikda erkaklarga xos jasoratni o‘zida birlashtirganidan, Oysuluv obrazi nafaqat tarixdan, balki xalq dostonlarning boshqa turlaridagi obrazlaridan andaza olganini guvohi bo‘lamiz.

Oysuluv obrazi ham ana shunday mard, alp ayolning xalqning ruhiy ehtiyojidan qayta yaratilgan yagona tipidir. O‘g‘lini xiyla yo‘li bilan, asirga olinganidan sarosimaga tushmay, raqibiga qarshi mardonavor kurashadi. Qaysarning jirkanch taklifiga rozi bo‘lmasdan alp ayolga xos javob beradi: “Podsholaring qo‘lidan kelganini qilsin! Bor lashkari bilan, qo‘ru qo‘rxonasi bilan urushga otlansin. Men taraddud qilib turibman, bosib boraman. Yo Doro bilan Qaysarni





o‘ldirib, Kunbotirning o‘chini olaman, yo shu urushda o‘laman. Axmoq bo‘lib elchi yuborib yurmasin! Men Turon mamlakatimni, eli-xalqimni unga bermayman, bo‘ysunmayman! Mening so‘zimni podsholaringga tayinlab aytinglar, tag‘i armonda qolmasin, - deb elchilarga javob berdi”. [4.15-b]

Yuqoridagi parchadan Oysuluv tarixiy To‘marisdan quvvat olgan, undan andaza olgan, kezi kelsa undandan kuchliroq talqin etiladi. Buning isboti sifatida Oysuluvning eroniylar yurtiga qo‘shin tortib borishi, Doro va Qaysarning o‘ldirib o‘g‘li Kunbotirni asirlkdan qutqarishi bizga shunday xulosaga kelishimizga sababdir: Xalq ijodining eng yaxshi xususiyatlaridan biri, unda jinsiy ayirmaga, ayollarni kamsitishga yo‘l qo‘yilmasligidir. Vatan mudofaasi, xalq mustatqilligi yo‘lida xizmat qilgan erkagu ayol xalq nazdida, uning badiiy ifodasida faxrli o‘rin oladi. Ular o‘lmas, o‘tda kuymas, suvda cho‘kmas, o‘q o‘tmas qahramonlar darajasiga ko‘tariladi. [1. 32-b ]

Dostonning negizida yurtini g‘animlarga oyoqosti qilib qo‘ymagan, Qaysarning hiylasiga uchmagan, yurt ozodligini o‘z ornomusidek saqlagan Oysuluvning jasorati bilan birgalikda, uni shu kuch-quvvat bilan to‘yintirgan, unga mardonavor qalqon bo‘lgan dono xalqning siymosi tasvirlangandir: “Davrlar o‘tishi bilan xalq tarixiy voqealarni o‘zining istaklariga bo‘ysundirishni istaydi, va uni zafar ruhida qayta quradi. Xalq o‘zi sevgan qahramonning mag‘lubiyatini istamaydi, uni murodu maqsadiga erishtirishga harakat qiladi. [1.32-b].

“Oysuluv” tarixiy dostoni negizida ham tarixiy obrazlar, tarixiy joy nomlari, shu bilan birgalikda eposdagi tarixiy jang tasvirlarini badiiy mahorat bilan joylashtira olgan, xalqning ayollarga bo‘lgan hurmat-e’tiborini o‘rinli tasvirlay bilgan baxshi, uning aytuvchisi Ergash Jumanbulning ham xizmati kattadir.

Biz yuqorida mulohaza yuritgan “Oysuluv” dostonida ayollarning jasorati, vatanparvarligi, uning dushmanga qarshi olib borgan kurashlari, onalik mehr-muhabbati madh etilgan. Xalqning og‘ir damlarida dalda bo‘lolgan qahramon ayollar timsoli epik an’ana doirasida avloddan avlodga o‘tib, kelajak avlodga namuna, o‘rnak bo‘lib yashab qolaveradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**





1. G‘olima Musina. Turonning alp qizlari: (bade’a) – T.Yozuvchi. 1997.
2. Gerodot, Istoriya (v devyati knigax), Leningrad, 1972.
3. Putilov B.N. Tipologiya folklornogo istorizma / Tipologiya narodnogo eposa. – M.: Nauka, 1975.
4. Oysuluv. Aytuvchi: Ergash Jumanbulbul o‘g‘li. Yozib olib nashrga tayyorlovchi: Hodi Zarif.





## XORAZM DOSTONCHILIK SAN’ATI

*Himoyat SARIYEV,  
Urganch ixtisoslashgan san’at maktabi  
“Doston ijrochiligi” yo’nalishi o’qituvchisi*

Bola baxshi – Qurbonnazar Abdullayev baxshichilik an’analari, doston kuylash san’ati haqida ko‘p ilmiy ustoz edi. Baxshi buvaning ma’lumotlariga qaraganda qaraganda doston kuylash san’ati Xorazmshohlar davridayoq yuksak darajaga ko‘tarilgan. U paytlarda baxshilarni go‘yandalar deb atashgan. O‘sha paytdayoq doston kuylashda qo‘shqorinli rubob yetakchilik qilgan. Chunki, Xorazmdagi shirvoniy uslubda kuylanadigan doston musiqalari shiddatli va tantanovor bo‘lib, uni ro‘yobga chiqarishda dutorning kuchi yetmaydi. Rubobning takomillashgan turi bo‘lgan torning XX asrda baxshilar tomonidan doston cholg‘u ansambliga olib kirilishi bu fikrni tasdiqlaydi.

Faqat Xorazmdagina baxshilar ansabli shakllanib uzoq asrlar davomida xalqqa ma’naviy oziq berib kelgan. Bu ansamblda tor, doira, g‘ijjak, bulamon ishtirok qilgan. Albatta tordan burun baxshilarning dutor va rubobdan foydalanganligini inkor qilish qiyin. XX asrlarga kelib tor, dutor, garmon bir-birini almashtirib yurgan. Masalan, Bola baxshi torda, Qodir sozchi garmonda, Tursun baxshi dutorda kuy chalib doston ijro etishgan. Darvoqe, torni xonanda sifatida ilk marotaba sahnaga olib chiqqan kishi ham xorazmlik Komiljon Otaniyozovdir.

Baxshi ansabli yuksak taraqqiy qilgan san’at natijasida ro‘yobga chiqadi. Qadimdan taraqqiy qilib kelgan san’at o‘chog‘i esa Xorazmdir.

Xorazm xalqi shunday talant va mahoratga egaki, u istagan bir xalqning qo‘shig‘ini o‘sha xalqning xonandasi kuylagandek kuylay oladi. Istagan bir xalq raqsini o‘sha xalq ijrochisidan qolishmaydigan darajada maromiga yetkazib o‘ynaydi. Ammo hech bir xalq Xorazmcha qo‘shiq va raqsni xorazmiklar darajasida ijro qila bilmaydi.

Xorazm dostonchiligida dostondagi har bir she’riy parcha maxsus kuy bilan ijro etiladi. Bitta doston kamida 15-20 noma vositasida kuylanadi. Har bir kuy o‘z nomi bilan aytiladi. Dostonlar tarkibida esa





murabba’ g’azal, masnaviy, muxammas, musaddas, mustazod, hatto tuyuqlar ham ko’zga tashlanadi. Bu janrlarning dostonlarga kirib kelishi ham professional san’at rivoji bilan uzviy bog’liqdir. O‘zbekistonning boshqa mintaqalarida esa faqat baxshining o‘zi do‘mbira (aslida tanbur, tanbura so‘zidan olingan) jo‘rligida doston kuylaydi.

Xorazm mintaqasida dostonlarni qiroat bilan o‘qib eshittiradigan yoki og‘zaki ravishda garmon jo‘rligida kuylaydigan yana bir ijrochilar borki ularni vohada xalfalar deb yuritishadi. Xorazm vohasida xalfachilik an’analari qadimdan boshlab keng ommalashgan. Hozirgi kunda xalfa deganda dastlab to‘ylarda xizmat qiladigan, garmon chalib ashula aytadigan ayol va uning yonidagi doirachi bilan raqqosadan iborat kichik ansambl tushiniladi. Qolaversa, to‘y va azalarda diniy va dunyoviy kitoblarni qiroat bilan o‘qiydigan ayol ham xalfa deb yuritiladi.

Xalfalar haqida gap ketganda asosan xonim xalfa, Ojiza va Anash xalfalar ko‘proq tilga olinadi. Ularning soz chalib doston qo‘shiqlari va termalar ijro qilganliklari va o‘zlarining ham she’r to‘qiganliklariga urg‘u beriladi.

Yuqorida ta’kidlaganimiz to‘y va aza marosimlarida xizmat qiladigan xalfa ayollar esa tadqiqot doirasidan tashqarida qolib kelmoqda. Ular aza marosimlarida “Ibrohim Adham”, “Bobo Ravshan”, “Qul xo‘ja Ahmad” kabi dostonlarni yarim kuylash ohangida qiroat bilan o‘qib kelganlar. To‘y marosimlarida esa “Oshiq G‘arib”, “Oshiq Alband”, “Asli-Karam”, “Tohir Zuhra” kabi ishqiy dostonlarni muxlislarga yoqimli ovozda yarim kuylash ohangida o‘qib eshittirganlar.

Agarda insoniyat tarixiga razm solsak, kishilar ibtidoiy hayot davridayoq ma’naviy oziqqa ehtiyoj sezganlar. Dinning paydo bo‘lishi ana shu ma’naviy ehtiyojning qondirilishida dastlabki omillardan biri bo‘ldi. She’riyatning paydo bo‘lishi va qo‘shiqlarning kuylanishida ibodat va marosimlarning roli katta. “Avesto” “goh” larining kuylanishi ham o‘sha omillar bilan uzviy bog’liqdir.

Ko‘pgina qo‘shiqlarning va raqslarning diniy marosimlar bilan chambarchas aloqadorligi ushbu fikrni tasdiqlaydi. O‘tgan asrning 90-yillarida mashhur san’atkor Bola baxshi-Qurbonnazar Abdullaev biz bilan suhbatda qiziq bir narsani hikoya qilib bergan edi. Darvoqe,





xalfachilikning dastlabki shakllanishi din, va marosim bilan bog‘lanadi. “Avesto” “goh”larini, Qur’on oyatlarini qiroat bilan, qo‘shiq ohangida tinglovchiga yetkazish an‘analari sal o‘zgarishga uchragan holda hozirgacha xalfalar vositachiligida barhayot saqlanib kelmoqda.

Xalfachilik an‘analari Xorazmshohlar davriga kelib, sozanda xalfalarga ajralib chiqqan bo‘lishi mumkin. Chunki bu davrda Xorazmshohlar saroyida sozanda va xonandalar, raqqos va raqqosalar, masxarabozlar, qo‘g‘irchoqbozlar, dorbozlar, hatto professional yig‘lovchilargacha bo‘lgan. Musiqa asboblari: dutor, rubob, chang, nay, rud juda ommalashgan (2.41). Demak, san‘at, madaniyat yuksak darajada rivojlangan. Afsuski, bu rivojlanishni Chingiz bosqini yer bilan yakson qilgan. Xalfalar ijrochiligi haqida birorta manba saqlanib qolmagan. Shu sababli biz faqat Xonim xalfa Saidamat qizining 1895-yildan boshlab garmon chalib, sozanda xalfa sifatida tanilgani haqida aniq ma’lumotga egamiz (3.115). Xonim xalfa ham ilgari doira jo‘rligida, likuv (likob), piyola jarangi jo‘rligida qo‘shiq kuylagan.

Ruslar Xiva xonligini bosib olgandan keyin Yangiariqqa ko‘chib kelgan nemislar ta’sirida Xivaga garmon, fotoapparat, kinoapparat, patefon kabi madaniy mollar kirib kela boshlagan. Soz-garmonning san‘at olamiga kirib kelishi xalfachilikning rivojlanishiga yuksak ijobiy ta’sir qildi. O‘sha davrlarda faoliyat ko‘rsatgan yigirmadan oshiq talantli xalfalar haqida ma’lumotlar mavjud (4.117). Bu xalfalar orasida elga mashhur bo‘lgan Ojiza-Onabibi Otajonova, Onajon Sobirova (Anash xalfa) kabi talant egalari bor. Bu ikkala xalfa Xonim xalfaning shogirdlari bo‘lib, ayni paytda shoiralik qobiliyatiga ham ega bo‘lishgan. Shuningdek, “Oshiq G‘arib”, “Oshiq Alband”, “Oshiq Mahmud”, “Asli Karam” kabi ishqiy-romanik dostonlarni ham maromiga yetkazib kuylaganlar. Xonim xalfadan Hodi Zarif 1930-yilda “Asli Karam” dostonini yozib olgan (1.345).

Xulosa qilib aytganda, xalfachilikning dastlabki bosqichi ibodat va marosimlar bilan qorishiq holda yoddan o‘qish tarzida shakllangan. Qo‘shiq, she’riyat, va raqs bilan sinkretik tarzda birlashgan bu san‘at asrlar osha takomillashib kelgan. Hozirgi ma’lumotlarga qaraganda XIX asrning o‘rtalaridan boshlab, xalfalar repertuariga dunyoviy dostonlar kirib kela boshlagan. Asr oxiridan boshlab sozanda, dostonchi xalfalar faoliyat ko‘rsatib boshlaydi. XX asrning 30-yillaridan e’tiboran hozirgi ansamblli sozanda xalfalar faoliyati





ommaviylasha boshlaydi. (Bu toifa xalfalar balki xorazmshohlar davrida shakllangan bo‘lishi ham ehtimoldan xoli emas). Sozanda xalfa sifatida tanilgan dastlabki san’atkorlardan biri O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Soraxon Ollaberganovadir. Qiroat bilan diniy va dunyoviy dostonlar o‘qiydigan savodxon-qissaxon xalfalar ham o‘z yo‘nalishi bo‘yicha to‘y va azalarda xizmat qilishda davom etishadi. Xorazmda qissaxon-qiroatxon xalfalar ko‘p bo‘lgan. Bularga Niyozjon Musaeva, So‘na Eshmatova, Roziya Ollayorova va boshqalarni kiritish mumkin (1.353). Xalfachilikdagi bu ikki yo‘nalish hozirgi davrda ham o‘z faoliyatlarini davom ettirmoqdalar.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Oshiqnoma, 4-kitob. –Urganch. “Xorazm”, 2009. –B.43.
2. Bu haqda qarang: Тымofeev I. Biruni. Moskva. «Molodaya gvardiya» 1986. 41,42, 88, 107,167,198-betlar.
3. Yusupov Yu. Xorazm shoirlari. –T.: “Adabiyot va san’at”, 1967. –B.115.
4. Qilichev T. Xorazm xalq teatri. –T.: “Adabiyot va san’at”, 1988. –B.117.





## ERTAKCHILIK AN’ANALARINING LOKAL XUSUSIYATLARI

*Jamila ASQAROVA,  
O‘zbek tili, adabiyoti va folklori  
instituti doktoranti*

Ertakchilik an’analari, professional ertakchilar repertuari va xalq ijodkorlarining badihago‘ylik mahoratini o‘rganish folklorshunoslikda muhim o‘rin tutadi.

Ertaklarning syujet tizimi, an’anaviy formulalarning qo‘llanilishiga ko‘ra, hududiy geografik muhitning o‘zbek xalq ertakchilik an’analariga ta’sirini o‘rganish mumkin. Ertaklar poetikasida ham hududlardagi o‘ziga xoslik ko‘zga tashlanadi. Masalan, Farg‘ona vodiysi ertaklarining zachin qismi so‘z o‘yiniga boyligi, so‘zlar va tovushlarning taqlidga moyilligi, jarangdorlik, musiqiylik va emotsionallik kabi xususiyatlari bilan ajralib tursa, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo vohalarida ko‘pincha zachin juda qisqa jumladan iborat bo‘ladi. Buning tasdig‘i sifatida vodiylilik va vohalik ertakchilar repertuaridagi zachinlarni kuzatish mumkin. Qo‘qonlik mohir ertakchi Nurali Nurmat o‘g‘li ijro etgan “Boy bilan mehmon” ertagi “Bor ekan, yo‘q ekan, och ekan, to‘q ekan, qarg‘a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan, toshbaqa tarozibon ekan, qurbaqa undan to‘rt pul qarzdor ekan, akkam ekan, dukkam ekan, Abdurasul degan bir kishi bor ekan” deb boshlansa, “Qirq yolg‘on” ertagining boshlamasida “Bor ekan, yo‘q ekan, bir vaqtda bir boy bor ekan. Bu boy juda boy ekan, bir chuqurda achib qolgan loy ekan, sira suv o‘tmagan soy ekan, birov minmagan toy ekan, yomg‘ir yoqqanda bulutning orasida qolgan oy ekan, qozonga solsa dog‘ bo‘lmagan moy ekan, birov ichkisi kelmagan choy ekan, bu boy shunaqa dong‘i ketgan dang‘illama boy ekan” deb boyning ta’rifini sa’j yo‘li bilan ifodalaydi. Qashqadaryolik Abdug‘ofur Shukurov repertuaridagi barcha ertaklar esa “Bor ekan-da, yo‘q ekan, och ekan-da, to‘q ekan, qadim zamonda...” degan ixcham va qisqa zachin bilan boshlanadi.

Folklorshunos olim M.Jo‘raevning “O‘zbekistonning har bir hududida o‘ziga xos ertakchilik maktablari bo‘lgan. Ularda ustoz-







shogird an’analari asrlar osha rivojlanib kelgan. Ustoz shogirdini ertak aytish san’atining nozik qirralari bilan tanishtirib, unga ertak ijrochiligining sir-sinoatlaridan maxsus saboq bergan”<sup>45</sup> degan fikriga asoslanib, ertakchilar repertuarini hududiy-geografik nuqtai nazardan o’rganish muhimligini, voaha hamda vodiya ertakchilik an’analari turlicha ekanligini va bu o’z navbatida qadimda ertakchilik maktablari mavjud bo’lganini aytishimiz mumkin. Bu fikrni xalq ijodkorlarini jonli jarayonlarda kuzatgan folklorshunos olim M.Murodovning quyidagi so’zlari ham tasdiqlaydi: “O’zbekistonning turli joylarida ertakchilarning o’ziga xos maktablari bo’lgan. Ularda ustoz-shogird tayyorlashdan tortib, ertakka chuqur hurmat bilan qarash, unga e’tiqodda bo’lish, ertakni o’rganish, aytish kabi ertak, ertakchi shaxsi va ertak aytish san’ati bilan bog’liq bir qator masalalar ishlab chiqilgan. Bu sohadagi yutuqlar umumlashtirilib, kamchiliklar ro’y-rost ochib tashlangan”<sup>46</sup>. Shuningdek, Xorazm ertaklari genezisini o’rgangan folklorshunos olim J.Yusupov ham ijro usuli, syujet tarkibi, motivlar tuzilishining o’ziga xosligiga ko’ra ertaklarni geografik hududiy tiplarga bo’lib o’rganish kerakligini, chunki har bir ertakchilik maktabi o’zining ijrochilik an’analari, epik bilimi va ijtimoiy-estetik prinsiplariga asoslanishini ta’kidlagan<sup>47</sup>. Akademik T.Mirzaev har bir ijodiy harakat, davomchi tomonidan kiritilgan qay bir yangilik barqaror an’analar doirasida, ustoz-shogirdlik qobig’ida ro’y berishini aytib o’tgan. “Kasbiy mahorat talab qilinadigan ijrochilar – baxshilar, ertakchilar, qiziqchilar... bu san’atni egallash uchun maxsus tayyorgarlik ko’rishi, muayyan ustozdan ta’lim olishi zarur bo’lgan”<sup>48</sup>.

Olimlarning tadqiqotlari qadimda ertakni qayta ishlash va an’analarini saqlash maqsadida “ertakchilik maktablari” mavjud bo’lgan, degan fikrni tasdiqlaydi.

O’zbek folklorshunosligi asoschisi H.Zarifovning baxshichilik masalalariga qaratilgan quyidagi fikrini ertakchilar ijodiga hududiy omillarning ta’siri masalasiga ham qo’llash mumkin. “Epik ijodiyotda barcha o’zbek baxshilari uchun umumiy bo’lgan uslub elementlarini aniqlash, ularning viloyatlararo va individual farqini ko’rsatish,

<sup>45</sup> Jo’rayev M. O’zbek xalq nasri janrlarini tasnif qilish mezonlari // O’zbek tili va adabiyoti, 1996, №5. – B. 32.

<sup>46</sup> Murodov M. Shayxov X. Hayotbaxsh xayollar. - Toshkent: Yosh gvardiya. 1985. – B.100.

<sup>47</sup> Yusupov J. Xorazm ertaklarining genezisi, asosiy xususiyatlari va poetikasi. Fil.f.dok.diss. Toshkent: 1999.

<sup>48</sup> Mirzayev T. Folklor va uning asosiy xususiyatlari / O’zbek folklorshunosligi. Antologiya – Toshkent: 2017. – B. 250





nisbatan talantli baxshilar mahoratini yoritish, epik asarlarning ijodiy tarixini belgilashdan iborat o‘zak masalalarni hal qilish lozim”<sup>49</sup>.

O‘zbekiston hududining geografik joylashuvi ham ertakchilik an’analari va ijrosiga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Vohada yashovchilar, asosan, chorvachilik va yilqichilik bilan shug‘ullangani bois, o‘sha yerlik ertakchilar repertuarida ot, ho‘kiz, qo‘y, bo‘ri, tulki kabi ertak personajlarini hamda vohada keng tarqalgan dostonlar kabi epik kenglik, mukammal tasvirni uchratish mumkin. Toshkent hamda vodiy aholisi hunarmandchilik va dehqonchilik bilan kun kechirgani uchun ular reperturida charx, urchuq, arava, ketmon kabi so‘zlar, maishiy mavzuga xos askiya, yumor ustunlik qiladi. Bir so‘z bilan aytganda, ijrochi poetikasidan u yashagan davr va geografik hudud an’analarini o‘rganish mumkin.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, o‘zbekxalq ertakchiligi tarixi qadim davrlarga borib taqalsa-da, biroq ertak aytishning qadimiy ko‘rinishlari, rasm-rusumlari va an’analarini davom ettirib kelgan ertakchilar haqida na yozma, na og‘zaki ma’lumotlar saqlanib qolgan.

Bundan tashqari, keyingi yillardagi ijtimoiy taraqqiyot ertakchilik an’analariga ta’sir o‘tkazmay qolmadi. Hozirgi kunda an’anaviy ertak ijrosi va ertakchilik an’analarining qadimiy shakllari deyarli so‘nib bo‘ldi. Bu ertak ijrosiga nisbatan ijtimoiy talabning so‘nishi, ertaklarning vaqtli matbuot sahifalarida, darsliklarda, shuningdek, kitob hamda to‘plam holda bosib chiqarilishi bilan bog‘liqdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Jo‘rayev M. O‘zbek xalq nasri janrlarini tasnif qilish mezonlari // O‘zbek tili va adabiyoti, 1996, №5. – B. 32.
2. Murodov M. Shayxov X. Hayotbaxsh xayollar. - Toshkent: Yosh gvardiya. 1985. – B.100.
3. Yusupov J. Xorazm ertaklarining genezisi, asosiy xususiyatlari va poetikasi. Fil.f.dok.diss. Toshkent: 1999.
4. Mirzayev T. Folklor va uning asosiy xususiyatlari / O‘zbek folklorshunosligi. Antologiya – Toshkent: 2017. – B. 250.

<sup>49</sup> Zarifov H. O‘zbek sovet folkloristikasi tarixidan. “O‘zbek sovet folklori masalalari”. Tadqiqotlar. 1-kitob. Toshkent, 1970.– B. 279.





---

5. Zarifov H. O‘zbek sovet folkloristikasi tarixidan. “O‘zbek sovet folklori masalalari”. Tadqiqotlar. 1-kitob. Toshkent, 1970.– B. 279.





## UZLIKSIZ TA’LIM TIZIMIDA BAXSHICHILIK SINFLARI UCHUN ZAMONAVIY VA MUKAMMAL O‘QUV QO‘LLANMALAR ZARUR

*Juzingul KARIMBERGENOVA,  
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI  
“Xalq ijodiyoti: (baxshichilik va dostonchilik)”  
ta’lim yo‘nalishi 4-bisqich talabasi.  
Ilmiy rahbar: Shaxida BERDIXANOVA,  
San’atshunoslik fanlari bo‘yicha  
falsafa doktori (PhD).*

**Annotatsiya:** Maqolada Respublikamizda yangi tashkil etilgan doston ijrochiligi yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun o‘quv qo‘llanma va darsliklar haqida so‘z yuritiladi. Jumladan, ushbu yo‘nalishdagi professor-o‘qituvchilarning o‘quv qo‘llanma va darsliklar tahlili maqolada namuna sifatida keltirib o‘tiladi.

**Kalit so‘zlar:** doston, baxshichilik, kuy, noma, QR kod, shtrix

**Аннотация:** В статье говорится об учебных пособиях и учебниках для студентов нашей республики, обучающихся по созданному новому направлению эпического исполнительства. В частности, в статье в качестве примера приводится анализы учебных пособии и учебников профессоров-педагогов, стоящих у истоков данной области.

**Ключевые слова:** эпос, искусство бахши, мелодия, нома, QR-код, штрих.

**Abstract:** The article talks about teaching aids and textbooks for students of our republic studying in the created new direction of epic performance. In particular, the article provides, as an example, analyzes of teaching aids and textbooks by professors and teachers who were at the origins of this field.

**Key words:** epic, bakhshichilik, melody, noma, QR code, barcode.

Xalqimizning milliy me’rosi bo‘lgan baxshichilik san’atini asrab avaylash, yosh avlodlarga o‘rgatish, keyingi davrga nuqsonsiz etkazish masalalariga yaqin 5-6 yil ichida katta e’tibor qaratilmoqda.





Baxshichilik san’atining YUNESKO ning Nomoddiy madaniy merosi reperezentativ ro‘yxatiga kiritilishi va yildan yilga keng ko‘lamda o‘tkazilib, tobora o‘z o‘rnini va mavqesini topib kelayotgan xalqaro baxshilar festivali hamda yosh baxshilarning qiziqishini yanada orttirayotgan “Yoshlar ovozi” tanlovida baxshilarning ham o‘rni borligi bular eng kata sohadagi muvaffaqiyatlarimizdir. Yunus Rajabiy nomidagi o‘zbek milliy musiqa san’ati instituti “Doston ijrochiligi” ta’lim yo‘nalishida baxshi talabalar ta’lim olib kelmoqda. Men o‘zim ham shu institut talabasiman. Institutimizda yaratilgan keng imkoniyatlar har bir talabani o‘qishga izlanishga undamasdan qo‘ymaydi. Ko‘plab Xalqaro va Respublikamizda o‘tkazilayotgan festival va tanlovlarda ishtirok etish imkoniyati biz talabalar uchun yaratilgan. Shunday imkoniyatlardan keng foydalanib tengdoshlarim bilan bir qatrorda o‘zim ham xalqaro tanlov g‘olibi bo‘ldim. Xalq og‘zaki san’ati bo‘lgan baxshichilik, jirovchilik va qissxonlik faqat ustoz shogird an’analari bilan o‘rganilgan san’at turlari bo‘lib, shu yillargacha bu san’at sohiblariga hech qanday oliy ma’lumotli daraja berilmagan. Bizning davrimizga kelib baxshichilik san’ati tubdan takomillashtirilib, Oliy dargoxlarda milliy merosimizga mehr qo‘ygan, shu san’atni targ‘ib qilishga harakat qilayotgan yoshlar ta’lim olmoqdalar. Bunday yoshlarimizning soni yildan yilga ko‘payib bormoqda. Lekin institutimizda baxshichilik sinflari uchun mutaxassislik fanlaridan oquv qo‘llanmalar juda kam.

Ta’lim jarayonini yanada takomillashtirish, yoshlarga sifatli bilim berish uchun o‘quv qo‘llanmalar, sohaga doir adabiyotlarni ko‘paytirish maqsadga muvofiq bo‘ladi deb o‘ylayman. Bu borada xalq baxshilaridan doston namunalarini to‘liq shaklda yozib olish, nag‘malarini qog‘ozga tushirib, nota namunasini nashr etish, Dostonning keyingi avlodlarga asl holida etib borishi maqsadi ko‘zda tutiladi. Xalq nag‘malarini yozib olish, notalashtirib o‘quv qo‘llanma sifatida tadbiiq etish zarur. Bu o‘rinda O‘zMMSI katta o‘qituvchisi Zafar Haitovning Doston ijrochiligi (baxshichilik) uchun ishlab chiqqan o‘quv qo‘llanmasini namuna qilib olish mumkun. Professor Botir Matyaqubov hamda Sedat Tamay tomonidan nashrga chiqarilgan, O‘zbekiston xalq baxshisi Qaxxor Raximovdan yozib olingan “Temur va Boyazid dostoni” (Ardahan-2019) hamda Professor Botir Matyaqubov bilan Professor Erdog‘an Altinkaynak nashrga





tayyorlagan, O‘zbekiston xalq baxshisi Qaxxor Raximovdan yozib olingan “Alpomish” dostonlaridagi nag‘malarni Izzat Matyaqubov notaga olgan va ilova sifatida kitoblarga kiritilgan. Mana bular yosh avlod uchun yaxshi vosita deb bilaman. Kitobda faqatgina nasr va nazm emas balki baxshi aynan qaysi nag‘maga qaysi sherni solib ijro etganini ham bilib olamiz. Bu bilan biz baxshilarni, keyingi o‘rganuvchi va ijrochilarni qolipga solib qo‘yamiz degani emas, aksincha baxshining kuylagan varyantini, o‘zagini, shirasini asl holda saqlab qolamiz. Lekin bu ishlarni yo‘lga qo‘yish uchun bizga mutaxassislar zarur. Ayni paytda Doston ijrochiligi kafedrasining bitiruvchi talabalari professional baxshi sifatida amaliy sinab ko‘rilishi kerak. Chunki dostonni notaga olish uchun nota taniydigan xalq baxshilari kam, professional musiqashunoslar esa bu ishni amalga oshirish uchun avvalo dostonni o‘rganishiga to‘g‘ri keladi. Dostonlardagi nag‘malarni baxshi ijro etganidek farshlaglari, nolalari, qochirimlarini aniq qog‘ozga tushira olmasak ham asosiy suyagini biz yozib olishimiz mumkin. Albatta, professor-o‘qituvchilar ishning boshida turishi kerak. Kafedramizning o‘qtuvchilari hamda kompozitorlik va bastakorlik kafedrasining o‘qtuvchilari yo‘l-yo‘riq ko‘rsatsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Talabalarga 2 yil davomida o‘tilgan dostonlarni notalashtirish fanining ham samarasini ko‘rishimiz kerak.

Hozir misol tariqasida olishimiz mumkin bo‘lgan Qoraqalpoq folklori, 1985-yili nashr qilingan ko‘p tomligining 14-tomida Qoraqalpoq xalq dostoni “G‘arib Ashiq” dostonining mukammal varyantini ko‘rishimiz mumkin. Bu variantda 189 ta she‘r kuy nomaga solib ijro etilgan. Dostonning matnini va shery qismini biz ko‘rib chiqishimiz mumkin lekin o‘sha paytda 189 kuy Qoraqalpoq baxshichiligida bo‘lganmi, yoki nomalar bir necha bor takrorlanganmi, buyog‘i bizga qorong‘u. Bizning bilganlarimizdan ko‘ra bilmaganlarimiz ko‘p aslida. Qoraqalpoq folklori 100 tomligining 2011-yilgi nashrida ham “G‘arib ashik” dostonining bir nechta varanti mavjud. Shundan 27-42 tomdagi Amet Tarixov varyantini ko‘radigan bo‘lsak bor yo‘g‘i 23 ta she‘rini kuy nomalarga solib ijro etgan. Lekin bu variant mukammal to‘liq variant emas. Hozirgi kunga kelib Qoraqalpoq baxshichiligida 80 dan ortiq kuy nomalar mavjud deb og‘zaki yuritiladi lekin aniq sanab chiqilmagan. Mahoratli baxshilar tomonidan yangi nomalar yaralib bularning soni yanada oshmoqda.





Endi 1985-yilda 189 ta(ba’lki undan ortiq) kuy noma mavjud bo’lganu, biz uni asrab qola olmagan bo’lsak bu achinarli holat. Aynan shuning uchun ham notalashtirish eng tog’ri echim deb o’ylayman. Eski yillarda audio, video zapis qilish uchun, yoki kuylarni notaga olish uchun etarlicha imkoniyatlar bo’lmagandur, mana hozir bizda ba’rcha imkoniyatlar mavjud. Kitoblarning o’zida nasr, nazm, kuylarning notalari, QR shtrix kodlari orqali audio, video zapislari bularning barchasini bitta kitobda mujassam etishimiz mumkun. Notalashtirish ishlarini qoraqalpoq san’atshunoslari ancha erta boshlagan bo’lsalarda bunday yirik dostonlar notaga olinmagan. 1991-yil “Jiraw namalari” nomli Tajigul Adambaeva hamda notalashtiruvchi M.Jiyemuratovning mehnatlarida jirov nomalarini notaga olishga harakat bo’lgan. 1996-yili Qarlibay Ayekeev “Duwtar tarixi, duwtar shertiw ham sog’iw usillari” nomli kitobida aynan Qoraqalpoq Alamoynaq dutorining yasalishi hamda pardalarda notalarning joylashuvidan tortib, notalashtirilgan mashqlar bilan xalq nomalarini o’rganuvchilar uchun dutorga moslashtirib nashr qilgan. 2002-yili D.Allanazarov Qoraqalpog’iston xalq baxshisi Genjebay Tilewmuratovdan xalq nomalarini yozib olib juda chiroyli tarzda “Qaraqalpaq xalq sazleri” nomli kitob chiqargan. Talabalar uchun o’quv qo’llanma tuzishda do’mbirada parda yo’q, notalashtirish mumkun emas deb qaraydigan bo’lsak, agar biz Qo’bizda ham Do’mbira singari parda bog’lanmaganligini hisobga olib “Jirov nomalari” kitobini namuna sifatida foydalanishimiz mumkin.

O’zMMSI professori Botir Batyaqubovning “Doston Navolari” kitobi va “Doston ijrochiligini o’qitish uslubiyati” uchun tayyorlangan o’quv qo’llanma va darsligi talabalarning bilim olishiga katta hissa qo’shmoqda. Bu kitoblarda dostonlardan parchalar, baxshilar ijrosidagi audio, video materyallarni QR shtrix kodi orqali youtube ijtimoiy tarmog’ida ko’ra olamiz. Bunday o’quv qo’llanmalar va adabiyotlarni ko’paytirish har bir viloyat Qashqadaryo-Surxandaryo, Xorazm va Qoraqalpoq yo’nalishida ta’lim olayotgan ta’labalar uchun alohida mutaxassislik fanlariga ham o’quv qo’llanma ishlab chiqish zarur. Baxshi nomalarini yozib olish va nashr etish borasida Dawletbay Allanazarovning mehnatlarini ham namuna sifatida foydalansak bo’ladi. D.Allanazarov “Qaraqalpaq sazleri” (Duwtar) nomli kitobida Qoraqalpoq xalqining bebaho boyligi bo’lgan baxshi kuy-nomalari





notaga olgan. Bunda uchraydigan barcha baxshichilikga oid nola va qochirimlar te’ren o’rganilib, aniq ko’rsatilgan. D.Allanazarov, I.Jumaniyazov, B.Qalmenovlar Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi Bolalar musiqa va san’at maktablarining baxshichilik sinflari uchun (har bir 1-2-3-4-5-sinflar uchun) alohida o‘quv qo‘llanma “Qaraqalpaq milliy Alamoynaq duwtar sazendeshiligi sabaqlig‘i” nomli baxshi nomlarini notalari bilan kitoblar chiqargan. Bu kitoblarda Bolalar uchun engil ijro etiladigan qisqa asarlar yozilgan. Biz esa institutimiz talabalariga dostonlarni notalari bilan yozib, hatto Botir Matyaqubov kitablaridagi ka’bi QR shtrix kodlari orqali youtube ijtimoiy tarmog‘idan videolarini ham ko‘rib o‘rganish imkonyatlarini yaratishimiz mumkun. Baxshichilik yo‘nalishida uzliksiz talimni tashkil etish qisman yo‘lga qoyib bolindi. Hozirgi kunda Respublikamizning barcha hududlaridagi musiqa va san’at maktablarida baxshichilik sinflari ochilgan. Xatto ixtisoslashtirilgan baxshichilik maktablari ham Qoraqalpog‘iston Respublikasida va Surxondaryo viloyati Termiz shahrida o‘z faoliyatlarini olib bormoqda. Endilikda soha mutaxassisleri ularning o‘quv qo‘llanmalariga e’tibor qaratishlari kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Zafar Hayitov. Doston ijrochiligi (Baxshichilik) O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent-2021
2. “Temur Ve Bayezid destani” Destan metni-notalar-muzik analizleri. Dr.Ogr.uyesi. Sedat Tamay, Prof. Dr. Batir
3. “Qaraqalpaq folklori” ko‘p tomliq 27-42 tomlar. No’kis “Ilim” 2011
4. BOTIR MATYAQUBOV “Doston Navolari” ilmiy nashr. TOSHKENT 2009
5. “Doston ijrochiligini o‘qitish uslubiyati” Musiqiy oliy ta’lim muassasalarining bakalavr bosqichi uchun “Doston ijrochiligi” ixtisosligi uslubiyati fanidan darslik. “Nodirabegim” nashriyoti Toshkent-2021







## **“GO‘RO‘G‘LINING TUG‘ILISHI “ DOSTONI VARAINT VA VERSIYALARI HAQIDA**

*Nafisa MAVLONBEKOVA,  
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSTI  
Xalq ijodiyoti: (baxshichilik va dostonchilik)  
ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi.  
Ilmiy rahbar: Asatillo SUNNATILLAYEV.  
“Doston ijrochiligi” kafedrasida dotsenti v.b*

**Annotatsiya:** *“Go‘ro‘g‘lining tug‘ulishi “ dostoni xalqimiz orasida keng tarqalgan dostonlardan biri. Dostonning ko‘plab variantlari va versiyalari bor, Doston sujet va motiv jihatdan ham farqlanib turadi. Ushbu maqolada “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlar sirasiga kiradigan “Go‘g‘lining tug‘ulishi “dostoni varaint va versiyalari haqida fikr yuritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Motiv, sujet, tarix, variant va versiya.*

“Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari Janubiy O‘zbekiston hamda Xorazm viloyatida yashovchi baxshilar tomonidan bugungi kunga qadar ijro etib kelinayotganligi ham bu epik silsila xalqimiz ma’naviy qadriyatlarining ajralmas qismiga aylanganligini ko‘rsatadi. “Go‘ro‘g‘li” turkumini to‘la biladigan dostonchi hali aniqlangan emas. Bu o‘rinda bir ijodkor repertuaridagi mavjud dostonlarning ijrochi-qissaxonning o‘zi tomonidan tartib berilishi va ketma-ket yozilishi o‘zbek folklorshunosligida o‘ziga xos ilk noyob hodisadir. To‘g‘ri, folklorshunoslik tarixida shunga o‘xshash o‘rinlar bo‘lgan. Masalan, 1927-yilda Po‘lkan shoirdan “Go‘ro‘g‘li” dostonlarini ketma-ket yozib olish ishi tashkil etilgan. Ammo 4-5 doston yozib olinishi bilan bu ish to‘xtab qolgan. “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari yaxlit holda birinchi marta nashrga tayyorlandi. Shuning uchun ham dostonlarda kuylanayotgan mardlik va qahramonlikni kuylovchi baxshilarimizning boqiy bo‘stonidagi durdona asarlar bilan yaqindan tanishtirish maqsadida “Go‘ro‘g‘li” turkumiga mansub dostonlardan ayrimlarini e‘tiboringizga havola qilmoqdamiz. Qahramonning hurlar bilan sharob ichib, g‘ilmonlar bilan olishuvi





o‘zga olamda kechgan bo‘lsada, yer yuziga chiqishi va barcha olamlar hududiga bemalol o‘tib borib kelishi uchun moslashuv jarayonlari edi. Chunki uni homiy eranlarlar bu olamlar hayotiga tayorlashadi. Variantlar va versiyalarni qiyosiy o‘rganish ma’lum bir motivlarda unitilgan halqalarni tiklashga, xalqning eposiga asos bo‘lgan dunyoqarashi va falsafasini idrok etishga yordam beradi. Bu o‘rinda ham ana shunday holatga duch kelinmoqda

U bu variantning qimmatli jihati qadim unsurlarni motivlar talqinida saqlab qolganida ham kurinadi. Bu variantda Ahmad sardor ham xislatli odam sifatida talqin etilmoqda. U shunchaki Hiloloyning akasi, bolaning tog‘asi emas, tarbiyachilarga xos fazilatli inson sifatida ko‘rsatilgan. U Go‘ro‘g‘lining nazarkarda ekanligini biladi. Uning keyingi so‘zlarida Go‘ro‘g‘lining Ahmat sardor qavmiga xudo tomonidan berilganligi, etnos orzu-umidlari amalga oshishi shu bola bilan bog‘liq ekanligi aytiladi. Fozil shoir variantidagi Ahmad sardor obrazi butun turkum variantlari orasida tarbiyachi – tog‘a tasavvurlarini to‘ldirishi bilan ham qimmatlidir. Bu variantda qahramonning biyani emib ulg‘aygani unitilgan. Bola olti yoshga to‘lgach unga berilgan biya bilan birga dala-dasht kezib yuradi. Qo‘rg‘on versiyasida yetti yoshga o‘tganida Zargar elidan Yovmitga tarlon biyasi bilan keladi. Barcha variantlarda Qahramonning, biyaning, tug‘ilgan toyning voyaga yetish muddatlari an’anaviy uch, olti, yetti, o‘n to‘rt ekanligi diqqatga sazovor. Qo‘lyozma shu yerda tugagan. Qo‘lyozmaning asli lotin alifbosida yozilgan bo‘lishi kerak, deb aytishimizga sabab, kiril yozuviga o‘tkazilganda ba’zi harflar lotincha ketib qolgan. Masalan: 117-betda “Keng chachboqta birga jurgan” misrasidagi “chachboqta” so‘zi aslida “chorboq” bo‘lgan. Bu yerda lotindan kirilga ko‘chirishda “chor” dagi “r” lotin shaklida qolib ketgan. Qo‘lyozma shaklidagi r(r) kirilcha ch(qo‘lyozma shakli) bilan aynan. Fozil shoir variantida tulpordan qo‘sh kindik tug‘ilmaydi, degan so‘z Rayhon arab tilidan aytilgan. Chindan ham avval ko‘rimsiz bo‘lgan qulin keyinchalik chinakkam tulporga aylanadi. Fozil shoir variantida eranlar G‘irko‘kni Chilisim manziliga olib ketgan deb aytilmoqda. Boshqa variantlarda bu manzil nomi uchramaydi. Go‘ro‘g‘liga Ahmad tog‘asining: “Burunagiday jinnilikni tashlagin”, deb aytishi qahramonning “alplik dardiga” yo‘liqqan davrini nazarda tutib aytilmoqda. Fozil





shoir variantida qahramonning bu davri Po‘lkan shoir variantidagidek batafsil badiiy talqin olmagan bo‘lsada unga ishoratlar-belgilar mavjud. Go‘ro‘g‘lining janda kiyib, toyini yetaklab, odamlarga qo‘shilmay, dali sifat yurgani aytilgan. Qo‘lyozmaning oxirida A4 formatli ikki varaqqa kril alifbosida “eng oxiri” degan xat boshi bilan qo‘shimcha qilingan. Qo‘shimcha ikki varaqdagi yozuv M.Zarifnikidan farq qiladi. Bu farq birdan ko‘zga tashlanmasada, sinchiklab solishtirilsa aniq seziladi. Sahifasi esa so‘ngi 8-daftarning davomidan 117, 118 deb ko‘rsatilgan. Ikkinchi varaq oxirida lotin yozuvi bilan aytib beruvchi: Fozil ota, Yozib oluvchi: Toshpo‘latova deb yozilgan Sana: 1941-yil mart, Toshkent deb kiril xatida yozilgan. Fozil shoir kuylagan “Go‘ro‘g‘li” dostonlarini o‘zaro vaqt, makon, qahramonlarning talqin etilishi va boshqa jihatlarni qiyoslab tadqiq etilsa bu dostonlardagi o‘zgarishlar, badiiy asoslashlar qanday ro‘y berganligini, baxshi – shoirlar, dostonchilik maktablar orasidagi o‘zaro aloqalar, tajriba almashishlar, ta’sir va aksta’sir masalarini aniqlash, Tegishli xulosalarga kelish mumkin bo‘ladi.

Ma’lumki, romanik dostonlardagi epik makonlar mohiyatan o‘z va o‘zga makonlarga bo‘linadi. O‘z makon – bu xalq idealini tashuvchi qahramon, uning yaqinlari va do‘stlari yashaydigan makon hisoblanadi. Shunga ko‘ra, o‘z makon har tomonlama ta’rifu tavsifga loyiq makon bo‘lib, dostonlarda u aniq tasvirlar, yer sharining qaysi nuqtasida joylashganligini anglatuvchi izoh yoki qaydlar bilan ta’minlanmagan bo‘lsalar ham, biroq xalq ijodkorlari ularning joylashish o‘rnining mavhumligi holatida ham yuksak ta’rifu tavsiflarga boy tasvirleydilar. Masalan, “Go‘ro‘g‘li” dostonlaridan ayrimlarida Chambil “Urganch eldan tubanda, o‘zi qibla tomonda, Chambilning belinda, Taka-Yovmitning elinda», “O‘zi qibla tomonda, Buxorodan to‘manda (aslida tubanda), Taka-Yovmit deganda, Yovmit elida, Chambilning belida’, “qibladan tumaninda, Taka-Yovmitning elinda, Chambilbelning belinda’, “qibladan tumaninda, Go‘ro‘g‘li zamoninda, Go‘ro‘g‘libek Chambil mamlakatida’ deb epik makonning aniq o‘rnini ko‘rsatishga intiladilar. Ergash shoir repertuaridagi dostonlarning ko‘pchiligida Chambil mamlakati Buxorodan quyida, Urganch eldan quyiroqda Chambil degan belda joylashgan shahar – qal’adir. Biroq bu qal’aning aniq





joylashish o‘rni va xarobalari uchramaydi. Ularni qidirish ham mumkin emas, chunki epik yurt baxshi ongida, tinglovchilar ongida yashovchi epik makon. Shunga qaramay bu makon – o‘ta obod, go‘zal va dilbar yurt, chunki u “Go‘ro‘g‘li” turkum eposining yuzaga kelishi uchun zarur bo‘lgan obod epik o‘z yurtidir. Ilmiy til bilan aytganda, Chambil ham, Quyonqi ham, Arzirim ham eposda perseptual (badiiy-ruhiy) makon, ya’ni afsonaviy shartli makon. Romanik dostonlarda o‘zga yurtlar, ayniqsa, mifik makonlar o‘ziga xos tarzda berilgan.

Demak, epik ideal doirasida tasvirlanadigan romanik dostonlarda ham qahramon xatti-harakati, uning nigohiga qadaluvchi barcha epik makonlar imkoni boricha batafsil va hayotiy mantiq asosida tasvirlanadi. Go‘ro‘g‘lining qarshisida paydo bo‘lgan qal’a qahramon safarga otlanadigan epik makonning xavf-xatarga to‘laligi haqida xabar berish vazifasini o‘taydi. Qizilqum sahrosining, umuman giyoh o‘smagan qumning bir chekkasida ulkan chinorning o‘sganligi, uning shoxlarida turli -tuman sayroqi qushlarning bola ochib, sayrab turishlari, chinor yonida devori qalayidan bino qilingan qo‘rg‘onning mavjudligi romanik epos uchun xos tilsimli epik makon uchun tipik tasvir. Doston qahramonlari devlar yordamida Turkiston shahrini topishadi va u yerga qora bayir ot yordamida borib o‘z vazifalarini uddalashadi.

Umuman olganda, mazkur dostondagi qahramon oldida turgan epik makonlarning har biri muayyan darajada mifologik asosga, mifologik mohiyatga ega bo‘ladi. Bunday estetik hodisa xaqida prof. B.Sarimsoqov quyidagilarni yozganida to‘la haqli edi: “Malika ayyor” dostonida qahramon oldiga qo‘yilgan sof ijtimoiy to‘siqlar bilan genezisi mifologik tasavvurga aloqador epik to‘siqlar nisbati solishtirilib chiqilsa, unda yuqorida aytilganidek, genetik jihatdan mifologiya bilan aloqador epik to‘siqlar nisbati ko‘proq o‘rinni egallaydi. Buning muhim sabablaridan biri doston asosida yotgan epik to‘siqning bevosita mifologik obraz – pari hamda mifologik makon Turkiston mamlakati bilan bog‘liqligi hisoblanadi.

Go‘ro‘g‘li haqidagi ilk epik syujetlarning shakllanishi XI-XVII asrlarga to‘g‘ri keladi. Bu epik qahramon to‘g‘risidagi syujetlarning hayotiy asosini ana shu davrdagi dehqonlar harakati bilan bog‘liq voqealar tashkil qiladi. Ayrim manbalarda





“Go‘ro‘g‘li” dostonini arab bosqinchilariga qarshi IX asr boshlarida Ozarbayjonda olib borilgan Bobek boshchiligidagi xurramiylar harakatiga bog‘lash holatlari uchraydi. , “Go‘ro‘g‘li” dostoni o‘zining shakllanish tarixiga ko‘ra, Bobek – xurramiylar qo‘zg‘oloniga qaraganda chuqurroq ildizlariga egadir. Doston syujetining ayrim elementlari Bobek – xurramiylarga borib bog‘lanishi esa undagi ba’zi motivlar otashparastlik qarashlari asosida shakllanganligini ko‘rsatadi “Go‘ro‘g‘li” eposi haqidagi ko‘pgina tadqiqot va izlanishlarda doston qahramoni tarixiy shaxs, ya’ni jaloliylar harakatining ishtirokchilaridan biri va ayni paytda, ashig-baxshi bo‘lganligi ta’kidlanadi. Keng qamrovli dehqonlar harakatining qatnashchilari obrazi eposning ozarbayjon versiyasida (Parij va Tbilisi qo‘lyozmasida) saqlanib qolganligi bu doston syujetining dastlabki namunalari Go‘ro‘g‘li hayotlik paytidayoq shakllana boshlaganini tasdiqlaydi. Bu mulohazalardan “Go‘ro‘g‘li” eposining ilk syujet asoslari dastlab Ozarbayjon va Kichik Osiyoda “ozarbayjon versiyasi” sifatida shakllangan, degan xulosaga kelish mumkin. O‘rta Osiyoda shunday nomli doston ulardan alohida holda, ularga bog‘liq bo‘lmagan holda shakllandi. Eposning Zakavkaze va Yaqin Sharq variantlari (turk, kurd, gruzin, arman va boshqalar) esa Ozarbayjon versiyasi asosida paydo bo‘ldi . “Go‘ro‘g‘li” dostonining turkiy versiyalarida milliy epik an’anaga xos xususiyatlar saqlangan bo‘lib, bunda baxshilarning badihago‘ylik san’ati muhim rol o‘ynagan.

Epik an’ananing uzluksiz taraqqiyoti davomida mazkur eposning asosiy syujetlari qo‘shimcha shaxobchalar bila boyitilgan, ayrim hollarda esa uning ba’zi uzvlari og‘zaki an’anada qisqarishga uchragan. Shuningdek, buddaviylik elementlari, jumladan, Go‘ro‘g‘lining qabrda tug‘ilishi (ushbu syujet qadimgi greklarda mavjud bo‘lgan syujet asosida shakllangan), islom dini bilan bog‘liq Hazrat Ali, qirq chiltan, o‘n ikki imom kabi personaj va syujetlarning turkum dostonlari tarkibiga kiritilganligi shular jumlasidandir. Turkum dostonlariga xalq epik tasavvurida ming yillardan buyon shakllanib, yashab kelgan syujetlar, voqeliklar, lavhalar, timsollar, personajlar, tushuncha va aqidalar kiritildi. Misol tariqasida yana aytish o‘rinliki, “Go‘r” so‘zi forschada “qabr”ni bildirsa, qadimgi turkiy tilda “bahodir, mard” degan ma’nolarni anglatishi aytiladi.





Turkiy hoqonlar orasida Go‘rxon nomli xonning nomi ham uning mard va bahodirligini anglatgan. Go‘ro‘g‘liga nisbat berilishida ham birinchidan, uning qabrda tug‘ilishi bo‘lsa, ikkinchidan, nazarimizda Go‘ro‘g‘li nomining shakllanishida “bahodirning o‘g‘li” tushunchasining ta’siri bo‘lganligi, ehtimol. Ko‘rinadiki, mavjud epik syujetlar qayta ishlanib, xalq epik tafakkurida yana bir bor sayqallanib, dostonlar syujetiga singdirildi.

Zero, “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining shakllanishi va rivojlanishi shu tarzda ro‘y bergan. Demak, “Go‘ro‘g‘li” epik syujeti yadrosining shakllanishida XVI asr tarixiy voqeligi asos bo‘lgan bo‘lsa-da, uning turkum sifatida, epos sifatida shakllanishida xalqimiz og‘zaki epik merosining salmoqli qismi, ko‘plab epik syujetlar asos bo‘lgan. Ma’lumki, xalq og‘zaki ijodi namunalari, xususan, xalq dostonlari ajdodlarimiz epik tafakkur taraqqiyotining eng yuksak cho‘qqisini zabt etganligining isbotidir. “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari xalq epik tafakkurining betakror namunasi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

### **Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Shomirza Turdimov, O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti yetakchi ilmiy xodimi, filologiya fanlari doktori, professor 10-bet 11-bet

2. O‘zbek xalq romanik dostonlarida epik makon masalasi Salima Mirzayeva filologiya fanlari doktori, Andijon davlat universiteti professori 51 -52-bet

3. “Go‘ro‘g‘li” dostonlari - qadimiy turkiy xalqlarning mushtarak yodgorligi! 1. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”. Doston. Muhammadqul Jomrot o‘g‘li Po‘lkan aytgan variantidan qisqartirib olindi, Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1967-yil

4. Mirzayev T., Turdimov Sh., M.Jo‘raev., J.Eshonqulov., A.Tilovov. O‘zbek folklori: darslik / Mas’ul muh. Fil.f.n., dots. O.Madaev. Toshkent: “Tafakkur bo‘stoni”, 2020. - 240 b.

5. Jo‘rayev M., Eshonqulov J.. Folklorshunoslikka kirish: o‘quv qo‘llanma / Mas’ul muh. Fil.f.n., dots. O.Axmedova. Toshkent: “Fan texnologiyalar”, 2017. - 192 b.

6. Jo‘rayev M. Folklorshunoslik asoslari: o‘quv qo‘llanma / Mas’ul muh.: O‘zb. xizm. ko‘rs. yoshl. murabbiysi S. Yo‘ldosheva. – Toshkent: Fan, 2009. – 192 b.





7. Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari / Mas’ul muharrir: O‘zR FA akademigi Sh. Shoabdurahmonov. – Toshkent: Fan, 1979. – 152.

8. Mamatqul Jo‘rayev, To‘ra Mirzayev, filologiya fanlari doktori, professor

9. 1. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. - T.: O‘qituvchi, 1990. - B. 4-14.

10.2. Xolmirzayeva S.Sh. Uzbek xalk eposidagi badiiy shartlilikning o‘ziga xos xususiyatlari. Filol. fanlari nomzodi ... diss. - T., 1990.

11. Zarif H. Fozil shoir – mashhur dostonchi / Fozil shoir. Tadqiqotlar. 3-kitob. – Toshkent: Fan, 1973. – B. 5-29.

12. Turdimov Sh.G. “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari. – Toshkent, Fan, 2011. – 312 b

13. Malika ayyor. O‘zbek xalq ijodi. Ko‘p tomlik. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1988. – B.6-208.

14. Putilov B.N. Geroicheskiy epos i deystvitelnost. – L.: Nauka, 1988. – 224 s.

15. Sarimsoqov B. Epik janrlar diffuziyasi / O‘zbek folklorining epik janrlari. – Toshkent: Fan, 1981. – B.97-148.

16.. Turdimov Sh.G. “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari. – Toshkent: Fan, 2011. – 100 b.

17. Taylor B.V. Mifologiya / Pervobytnaya kultura. – M.:





## SHIRVONIY USLUBIDA QO‘LLANILADIGAN JO‘RNAVOZ SOZLAR VA UNING YIRIK NAMOYANDALARI

**Temurbek YUSUPOV,**

*Yunus Rajabiy nomidagi O‘z MMSI*

*Xalq ijodiyoti: (baxshichilik va dostonchilik)*

*ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi.*

**Ilmiy rahbar: Botir MATYOQUBOV,**

*Yunus Rajabiy nomidagi O‘z MMSI professori,*

*san’atshunoslik fanlari nomzodi.*

**Annatsiya:** *Shirvoniy uslubida baxshilar asosan dutorda doston aytishgan. Keyinchalik esa torda ijro qilib boshlashgan. Unga bulamon, doira, g‘ijjak yoki garmon sozlari jo‘rnavozligida doston aytishgan. Ushbu maqolada Shirvoniy uslubida qo‘llaniladigan jo‘rnavoz sozlar va uning yirik namoyandalari haqida fikr yuritiladi.*

**Kalit so‘zlari:** *Shirvoniy, Eroniy, doston, badiha, an’ana, uslub, bulamon, doira, g‘ijjak, garmon.*

Maxsus til ifodasi va musiqiy xususiyatlari jamlanishi nuqtayi nazardan Xorazm dostonchiligida ikkita yirik uslubi mavjud bo‘lib, buni baxshilarning o‘z iboralari bilan aytganda **Shirvoniy** va **Eroniy** (ya’ni janubiy va shimoliy) uslublar deb yuritiladi. Fikrimizcha bunday atamalarning kelib chiqishi Xorazmning qadim zamonlardayoq Eron va Ozarbayjon (Shirvon) mamlakatlari orasidagi tarixiy - madaniy aloqalari sarchashmalarining mushtarakligidan darak beradi.

Ko‘pchilik tarixchi va san’atshunos mutahassislar Xorazmda tor, soz (garmon), santur, bulomon, zang, daf kabi cholg‘ular hamda ularning nomlanishi, “Lazgi”, “Sadri Go‘sfand”, “Oraz bam”, “Norim-norim”, “Ganji Qorabog” kabi kuy va qo‘shiq hamda joy nomlari kelib chiqishining tub sabablaridan biri sifatida yuqorida zikr etilgan xalqlarning tarixan uzun va madaniy yaqin aloqalari mavjud bo‘lganligini ta’riflaydilar. Bizningcha Shirvoniy va Eroniy atamalarning ham kelib chiqishi muayyan mushtaraklikni, o‘tmishda uzviy birligini aks ettiradi.







Ikkala uslubning umumiy xususiyatlari shundan iboratki, baxshilarning aksariyati tom ma’noda savodxon bo‘lib, ular hikoyaning bir parchasini so‘zlab bergandan so‘ng qo‘shiqqa navbat yetganida she’r to‘qib badihago‘ylik qilmaydilar, balki dostonni barqaror musiqiy matnini yodlab olgan bo‘lib, o‘rnida ishlatadilar. Ba’zida uning qo‘lyozmasini yonida olib yuradilar va ijro davomida foydalanadilar. Farqliligi esa uslublarning musiqiy nuqtalarida, doston nomalarining nomlanishidan tortib ohang, usul, kuy tuzilishi, musiqiy cholg‘ularining qo‘llanilishi va vazifalarining belgilanishi kabi jihatlarda namoyon bo‘ladi.

Shirvoniy uslub namoyondalari doston nomalarini qanday atalishini yaxshi bilsalar ham ko‘pincha birovga aytishdan sir tutadilar. Eroniy uslub namoyandalari esa ba’zida hikoya davomida, she’r matni kelgan joyda, nomaning nomini ham qo‘shib aytib ketadilar. Masalan: Go‘ro‘g‘li Qo‘shim Polvon nomasiga solib bir so‘z aytibdi, yoki Sanamjon Ko‘rqiz nomasiga besh kalima so‘z aytibdi, shu tarzda<sup>50</sup>.

Shirvoniy uslub o‘z ichiga Hazorasp, Bog‘ot, Yangiariq, Qo‘shko‘pir, Urganch, Honqa, Shovot, Toshhovuz viloyatining Ilonli, Ko‘hna Urganch, Qoraqalpog‘istonning To‘rtko‘l, Elliqqal’a tumanlarini qamrab oladi. Uning markazini shartli ravishda Xiva shahri deb belgilash mumkin.<sup>51</sup>

Shirvoniy uslubida baxshilar asosan dutorda doston aytishgan. Keyinchalik esa torda ijro qilib boshlashgan. Unga bulamon, doira, g‘ijjak yoki garmon sozlari jo‘navozligida doston aytishgan. Shirvoniy uslubdagi keksa baxshilarning doston boshlash jarayoni ham o‘ziga xos bo‘lib, Surxon-Sherobod baxshilari kabi doston boshlashdan oldin “Nima aytay?” termasini chalmaydilar. Balki biror kuy (Muxammasi doston, Muxammasi iftor, Peshrav) ijro qilingandan keyin ayrim shoirlar, aksariyat hollarda Maxtumqulining axloqiy-falsafiy mazmundagi she’rlari bilan qo‘shiqlar aytadilar. Dostonlarni shu tarzda boshlash ozarbayjon oshiqlariga ham xos bo‘lib, bunday asarlar ularda “Ustodnoma” deb yuritiladi. Bola baxshi ham ko‘pincha doston boshlashdan oldin “Qirq ming ilg‘or” nomasiga Maxtumquli so‘zi bilan “Ustozingdan ayrilma” qo‘shig‘ini yoki Matniyoz go‘rjaning “Go‘zlarim” g‘azalini “Muxammasi Iftor” nomasi bilan debocha qiladi.

<sup>50</sup> Ro‘zimbayev S. “Xorazm dostonlari” T., “FAN” 1985 y. 22-23 b.

<sup>51</sup> O‘sha kitob. 22-23-b.





Davra ochilgandan keyin tinglovchilar xohish-istagiga qarab tanlangan dostonni aytganlar.

Shirvoniy uslubda aytuvchilarning eng yirik namoyandasi Bola baxshining ko‘rsatishicha, mazkur uslub nomalari 72 ta bo‘lib, ular doston she‘rlarining vazni va bo‘g‘inlariga qarab ma‘lum ijrochi — baxshining bilimi, kuy tanlash didi va ovoz imkoniyatlariga ko‘ra tanlab olinadi va zarur holda, she‘rlarga bog‘lab o‘qiladi. Doston yakuni o‘ynoqi “Bartavil” kuyi bilan tugallanadi. Bundan tashqari doston o‘rtalarida tinglovchilar fikrini cholg‘u musiqasi bilan bir joyga to‘plash, baxshining o‘zi bir nafas hissiy quvvat yig‘ish va ovoziga dam berish maqsadida orada Xorazm dutor yo‘llaridan “Aliqambar”, “Choki giribon”, “Sadri go‘sfand”, “Norim – Norim”, “Miskin I, II”, “Orazibon” kabi kuylar ham ijro qilingan.

Dostonchilik maktablarining turlicha shakillanishiga xalqning etnogenetik tarixi ham jiddiy ta’sir etadi.<sup>52</sup> Chunki har qanday etnik guruh o‘zining qadimiy an‘analarini barqaror saqlaydi. Buni Xorazm dostonchilik maktablarida yaqqol ko‘rish mumkin deb san’atshunos olim B.Matyoqubov o‘z risolasida Bola baxshi bergan ma‘lumotga asoslanib, Xorazm dostonchiligini uch do‘konga<sup>53</sup> ajratgan.

1. Yuqori do‘kon. Bu do‘kon o‘z ichiga shartli ravishda Turkmanistonning Lebob viloyati (Chorjuy), Dargon ota, Pitnak tumanlarini qamrab oladi. Bu do‘kon baxshilarning kuy yo‘llari mo‘tadil bo‘lib, dutorlarining hajmi ham Farg‘ona-Toshkent dutorlariga o‘xshashligi bilan ajralib turadi. Mazkur do‘kondan Xujayoz baxshi, Amin baxshi, Murod baxshi, Eshniyoz baxshi kabi baxshilar yetishib chiqqan. Uning markazini shartli ravishda Xozarasp deb belgilash mumkin.

2. O‘rta do‘kon esa o‘z ichiga Xiva, Xonqa, Yangiariq, Urganch, Qo‘shko‘pir, Shovot tumanlarini birlashtirib turadi. Uning markazini shartli ravishda Xiva shahri sifatida belgilash mumkin. Ushbu do‘kon baxshilarining kuylari jo‘shqin va o‘ynoqidir. Ularning dutori ham yuqori va quyi do‘konlarnikidan kichikroqdir. Ularga xos yana bir hususiyat dutorga Bulamon va Doira jo‘r bo‘lishadi. Bu do‘konning vakillari Eshvoy baxshi, Matniyoz gurja (G‘aribniyoz), Nurmamat

<sup>52</sup> Ruzimboev S. Xorazm dostonchiligi epik an‘analari. Urganch: “Universitet”.

<sup>53</sup> Do‘kon-manzil, makon, hudud ma’nosida.





cho‘loq kabi baxshilar yetishib chiqqan. Nurmamat baxshi haqida bir rivoyat qilinadiki:

Muhammad Raximhon-Feruz davrida 12 kunlik sayil tashkil qilinib, Nurmamat baxshi o‘sha tomoshada “Bozirgon” dostonini ijro qiladi. Xos chodirda doston tinglab o‘tirgan Feruzhon baxshining ijrosiga berilib ketib beixtiyor “xa barakalla,xa barakalla”deb asta-sekin chodirdan chiqib baxshining yoniga kelib qolganini ham bilmay qoladi. Mohirona ijro uchun hon baxshiga katta in’omlar beradi. O‘rta do‘kon Xorazmda asosiy dostonchilik markazi bo‘lib, uning namoyondalari sifatida Avaz bola, Nurilla chig‘atoy, Ernafas baxshi, Matyoqub qori va uning o‘g‘illari Xasan va Sayid baxshilar, Bekjon baxshi, Abdrim baxshi, Usmon baxshi (Bola baxshining bobosi), Buva baxshi, Jumanazar baxshi va nihoyat Bola baxshilarni tilga olish mumkin.

3. Oshoq (quyi) do‘kon-Gurlan, Toshovuz, Ko‘hna Urganch, Xo‘jayli kabi amudaryoning quyi oqimidagi hududlarni o‘z ichiga oladi. Uning markazini shartli ravishda Mang‘it shahrini belgilash mumkin. Bu hudud baxshilari ko‘pincha “yakka dutor” jo‘rligida doston kuylashgan. Bu do‘konning yorqin namoyondalaridan biri Rizo baxshi bo‘lib, u Feruzhonning xos baxshisidir. Bu do‘konda Ernazar baxshi, Suyav baxshi, Otajon baxshi kabi baxshilar bu do‘kon uslubida dostonlarni kuylashgan<sup>54</sup>.

Xorazm dostonchiligiga xos asosiy xususiyatlar quyidagicha:

a) baxshi dutor va garmon (soz) jo‘rligida kuylaydi, keyingi paytlarda tor asbobi rasm bo‘ldi. Baxshiga bulomonchi, g‘ijjakchi va doirachi jo‘r bo‘lishadi. Nasriy matnni baxshi hikoya qilib, she’riy parchalar ijrosida baxshiga doirachi ham qo‘shiladi. Albatta, qadimda asosiy cholg‘u asbobi dutor bo‘lgan. Soz (garmon) esa XX asrning oxirgi choragida ruslar Xiva xonligini bosib olgandan keyin vohaga ko‘chib kelgan nemis mennonitlari tomonidan olib kelingan. Uni dastlab Qurbon sozchi – Qurbon Ismoilov, Safo sozchi – Safo Mug‘anniylar qo‘llashgan.

Keyinchalik baxshilardan Qodir sozchi, Jumyoz sozchilar garmon, bulamon, g‘ijjak jo‘rligida doston ijro qilishgan. Bola baxshi 1928 yildan torda kuylay boshlagan, b) Janubiy Xorazm doston kuylari

<sup>54</sup>“ Matyoqubov.B.Doston navolari.-Toshent” BUILDIN G PRINT 2009.-B.23-26(342)





sho‘x va o‘ynoqi. Unda maqom uforilari ham ishlatiladi. M.L.Sadokov: “Xorazm qo‘shiqlari latif, o‘ziga xos nazokatga ega, ritmikasi esa raqsga moyil”<sup>55</sup>, deb Janubiy Xorazmga xos kuylarni nazarda tutgan. Kuylarning sho‘x, ritmikaga boyligi baxshi ansamblida doira asbobi bo‘lishini taqozo qiladi. Xorazmda og‘zaki tarqalgan xalq qo‘shiqlari ham doston kuylariga mos keladi, v) Bu hududda tarqalgan dostonlar asosan kitobiy xarakterga ega. Shu sababli ularda hajmiy mo‘jazlik ko‘zga tashlanadi. Ijro vaqti 2-2,5 soatni tashkil etadi. Vamberi asarida qayd qilingan “Baxshi kitobi” asosan Janubiy Xorazm baxshilarining qo‘lida qo‘llanma bo‘lib xizmat qilgan. Yosh baxshilar dostonlarni qissa-dostonlar orqali o‘zlashtirganlar. Albatta, og‘zaki repertuar almashish an’anasi ham davom etgan. Doston ijrosida kuy-qo‘shiqqa katta e’tibor qaratilgan. Doston matnidagi har bir qo‘shiq maxsus kuylar orqali ijro etilgan. Janubiy dostonchilikda ishlatiladigan musiqa kuylari o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ular Shirvoniy usuli deb yuritiladi. Xorazm doston nomalari (kuylari) o‘zining tugal shakli, ochiq ovozda kuylanishi, xalq qo‘shiqlariga yaqinligi, doston voqealariga bog‘liqligi, o‘ziga xos yorqin uslubi bilan ajralib turadi. Ular maqom va o‘zga mumtoz kuy yo‘llari kabi o‘ziga xos nomlanishga va turkumlanishga ega<sup>56</sup>.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Matyoqubov.B.Doston navolari.-Toshent” BUILDING PRINT 2009.-B.23-26 (342)
2. Садоков И.Л. Тысяча осколков золотого саза. –М.: Наука, 1981. –С. 164. (210)
3. Ro‘zimbayev S. “Xorazm dostonlari” T., “FAN” 1985 y. 22-23 b.
4. Ruzimboyev S. Xorazm dostonchiligi epik an’analari. Urganch: “Universitet”

<sup>55</sup> Садоков И.Л. Тысяча осколков золотого саза. –М.: Наука, 1981. –С. 164. (210)

<sup>56</sup> Матёкубов Б. Достон наволари. – Б.41.





## “EDIGE” DOSTONINING TARIXIY MANBALARI

**Maxsuma UMIRBEKOVA,**  
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI  
Xalq ijodiyoti: (baxshichilik va dostonchilik)  
ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi.  
Ilmiy rahbar: **Shaxida BERDIXANOVA,**  
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI  
“O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi”  
kafedrasi dotsenti v.b., san’atshunoslik fanlari  
bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

**Annotatsiya:** Xalqimizning milliy merosi bo‘lgan baxshichilikni asrab avaylash, yosh avlodni milliy musiqa an‘analari negizida tarbiyalash, jumladan qoraqlpoq xalqining unutilmas bebaho boyligi bo‘lgan jirov va baxshilar san’atini o‘rganish va targ‘ib qilish bugungi kunda dolzarb masalalardandir. Mazkur maqolada, qoraqalpoq “Edige” dostonining mazmuni, mohiyati, tuzilishi, o‘rganilishi va tarixiy manbalari borasida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Jirov, baqsi, jirchi, oqin, “Alpamis”, “Qiriq qiz”, “Qoblan”, “Shariyar”, “Edige”.

**Аннотация:** Сохранение искусства бахши, национального достояния нашего народа, воспитание молодого поколения на основе национальных музыкальных традиций, в том числе изучение и пропаганда искусства жиров и бахши, являющегося многовековым достоянием каракалпакского народа, является одной наиболее актуальных проблем современности. В данной статье рассматриваются содержание, структура, изучение и исторические источники каракалпакского эпоса «Едиге».

**Ключевые слова:** Жиров, Бахси, Джирчи, Акин, «Алпамис», «Кирик Кыз», «Коблан», «Шарияр», «Едиге».

**Abstract:** The promotion of music, the national heritage of our nation, the education of the young generation and the basis of national musical traditions, and the study and propaganda of the art of the world, which is the unrecognizable heritage of the Karakalpak nation,





*is the most important contemporary problem. V dannoy state rassmatrivayutsya sodержanie, ushchnost, struktura, izuchenie i istoricheskie istochniki Karakalpakskogo epic “Edige”.*

**Key words;** *Jirov, Bakhsi, Jirchi, Aqin, “Alpamis”, “Qiriq Kyz”, “Qoblan”, “Shariyar”, “Edige”.*

Asrlar davominda qoraqalpoq xalqi, o‘zining milliy an’ana va urf-odatlar bilan O‘rta Osiyo mamlakatlari tarix sahifalaridan mustahkam o‘rin egallab kelmoqda. Shu o‘rinda qoraqalpoq milliy musiqa san’ati durdonalari bo‘lmish jirov va baxshichilik san’ati ham o‘zining bebaho ijodi bilan musiqa olamida alohida ahamiyat kasb etadi. Binobarin, so‘ngi yillarda ushbu san’atni rivojlantirish kelgusi avlodga sof holinda etkazishga Davlat siyosati darajasida bir qator chora tadbirlar joriy etilgan. Bunga misol tariqasida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotdagi o‘rni va tasirini yanada oshirish chora tadbirlari tog‘risida”gi 2020-yili 26-maydagi PF 6000 son farmoniga muvofiq Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI tashkil etilishi va shu bilan bir qatorda institutda alohida “Doston ijrochiligi” kafedrasini faoliyat yuritishi, baxshilarga qaratilgan katta e‘tibordan dalolatdir.

Xalqimizning milliy merosi bo‘lgan baxshichilikni asrab abaylash, yosh avlodni milliy musiqa an’analari negizida tarbiyalash yo‘lida baxshichilik san’ati rivoji uchun olib borilgan yana bir yutuq - baxshichilik san’atining YUNESKO Nomaddiy madaniy merosi Reperenzentativ royxatiga kiritilishi, shu bilan bir qatorda 2019 yildan har ikki yilda nufuzli “Xalqaro baxshichilik san’ati” festivalining o‘tkazilishi mazkur san’atga bo‘lgan qiziqishini ortishi, dunyo hamjamiyatida targ‘ib etishda qator imkoniyatlar yaratib berilganligi ahamiyatga molik. Albatda buning zamirida, milliy musiqa merosimiz bo‘lmish baxshichilik va jirovchilik san’atining o‘z mohiyatini saqlab qolish yo‘lida olib borilayotgan sai harakatlardir.

Qoraqalpoq xalqining unutilmas bebaho boyligi hisoblangan jirov va baxshichilik san’ati bir nechta asrlik tarixga ega bo‘lib, xalqning poetik va musiqa san’atini o‘z ichiga qamrab olgan. Ushbu ijodkorlar hunarining ahamiyatliligi shundaki, o‘tgan asrlarning adabiy va musiqiy merosini kelajak avlodga etkazish bilan birga, xalqimizning





soz san’ati bilan so‘z madaniyatini rivojlantirishda o‘z ijod namumalari bilan hissa qo‘shib kelgan.

Qoraqalpoqlarning jirovchilik san’ati bugungi kungacha og‘izaki an’ana asosida saqlanib sayqallanib kelgan. Hozirgi kunda ham televidine, radio, oynay jahon orqali baxshi va jirovlar xalq dostonlarini ijro etib kelmoqda.

Qoraqalpoq xalq dostonlaridan “Alpamis”, ”Qiriq qiz”, “Qoblan”, “Shariyar”, ”Edige” kabi dostonlar qaraqalpoq og‘izaki ijodida muhim o‘rin egallaydi. Ushbi dostonlar ichida “Edige” dostoni katta adabiy boylik hisoblanadi. Bu dostonning mazmuni, tariyxligi, so‘zlarining manoliligi jihatlaridan, unga teng keladigan qahromonlik doston bolmasa kerak. Bu doston o‘z ishiga xalqning turmishi, qiyinkunlari, ocharchilik davrini kechirgan xalqning qayg‘u-g‘amini o‘zida mujassam etgan. “Edige” dostoni XIV-XV asrlardagi “Altin Orda” voqealarini o‘z ishiga oladi. Bu doston shu asrlardagi jirovlarning so‘zga ustaligi va ularning dunyoga bo‘lgan munosabati, xalqning qiynalganliklarini, ocharchilikdan aziyat chekayotgan xalqning tilida yaralgan dostonidir. Bu dostonda yurtidan uzoqda surgunda yurgan “Edige” vatan sog‘inichida yurganligi kabi voqealikalarni o‘zida mujassam qilgan dostonidir. Edige dostonini ijro qilgan payt “ob-havo bulutli bolib yomg‘ir yog‘adi” degan tushuncha ham bor, bu bejizga emas, chunki bu doston o‘ta qayg‘u-hasratli va mifologik syujetlarga asoslangan dostonidir. “Edige” dostonini, I.Sag‘itovning 1963-yili nashr etilgan “Qaraqalpaq xalqining qaharmanlik eposi” kitobida “Edige” dostoni haqida ma’lumotlar berilgan bo‘lib, ushbu dostonning mano-mazmunini, o‘ziga hos jihatlari, qahromanlariga ham to‘xtalib o‘tganlar. Qalli Ayimbetovning 1968-yili bosmadan chiqqan “Xalq danalig‘i” kitobida “Edige” dostonining Erpolat jirov varyantiga alohida to‘xtalib alohida baho berib o‘tgan. 1979-yili yaratilgan “Qaraqalpaq folkilori” nomli darslikda ham bu doston haqida atriflicha ma’lumotlar keltirilgan. Bunaqa ishlarning olib borilishida atoqli epos tadqiqotchisi, akademik Viktor Maksimovish Jirmunskiyning olib borilgan tadqiqotlari asosiy manba sifatida xizmat qiladi.

Edige dostoni Qaraqalpoqlarda, Qozoqlarda, Qirg‘izlarda, Bashqurlarda, O‘zbeklarda va boshqa xalqlarda ham mavjud dostonidir. Bu doston har-bir xalqning o‘ziga hos urf-odati va milliyligini o‘zida mujassam etgan doston bo‘lib bir-biridan farqlanadi. Ilk bor qoraqalpoq





“Edige” dostonini 1903-yili Peterburg universiteti talabasi I.A.Belyaev Chimboyda tug’ilgan Bekimbet jirovdan yozib olgan va 1917-yili qoraqalpoq var us tillarida nashr ettirgan. Q.Ayimbetov 1934-yili Erpolat jirovdan “Edige” dostonining bir variantini yozib oladi. Ushbu varianti 1937-yili bosmodan chiqadi. Qaraqalpoq folkloristlari tarafidan 1960-1970-yillari “Edige” dostonining O‘tenyaz jirov, Qiyas jirov, Jannazar jirov, Esemurat jirov, Jumabay jirov variantlari yozilib olinadi. Bu qo‘lyozmalar O‘zbekiston fanlar akademiasini Qoraqalpoiston bo‘limida qo‘lyozma ko‘rinishida saqlanib kelinmoqda.

Ularning hammasi folklorlik asarlarning ishidagi asosi va folklorning barsha nusqalarin o‘zi ishiga qamrab olgan eng asosin asarlardir. Bazi dostonlar bir xaliqning folklorin ishidagi asosi qahromonlar ismi, ularga beriladigan yoqimli va yoqimsiz xarakterlarin saqlab birqansha variantlar ushrashadi. “Edige” dostonin xaliqa yaqinan tanitish maqsadida 1990-yili Erpolat jirov va Qiyas jirovlar variantlari harbittasi alohida kitob qilib nashr qilindi.

Edige Jumabay jirov Bazarov varantini taniqli kompozitor, A’bdirim Sultanov 1986-yili yozib olgan. Doston O‘zRIAQQB fundamental kutubxonasiining qo‘lyozmalar fondida saqlanib, qo‘lyozma uch daftardan iborat bo‘lib, jami 506 varaqni tashkil etadi. Bu variant Edige dostonining eng so‘ngi varyanti hisoblanadi.

Edige dostni qahramonlik dostonlar turiga kirib, insonni vatanparvarlikga, botirlikga yetaklaydigan dostondir. Dostonni ijro qilgan vaqtda ilohidan ob-havo o‘zgarib yomg‘ir yog‘adi. Qoraqalpoq “Edige” dostoni faqatgina she’riy qatorlardan iborat. Bu doston faqatgina qoraqalpoqlarda emas ko‘pgina turkiy xaliqlarda mavjud, shu bilan birga maukammal ko‘rinishda qoraqalpoq variantida keltirilganligi olimlar tomonidan e‘tirof etilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Ayimbetov Q. Xaliq danalig‘i. - No‘kis: Qaraqalpaqistan, 1988.
2. Berdixanova Sh.N. Qoraqalpoq dostonlarining metroritmik asoslari. Avtoreferat..dis...(PhD). – Toshkent, 2022.







3. Maqsetov Q. Dastanlar, jirawlar, baqsilar. - No‘kis:  
Qaraqalpaqistan, 1992.

4. Sag’itov I.T. Qaraqalpaq xalqinin’ qahramanliq eposi. -  
No‘kis: Qaraqalpaqistan, 1986.

5. Qaraqalpaq folklori. -Tashkent: Manaviyat, 2009.





## QORAQALPOQ BAXSHICHILIK SAN’ATI AQIMBET BAXSHI MISOLIDA

**Atabek TANIRBERGENOV,**

*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI  
Xalq ijodiyoti: (baxshichilik va dostonchilik)  
ta’lim yo‘nalishi 4-bisqich talabasi.*

**Ilmiy rahbar: Shaxida BERDIXANOVA,**  
*san’atshunoslik fanlari bo‘yicha  
falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya:** *Ajdodlarimizdan bebaho meros bo‘lib kelayotgan jirov va baxshi san’ati doston ijrochiligini yanada rivojlandirib kelajak avlodga etkazish dolzarb masalalardan bo‘lib, milliy qadriyatlarimizni asrab abaylashga, uning rivoj topishiga so‘ngi yillarda hukumatimiz tomonidan katta e‘tibor qaratilib e‘tirof etilmoqda. Ushbu maqolada qoraqalpoq baxshichilik san’atining asoschilaridan biri Aqimbet baqsi ijodi va qoraqalpoq baxshichilik san’arining rivojlanish jarayonlariga oid ma’lumotlar bayin etilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *baxshi, jirov, baxshichilik maktabi, doston, nama.*

**Аннотация:** *Одним из актуальных вопросов является дальнейшее развитие исполнения эпоса, являющегося бесценным наследием наших предков, и передача его следующему поколению. В последние годы наше правительство уделяет большое внимание сохранению и развитию наших национальных ценностей. В данной статье рассматривается творчество Акимбета бахсы, одного из основоположников каракалпакского искусства, а также процессы развития каракалпакского искусства бахсы.*

**Ключевые слова:** *бахши, жиров, школа бахши, эпос, нама*

**Abstract:** *One of the pressing issues is the further development of the performance of the epic, which is the invaluable heritage of our ancestors, and its transfer to the next generation. In recent years, our government has paid great attention to the preservation and development of our national values. This article examines the work of*





*Akimbet bakhsa, one of the founders of Karakalpak art, as well as the processes of development of Karakalpak bakhsa art.*

**Key words:** *bakshi, fat, bakshi school, epic, nama.*

Baxshi so‘zi turkiy millat xalqlarida eski davrdan kelayotgan so‘z bo‘lishi kerak. Bu so‘z eski adabiyotlarda ko‘p uchrashadi. Lutfining “Gul va Navruz” dostonida (Yanadur quastim bir yaqshilardin’, Mongol sawatini bilgen baxshilardin’) deya ta’rif berib o‘tilgan. Baxshi so‘zi o‘zbek qoraqalpoq, qozoq, qirg‘iz, turkman musiqa ijodida ham salmoqli o‘ringa ega. O‘zbeklarda epos ijrochisini “baxshi” yoki “shoir”, qozoqlarda “baqsi, qirg‘izlarda “irchi, qoraqalpoqlarda “baqsi” shaman tabib manosida, turkman tilida “baxshi” nomlari bilan yuritiladi.

Qoraqalpoq milliy musiqa sanati o‘ziga xos ijodiy an‘analari bilan ajralib turadi. Qoraqalpoq xalqida dutor chalib, qoshiq aytgan san’at egasini baxshi deb nomlagan. Qoraqalpoqlarda baxshichilik san’ati juda keng tarqalgan. Baxshilar o‘zining repertuari kuy va doston namalari bilan jirovlardan keskin ajralib turgan. Jirovlar qobiz bilan jirlarni ijro qilsa, baxshilar dutor chalib qoshiq aytgan. Jirovlarni “jirladi” baxshini “aytdi” deya ta’rif berishgan. Qadimda jirovlarni keksa yoshdagi odamlar tinglagan, baxshilarni esa yoshlar. Shu bilan bir qatorda, jirov va baxshilar ijro dasturida asosan dostonlar o‘rin egallagan. Jirovlar qahramonlik dostonlar ijro etgan bo‘lsa, qoraqalpoq baxshilari ishqiy, romanik dostonlarni kuyga solgan.

Qoraqalpoqlar orasidan chiqqan Aqimbet, Musa, Edenbay, Shernazar, nomli o‘z zamonasining mashhur baxshilari, qoraqalpoq baxshichilik san’atini tashkil topib rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. Qoraqalpoq xalqining milliy merosi bo‘lmish baxshichilik san’atini o‘rganish va targ‘ib etilishida tarix sahifalaridan o‘rin olgan baxshilarimizning o‘rni beriyosdir. Jumladan, “G‘arip Ashiq”, “Yusuf Axmet”, “Go‘ro‘g‘li”, kabi dostonlardagi turli turkumlari qoraqalpoq baxshilarining asosiy repertuarini tashkil qilgan va o‘izaki an‘ana asosida hozirgi kunda ham o‘z mavqeini yo‘qotmagan.

Qoraqalpoq baxshi va jirovlari dostonlarni ijro qilmastan oldin Navoiy, Maqtumquli, Berdaq, Ku‘nxoja, Ajiniyaz, shoirlarning sherlaridan bir parchalar ijro etishadi. Qoraqalpoq milliy musiqa san’atida baxshichilik san’atini o‘zining ijrochilik yollari boyicha bir





necha maktablarga bo’linadi. Filologiya ilimlarining doktorlari N.Dawqaraev, Q.Aayimbetovlar baxshichilik maktabini 4 maktabha bo’lgan.

Bular, Aqimbet, G’aripniyaz, Arzi va Qutim maktablari bo’lib, har biri o’zlarining betakror ijro yo’llariga ega. Ular o’zlari tashkil qilgan maktablaridan shogirtlar tayyorlagan va ularga mos ravishda kuylar yaratgan.

Aqimbet bashi XIX asrning o’rtalarida umr surgan qoraqalpoqning mashhur baxshisi bo’lib, butun Turon erlarida qolaverdi Markaziy Osiyoga tanilgan soz va so’z sutasi bo’lganligi tarixdan ma’lum. Bo’lajak baxshi Chimboyning shimoliy tomonidagi sobiq Oqqala, To’rg’ay daraxt degan joyida dunyoga kelgan. Ilm-fanda belgili bo’lganidek qoraqalpoq baxshilari orasida, yosh avlodtan shogird chiqarish, ustozlar yo’lini davom ettirish, dutor bilan doston va soz ijro usulini organish dasturi Aqimbet baxshidan boshlangan. Dostonchilik meroslarni avloddan avlodga, ustozdan-shogirdga etkazib avaylab asrash, shogirdlarni chiqarish masalalari baxshilarning oldidagi masuliyatli vazifa bo’lgan. Aqimbet baxshi, iste’dodli ijrochilarni bitta markazga yig’ib, o’zgacha baxshichilik maktabini, tashkillashtiradi. Maktabning asosiy maqsad va vazifalari, qoraqalpoq xalq soz va dostonlarini asosiy turkumlarini yoqotmay saqlab, ularni ko’pchilikning qalbiga yetkazib, yangi namunalar bilan boyitib, rivojlantirib borish bo’lgan.

Aqimbet baxshi boshlagan maktabining asosiy yo’nalishlarida Maqtumquli, Ajiniyaz, Berdaq shoirlarning ashula va she’rlarini o’rgangan. “G’arip Ashiq”, “Sayatxan-Hamra”, “Yusup-Axmet”, “Go’rug’li” dostonlarining turli turkumlari va boshqa dostonlar bo’ldi. Baxshi dasturiy qoraqalpoq xalq taronalarini ijro bilan bitta satrda, eski taronalarni takroriy ishlab o’zida asarlar yozgan. “Yag’li bahar”, “Beyish”, “Qizlar uyge kir”, “Ilg’al”, “Alaqayis”, “Ariwxan” asarlari ushbu taronalar safiga kiradi.

Aqimbet baxshi asarlar yozish bilan bir qatorda, kuchli baxshi, mohir sozanda, tashkilotchi bo’lib xalq orasida tanilgan. Aqimbet baxshi shogirdlariga o’z bilim va tajribalarini qunt bilan o’rgatadi.

Aqimbet baxshining har doim yonida yurgan shogirdlaridan Edenbay, Esemurat, Serik, Bayniyaz, Do’stnazar va Musa baxshilar bu ijodiy muhitning shuhratini butun Turon ellariga tanitadi. Aqimbetning





eng ishongan shogirdlaridan biri Musa baxshi bo‘lib, faqatgina baxshi bo‘lib qolmay, mohirona ijodiy xizmati bilan ham ko‘zga tushgan edilar. Musa baxshi Qoraqalpog‘istonning To‘rtko‘l tumanida Sho‘raxan elida 1854-yili tug‘ilgan. Musa yoshligidan boshlab dutor bilan soz chalib doston aytishga qiziqishi kuchli bo‘lgan. Musaning onasi Jumabiyke ham sozanda, bo‘lgan. Bir kuni Musa qoshnisining toyida soz chertib qoshiq aytib o‘tirsam, chekkada o‘tirgan qariyaning: Bolaning ovozi bor ekan -da, attang qolida sozi yo‘q ekan - deb boshin shayqaganin sezadi. Musa bu so‘zdan so‘ng o‘ziga ustoz zarur ekanligin sezadi. O‘sha erdagi yoshi katta otaxonlardan maslahat so‘raganda: “O‘g‘lim yo‘lingni davom ettir. Ustoz ga shogird tushking kelsa, Chimboyning orqasidagi Turim ko‘prik degan erda yashaydigan taniqli qoraqalpoq baxshisi Aqimbetke bar”- deb maslahat beradi.

Zamonasining eng yaxshi baxshiga shogird tushganina mamnun bo‘lib Musa Aqimbet baxshidan dutor chalish, doston aytishlariga bor diqqat etiborini qaratadi. Shogirdining iste’dodiga, kasblik bilimini yaxshi o‘zlashtirganiga ustozini kongli to‘ldi. Musa baxshi “Adi‘nna”, “Ariwxan”, “Muxalles”, “Eshbay”, “Besperde”, “Alaqayis” qoshiqlarini mukammal ijro qilgan. Musa ustozining barcha san’at sirlarini etuk o‘rganib Aqimbet boshlagan maktabga o‘zining ijodiy yollarini kirgizip rivojlantiradi. Kuylarini tanitishda ko‘plab xalq namalarini takroriy ishlaydi va qo‘shimcha yangi namalar yaratadi. Ular “Musa” namasi “Musa sen yari”, “Jeti asirim”, “Jaman shig‘anaq” ham boshqa namalar yaratib baxshichilik sohasining rivoji uchun bebaho hissa qo‘shadi. Aqimbet Musani besh-olti yil tayyorlab, yana bir necha yil yonida olib yurib jamlangan dutor kuylari va qoshiqlarini ishonib topshiradi. Shu tariqa, Musa Sho‘raxan, Kenimex, Nurata, Buxara, Xiyva, Mari, Toshavuz, Ko‘na Urgenish, Qo‘ng‘irot, Chimboy va qirradagi qozoq yurtlariga borib betakror baxshilarning sardori bo‘lib Aqimbet boshlagan baxshichilik maktabi meroslarini yanada rivojlantirib boradi.

Asrlar davomida rivojlangan xalqimizning og‘zaki ijod namunalarini, qoraqalpoq xalqining boy milliy musiqa merosin tiklash va uni avlodtan-avlodga kasblik darajasida etkazib berish uchun mustaqilligimizning sharofati bilan bir qancha tashabbuslar amalga oshirildi. Jumladan, 1992-yili J.Shamuratov nomidagi san’at va madaniyat bilim yurtida “Milliy musiqa” sinflari tashkil etiladi. Ushbu





bilim yurtining tashkil etilishida Nájimaddin Muxammeddinov va Maqsedulla Kamalovlarning mehnatlari natijasi desak mulag‘a bo‘lmaydi. Ular yoshlar orasida unitilib borayotgan milliy meroslarimizni saqlab qolish, kelajak avlodga malakali mutaxasislarni tayyorlab berish uchun taniqli jirov, baxshi, sozandalardan - G.Tilawmuratov, J.Sirimbetov, K.Tinibayev, T.Qurbanov, T.Pirlepesova (chanqobiz), G‘.Otemuratovlarni ishga taklif etib, yoshlarga xalq qoshiqlarini ijro etish, dutor chalish usullarini, dostonlarni o‘rganishda beminnat mehnat etgan.

Shu tariqa, xalqimizning milliy merosi etirof etilib dunyo sahnalariga chiqib, yaxshi natijalarga erishib kelinmoqda. Jirovchilik va baxshichilik san’ati bunnan keyin ham rivojlantirish maqsadida, muntazam ravishda Respublika va Xalqaro darajadagi turli ko‘rik-tanlovlar o‘tkazilmoqda. Bunday tanlovlarda qatnashib nufuzli o‘rinlarni egallab kelyotgan yoshlarimiz qatori kengaymoqda. Hattoki musiqa va san’at maktablarida tahsil olayotgan kichik yoshdagi jirov va baxshilar uchun ham tanlovlar tashkil etilgan bo‘lib, ushbu tashabbuslar o‘quvchi yoshlarning baxshi va jirov san’ati sirlarini egallashda muxim o‘rin tutadi.

Ajdodlarimizdan bebaho meros bo‘lib kelayotgan jirov va baxshi san’ati doston ijrochiligini yanada rivojlantirib kelajak avlodga etkazish, bugungi avlod yoshlarining vazifasidir. Milliy qadriyatlarimizni asrab abaylashga, uning rivoj topishiga so‘ngi yillarda hukumatimiz tomonidan katta e‘tibor qaratilib e‘tirof etilmoqda. Bunga misol tariqasida, 2019-yildan muntazam ravishda “Xalqaro baxshichilik san’ati festivali”ning tashkil etilishi va yuqori darajada o‘tkazib borilishini aytib o‘tish joiz. Ushbu festival har ikki yilda muvaffaqiyatli ravishda o‘tkazib kelinmoqda. Yoshlarimizni milliy musiqa rihuda tarbiyalash va tizimli ravishda bilim olishlari, kelajakda etuk mutahassis bo‘lib etishishlari yo‘lida, muhtaram Yurtboshimiz tashabbuslari bilan, baxshilarga oliy ta’lim tizimida bilim olishlari uchun imkoniyatlar yaratib berildi. Jumladan, 2020 yildan Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa instituti ochilishi va mazkur institutda “Doston ijrochiligi” kafedrası tashkil etilganligi bo‘lajak baxshi, jirovlar ijodining keng targ‘ib etilishi va rivojlanishi uchun muhim qadamlardan biri bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Mazkur nomdagi kafedraning tashkil etilishi, o‘z navbatida bashichilik





san’atining uzliksiz ta’lim tizimini yo’lda qo’yilishida muhim tarixiy bosqichni boshlab berdi.

Umid qilamizki, tahsil olayotgan talaba yoshlar, kelajakda etuk oliy ma’lumotli pedagog kadrlar bo’lib etishib, o’z ijod namunalari ila milliy musiqamiz durdonasi hisoblangan baxshi, jirov va doston ijrochiligi san’atining roviylanishida salmoqli hissalarini qo’shadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yaxti:**

1. Ayimbetov Q. Xaliq danalig’i. - No’kis: Qaraqalpaqistan, 1988.
2. Berdixanova Sh.N. Qoraqalpoq dostonlarining metroritmik asoslari. Avtoreferat..dis...(PhD). – Toshkent, 2022.
3. Maqsetov Q. Dastanlar, jirawlar, baqsilar. - No’kis: Qaraqalpaqistan, 1992.
4. Qaraqalpaq folklori. -Tashkent: Ma’naviyat, 2009.





## VODIY MAXSHICHILIGINIG NAMANGAN BAXSHICHILIK MARKAZLARI VA NAMOYDALARI

*Sayyora SULTONOVA,*  
*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI*  
*Xalq ijodiyoti:(baxshichilik va dostonchilik)*  
*ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi.*  
*Ilmiy rahbar: Oygul AXMEDOVA,*  
*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI,*  
*“Doston ijrochiligi” kafedrasi professori v.b.,*  
*filologiya fanlari nomzodi.*

*Annotatsiya:* Maskur maqola Farg‘ona vodisida hozirgi kungacha yagona hisoblangan Namanhan baxshichilik markazlari faoliyati va namoyondalar markaznig o‘ziga xos an‘analari va xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.

*Kalit so‘zlar:* Baxshichilik, Farg‘ona vodisi, tarix, do‘mbira, baxshi an‘ana.

Har bir millatning o‘ziga xos ma’naviy qiyofasi, tarixi va qadriyatlari mavjuddir. Xalqlarning urf-odatlarini, milliy o‘ziga xosligi uning folklorida yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Bu holat, ayniqsa, xalq dostonlarida har tomonlama namoyon bo‘ladi. Dostonchilik xalq og‘zaki ijodida keng tarqalgan qadimiy epik an‘ana hisoblanadi. Dostonlar, asosan, do‘mbira jo‘rligida kuylanadi va ijroda juda katta mahorat talab qiladi. Doston janrining yana bir xususiyati, og‘izdan og‘izga o‘tib, ajdodlardan avlodlarga turli o‘zgarishlarga uchrab, sayqallanib, ishlov berilgan holda yetib kelishidir. Folklorshunos olim professor To‘ra Mirzayevning ma’lumotlariga ko‘ra, yurtimizda XV-XX asrlarda bir nechta yirik dostonchilik maktablari paydo bo‘lgan. XIX-XX asrlar esa dostonchilik taraqqiyotida juda katta rivojlangan davri bo‘lgan. XX asr boshlariga kelib baxshilarimiz ijodiy bisotida 150 dan ortiq xalq dostonlari mavjud bo‘lganligi ma’lum. Bu dostonlarni Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Po‘lkan shoir, Islom shoir Nazar o‘g‘li, Jo‘lmon baxshi kabi baxshilar bilan bir qatorda Tilla







kampir, Sulton kampir kabi mashhur ayol ijrochilar ham kuylaganlar. Keyinchalik ularning an’alarini Berdi baxshi, Umir baxshi, Berdi va Bola baxshi kabi mashhur baxshilar davom ettirganlar. Baxshidan u yoki bu dostonni ijro etishda shunchaki voqea bayonini so‘zlab berish emas, balki do‘mbira jo‘rligida tinglovchilarni rom etadigan darajada ijro etish talab qilingan. Doston kuylish ko‘p hollarda musobaqa tarzida ham kechgan. Xalq og‘zaki ijodining qadimiy tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, “Alpomish”, “Kuntug‘mish”, “Rustanxon”, “Qironxon”, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, “Go‘ro‘g‘lining bolalaigi”, “Ravshan”, “Avazning arazi”, “Yozi bilan Zebo”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam” kabi katta va qadimiy dostonlar baxshichilik sa’natining chinakam namunasi. Misol uchun “Go‘ro‘g‘li” xaqidagi dostonda kuydagi satrlarga ko‘zimiz tushadi; Keling shu holatni kuyga solib, setorni (uch tor) diringlatib, ot dupuri yu, qilich ovozi berib shunday kuylab turgan eri shu edi.

*Go‘ro‘g‘libek turk qavmiga bosh bo‘ldi.*

*Ming uyli turk o‘g‘liga esh bo‘ldi,*

*Bir elki o‘ngli doim xush bo‘ldi,*

*Go‘ro‘g‘libek dostonini aytayin.*

Ko‘rinib turibdiki, har bir doston baxshilar tomonidan kuylanar ekan uning nolalarida xalqning uzoq o‘tmishi, boshidan kechirganlari, orzu umidlari, ajdodlari kimlardan ekanligini bayon etganlar. Jumladan, “Kuntug‘mish”, “Yozi bilan Zebo”, “Avazning arazi” kabi dostonlar xalq badiiy tafakkuri, dunyoqarashi, turmush tarzi, tilining boyligi aks etuvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Bir necha adabiyotshunos olimlarning tadqiqotlariga asoslangan holda fikr yuritadigan bo‘lsak, yuqorida ta’kidlaganimizdek, Farg‘ona vodiysida ham doston kuylash an’alari mavjud bolmaganligini, maxsus dostonchilik markazlari shakllanganligining ta’kidlash mumkin. Bir qator olimlar: Tojiboy G‘oziboyev, Malik Murodov, Robiddin Is’hoqov, Odiljon Nosirov, Mahmudjon Ma’murov, Umarjon Sarimsoqov, Otash Xolmirzayev kabi bir guruh olimlarimiz harakatlari bilan juda ko‘p go‘zal topilmalarni aniqlangan.

O‘tgan XX asrning 1960-yillarda Farg‘ona vodiysida katta ilmiy amaliy tadqiqot ishlari xalqlari orasida baxshichilik san’ati o‘zining o‘ta boy tarixiga egadir. Misol uchun qozoq baxshilari, qirg‘iz manasi, surxon baxshichilik san’at maktabi ham alohida ahamiyat kasb etadi.





Biz ushbu baxshichilik san’ati to‘g‘risida fikr yuritar ekanmiz, Farg‘ona vodiysi baxshichilik maktabi xususida alohida to‘xtalib o‘tishni lozim topdik. Shu o‘rinda juda ko‘p iste‘dod egalari repertuaridagi dostonlar bilan vodiy baxshichilik an‘analarining maydonga kelishiga o‘z hissalarini qo‘shganlar. Jumladan, Suvon sannovchi, Alimqul sannovchi Niyoz o‘g‘li, Haydar sannovchi Boycha o‘g‘li, keltirishimiz mumkin. (1895-yil Namangan viloyati Chortoq tumanida tavallud topgan) Razzoq baxshidan “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlarining barchasi, “Alpomish” “Yozi bilan Zebo” va juda ko‘p termalar, qirg‘iz “Manas” eposinig “Semey olib borildi. Natijada manbalarni qidirish bilan birga yangidan yangi dostonchi va baxshichilarning nomlari aniqlandi. Ayrim olimlarining Farg‘ona vodiysida baxshichilik an‘analari bo‘lmagan degan fikrlarini Malik Murodov puchga chiqardi. Fidoyi folklorshunos olim M.Murodov bir necha hamkasblari va shogirdlari bilan birgalikda Namangan viloyati hududida joylashgan Ko‘lbuloq, G‘ovazon, Peshqo‘rg‘on, Ariqmo‘yin, Elatan kabi qishloqlarda juda ko‘p dostonchi va sannovchilar yetishib chiqqanligi aniqladi. Albatta, bu o‘rinda Farg‘ona xalq dostonchiligining asosiy markazi bo‘lgan Namangan baxshichilik an‘analari haqida M. Murodovning “Farg‘ona xalq dostonchiligiga bir nazar” nomli maqolasi alohida ta’kidlash lozim. (“Namangan haqiqati” gazetasi. 1964-yil). Maqolada yuqorida nomlari sanab o‘tilgan sannovchilar qatorida Matrayim baxshi, Suvon Qoraboy, Suyar Qobil kabi baxshilar xususida ham qiziqarli fikrlar bildirilgan. Xalq og‘zaki ijodining yetuk bilimdoni bo‘lmish folklorshunos olim Otash Xolmirzayevning bu borada xizmati yuqoridir. Peshqorg‘onda “Yozi bilan Zebo” dostoni ko‘p keylanganligi ma’lum bo‘ladi.

O.Xolmirzayev bu dostonning bir necha mukammal variantlarini yozib olib, folklor fondiga topshirganligi manbalarda qayd etilgan.

O‘z vaqtifa bu dostonning Namanganda juda keng tarqalganing atoqli shoir Rafiq Mo‘min tomonidan yozib olinganligi tasdiqlaydi. Dostonda xalqona satrlarning ko‘pligi ham fikrimizning dalilidir:

Zebojon qoshingni qarosiga pilik bo‘lay.

Har bir suyaginga ilik bo‘lay.

Osmonigda porlab turgan yulduz bo‘lay.

Zarchoponing yoqasiga qunduz bo‘lay.





Namangan davlat universitetining dotseni T.G‘oziboyev va maktab oqituvchisi O.Xolmirzayevlar bir necha o‘n yillar davomida talabalar hamda o‘quvchilarni folklor namunalarini yig‘ish ishlarini jalb etishdi va minglar simmatli namunalarini yozib olishga bosh-qosh bo‘ldilar. Bu qimmatli namunalar hozir O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoy nomidagi o‘zbek tili, adabiyoti va folklor institutining folklor sektorida saqlanmoqda.

Muhtaram yurtboshimiz xalqimizning asrlar davomida ko‘z qorachig‘idek asrab kelayotgan baxshichilik san’atini rivojlantirish va asrab avaylash borasida shazsan g‘amxo‘rlik qilib namuna, o‘rnak bolayotganligi tufayli yurtimizda yildan-yilga, kundan-kunga baxshichilik rivojlanib, taraqqiy etib bormoqda.

Endigi muhim vazifalardan biri, shubhasiz, Farg‘ona vodiysida faoliyat ko‘rsatgan dostonchi – sannovchilar ijodini ilmiy jihatdan o‘rganish davr talabi bo‘lib turibdi, desak, ayni haqiqatdir.

### **Sayram dostonchilik maktabi**

Bu dostonchilik maktabining asoschisi Turakurgon tumaniga Karashli Sayram kishlogilik Umrzok baxshi bulgan. Uning Abduvoxid baxshi, Anor baxshi, Ibroxim baxshi kabi shogirdlari bulgan. Ular repertuarida esa asosan “Alpomish”, “Yusuf va Axmad”, “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlari mavjudligi aniqlangan<sup>57</sup>.

### **Peshqo‘rgon dostonchilik maktabi**

Bu dostonchilik maktabida yuzlab dostonchilar ijod qilganlar. Bizga ma‘lum bulgan dostonchilardan biri Jumaboy baxshidir. U uz davrining mashhur dostonchisi bo‘lib, uning hofizasida yigirmadan ortiq doston bo‘lgan. U xatto qirg‘iz xalqining mashhur dostoni “Manas”ni ham yoddan bilgan, el orasida aytib yurgan. Ayniqsa, “Alpomish” dostonini maromiga yetkazib aytgan. “Alpomish” dostoni juda kata hajmda bo‘lib, jiyani Razzoq baxshining guvohlik berishicha Ariqbo‘yi qishlog‘ida bo‘lgan to‘ylarning birida yetti kun doston aytgan, ammo doston shunda ham tugamagan. Shunda Qirg‘iz jirchilari bu o‘zbek dostonchisiga tan berib, bir tuya, bir biya va zar chekmon bilan taqdirlaganlar. Keyinchalik uning shogirdi sifatida Yo‘ldosh,

<sup>57</sup> “O‘zbek tili va adabiyoti masalalari”. Kollektiv to‘plam - T., Fan, 1968.





Suvon, Qoraboy, Mamayusuf, Usta Qo‘chqor, Abduaziz, Suyun jirchi kabi dostonchilarni yetishtirgan va ular bilan birga kuylagan.

### **Govozon dostonchilik maktabi**

Bu dostonchilik maktabi xam bevosita Peshko‘rg‘on dostonchilik maktabi singari shu qishloqda ijod qilgan dostonchilar orqali rivojlangan. Uning eng taniqli dostonchilari dan biri Xaydar Boycha o‘g‘lidir. Xaydar ota ham boshqa dostonchilar qatori o‘zbek xalq dostonlarining barini bilgan va o‘zi ham yaxshigina shoir edi. U zamonaviy temalarda ham juda ko‘p asarlar yaratib, barcha muxlislarini qoyil qoldirgan. Uning Alim shoir Niyoz o‘gli, Olim baxshi Soyibboyev, Kichimov kabi shogirdlari bo‘lgan.

### **Ariqbo‘yi dostonchilik maktabi**

Bu dostonchilik maktabiga Chuet tumanining Olmos qishlog‘iga qarashli Ariqbo‘yi qishlog‘ida yashagan Arslon baxshi Murodov asos solgan. U ustoz sifatida juda kup shogirdlar yetishtirgan. Uning eng sevimli shogirdlaridan biri Matoayim paxshi Boltaboevdir. U Kosonsoy tumanining Qorasuv qishlogida kambag‘al oilada tug‘iladi, sung, qishloqda tarbiya oladi. Dostonchilikni urganadi. U barcha an’anaviy dostonlarni bilgan.

### **Qayqi dostonchilik maktabi**

Bu dostonchilik maktabi ham o‘z rivoji va dostonchilikda tutgan o‘rni bo‘yicha juda ahamiyatlidir. Zero, bu maktabni mashhur dostonchi (u Andijon viloyatining Baliqchi dostonchilariga ham zo‘r ta’sir ko‘rsatgan) Xusan baxshi Rajabboy o‘glidir. Uning ham juda ko‘p shogirdlari, hamsoyalari bo‘lgan. Ular tomonidan juda ko‘p xalq dostonlari kuylab kelingan. Shu qishloqning eng katta dostonchilaridan biri Usmon Mamatqul o‘g‘lidir.

Namangan baxshichilikigini o‘ganish jarayonida ko‘pgina mavhumlikka va juda ko‘p savolarga duch keldim. Faqatgina ilmiy asoslangan ma’lumotlarning kamligi tufayli bu maktab haqida ochiqroq ma’lumot berish uchum aniq dalilar yo‘q. Ammo lekin haqiqatan ham vodiy dostonchilik maktabi eng gulagan maktablardan biri bo‘lgan lekin har bir maktabning shajarasiga va kelib chiqishiga qaraydigan bo‘lsak hozirda ham gulab yashnayotgan maktablar, ham yo‘q emas.





Bunga misol qilib Xorazm dostonchilik maktabi, Qoraqlpoq dostonchilik maktabi va Janubiy O‘zbekiston maktablarinig shajarasiga qarasak, bu maktablar shu yerning o‘zida paydo bo‘lgan, shuning uchun ham an’ana buzilmasdan ustoz-shogird an’analari davom etmoqda. Lekin vodiy baxshichiligini chetan kirib kelgani, hamda avditoriyasini yo‘g‘ligi tufayli va ko‘p dostonlarnig sujetlarini, o‘zgartirish tufayli bu maktabga qarshiliklar ko‘p bo‘lgan va soha hozirgacha uchqunlagani lekin rivojlanishdan to‘xtagan yana bir sababi baxshilarnig eng oxirgi vakilaridan shogir qolmagani sabab bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Murodov, M. “Farg‘ona xalq dostonchiligiga bir nazar” // “Namangan haqiqati”.

2. Sulaymonov, M. O‘zbek xalq o‘g‘zaki ijodi. Akademik litseylarning talabalari uchun. – Namangan, 2012.

3. Xolmirzayev, O. Ko‘lbuqon dostonchilik maktabi. – Namangan, 2015.

4. G‘oziboyev, T., Sobirov, A. Namangan xalq og‘zaki ijodi namunalari. – Namangan, 1993.

5. G‘oziboyev T. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining sovet davridagi ijodi. – Toshkent, 1995.160-bet.

6. G‘oziboyev T. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, - Toshkent, Fan, 1968.

7. Gulpari. To‘plab nashrga tayyorlovchi T.G‘oziboev. – Toshkent, 1967.





## **QO‘RG‘ON DOSTONCHILIK MAKTABI ADABIY MUHITI**

*Shahodat NARZILLAYEVA,  
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI  
Xalq ijodiyoti: (baxshichilik va dostonchilik)  
ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi.  
Ilmiy rahbar: Oygul AXMEDOVA,  
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI  
“Doston ijrochiligi” kafedrasida professori, f.f.n.*

***Annatsiya:** Bizgacha ma’lum bo‘lib kelingan dostonlar, o‘zining eng ko‘zga ko‘ringan baxshilarini tomonidan kuylanib xalqning mehr va e’tiboriga tushgan desak adashmaymiz. Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi a’zolari ham shular jumlasidandir, biz o‘rganib kelgan baxshilar adabiy muhiti kuylash mahoroti jihatdan xalq e’tirofiga sababchi bo‘lgan desak adashmaymiz, ularning badihago‘yiligi aytish mahorati bularning barchasi xalqning ko‘nglidan joy olgan dostonlardadir.*

***Kalit so‘zlari:** Doston, badiha, syujet, motiv, variant, versia, anana, obraz.*

Xalq og‘zaki ijodidagi doston folklorshunos olimlarning diqqatini alohida o‘ziga jalb etib kelmoqda. Doston – o‘zbek xalq og‘zaki ijodi tarkibida eng ko‘p o‘rganilgan, katta munozaralarga sabab bo‘lgan, qolaversa, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi merosini butun dunyoga ma’lum va mashhur qilgan janrdir. Shunga qaramay dostonlarni o‘rganila boshlashgan aynan bu yo‘nalishdagi baxshilarni mahoratini va har joyning o‘ziga hos aytish usulari ustoz shogird ananalarini ulardagi badihani va shu kungacha saqlanib kelgan dostonlarning yanada o‘zgacha aytish usullarini o‘rganib kelishmoqda. Folklorshunos olimlarimizning say harakati o‘laroq izlanishlar davomiyligi va dostonlarni ham turli suyet va mativlarini xalqqa taqdim etishmoqda. Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi - o‘zbek folklorshunosligida baxshichilik san’ati markazlaridan Qo‘rg‘on dostonchilik maktabiga mansub baxshilar Mang‘ishtov, Nurota tog‘i, Oqtov etaklarida,





Miyonqolga qadar cho‘zilgan keng hududda yashaganlar. Ularning ko‘pchiligi Qo‘rg‘on qishlog‘ida tarbiya topgan. Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining ota-bobolari asos solgan bu maktab XVII-XX asrlarda yashagan Yodgor Usta Qo‘lay o‘g‘li, Usta Lafas Yodgor o‘g‘li, Tilla kampir, Mulla Tosh Usta Lafas o‘g‘li, Mulla Xolmurod Mulla Tosh o‘g‘li, Jolmon baxshi, Sulton kampir, Qulsamad baxshi, Jumanbulbul, Jossoq Mulla Xolmurod o‘g‘li, Yorlaqab baxshi, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Darvesh baxshi, Po‘lkan shoir, Ollomurod baxshi, Egamberdi Ollomurod o‘g‘li, Usta Xolqul, Abdumurod Berdixol o‘g‘li, Qurbonqul baxshi, Mardi shoir, Rahmatulla Yusuf o‘g‘li kabi o‘nlab dostonchilarni birlashtirgan. Bu baxshilar ko‘proq ishqiy dostonlar kuylashgan. O‘ziga xos chuqur lirizm, chiroyli tasvirlar, noziklik va jimjimadorlik Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi uslubining asosiy belgilaridir. Bu hol Qo‘rg‘on dostonchilik maktabining ko‘proq yozma adabiyotdan an’analariga uyg‘unlashib borganligini ko‘rsatadi. Ammo hozirgi kunda kelib ko‘pgina dostonchilik maktablari yo‘k bo‘lib ketgan. Hozirda Sherobod dostonchilik maktabi va undan ajralib chiqqan eng yosh maktab Dehqonobod dostonchilik maktabi baxshichilik san’ati an’analarini davom ettirib o‘zlarining yangi vakillariga repertuarlaridagi dostonlarini o‘rgatib dostonchilik maktabi an’analarini davom ettirib kelmoqdalar. Yosh avlodni milliy qadriyatlarimizga sodiq ruhda tarbiyalashda ezgulikka chorlaydigan, vatanparvar, adolatli, mard, jasur bo‘lishga undovchi dostonlarining va umuman baxshichilik san’atining o‘rni beqiyos. XX asrning 70-chi yillaridan boshlab O‘zbekistonda muntazam ravishda baxshi-shoirilar ko‘rik tanlovlari. 1999-yildan baxshi-shoir va oqinlar Xalqaro tanlovlari, Qashqadaryoning Kitob shahrida yosh baxshilar ko‘rik-tanlovlari o‘tkazilmoqda. Baxshichilik san’ati ta’lim tizimining o‘quv jarayoniga kiritilgan. Shuning uchun ham ko‘p sonli musiqa va san’at maktablari, kollejlari, litseylar va oliy ta’lim muassasalarida ushbu yo‘nalishdagi ishlar olib borilmoqda. Olib borilayotgan say harakatlar natijasida ko‘plab o‘zgarishlar aynan baxshichilik maktablaring yanada gulab yashnashiga hizmat qiladi degan umididamiz shunga qaramay bu maktab vakillarining bizlarga qoldirgan ma’lumotlari va meroslari saqlanib qolmog‘i lozim. Baxshilar repertuerlarida o‘ttiz-qirq va hatto undan ortiq doston bo‘lgan. Ergash shoir, Fozil shoir, Po‘lkan shoir, Islom shoirlar shunday doston- chilardan edi. Ular qator





epik asarlarni mahorat bilan kuylaganligi uchun bunday dostonlarning ko‘pchiligi ularning nomi bilan abadiy bog‘lanib qoldi. Doston kuylash tartibi. O‘zbek dostonchiligida an’anaviy doston kuylash tartibi bor. Odatda, dostonchilik kech kuzdan erta bahorgacha kechqurunlari uyushtirilgan. Baxshi taklif qilingan mehmonxonaga barcha eshituvchilar uning devorlari bo‘ylab qator qo‘r tashlab o‘tirishgan. Baxshini eng to‘rda o‘tkizganlar. Doston kuylash kichik bir ziyofatdan keyin boshlangan. . Epik san’atning ikkinchi bir muhim markazi Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi bo‘lib, uning eng so‘nggi talantli vakillari Ergash Jumanbulbul o‘g‘li (1868-1937) va Po‘lkan shoirlar (1874-1941) hisoblanadi. Bu talantli san’atkorlardan “Alpomish”, “Yakka Ahmad”, “Oysuluv”, “Kuntug‘mish”, “Qironxon”, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, “Yunus pari”, “Misqol pari”, “Gulnor pari”, “Xushkeldi”, “Hasanxon”, “Chambil qamali”, “Dalli”, “Ravshan”, “Avazxon”, “Qunduz bilan Yulduz”, “Xoldorxon”, “Elomon”, “Berdiyot otalik”, “Zamonbek”, “Xidirali elbegi” kabi dostonlar yozib olingan. Mang‘ishtovdan Nurotaga qadar cho‘zilgan silsila tog‘larning, ayniqsa, Oqtovning shimoliy va janubiy etaklarida yashagan va shu yerlarda yetishgan xalq shoirlari Qo‘rg‘on dostonchilik maktabiga mansubdir. Bu baxshilarning deyarli ko‘pchiligi Qo‘rg‘on qishlog‘ida tarbiya topgan va haqli ravishda o‘z ustozlarini bu ajoyib shoirlar qishlog‘i bilan bog‘laydilar. Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining otabobolari asos solganligi taxmin qilingan bu maktab Yodgor, Lafas, Mulla Tosh, Mulla Xolmurod, Sulton kampir, Tilla kampir, Jolmon baxshi, Bo‘ron baxshi, Buron shoir, Jumanbulbul, Yorlaqab, Jossoq baxshi, Qulsamad baxshi, Ergash shoir, Po‘lkan shoir, Bo‘ta baxshi, Egamberdi baxshi, Mardi baxshi, Rahmatulla kabi o‘nlab dostonchilarni birlashtiradi. Bu baxshilar ishqiy-romanik dostonlarga ko‘proq e’tibor berganlar. O‘ziga xos chuqur lirizm, chiroyli tasvirlar, she’riy bezaklar, tafsilotlarni atroflicha ishlash, noziklik va jimjimadorlik Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi uslubining asosiy belgilaridir. Bu hol uning ma’lum ma’noda yozma adabiyot ta’siriga uchraganligini ko‘rsatadi. XIX asrda mavjud bo‘lgan yana bir epik markaz Shahrisabz dostonchilik maktabidir. Bu maktabning so‘nggi namoyandasi Abdulla Nurali o‘g‘li (1874—1957) XIX asrning yirik dostonchisi Rajab shoirning shogirdidir. Bu baxshilar dostonlarni shux, quvnoq, ko‘tarinki ruhda aytishlari, kuylarining yoqimlilik bilan







ajralib turadilar. Atoqli xalq shoiri Islom Nazar o‘g‘li (1874-1953) Narpay dostonchilik maktabining vakilidir. U XIX asrning ulkan dostonchisi Rajab shoirning shogirdi bo‘lgan. Talantli xalq shoiri Nurmon Abduvoy o‘g‘li ham (1862-1940) shu maktabdandir. Ulardan yozib olingan «Orzigul», «Sohibqiron», «Erali va Sherali», «Zulfizar bilan Avazxon», «Gulixiromon», “Kuntug‘mish” kabi dostonlarga nazar tashlar ekanmiz, bu maktab vakillari xalq dostonlarining demokratik asoslarini yanada kengaytirganliklarining guvohi bo‘lamiz. Dostonning har bir qo‘shig‘i muayyan kuyda ijro etiladi. Dostonchilar ularni baxshi yo‘llari yoki baxshi na‘malari deb yuritadilar. Yuqorida ayrim xususiyatlari ko‘rib o‘tilgan baxshilik maktablari qanchalik o‘ziga xoslik kasb etmasin, ularda umum dostonchilik an‘analari yetakchilik qiladi. Qo‘rg‘on dostonchilik maktabiga mansub baxshilar Mang‘ishtov, Nurota tog‘i, Oqtov etaklarida, Miyonqolga qadar cho‘zilgan keng hududda yashaganlar. Ularning ko‘pchiligi Qo‘rg‘on qishlog‘ida tarbiya topgan. Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining ota-bobolari asos solgan bu maktab 17—20-asrlarda yashagan Yodgor Usta Qo‘lay o‘g‘li, Usta Lafas Yodgor o‘g‘li, Tilla kampir, Mulla Tosh Usta Lafas o‘g‘li, Mulla Xolmurod Mulla Tosh o‘g‘li, Jolmon baxshi, Sulton kampir, Qulsamad baxshi, Jumanbulbul, Jossoq Mulla Xolmurod o‘g‘li, Yorlaqab baxshi, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Darvesh baxshi, Po‘lkan shoir, Ollomurod baxshi, Egamberdi Ollomurod o‘g‘li, Usta Xolqul, Ab-dumurod Berdixol o‘g‘li, Qurbonqul baxshi, Mardi shoir, Rahmatulla Yusuf o‘g‘li kabi o‘nlab dostonchilarni birlashtirgan. Bu baxshilar ko‘proq ishqiy dostonlar kuylashgan. O‘ziga xos chuqur lirizm, chiroyli tasvirlar, noziklik va jimjimadorlik Qo‘rg‘on dostonchilik maktabim. uslubining asosiy belgilaridir. Bu hol Qo‘rg‘on dostonchilik maktabim.ning ko‘proq yozma adabiyotdan an‘analariga uyg‘unlashib borganligini ko‘rsatadi. Hodi Zarif 20-yillar dayoq aloxida poetik yo‘l Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi (ta’kidlayman, Nurota emas!) deb izohlagan baxshilar guruhiga mansub. Mang‘ishtovdan Nurotaga qadar cho‘zilgan silsila tog‘larning, xususan, Oqtovning shimoliy va janubiy etaklarida yashagan va shu yerlarda yetishgan xalq shoirlari ana shu maktabga kiradilar. Ergash shoir shu maktabning talantli vakilidir. U shoir – dehqon oilasida tug‘ildi va voyaga yetdi. Qo‘rg‘on qishlog‘ida markazlashgan dostonchilik maktabi, xususan, uning peshqadam vakillari Tilla





kampir, Sulton kampir, Qulsamad baxshi, Qassob baxshi, Jolmen baxshi, Bo‘ron baxshi, Bo‘ron shoir, Mulla Abduqodir, Jumanbulbul, Jos soq baxshi kabi talantli ijodkorlarning ijodiy an‘analari yetti otabobosigacha shoir o‘tgan Ergashning xalq she‘riyatida kamolot kasb etishida asosiy omil bo‘ldi. Shuning uchun ham H.T.Zarifov: «Ergashning o‘ssishi va ulkan shoir bo‘lib yetishuvida uning oila muhitida ham, u voyaga yetgan qishloqda ham juda katta adabiy zamin bor edi. Ana shu adabiy zaminsiz bu azim san‘atkorni, juda olis-olislardan ham salobat bilan ko‘rinib turgan yuksak tog‘dek bo‘lgan bu ulkan siymo xalq dostonlari xazinadori va ijodkorini tasavvur qilish mumkin emas», - degan edi, Ergash shoir repertuari va dostonchilik ijodi boy va rang-barang bo‘lib, eposning bir qator nazariy problemalarini ishlash uchun yetarli material bera oladi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi vakillari xotin-qizlar obrazlarini alohida muhabbat bilan tasvirlaganlar, bir qator asarlarda ularni bosh qahramon darajasiga ko‘targanlar. Bu o‘rinda “Xoldorxon” va “Temirxon podsho” dostonlaridagi ham vatan mudlash kifoyadir. Har ikkala dostonda o‘ziga xos ravishda qo‘yilgan. Birida Yunus pari boshchiligidagi Chambil ayollarining doimiy ichki dushman- Ahmad Sardorga qarshi kurashlari tasvirlansa, ikkinchisida arab bosqinchilariga qarshi or-nomus va farovon diyor mustaqilligi uchun olib borilgan jangu jadallar o‘z ifodasini topgan. “Xotin-qizlar obrazi ning oliy fazilatlar, ulug‘ g‘oyalar bilan yetuk ishlanishida xalq shoirlarining, shu jumladan, Tilla kampirning ijodiy hissasi kattadir”. ‘Oysuluv’ dostoni o‘zining syujeti, ijtimoiy maz- muni, obrazlarining xarakteri jihatidan qadimgi O‘rta Osiyo aholisi yaratgan og‘zaki adabiyot yodgorliklaridan bo‘lgan “To‘maris” eposiga ancha yaqin turadi. To‘maris va uning o‘g‘li Sparganiz boshchiligidagi massagetlarning ahmoniylar shohi Kir hujumiga qarshi olib brogan mardona kurashlari hamda vatanparvarlarning g‘alabasi tasviri eposning asosini tashkil etadi. Biroq bu asar xam bizgacha kelib yetmagan. Uning mazmuni grek ta- rixchisi Gerodotning (484-425) “Tarix” kitobidagi yarim tarixiy, yarim afsonaviy xarakterdagi naqli orkaligina ma’lumdir. Bu hol folkloristlar oldiga “Oysuluv” dostoniga asos bo‘lgan tarixiy va adabiy manbalarni yanada jiddiy o‘rganish, uning poetik tekstini izlash vazifasini kuyadi. Ergash shoir repertuarida va umuman o‘zbek xalq dostonchiligida alohida o‘rin tutgan asarlardan





biri “Yakka AHmad” dostonidir. Ma’lumki, saxroyi bahodir, ko‘chmanchi qo‘ng‘irot urug‘ining begi, o‘z oilasi va qabilasining qaxramon himoyachisi Hakimbek - Alpomish haqidagi doston va rivoyatlar turkiy xalqlar o‘rtasida keng Xodi Zarif, Ulkan xalq san’atkori, “Ergash shoir uning dostonchilikdagi o‘rni” to‘plami, tarkalgan va dostonchilarimizning sevib kuylagan asarlaridan biri bo‘lgan. Ko‘chmanchilik hayoti va patrixart-urug‘chilik munosabatlari bir daraja saqlanib kelayotgan davrda yaratilgan, jamiyat va inson xayoti masalalarini uziga xos reallikda - qahramonlik va go‘zallik xaqidagi xalq ideallari doirasida kuylagan, bu bilan turkiy xalqlar patriarxal hayotidagi “epik bosqichning” poetik ko‘zgasiga aylangan bu monumental asar o‘zbek xalq eposining galdagi tarakkiyotida muhim rol o‘ynadi. Ergash shoir o‘z dostonlarida doim yomonlikning simvoli bo‘lgan maston kampirlar va ko‘salarning satirik obrazlarini yaratgan edi. Uning otasi to‘qigan Nurota beklarini hajv qiluvchi “Miltiqboy”, “Emon tarkman” hajviyalarini bilamiz. Uz navbatida Ergash shoir ham tekinxo‘r, ishyoqmas, dangasa va takasaltanglarni fosh etuvchi satirik va yumoristik she‘rlar ham yaratdi. Shoirning tekinxo‘r ekspluatatorlarning vakillari bo‘lmish eshonlarni fosh etuvchi “Eshon”, doimo pardoz-andozdan bo‘shamagan ayollar ustidan kuluvchi “Asov qizlar” kabi asarlari shular jumlasidandir. Ergash shoir ijodi va repertuari xalq eposining bir qator nazariy problemalarini hal qilish uchun boy materiallar beradi. Shundaylardan biri yaratilishi jihatidan tarjima yoki yozma adabiyot bilan bog‘liq bo‘lgan dostonlarni o‘rganish, o‘zbek xalq dostonchilik ijo- 277 diga yozma adabiyotning ta’siri masalasini yoritish hisoblanadi. Chindan ham Ergash shoir repertuaridagi yozma manbalarga ega bo‘lgan asarlarni o‘rganish, uning dostonlarida klassik adabiyotga xos holatlarning 30-xil bo‘lishini tekshirish maxsus filologik tadqiqotlarga arzigulikdir. Ma’lumki, qadimdan og‘zaki yaratilgan va jonli og‘zaki an’anada bizgacha yetib kelgan o‘zbek xalq eposi o‘zining uzoq asrlik umri davomida turli ta’sirlar, o‘zgarishlar, ba’zan tazyiqlarga uchragan; kuylanish va ishlanish yog‘idan har xil jarayonlar, evolyusiya va interpretatsiyalarni o‘z boshidan kechirgan. Shuningdek, o‘zbek eposining asriy an’anasi har xil tildagi kitobiy madaniyat va poeziyaning turli xarakter va yo‘nalishdagi ta’siri bilan chatishib, chirmashib ketgan. Eposdagi bunday o‘zgarish va davrlar qatlami, ta’sir va aks ta’sirlarni mumkin





qadar o‘rganish muhim ilmiy-nazariy ahamiyatga ega. Bu eposimizning ijodiy tarixini belgilashga, unda o‘z izini qoldirgan turli davrlar katlamini me’yorini aniklashga imkon beradi. Folklor va yozma adabiyotning bir-biriga ta’sir etishi va boyitishi, o‘zaro munosabati barcha xalqlar madaniy taraqqiyotida odatdagi hodisa, xilma-xil xususiyatlarga ega bo‘lgan ijodiy jarayon bo‘lib, bu boy og‘zaki poeziya bilan bir qatorda kitobiy adabiyotning klassik namunalari yaratgan o‘zbek xalqiga ham xosdir. Bunday o‘zaro aloqa ikki yo‘nalishda: bir tomondan, yozma adabiyot vakillarining xalq poetik ijodi namunalari va boy og‘zaki an’anadan foydalanishi, o‘rganishi, ikkinchidan, folklorning klassik adabiyot ta’sirida ma’lum darajada boyib borishida zohir bo‘ladi. Qarang: O‘zbek xalq eposi janriy xilma-xilligi va ko‘p temaliligi jihatidan ham, unda turli davrlar o‘z izini qoldirgan qatlamlar miqdori bilan ham ko‘pligi bilan va murakkabdir. O‘zbek xalq dostonchilari repertuarida patriarxal-urug‘chilik munosabatlarining so‘nggi bosqichida yaratilgan qadimiy qahramonlik eposidan feodalizm jamiyatining ijtimoiy madaniy munosabatlari bilan bog‘liq bo‘lgan ishqiy-romanik dostonlargacha, shuningdek, keyingi davrlarda ijod qilingan zamonaviy asarlar mavjud.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari, T., 1979.
2. Bulbul taronalari, 1-5j.lar, T., 1971-73;
3. Ergash shoir va uning dostonchilikdagi o‘rni, T., 1971. To‘ra Mirzayev.
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma’lumotlaridan foydalanilgan.
5. Afzalov M., Po‘lkan shoir, T., 1955;
6. Po‘lkan shoir, Maqolalar to‘plami, T., 1976.





## BAXSHICHILIK SAN’ATIDA SHEROBOD DOSTONCHILIK MAKTABINING TUTGAN O’RNI

*Sunnatulla ESHMANOV,*  
*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI*  
*Xalq ijodiyoti: (baxshichilik va dostonchilik)*  
*ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi.*  
*Ilmiy rahbar: Oygul AXMEDOVA,*  
*“Doston ijrochiligi” kafedrası*  
*professori v.b., filologiya fanlari nomzodi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari, Janubiy Tojikiston va Turkmaniston territoriyalarining o‘zbeklar yashaydigan qismini egallagan Sherobod dostonchilik maktabi baxshilari repertuarining o‘rganilishi, ushbu poetik maktabning umumyzbek dostonchiligidagi o‘rni, hamda o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** ustoz-shogird an’anasi, Sherobod dostonchilik maktabi, chechan, baxshi, badiha, badihago‘y.

Qashqadaryo va Surxondaryo xalqlari badiiy ijodiyotning qadimiy, boy an’analari ko‘plab ijodkorlar va avlodlar ishtirokida shakllanib, rivojlanadi, o‘ziga xos takrorlanmas qiyofaga ega bo‘ldi. Hozirgi kunda ham bu vohalarda yuzdan ziyod baxshi-shoirilar yashab ijod qilishmoqda. Dostonchilikda og‘zaki jonli an’ana faqat shu vohalardagina ko‘proq saqlanib qolganni va davom etayotganini ko‘rishimiz mumkin.

Sherobod dostonchilik maktabi baxshilarining ustoz-shogirdlik an’anasi qadimiydir. Bu maktabi butun Surxondaryo vohasi, Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod, G‘uzor, Qamashi va Dehqonobod tumanlaridning bir qismini, Janubiy Tojikiston ham Turkmaniston jumhuriyatlarining o‘zbek qavmi yashayotgan ovul, qishloqlarini o‘z ichiga oladi.

Sherobod dostonchilik maktabida boshqa dostonchilik maktablarida uchramaydigan dostonlarning mavjudligi ko‘rinadi. Masalan, “Alpomish” turkumini to‘ldiruvchi “Beva Barchin” yoki





“Barchin bekach”, tarixiy shaxs, atoqli shoir, olim va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur haqida “Oychinor”, xalq baxshisi asarning bosh qahramoni bo‘lgan, mustahkam ahloq va e’tiqodni tarannum etuvchi “Ollanazar Olchinbek”, turkman xalk shoiri Maxtumquli haqidagi “Maxtumquli” dostoni, Go‘ro‘g‘li va Avaz qahramonligi haqida, “Avaz” nasliy turkumini to‘ldiruvchi, uning o‘g‘li va nabirasi haqida biografik turkumlilikni yuzaga keltiruvchi “Malla savdogar”, “Nurali va semurg”, “Amirqul”, “Sherali”, “Sheralining bandi bo‘lishi”, “Suv parisi”, “Tarkibadaxshon”, “Avazning tug‘ilishi”, Go‘ro‘g‘li vafoti to‘g‘risidagi “Shahidnoma” va “G‘aribnoma” dostonlari faqat Sherobod maktabi vakillari repertuarida mavjud bo‘lib, o‘zga dostonchilik maktabi ijodkorlari repertuarida uchramaydi. [1.15.]

Umumo‘zbek dostonchiligida alohida o‘rin egallagan Sherobod dostonchilik maktabi haqida birinchi ma’lumot bergan olim Mansur Afzalovdir. “1945 yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining bir guruh ilmiy xodimlari Xorazm, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarida folklor ekspeditsiyalarida bo‘lib, ko‘pgina xalq baxshilari bilan uchrashdilar, dostonlarini yozib oladilar. M.Afzalov ekspeditsiya haqida maqolasida quyidagilarni qayd etadi: "Sherna o‘z davrining eng chechan, so‘zga boy, san’atkor xalq shoirlaridan bo‘lib, shogird yetishtirishda ham Shernaga tenglashadigan ustoz bo‘lmagan. Shernazar shoir Surxondaryo va Qashqadaryo, xatto Turkmanistonning ayrim shahar va qishloqlariga borib, doston aytib, tinglovchilarni hayratda qoldirgan. Shu bilan xalq orasida o‘z dostonlari bilan ma’lum va mashhur bo‘lgan. Masalan, Mardonakul Avliyoqul o‘g‘li (u Sherna shoirning jiyani), Ahmad yuzboshi, Saodat yuzboshi, Chori yuzboshi, Normurod Shernazar o‘g‘li, Jo‘ra Eshmirza o‘g‘li, Xudoyqul laqay, Eson Shomurod o‘g‘li va boshqa talantli xalq shoirlarini tarbiyalab yetishtirgan Shernazar Berdinazar o‘g‘lidir”. [1.17-18.]

Folklorshunos A.Qaxxorov Janubiy voha dostonchiligini uzoq yillar kuzatuv natijasida dostonchilik maktablaridagi an’anaviy ustoz shogirdlik munosabatlarini o‘rganib, ular shajarasini tuzishga muvaffaq bo‘ldi. Uning aniqlashicha, Sherobod dostonchilik maktabi shajarasining boshida Bobo shoir bo‘lib (XIX asrning birinchi yarmi), u juda ko‘plab shogirdlar yetishtirib, epik an’analarga amal qilgan holda ko‘plab an’anaviy dostonlarni ijro etib, badihaguylik san’atini





namoyon qildi. Bobo shoir Qosimko‘r, Shernazar Berdinazar o‘g‘li, Xolmurod Qosim o‘g‘li, Alim yuzboshi kabi iqtidorli shogirdlar tayyorladiki, ana shu shogirdlar so‘z va sozda, shogird tayyorlash an’anasida Sherobod dostonchilik maktabining tarakqiyotiga munosib ulush qo‘shdilar. [2.10-11.]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi “Baxshichilik san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4320-sonli qarori hamda baxshichilik san’atini rivojlantirishga qaratilgan bir qator qarorlar, turli tanlovlar, tadbirlar Qashkadaryo va Surxondaryo vohalarida ijod qilayotgan yuzdan ortiq baxshilar ijodini yanada rivojlantirishga yo‘l ochib berdi. Ammo, shu bilan birga doston ijrosini, uning mazmunini chala bilib, syujetlarni buzib, goh aralashtirib ijro etuvchi havaskor baxshilar ham ko‘payib qolganligin ta’kidlamasdan iloji yo‘q. Yana shunday baxshilar borki, ustoz ko‘rmay nashr etilgan dostonlarni o‘qib o‘z bilganicha kuylab kelmoqdalar. Bu turdagi baxshilar Sherobod dostonchilik maktabi an’analarning yashovchanligini, badiiy qudratini, jozibasini ko‘rsata olmaydilar. Shu bilan bir qatorda vohada nihoyatda badihago‘y ijodkorlar, epik an’anlar doirasida o‘zlarining yangi-yangi variantlarini, xatto yangi dostonlarini ham yarata oladigan dostonchilar Sherobod dostonchilik maktabining o‘ziga xos xususiyatlarini, uning yashovchanlik sabablarini, boshqa baxshichilik maktablaridan farqini ham ko‘rsatib kelmoqdalar. Bular orasida nodir iste’dodga ega bo‘lgan marhum Qodir baxshi Rahimov izidan borayotgan o‘g‘llari Qahhor baxshi, Bahrom baxshi Rahimovlar, Xushvaqt baxshi Mardonaqulov, Shodmon baxshi kabi badihago‘y dostonchi baxshilar borligi quvonarli holdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Ergashev A. Sherobod dostonchilik maktabi. Fil.f.nom.diss. T.: 1991.
2. Ochilov N. XX asrning 6080 yillarida Janubiy O‘zbekiston vohasida xalq epik an’analarning saqlanish holati (Qodir baxshi Rahimov ijodi va repertuari asosida). Fil.f.nom.diss. T.: 2004.





## SHAHRISABZ DOSTONCHILIK MAKTABI

*Ulug‘bek ABRAYEV,  
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI  
Xalq ijodiyoti: (baxshichilik va dostonchilik)  
ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi.  
Ilmiy rahbar: Oygul AXMEDOVA,  
“Doston ijrochiligi” kafedrası professori v.b.,  
filologiya fanlari nomzodi.*

***Annotatsiya:** maqolada Respublikamiz hududida mavjud bo‘lgan an’anaviy dostonchilik maktablari folklorshunos olimlarimiz tomonidan aniqlanib, ularni o‘ziga xosliklari, dostonlarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari hamda baxshilarning poetik mahorati tahlil etilib muhim tadqiqotlar amalga oshirilganligi haqida so‘z boradi hamda Shaxrisabz dostonchilik maktabini termini shakllanishi bevosita Chiroqchi dostonchilik maktabi terminiga borib taqalishi ilmiy jihatdan tahlil etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** ma’naviy meros, dostonchilik maktablari, voha dostonchiligi, Chiroqchi dostonchilik maktabi*

Xalqimizning yuksak badiiy dahosi bilan yaratilgan baxshi san’atni asrab-avaylash va rivojlantirish bo‘yicha mamlakatimizda juda ko‘plab hayrli ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi “Baxshichilik san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4320-sonli qarori bilan baxshichilik ta’lim yo‘nalishini ochilishi, biz kabi yosh baxshilar uchun juda katta imkoniyat eshigini ochdi.

Ajdodlarimizning qoldirgan ma’naviy merosi biz uchun katta xazina. Bu xazinadan qancha foydalansakda kamaymaydi. Xalqimizning uzoq asrlar mobaynida yaratgan bebaho madaniy va ma’naviy merosi bo‘lmish folklor san’atini sinchkovlik bilan o‘rganish biz yoshlarning asosiy vazifamiz bo‘lmog‘i kerak.

Respublikamiz hududida mavjud bo‘lgan an’anaviy dostonchilik maktablari folklorshunos olimlarimiz tomonidan aniqlanib, ularni o‘ziga xosliklari, dostonlarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari hamda







baxshilarning poetik mahorati tahlil etilib muhim tadqiqotlar amalga oshirildi. Ammo shunday bo‘lsada, hali o‘rganilishi kerak bo‘lgan ijod namunalari qaynar buloq singari chiqib kelmoqda.

Xalqimizning bebaho ma’naviy boyligi hisoblanmish folklor namunalari orasida xalq dostonlari alohida o‘rin tutadi. Baxshichilik san’ati o‘zining qadimiy ildizlariga ega. Bu san’at ustozdan shogirdga, avloddan avlodga bevosita jonli ijro vositasida o‘tib kelmoqda. Folklorshunos olimlarimizning sa’yi harakati bilan respublikamizda bir qator dostonchilik markazlari - o‘nlab dostonchilik maktablari aniqlandi.

Ilmiy manbalarni o‘rganar ekanmiz, o‘zbek folklorini ilmiy o‘rganishga kirishilgan 20-30-yillarda Qashqadaryo-Surxondaryo hududi olimlarimiz tomonidan birmuncha e’tibordan chetda qolganligi qayd etib o‘tilgan. Keyinchalik ushbu hududda keng yoyilgan dostonlarni yozib olish, ustoz baxshilarni aniqlash asosiy dostonchilik maktablari, ularga xos xususiyatlar va boshqa masalalarni tadqiq etish ishlari H.Zarifov, M.Afzalov, M.Alaviya, O.Sobirov, A.Qaxxorov, M.Saidov, T.Mirzaev, M.Murodov, Q.Mamashukurov, A.Ergashev, Ch.Hamroev, T.Turdiev, D.Xalilova, N.Ochilov kabi fol’klorshunos olimlar tomonidan amalga oshirilganligini ko‘ramiz. O‘ndan ortiq dostonlar nashr ettirildi. Ammo biz hozirda ilmiy izlanish olib borayotgan tadqiqot ob’ektimiz bo‘lgan Shaxrisabz dostonchilik maktabi epik an’analarining saklanish holatini ma’lum bir davr qamrovida olib o‘rganishga yetarlicha e’tibor qaratilgan emas. Vaholanki, Qashqadaryo va Surxondaryoda ham baxshichilik san’at turi qadimgi davrlardan buyon rivojlanib, jonli ijroda shu kungacha yashab keldi. Bir qator baxshi - shoirlarimizning kuchli quvvat hofizasi, noyob iste’dodi, badihaguylik mahorati qadim dostonlarimizning jonli ijroda kuylab kelinishiga va keyingi avlod baxshilariga yetkazilishida muhim o‘rin egalladi.

Voha dostonchiligi haqida fikr yuritganda shuni alohida ta’kidlash kerakki, bu hududlarda dostonchilik an’anasi ancha kuchli va qadimiy xususiyatlarini saqlagan holda rivojlanib, jonli ijroda badiiy salohiyatini saqlab keldi.

Epik an’anaga munosabat, ya’ni ustoz va shogird, baxshi shaxsi va uning doston ijrosi, an’ana va badiha, jamoa va individual ijod, soz va so‘zning badiiy ta’sir kuchiga alohida e’tibor kabi xususiyatlar voha





baxshilarining o‘ziga xos uslub yo‘nalishlaridan hisoblangan. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, an’anaviy eposimizning janubiy vohadagi taraqqiyoti ham bevosita XIX asrga borib taqaladi. Ana shu davr mobaynida (undan oldin ham) vohada Sherobod, Boysun, Beshqo‘ton, Chiroqchi, Qamay dostonchilik maktablari bo‘lib, ular bir-birlari bilan uzviy aloqada bo‘lganlar. [1.10.]

Filologiya fanlari doktori Nasim Ochilov o‘z nomzodlik tadqiqotida biz o‘rganayotgan Shaxrisabz dostonchilik maktabi haqida quyidagi fikrlarni keltiradi. “Bugungi kunda ham folklorshunoslik fanida Chiroqchi dostonchilik maktabi termini o‘rnida Shaxrisabz maktabi qo‘llanilmoqda. Ushbu terminini fanga H.Zarifov.T.Mirzaevlar olib kirganlar. Shaxrisabz terminini olimlar Abdulla Nurali\1874.1957.Kitob tumani Qaynar qishlog‘i\ ijodi bilan bog‘laydilar. Folklorshunos olim A.Qahhorov Janubiy O‘zbekiston dostonchilik maktablarini uzoq yillar kuzatuv ustoz shogirdlik an‘analarini o‘rganishi asosida Abdulla Nurali o‘g‘lini chiroqchilik Rajab shoirning shogirdi va uni Chiroqchi dostonchilik maktabi vakili ekanligini fanda Shaxrisabz dostonchilik maktabi bo‘lmasligini takidlaydi. Bu fikrni folklorshunos olimlar M.Murodov va A.Ergashevlar ham qo‘llab quvvatlaydilar. Ana shu kuzatuvlarga tayangan holda aytish kerak. Janubiy O‘zbekiston vohasida Shaxrisabz dostonchilik maktabi termini o‘ringa Chiroqchi dostonchilik maktabi terminini qo‘llash kerak bo‘ladi”. Chiroqchi dostonchilik maktabi haqida so‘z ketganda, bu maktabning o‘ziga xos usul va yo‘nalishi haqidagi xususiylik bevosita Rajab shoir (XIX asr boshlari), Xolnazar shoir (XIX asr o‘rtalari), Iskandar shoir (XIX asr o‘rtalari), To‘ra shoir (XIX asr oxiri XX asr boshi), Abdulla shoir Nurali o‘g‘li (1874-1957), Hamro shoir Ergash o‘g‘li va boshqa ko‘plab ustoz baxshilar nomini tilga olish bilan bog‘liqdir. [1.11-12.]

Biz ham folklorshunos olimlarimizning yuqoridagi fikrlariga tayangan holda Shaxrisabz dostonchilik maktabi termini o‘ringa Chiroqchi dostonchilik maktabi terminini qo‘llash to‘g‘ri bo‘ldi deb o‘ylaymiz.

An’anaviy dostonchilikning tadrijiy davom etishi, rivojlanishi, bevosita dostonchilik maktabi baxshilarining ijro jarayonlari bilan bog‘liq. Janubiy O‘zbekiston vohasidagi Sherobod, Shaxrisabz dostonchilik maktablari g‘oyaviy yo‘nalishi va repertuar birligi





umumiy ko‘rinishda bo‘lsa-da, ijro usullari, poetik ifodadagi o‘ziga xos jihatlari bilan bir-biridan farq qiladi.

Folklorshunos olim H.Zarifov bu o‘ziga xosliklarni Sherobod dostonchilik maktabi misolida o‘z tadqiqotlarida ko‘rsatib bergan. “Sherobod baxshilari doimiy ravishda og‘zaki traditsiyani davom ettirib kelganlar, ular o‘zlarining repertuarlari va ijro usullari jihatidan bizga ma’lum dostonchilar bilan umumiy tomonlarga ega. Shu bilan birga ularning ba’zi bir o‘zlariga xos xususiyatlari ham mavjud, repertuarida boshqa oblastlarda bo‘lmagan ayrim dostonlar, jumladan, Go‘ro‘g‘lining o‘limi haqida doston bor”[2.264.]

Fikrimizni yakunlar ekanmiz, quyidagi takliflarni keltirishni lozim topdik. Shaxrisabz dostonchilik maktabi baxshilari uchun xos usullardan biri doston tekstlarini sho‘x, quvnoq kuylashdir. Ushbu maktabning so‘nggi vakili bo‘lmish Shomurod Tog‘aev o‘g‘li, Azim baxshi Xo‘jaevlar repertuarida hozirgi kunda ham ushbu maktabga xos ijro usullari oz bo‘lsa-da, saqlanib qolgan. Bugungi kunda respublikadagi mavjud san’at va madaniyat maktabalarida baxshichilik sinflari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. O‘quvchilarga baxshi san’atini o‘qitishda Janubiy O‘zbekiston baxshichilik maktablarining o‘ziga xos ijro an’analarini tiklagan xolda o‘rgatishni taklif etib qolardik.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Ochilov N. XX asrning 6080 yillarida Janubiy O‘zbekiston vohasida xalq epik an’analarining saqlanish holati (Qodir baxshi Rahimov ijodi va repertuari asosida). Fil.fan.nom.diss. T.: 2004.

2. Zarifov H. O‘zbek follaristika tarixidan\\O‘zbek folklori masalalari.\\ T.: Fan, 1970.





## “GO‘RO‘G‘LI” TURKUMIDAGI DOSTONLARDA NASLIY TURKUMLILIK

**Ramazon BOYQUCHQOROV,**  
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI  
Xalq ijodiyoti: (baxshichilik va dostonchilik)  
ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi.  
Ilmiy rahbar: **Asatillo SUNNATILLAEV,**  
“Doston ijrochiligi” kafedراس dotsenti v.b..

**Annotatsiya:** O‘zbek xalqi og‘zaki poetik ijodi g‘oyaviy-badiiy salmog‘i jihatdan juda boy bo‘lgan dunyo xalqalaridan biri hisoblanadi. Mana shu boy og‘zaki badiiy meros orasida xalq eposi – dostonlar yetakchi o‘rin egallaydi. Bu epos – dostonlar muayyan turkumlarga birlashadi. Ushbu maqolada “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlarda nasliy turkumlilik masalalari ilmiy tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** “Go‘ro‘g‘li”, turkum, doston, nasliy, murakkab, janr, folklor.

Turkumlik ijtimoiy voqelikga xos hodisa hisoblanib, tabiat va jamiyatdagi barcha narsalar mohiyati, shkli va xususiyatlari jihatidan muayyan guruhlarni, turkumlarni tashkil etadi.

Badiiy ijoddagi turkumlikda esa ma’lum guruhdagi asarlar yo janr xususiyatlari yo muayyan qahramonlari yohud mavzu umumiyliги va hokazolar jihatidan o‘zaro birikib turadi. Mana shuning uchun turkumlik masalasiga qaysi tomondan yondashilishiga qarab, uning murakkab va rang-barang qirralari namoyon bo‘laveradi.

O‘zbek xalqi og‘zaki poetik ijodi g‘oyaviy-badiiy salmog‘i jihatdan juda boy bo‘lgan dunyo xalqalaridan biri hisoblanadi. Mana shu boy og‘zaki badiiy meros orasida xalq eposi – dostonlar yetakchi o‘rin egallaydi. Bu epos – dostonlar muayyan turkumlarga birlashadi. Xalq dostonlaridagi mana shu turkumlarning vujudga kelishi, ya’ni turkumlashtirish masalasi xususida ilmiy adabiyotda turli xildagi fikrlar mavjud.

Tadqiqotchilar u yoki bu og‘zaki milliy epos materiallari zaminida turkumlik muammosini turli tomondan tadqiq etdilar.





Turkumlik nima, uning ta’rifi va turlari kabi bir qator masalalar o’rganilgan bo’lsa-da, biroq biroq xaligacha ma’lumotlar yetarli emas.

“Turkum”, “tirkumlik” terminlari o’zbek folklorshunosligida XX asrning 30-yillarning oxirlarida “sikl”, “sikilizatsiya”, “silsila” tarzida paydo bo’ldi. Buyuk Karimiy 1941-yilda chop etilgan Po’lkanning “G’o’ro’g’lining tug’ulishi” dostoniga yozgan so’z boshida “G’o’ro’g’lining tug’ulishi” G’o’ro’g’li dostonlari siklidan birinchi doston hisoblanadi – deb turkum o’rnida sikl so’zini ishlatadi<sup>58</sup>.

O.Madayev o’zining “Xorazm dostonlarining ijodiy prinsipi haqida ba’zi mulohazalar” maqolasida xalq og’zaki poetik ijodining metodi haqida fikr yuritib, ayni bir sahifaning o’zida “G’o’ro’g’li turkum dostonlari”, “G’o’ro’g’li sikl dostonlari” deb ikki xil qo’llaydi. M.Murodov esa “G’o’ro’g’li silsila dostonlari” deb turkum o’rnida tojikcha “silsila” terminini ishlatadi.

Turkum tushunchasiga Wikipediya internet tarmog’ida quyidagicha ta’rif beriladi: Turkum (majmua) - mushtarak g’oyaviy niyat, umumiy mavzu, qahramon va muayyan kompozitsion yaxlitlikka ega bo’lgan badiiy asarlar majmui<sup>59</sup>.

M.Mirzayeva “O’zbek xalq dostonlarida turkumlik” monografiyasida o’zbek folklori materiallaridan kelib chiqib, “turkum” tushunchasini quyidagicha ta’riflaydi: “Muayyan janr doirasidagi birdan ortiq mustaqil dostonlarning yo mavzusi, yo qahramon, yo epik joy, yo muayyan g’oya yohud asarda tasvirlangan voqealar xronologiyasi jihatidan guruhlanishiga “turkum” deyiladi”<sup>60</sup>. Bunga “Go’ro’g’li” dostonlari misol bo’la oladi – deb ta’kidlab o’tadi.

“Go’ro’g’li” dostonlari muayyan bir turkumni tashkil etuvchi, ular qahramonning bir-biriga uzviy bog’langan muntazam biografiyasi emas, balki turli baxshilar va dostonchilik maktablari tomonidan uning ayrim jasorat va mardliklarini tasvirlovchi turli davrlarda yaratilgan asarlarning keyinchalik nasliy, biografik va geografik turkumlik doirasida o’zaro birlashtirilishidan iborat. Chunki bu dostonlar uzoq davrlar mobaynida ko’plab iste’dodli dostonchilar va dostonchilik maktablarining kuchi bilan bunyod etilgan. Ularning ba’zilari uzoq tarixda, O’rta Osiyoda islom dini tarqalishidan avvalgi davrlarda

<sup>58</sup> Mirzayeva M. O’zbek xalq dostonlarida turkumlik. O’zbekiston SSR. Fan nashriyoti. 1985, 8-b.

<sup>59</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Turkum>

<sup>60</sup> Mirzayeva M. O’zbek xalq dostonlarida turkumlik. O’zbekiston SSR. Fan nashriyoti. 1985, 8-b.





maydonga kelgan. Ba’zilari bundan uch-to‘rt asr ilgari yaratilgan va zamonamizga qadar juda ko‘p xalq shoirlari tomonidan har qaysisining o‘z zamoni talablariga ko‘ra qayta-qayta ishlanib, ko‘p variantlarda bizgacha etib kelgan.

“Go‘ro‘g‘li” deganimizda bizning ko‘z o‘ngimizda juda katta va murakkab turkumlik paydo bo‘ladi<sup>61</sup>. V.M.Jirmunskiyning yozishicha, real tarixiy voqealikka asoslangan kichik bir voqeaning epik turkum tarzida shakllanganiga qadar qariyb ikki asr (XVII asrning boshidan to XIX asrning birinchi yarmiga qadar) vaqt o‘tgan. Albatta bu voqelik avval boshda lirik-dramatik xarakterdagi qisqa bir qo‘shiqda ifodalangan. Bo‘lishi mumkin. Keyinchalik esa u kengaytirilib epik tarzda tasvirlangandir<sup>62</sup>.

Xalq dostonchiligidagi turkumlik o‘z xarakteri jihatidan yozma adabiyotdagi turkumlikka qaraganda bir qadar murakkab. Bu murakkablik o‘z navbatida poetik ijodining, xususan eposning kollektiv ijod an‘analariga, yozma adabiy ijodning esa individual ijodkor an‘anasiga tayanishi bilan izohlanadi. Albatta, xalq eposining yaratilishi va yashashi ham bevosita ijodkor baxshi shaxsiyati bilan bog‘liqdir. Demak baxshi shaxsiyati kollektiv kollektiv an‘anasini uni yangilovchi, rivojlantiruvchi ijodkordir. Boshqacha qilib aytganda, “baxshi” – keng ma’noda xalq dostonchisi, doston kuylovchi, yodda saqlovchi va nasldan-naslga o‘tkazuvchi san’atkordir<sup>63</sup>. Shunday ekan, xalq dostonchiligida turkumlikning yuzaga kelishi bevosita baxshilar faoliyati va ularning shaxsiyatiga ma’lum ma’noda bog‘liqdir. Biroq o‘zbek dostonchiligida, shuningdek, ko‘pgina turli xalqlar eposida, u yoki bu syujetning tarixiy asoslari – genezisi hamda mazkur syujetning baxshi shaxsiyati bilan bog‘liligi jihatdan yetarlicha faktik materiallar to‘planmaganligi ko‘p o‘rinlarda tadqiqotchilar xalq dostonlaridagi turkumlik masalasiga umumiy jihatdan yondashadilar. Biroq bu xususida folklorshunos M.Saidovning quyidagi fikriga biz to‘la qo‘shilamiz. U shunday yozadi: “Demak, xalq dostonini uni ijro etuvchi shaxs bilan birgalikda qabul qilish kerak va dostonning muayyan varianti tekchirilayotganda kollektiv ijod bilan individual ijod

<sup>61</sup> Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – М., 1962, с. 34-35.

<sup>62</sup> Mirzayeva M. O‘zbek xalq dostonlarida turkumlik. O‘zbekiston SSR. Fan nashriyoti. 1985, 9-b.

<sup>63</sup> Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. Toshkent, 1969, 9-b.





birgalikda ko‘rilishi kerak”<sup>64</sup>.

O‘zbek dostonchiligida turkumlik xilma-xil shakllarda namoyon bo‘lgan. Shu tufayli bir-biridan murakkab, keng qamrovli xilma-xil turkumlar yuzaga kelgan. Bunday turkumlarga kirgan dostonlarning birlashish yo‘llari va prinsiplariga qarab turkumlikning muayyan turlari yuzaga keladi. O‘zbek xalq dostonchiligida geografik, biografik, tarixiy va nasliy turlari bor.

1. *Geografik turkumlik.* Turkumlikning bu turida u yoki bu guruhdagi epos namunalari o‘z asosidagi voqealarning qaysi geograik joy bilan bog‘liq ekanligiga qarab birlashadi. Eposdagi umuminsoniy g‘oyalar, xalqning orzu-umidlarini, intilish va kurashlarini kuylovchi asar qayerda yaratilganligini aniqlab bo‘lmas va bunga hojat ham qolmas edi<sup>65</sup>. Buning ustiga o‘zbek dostonchiligi tarixida bunday hodisalar ayd etilgn emas. Umuman olganda, eposning biror namunasining biror geografik zonada yuzaga kelganligini aniqlash ilmiy maqsad uchun kerak, xolos. Xalq dostonining ahamiyati uning qayerda yaratilishi bilan emas, balki qaysi davrga xos tarixiylikni aks ettirishi, ijtimoiy-ma’naviy xazinaga nima qo‘shilganligi bilan belgilanadi. Demak, eposdagi geografik turkumlik namunalari faqat uning yaratilishi joyigagina bog‘lab baholash uncha to‘g‘ri bo‘lmaydi. Binobarin, geografik turkumlik deb eposda aks etgan voqealarning muayyan epik yurt va u bilan bog‘liq holda tarixiylikning guruhlanishiga aytiladi. Tadqiqotlar va dostonlarni qiyosiy o‘rganish shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘zbek xalq eposida geografik turkumlik nasliy va biografik turkumlikka qaraganda yaxshi rivojlanmagan.

2. *Tarixiy turkumlik.* Xalq eposidagi turkumlikning turlaridan yana biri tarixiy turkumlik hisoblanadi. Turkumlikning bu turini eposdagi tarixiylik prinsipi aralashtirib yubormaslik kerak. Aks holda, tarixiy turkumlik tabiatini, uning yuzaga kelish sabablarini izohlashda chalkashlik paydo bo‘ladi. Ma’lumki har qanday epos namunasi o‘zida jamiyatning u yoki bu tarixiy taraqqioyot bosqichini, biror ijtimoiy-iqtisodiy tuzumga xos belgilarni yoxud tarixiy voqealarni aks ettiradi<sup>66</sup>. Tarixiy turkumlik shundayki, eposda tasvirlangan voqealar biror tarixiy joy, shaxs yoki voqea bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Shunda ham

<sup>64</sup> Saidov M. O‘zbek dostonchiligida badiiy mahorat. Toshkent, 1969, 15-b.

<sup>65</sup> Mirzayeva M. O‘zbek xalq dostonlarida turkumlik. O‘zbekiston SSR. Fan nashriyoti. 1985, 11-b.

<sup>66</sup> Mirzayeva M. O‘zbek xalq dostonlarida turkumlik. O‘zbekiston SSR. Fan nashriyoti. 1985, 13-b.





bunday epos tarixiy joy, shaxs yoki voqeaning aynan tasviri bo‘lmay, balki ana shu tarixiy asosning badiiy umumlashgan in’ikosi sifatida qaraladi. Tarixiy turkumlikning asosiy xususiyati bu turkumga kiruvchi asarlarning negizini ularning bir tarixiy faktlardagi umumiylik ularni muayyan turkumga jamlaydi.

3. *Biografik turkumlik*. Bir epik qahramon hayoti, uning epik sarguzashtlari bilan bog‘liq har biri tugal syujet qurilishiga, tugal g‘oyaviy-badiiy qimmatga ega bo‘lgan mustaqil asarlar zanjiriga biografik turkumlik deyiladi<sup>67</sup>. Biografik turkumlik ko‘p xalqlarning eposida uchraydigan hodisa. Biografik turkumlik har bir xalq eposi doirasida ham turli darajada voqe bo‘ladi. Biografik turkumlik o‘zbek xalqi eposiga taalluqli barcha epik qahramonlarda ham yuzaga kelmay, balki bunday turkumlik xalq o‘rtasida mashhur bo‘lgan epik qahramonlar bilan bog‘liq holda yuzaga kelganligini ko‘ramiz.

Biografik turkumlik doirasi nisbatan keng bo‘lib, unga epik qahramonga har bir ishda ko‘maklashuvchi bahodir yigitlar bilan bog‘liq dostonlar ham mansubdir. Chunki bu xildagi dostonlarda ham epik qahramon yo bevosita ishtirok etadi yoki o‘sha dostondagi voqealar epik qahramon nomi bilan bog‘liq bo‘lib, uning biografiyasini u yoki bu tomondan to‘ldiradi. Mana shularning barchasi biografik turkumlik doirasini kengaytiradi.

“Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlari yuksak san’at asari sifatida xalq tarixining badiiy sintezi hisoblanadi. Uzoq o‘tmishlardan buyon tarixning yo‘ldoshi, uning chinakam badiiy aks-sadosi bo‘lib kelgan xalq og‘zaki poetik ijodi namunalarida, shu jumladan dostonlarda, tarixiy voqealar xalq ommasining tushunchalari, tasavvuri nuqtai nazaridan, mehnatkash xalq intilishlaridan kelib chiqib badiiy shakllarda aks ettiriladi. Har bir san’at asarida ilgari surilgan g‘oya, mazmun tinglovchi qalbiga badiiy obraz orqali yetkaziladi, aks holda, asarning emotsional ta’siri bo‘lmaydi. Shuning uchun ham baxshi doston kuylar ekan, birinchi galda uning emotsional ta’siri, badiiy ifoda va tasvir vositalari ustida bosh qotirib, badiiy mazmun go‘zalligi bilan

---

<sup>67</sup> Mirzayeva M. O‘zbek xalq dostonlarida turkumlik. O‘zbekiston SSR. Fan nashriyoti. 1985, 16-b.







unga mos shakl topishga intiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mirzayeva M. O‘zbek xalq dostonlarida turkumlik. O‘zbekiston SSR. Fan nashriyoti. 1985.
2. Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – М., 1962.
3. Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. Toshkent, 1969.
4. Saidov M. O‘zbek dostonchiligida badiiy mahorat. Toshkent, 1969.





## **XALQ DOSTONLARIDA BARQAROR EPIK FORMULALARNING TUTGAN O‘RNI**

**Orifjon ABDISAMADOV,**  
*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI  
Xalq ijodiyoti: (baxshichilik va dostonchilik)  
ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi.  
Ilmiy rahbar: Oygul AXMEDOVA,  
“Doston ijrochiligi” kafedrası professori v.b.,  
filologiya fanlari nomzodi.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada epik bayon va epik tasvirda belgilovchi darajada ahamiyatga ega bo‘lgan barqaror formulalar, ularni baxshi mahoratida tutgan o‘rni haqida fikr yuritiladi. Barqaror epik formulalarning badiiy tabiati, ulardagi semantik ko‘chimlar va bu formulalarning an‘ana bilan aloqadorligi kabi masalalar haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *epik bayon, epik tasvir, barqaror formula, an‘ana, baxshi badiha.*

Xalq eposi uzoq davrlar shakllanish va jonli ijro bosqichlarini bosib o‘tganligi, ana shu bosqichlarda mustahkam epik an‘analar yuzaga kelgan. Epik an‘analar esa mavhum tushunchalar bo‘lmay, ular bir nechta sathlarda amal qiluvchi aniq poetik hodisalardan iborat. Ana shu an‘analardan biri epik mazmun bo‘lib, u o‘z ichiga asar voqealari hamda personajlar faoliyatini qamrab oladi[1.160.]. Shu sabab, baxshi mahorati ko‘p narsaga bog‘liq bo‘lib, u avvalo an‘anadan boshlanadi. Doston kuylash an‘anasi asrlar bo‘yi avloddan avlodga, og‘izdan og‘izga o‘tib kelgan. Baxshining shaxsiy mahorati faqat an‘ana doirasidagina ro‘yobga chiqadi. Dostonchilikning sir-asrorini puxta bilmagan ijrochi o‘z mahoratini namoyon qila olmaydi. Bu sir-asror asosan doston kompozitsiyasida namoyon bo‘ladi. Folklorshunoslikda bu hodisani epik qolip deb yuritishadi. Professor M.Saidovning ta’kidlashicha, epik qolip va an‘anaviy formulalar ot ta’rifi, poyga tavsifi, safarga otlangan qahramonga ota, ona yoki biror yoshi ulug‘ kishining nasihati, yo‘l bo‘lsin va unga javob, jang oldidagi faxriya yoki





maqтанish-manmanlik kabilar doimiy o‘rinlarda ishlatilib, dostonchilikda muhim o‘rin tutadi[2.52.].

Epik qolip baxshi uchun tayyor andoza bo‘lib xizmat qiladi. Agar iqtidorli ijrochi bo‘lsa, o‘zi tomonidan yangi lavhalarni ham qo‘shib, syujetni yanada boyitadi. Shu sabab, baxshi ijodida epik formulalar, epik klishelar, doimiy epitetlarning asarda qo‘llanishi yordamida ijodiy badihaga keng imkoniyatlar yaratigan.

S.Mirzayeva formulaviylik arxaik epos uchun emas, balki faqat klassik epos uchun xos xususiyat ekanligin ta’kidlaydi.. U, epos ijodkorlari uzoq ajdodlarning tabiat va jamiyatdagi voqea-hodisalar haqidagi, turmush tajribalarida sinalgan, tasdiqlangan yoki inkor etilgan poetik xulosalari asosida epik formulalarni yaratganlari va bunday poetik hukm yoki xulosalarning doimiyliigi, o‘zgarmasligi esa formulalarning barqarorlashishiga, tasvir yoki bayonda epik xotira deb atalmish nodir hodisaning shakllanishiga yo‘l ochib berganligini dalilaydi. Barqaror epik formulalar epik xotirani mustahkam tutib turuvchi ustunlardir, deydi. [1.166.].

Akademi T.Mirzayev baxshi tayyorlashda ustoz-shogird an’analri haqida fikr bildirar ekan, quyidagilarni keltiradi. “...xalq dostonlarini eshitish va kuylash orqali og‘zaki o‘rganish professional ta’limning eng birinchi va asosiy shartidir. Dastlab termalar, dostonlardagi an’anaviy misralar (**“Xazon urmay bog‘da gullar so‘ldimi, So‘lgan gulga bulbul kelib qo‘ndimi”**, **“Yana bahor bo‘lsa ochilar gullar, Gulni ko‘rsa mast bo‘p sayrar bulbullar’**, **“Ot chopsa gumburlar tog‘ning darasi, Botirni ingratar nayza yarasi”** kabi), umumiy o‘rinlar (epik klishelar), ya’ni ba’zi bir jo‘z’iy o‘zgarishlar bilan ko‘pchilik dostonlarda takrorlanadigan parchalar (qahramonga nasihat, uni kuzatuv, qahramonlarning uchrashuvlaridagi savol-javoblari, qahramonlarning portretlari, otni egarlash, ot ta’rifi, otda safar, jang tasviri, boshlanma, tugallanma, voqealarni bir-biriga bog‘lovchi tasvirlar kabi) yodlatilgan. So‘ng ayrim olingan bir doston, keyinroq esa, ustoz repertuaridagi barcha asarlar o‘rgatilgan. Ayrim olingan bir dostonga xos an’anaviy formula va epik klishelar bo‘lganidek, barcha dostonlarga tegishli traditsion uslub elementlari ham mavjud bo‘lgan” [3.35.].

Barqaror epik formulalar muayyan syujet bilan bog‘liq bo‘lmagan, lekin xalq baxshilarining epik ongi va epik xotirasini ushlab





turadigan, ularni badiha qilishga undab, yo‘naltiradigan hodisadir. Shu ma’noda barqaror epik formulalar xalq dostonlarining muhim, yetakchi uslubiy xususiyati hisoblanadi.

Xalq eposida barqaror formulalarning tutgan o‘rni va badiiy vazifalari, ayrim formulalarda ifodalangan mazmunning tarixiy asoslari haqida o‘zbek eposshunosligida bir qancha kuzatishlar olib borilgan. O‘zbek eposshunosligida ilk bor V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifovlar stilistik formulalarning doston syujetidagi muayyan vaziyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan va syujet bilan bog‘liq bo‘lmagan turlari haqida e’tiborga molik fikrlarni bildirganlar, deydi S.Mirzayeva. Birinchi turga mansub barqaror formulalar syujet voqealari rivojiga, muayyan vaziyatlar yechimiga ta’sir ko‘rsatishini, ikkinchi turga mansub barqaror formulalar baxshi yoki personaj nutqida qo‘llanilib, ifodalanadigan fikrga ritm, vazn va qofiya jihatidan qolip vazifasini ado etishini ta’kitlab o‘tgan. [1.167.]

Akademik T.Mirzayev baxshi hatto dostonlardagi o‘ta an’anaviy misra va epik klishe'larga ham o‘zgartishlar kirita olishini Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining “Alpomish” dostonida “Xazon bo‘lmay bog‘da gullar so‘ldimi” an’anaviy misrasi orqali ochib beragani ko‘rishimiz mumkin.

Xazon **bo‘lib** bog‘da gullar **so‘lgandir.**

Xazon bo‘lib bog‘da gullar **so‘lganda;**

Xazon bo‘lib bog‘da gullar **so‘lgandi;**

Xazon bo‘lib bog‘da gullar **so‘libdi;**

Xazon bo‘lib bog‘da gullar **so‘ladi;**

Xazon bo‘lib bog‘da gullar **so‘lmadi;**

Xazon bo‘lib bog‘da gullar **so‘lsin-da;**

Xazon bo‘lib bog‘da gullar **so‘lganmi;**

Xazon bo‘lib bog‘da gullar **so‘larmi;**

Xazon **bo‘lmay** bog‘da gullar **so‘lmasa;**

Xazon bo‘lmay bog‘da gullar **so‘lmasin;**

Xazon **bo‘lsa** bog‘da gullar **so‘lmasmi;**

Xazon bo‘lsa bog‘da gullar **so‘lar deyman.** [3.70.]

Yuqoridagi parchalardan ko‘rinib turibdiki, barqaror epik formulalar haqida “Alpomish” dostonining o‘zbek variantlarini qiyosiy o‘rgangan akademik T.Mirzaev alohida to‘xtalib o‘tgan. U “Alpomish” dostoni va uning variantlarida turlicha vaziyatlarda, turlicha shakllarda





qo‘llanilgan o‘n uchta formula haqida to‘xtalib o‘tadi. Biz uchun qimmatli tomoni shundaki, T.Mirzayev har bir barqaror formuladagi ayrim so‘zlarning, ko‘proq, fe‘l shakllarining o‘zgartirilishi orqali turli vaziyatlarda xilma-xil vazifalarni ado etishga moslab qo‘llash mumkinligi haqida diqqatga sazovor fikrlar bildiradi [4.141.].

Barqaror formulalar epik bayon va epik tasvirda belgilovchi darajada ahamiyatga ega ekanlar, ular bilan bog‘liq masalalar talaygina. Shuni inobatga olib, barqaror epik formulalarning badiiy tabiati, ulardagi semantik ko‘chimlar va bu formulalarning an’ana bilan aloqadorligi kabi masalalarni ta’lim tizimida o‘rgatib borish lozim. Barqaror epik formulalar doston ijrochiligida, epik asar mazmunini bayon etishda muhim ahamiyatga ega.

Barqaror epik formulalar alohida bir syujet bilan bog‘liq bo‘lmagan, lekin xalq baxshilarining epik ongi, bilimi va epik xotirasi asosida yotuvchi, xalq dostonlari ijrosi jarayonida ularni boshqarib turuvchi, badiha qilishga imkon tug‘diruvchi poetik qoliplardan iboratdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mirzaeva S. O‘zbek xalq romanik dostonlar poetikasi. – Toshkent: Fan, 2004.
2. Saidov M. Xalq dostonlarida epik qolip va an’anaviy formulalar // O‘zbek filologiyasi masalalari. – Toshkent: 1970.
3. Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. – Toshkent: Fan, 1979.
4. Mirzaev T. “Alpomish” dostonining o‘zbek variantlari. – Toshkent: Fan, 1968.





## XORAZM XALFACHILIK SAN’ATI

**Mardona XUDAYBERGANOVA,**  
*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI*  
*Xalq ijodiyoti: (baxshichilik va dostonchilik)*  
*ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi,*  
**Ilmiy rahbar: Oygul AXMEDOVA,**  
*“Doston ijrochiligi” kafedrasida professori v.b.,*  
*filologiya fanlari nomzodi.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Xorazm vohasida xalfachilik an’analari qadimdan boshlab keng ommalashgani hamda hozirgi kunda xalfa deganda dastlab, to‘ylarda xizmat qiladigan, garmon chalib ashula aytadigan ayol va uning yonidagi doirachi bilan raqqosadan iborat kichik ansambl tushunilishi, qolaversa, to‘y va azalarda diniy va dunyoviy kitoblarni qiroat bilan o‘qiydigan ayollar ya’ni xalfa haqida so‘z yuritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *xalfa, qissaxon, shoira, ijrochi –sozanda xalfalar, qiroatxon-qissaxon xalfalar.*

Xorazm – azaldan san’atkorlar diyoridir. Xorazm vohasida xalfachilik an’analari qadimdan boshlab keng ommalashgan. Xorazm xalfachilik san’ati boshqa hududlarda uchramasligi hamda o‘ziga xos ijro yo‘li bilan boshqa san’at turlari ichida farqlanib turadi. Hozirgi kunda xalfa deganda dastlab, to‘ylarda xizmat qiladigan, garmon chalib ashula aytadigan ayol va uning yonidagi doirachi bilan raqqosadan iborat kichik ansambl tushuniladi. Qolaversa, to‘y va azalarda diniy va dunyoviy kitoblarni qiroat bilan o‘qiydigan ayollar ham xalfa deb yuritiladi.

Xalfalarning dostonchi-shoira, qiroatxon-qissaxon, ijrochi-sozanda toifalari mavjud bo‘lib, ular o‘ziga xos ijro yo‘nalishi bilan ajralib turadi.

Folklorshunos olim S.Ro‘zimboev “Xorazm dostonlari”<sup>68</sup> monografiyasida doston kuylovchi xalfalar repertuari, qissaxon

<sup>68</sup> Рўзимбоев С. Хоразм дostonлари. –Тошкент: Фан, 1985. –Б.27-33 (96 )





xalfalarning ijrochilik uslubi xususida so‘z yuritib, ular uch guruhga ajratadi. 1. Ijodkor shoira xalfalar. 2. Ijrochi –sozanda xalfalar. 3. Dostonlarni soz va kuysiz qiroat bilan o‘qib eshittiradigan xalfalar [1.27-33.].

H.Abdullayev esa xalfalarni ijrochi va ijodkor (shoira) tarzida ikki guruhga ajratadi. Qiroatxon-qissaxon xalfalarni ham ijrochi san’atkorlar qatoriga qo‘shadi. [2.].

Shoira-dostonchi xalfalar faqatgina san’atkor ashulachigina emas, balki doston matnlarini to‘la o‘zlashtirib, ularning she’riy va nasriy qismlari bilan birgalikda baxshiyona uslubda ayollar davrasida kuylay olganlar va ayni paytda shoira sifatida ham tanilgan xalfalardir. Xonim xalfa, Anash xalfa va Ojizalar ijodi bunga misol bo‘la oladi.

Shoira xalfalar ijodiga xos eng muhim xususiyatlardan biri ularga “Oshiq” dostonlari she’riyatining kuchli ta’siridir. Ular dostonlar tarkibida ishlatiladigan she’riy parchalarni yod olishgan. Shu sababli she’rlaridagi ko‘plab iboralar, xususan, uslub doston qo‘shiqlari ruhiga mos keladi. Onajon Sobirova “Tohir va Zuhra”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Oshiq Mahmud”, “Oshiq Alband” kabi dostonlarni yaxshi bilgan, ular tarkibidagi qo‘shiqlarni, ba’zan dostonning o‘zini yoi bir qismini ayollar yig‘inlarida ijro etgan.

She’riy misralar xalqona ohangga boy, an’anaviy xalq qo‘shiqlariga juda hamohang o‘z navbatida unda individual ijodga xos omillar Shoira-xalfa ko‘p hollarda turli to‘y-ma’rakalarda, asosan, doston qo‘shiqlaridan parchalar ijro etishgan. Aksariyat hollarda “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Oshiq Alband”, “Tohir va Zuhra” dostonlari tarkibidagi qo‘shiqlar ular repertuarini bezagan. Maxsus auditoriyalardagina ushbu dostonlarning matni to‘laligicha ijro etilgan.

Folklorshunos olim N.Sobirova o‘z tadqiqotlarida xalfalar ijodini, xususan, shoira xalfalarning individual ijodini o‘rganishda va targ‘ib qilishda masalaga jiddiy yondoshish lozim, deb ta’kidlaydi. Negaki, ayrim xalfalar dostonlar tarkibidagi she’rlarni ham o‘z ijodi sifatida taqdim qilishadi. Ba’zan ularning shogirdlari ustozlarining individual ijodi bilan doston qo‘shiqlarini almashtirib yuborishadi. [3.169.]

Ayollar orasida qissa-dostonlar o‘qiydigan xalfalar davrasi esa ancha keng bo‘lib, yigirma-yigirma besh kishi doston tinglagan. Ular aksariyat ma’rakalarda agiologik (diniy) xarakterdagi “Bobo Ravshan”,







“Qulxo‘ja Ahmad”, “Ibrohim Adham” kabi dostonlarni o‘qib eshittirishgan. To‘ylarda esa “Oshiq G‘arib”, “Oshiq Alband”, “Asli-Karam” kabi sevgi-sarguzasht dostonlari o‘qilgan. Qissaxon xalfalar she’riy parchalarni “yarim kuylash” ohangida amalga oshirganlar. Nasriy matnlar esa mazmuniga qarab, tantanavor, sokin, qayg‘uli tarzda tinglovchilarga yetkazilgan. [3.]

N.Sobirova qissaxon xalfalar repertuarini asosan uch toifaga ajratish mumkinligin ko‘rsatib o‘tadi:

**1. Ishqiy-romanik mavzusidagi dostonlar:** “Tohir va Zuhra”, “Yusuf va Zulayho”, “Layli va Majnun”, “Qumri va To‘ti”, “Malikai Zavriyo”, “Asli-Karam”, “Hilola-G‘arib”, “Oshiq G‘arib”, “Sayod-Hamro”, “Oshiq Alband”, “Oshiq Najab”, “Miskin va Gulqand”, “Xiromon pari”, “Farhod va Shirin”, “Zaynularab” va boshqalar.

**2. Jangnoma, qaramonlik-romanikmavzusidagi dostonlar:** “Yusuf-Ahmad”, “Tulumxo‘ja”, “Shahriyori olam”, “Go‘ro‘g‘li” turkumidan: “Bozirgon”, “Xirmondali”, “Avazxon”, “Go‘ro‘g‘lining o‘limi” “Rustami doston” va boshqalar.

**3. Diniy-tasavvufiy mavzusidagi dostonlar:** “Qulxo‘jaahmad”, “Bobo Ravshan”, “Ibrohim Ahmad” “Nurnoma”, “Sa‘d Vaqqos” (Doshqin bobo hikoyati), “Juhud o‘g‘lon”, “Kiyik”, “Me‘rojnoma”, “Boqirg‘on kitobi”, “Imom A‘zam qissasi” va boshqalar.

**4. Odob ahloq, hikmatnoma mavzusidagi dostonlar:** “Devoni hikmat”, “Qissai Mashrab”, “Maxtumquli”

**5. Mifologik–ertak tip syujetli dostonlar:** “Roi chin”, “Gul-Sanobar”, “Hurliqo-Hamro”, “Malikai Dilorom”. [3.171-172.]

Binobarin, dostonchi-qissaxon xalfalar eng qadimdan kelayotgan an’analar davomchilaridir. Ularning ibtidosi “Avesto” gohlarini ijro etgan “Qalpa” larga borib taqaladi. [3.]

Xullasa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, Xorazm xalfachilik san’atini asrab qolish va keyingi yosh avlodga butunicha yetkazishda hali qilinish kerak bo‘lgan bir qator vazifalar turibdi. Respublikamiz Prezidenti tomonidan baxshichilik san’atini rivojlantirish sohasidagi qator Qarorlarida belgilangan vazifalarni izchil bajarib borish muhim







ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda xalfa san’atini o‘qitish ta’lim tizimga olib kirilganligi quvonarli xol. Baxshichilik san’atini rivojlantirish bo‘yicha o‘tkazilayotgan seminarlar, Konferensiyalar biz yosh baxshilar, jirovlar, xalfalarni ilm olamiga olib kirishga yaqindan yordam berishiga ishonamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Рўзимбоев С. Хоразм дostonлари. –Тошкент: Фан, 1985.
2. Абдуллаев Ҳ. Халфалар репертуари ва фольклор алоқалари // Адабий мерос, 1982.–№2. –Б.30-37.
3. Собирова Н. Хоразм бахши ва халфачилик анъаналари / Монография. – Тошкент: ЎзР ФА «Фан» нашриёти, 2021. 250 б.





## SIRDARYO VILOYATI BAXSHICHILIK MAKTABI NAMOYONDALARI VA ULARNING O‘ZIGA XOS IJRO YO‘LLARI

*Dilmurod GULMUROTOV,*  
*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI*  
*Xalq ijodiyoti: (baxshichilik va dostonchilik)*  
*ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi,*  
*Ilmiy rahbar: Oygul AXMEDOVA,*  
*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI*  
*“Doston ijrochiligi” kafedrası professori v.b., f.f.n.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Sirdaryo viloyati baxshilari repertuarining o‘rganilishi, ushbu poetik maktabning umumyzbek dostonchiligidagi o‘rni, hamda o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *ustoz-shogird an’anasi, Sherobod dostonchilik maktabi, chechan, baxshi, badiha, badihago‘y.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev III Xalqaro baxshichilik festivali ishtirokchilariga tabrigini yo‘llar ekanlar, yurtboshimizning quyidagi gaplari biz Sirdaryolik baxshilarni to‘lqinlantirib yuborganini aytib o‘tishim joiz.

“Qadim-qadimdan do‘mbira va chanqovuz sadolari yangrab kelgan, folklor bo‘yicha boy meros va an‘analarga ega bo‘lgan bu saxovatli diyor bag‘ridan Murod baxshi, Hamroqul baxshi, Gulmurod baxshi, Akram bulbul, Saidahmad va Saidmurod baxshi kabi ijodkorlar, Sirdaryoning faxru g‘ururiga aylangan To‘ra Sulaymon va Halima Xudoyberdieva singari atoqli shoirlar yetishib chiqqanini el-yurtimiz yaxshi biladi. Ularning xalqona donishmandlik bilan yo‘g‘rilgan baxshiyona ohanglari hozir ham munosib izdoshlar sozi va so‘zida jaranglab turibdi”[1.]

Sirdaryo viloyati aholisi turli joylardan ko‘chib kelib, bu viloyatni gullab-yashnashiga o‘z hissa qo‘shgan. Viloyatimizda baxshichilik san’atining rivojlanishi hamda bu san’atni chin ma’nodagi asoschilaridan biri 1926- yilda tug‘ilgan Sayidahmad baxshi





hisoblanadi. Asli Novgandi qishlog‘idan bo‘lgan Sayidahmad baxshi 1941-yilda Tojikiston Respublikasidan Sirdaryo viloyati Boyovut tumani 3-bo‘limiga ko‘chib kelgan, 1974-yilda esa Guliston tumanining Navoiy qishlog‘iga ko‘chib o‘tgan. Ota-bobolari shoir o‘tgan Sayidahmad baxshi olti sulolaning to‘rtinchi vakilidir. Bu sulolaning birinchi vakili Azim shoir, ikkinchi vakili Qodir baxshi, uchunchi vakili Gulmurod baxshi hamda to‘rtinchi vakili Sayidahmad baxshi, o‘g‘li Sayidmurod hisoblanadi.

“Otamning aytishicha baxshichilik qondan-qonga o‘tarkan. O‘n ikki yoshimdan boshlab do‘mbira chalib, doston-termalar aytib kelyapman. “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Kuntug‘mish”, “Yunus pari”, “Misqol pari”, “Xasanxon”, “Ravshan va Zulxumor”, “Avazxon va Intizor” dostonlarini xalq orasida, to‘y-ma‘rakalarda kuylab yurganman”, deya xotirlaydi Sayidahmad baxshi.

Darhaqiqat, baxshilar azaliy an‘analarga sodiq qolgan holda, o‘zlariga o‘rinbosar, shogirdlar tayyorlashadi, ya‘ni sulola qoldirishadi. Ular davomchilari sifatida birinchi navbatda farzandlari, nabiralari, jiyanlarining qo‘liga do‘mbira beradilar. Xalqimizning “Qondan-qonga, jondan-jonga” maqoli naqadar to‘g‘ri ekanligini Sayidahmad baxshi sulolasi hayotida kuzatishimiz mumkin. Men ham bevosita shu sulolaning yettinchi vakiliman. Sayidahmad baxshining o‘g‘li Sayidmurod baxshining nevarasiman.

Sayidahmad baxshi ustozlaridan o‘rgangan dostonlarni mahorat bilan ijro etibgina qolmay, kishilarga mavzuning mazmunini ham uqtira oladi. Bundayin xislat baxshi to‘qigan termalarda yanada sezilib turadi. Uning yarattan termalarida oddiy, biroq hayotiy mushohadalar yotadi.

Yo‘llar xarob bo‘lar karvon yurmasa,  
Tog‘lar xarob bo‘lar tuman bo‘lmasa,  
Cho‘llar xarob bo‘lar Xizr yurmasa,  
Bog‘lar xarob bo‘lar-bog‘bon bo‘lmasa,  
Podsho xarob bo‘lar taxti bo‘lmasa,  
Yigit xarob bo‘lar baxti bo‘lmasa,  
Bulbul xarob bo‘lar qo‘nar guli bo‘lmasa,  
Ko‘llar xarob bo‘lar o‘rdak-g‘ozi bo‘lmasa,  
Odam xarob bo‘lar tili bo‘lmasa,  
Daryo xarob bo‘lar suvi bo‘lmasa,  
Tulpor harob bo‘lar yol quyrug‘i bo‘lmasa,





Baxshi xarob bo‘lar qo‘lida sozi bo‘lmasa.

Sayidahmad baxshining yuqoridagi termasini tahlil etar ekansiz, uning termasida xalq maqollari, iboralari mazmuni misralarda, baxshining quvvai hofizasida jamlanganini ko‘rasiz. Baxshi o‘z termasida daryoni, yo‘lni, insonni asl mohiyati nima ekanligini bir-biri bilan bog‘lab, taqqoslash bilan birga baxshi xalqining baxshiligi ovozi va sozida, uning ilhom manbai do‘mbirasida ekanini uqtirib ketadi.

Baxshi deb shuni aytadi,  
Gapni gapga ulasa,  
Qichqirib turib aytganda,  
Tog‘- u toshlar qulasa,  
Chin berilib ingrasa,  
El- u elat yig‘lasa,  
Shoir deb shuni aytar  
Yurak gapin yozganni.

Baxshi san’atining o‘ziga xosligi, murakkabligi san’atkor baxshi- shoirlardan mahorat va iste’dod talab qilishin Sayidahmad baxshining aytgan termalaridan bilish mumkin. Baxshilarning ijrochilik va ijodkorlik faoliyati bir necha vaqt jarayonida shakllanadi, shuning natijasida faqat o‘zlariga xos ijodiy yo‘nalish, uslub va xususiyat vujudga keladi.

Otam Sayidmurod baxshi ustozlari haqida eslaganda quyidagi fikrlarni takrorlard: - “Otamning hikoya qilishlaricha bobolari baxshi- shoir bo‘lib o‘tgan ekanlar. Bizning urug‘ga Xizr bobo dorigan emish. Bobomning tushlariga Xo‘jai Xizr bobo kirib, manglayingga beraymi, tanglayinggami deganlarida, bobom tanglayimga bering degan ekanlar. Shundan keyin ular baxshi bo‘lib, bizning sulola paydo bo‘lgan ekan. Demak, mening tom ma’nodagi ustozlarim bobolarim va albatta otam Sayidahmad hisoblanadi. Uyimizda baxshilar yig‘inlari bo‘lard. Otamning ustozlari Nurali baxshi va uning ukasi Akrombulbul Sobirovlar (ular Sirdaryo viloyati Shirin shahrida yashagan va shu yerda vafot etgan.), o‘rtoqlari Qozog‘iston xalq oqini Qoldibek oqin, Qirg‘iziston xalq oqini To‘xtag‘ali oqin, Olmaliqlik Omon shoir, Qozog‘iston oqinlari Yetmishboy oqin, Hoshim oqin, Qirg‘izistonlik Mamasait oqin, Toshkentlik Anorqul baxshilar birgalikda to‘y- ma’rakalardan so‘ng o‘zaro baxshilar aytishuvini uyushtirishardilar. Men ana o‘shalarning doston va termalarini eshitib katta bo‘lganman.





Ammo do‘mbirani qo‘limga birinchi bo‘lib otam tutqazganlar. Ulardan “Go‘ro‘g‘li”, “Alpomish”, “Yulduz bilan Qunduz”, “Xasanxon” kabi xalq dostonlari va termalarini o‘rganganman”. Men bolaligimdan bobom bilan bir xonada yotganman. Bobom har kuni tun yarmigacha ba’zida tonggacha do‘mbira chertib terma va dostonlar aytardilar. Men esa ularni tunda yodlab, kunduzi hirgoyi qilib yurar edim. Shu tariqa baxshichilik sirlarini bobomdan o‘rganganman. Bobom, otam mening ustozlarim sanaladi.

Ustoz-shogirdlik an’analari orqali, ma’lum hudud atrofida vujudga kelgan dostonchilik guruhlari o‘ziga xos maktab yaratadi. Sirdaryo baxshichilik maktabi baxshilarning ijrochilik va ijodkorlik faoliyati ham shakllanib, ma’lum dostonchilik qolipini yuzaga keltiradi. Dostonchilik maktablari ijro etish yo‘li, uslubi, xususiyati va an’anasi bilan bir-biridan farq qilganidek, bugungi kunda Sirdaryo baxshichilik maktabi ijodi ham farqlanmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “III Xalqaro baxshichilik festivali ishtirokchilariga tabrigi”.





## KUNTUG‘MISH DOSTON VARIANTLARINING YOZIB OLINISHI

**Hasanboy HAYDAROV,**  
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI  
Xalq ijodiyoti: (baxshichilik va dostonchilik)  
ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi.  
Ilmiy rahbar: **Zafar HAYITOV,**  
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI  
“Doston ijrochiligi” kafedrasini mudiri, katta o‘qituvchi

**Annatsiya:** Asrlar o‘tsada xalqimiz tinglab kelayotgan ikki oshiq dostoni sevgi sadoqat kuyi ila yangrab bahshilarimiz tomonidan ijro etib kelinayotgan dostonlardan biri “Kuntug‘mish” dostonidir. Uning har bir varianti o‘ziga hos tarzda ijro etilgani alohida e‘tiborga loyiq.

**Kalit so‘zlari:** Epik formula, tadqiqot, qo‘l yozmalar, variant, versia, sujet, mativ,

Aksariyat xalq dostonlari qatori “Kuntug‘mish” dostoni ham o‘tgan XX asrning birinchi choragida tadqiqotchi-mutaxassislar diqqat- e‘tiboriga tushdi. Bu davirda O‘zbekiston Xalq, Maorifi komissariati Ilmiy markazining o‘zbeklarni o‘rganish komiteti tashabbuskorligida.

Qodir baxshi Raxrim o‘gli varianti. Qodir shoirning “Kuntug‘mish” dostonini ijro etganligi bir qator tadqiqotlarda qayd etilgan. Lekin doston to‘liq yozib olingan emas. “Kuntug‘mish”ning qayta-qayta nashr etilayotganligi, turli jurnal va gazetalarda dostonidan olingan parchalarning chop qilinayotganligi, biz uchun quvonarli holat. Ammo bugungi kunda biz uchun Kuntug‘mish dostonining to‘liq va parcha shaklida baxshilardan yozib olinganligi va qachon va qayirda kim tomonidan yozib olingani bizga qiziq holat. Ma’lum bo‘ladaki, “Kuntug‘mish”ning to‘qqista to‘liq, bitta ixchamlashtirilgan varianti, ikkita parchasi Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Bekmurod Juraboy o‘g‘li, Islom Nazar o‘g‘li, Nurmon Abduvoy o‘g‘li, Qodir Rahimov kabi atoqli xalq baxshi - shoirlari hamda Zoxir Qo‘chqorov, Alim Xaqqulov,





Ro‘zimbek Murodov kabi elga ma’lum baxshilardan o‘tgan asrning yigirmanchi yillaridan boshlab to saksoninchi yillarigacha yozib olingan. Ushbu materiallar “Kuntug‘mish” dostonini xar jihatdan tadqiq, etishga keng imkoniyat beradi.

“Kuntug‘mish” dostonining variantalari turli yo‘nalishdagi dostonchilik maktablari vakillari tomomidam ijro etilgan bo‘lishlariga qaramay, ularda syujet nuqtai nazaridan keskin tafovutlar bo‘lmasa-da, xar bir variant badiiylik mezonlariga ko‘ra baxolanganda bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Bu xolat dostonidagi an’anaviy o‘rinlar, epik va uslubiy formulalarning qo‘llanilishida yaqqol ko‘zga tashlanadi. “Kuntug‘mish” dostoni variantlarining qiyosiy tadqiq xalq dostonlarining xar bir varianti qaysi darajada bo‘lishidan qat’i nazar, fan uchun ahamiyatli ekanligini ko‘rsatdi. Muallif Kuntug‘mish, Xolbeka, Buvraxon, Gurkiboy va Moxiboy, Azbarxuja obrazlari, ularning xarakterli jihatlari haqida mulohaza yuritar ekan, folklorshunoslikning nazariy masalalaridan biri folklor qaxramonlarida individuallik bor-yo‘qligiga to‘xtaladi. “Kuntug‘mish” dostonidagi egizaklar obrazi misolida folklor qahramonlari asosan bir xil bo‘lib, ular individuallashtirilmaydi, yanada aniqrok, aytilsa, kaxramonlar asardan asarga kuchib yuradi, degan mulohazalar mavjud manbalar bilan yaqindan tanish bo‘lmay, shunchaki yuzaki tarzda aytilganligini ta’kidlab, bu fikrlarning bir yoqlama ekanligini va folklorning o‘ziga xos xususiyatlarini, undagi individuallashtirish darajasini xisobga olmaslik natijasida qilingan xulosalar ekanligini yozadi. Ko‘rinib turibdiki, “Kuntug‘mish” dostoni, undagi obrazlar, syujet va yetakchi motivlar tahlili nafaqat ushbu doston, balki butun eposimizning dolzarb muammolari, nazariy masalalarini yechishga imkon beradigan manbalardan biri sifatida yuzaga chiqada.

T.Mirzayev dostonidagi barcha motivlar va epizodlarning yaxlit kompozitsion birlikka egaligi va undagi xar bir detal muxim badiiy vazifa o‘tashiga ham alohida e’tibor qaratgan. Bu o‘rinda Kuntug‘mish, Xolbeka va bolalarning turt tomonga tarqab ketganiga guvox bo‘lib ishtirok etuvchi cho‘pon obrazi misol tariqasida keltirilgan (127-bet). Bu o‘rinda syujetning qo‘yidagi xalqalari asos sifatida olingan. Ya’ni farzand talab ota-onaga g‘aybdan farzand ato qilinishi, oshiq ma’shuqarning bir-biriga tushda kungil bog‘lab, taqdirlari bir ekanligini bilishlari, ma’shuqasini ahtarib oshiqning yo‘lga chiqishi,





oshiqning o‘z yo‘lida turli sinovlarga duch kelishi (141-bet) va shu kabilar. O‘z vaqtida V.M.Jirmunskiy va X.T.Zarifovlarning “Kuntug‘mish” dostoni syujeti romanik dostonlar uchun tipik xoldir” deb yozganlarida har jihatdan xaq ekanliglarini “Kuntug‘mish” dostoni syujetini boshqa romanik dostonlarga qiyoslab tadqiq etish aniq isbot talab etadi. “Kuntug‘mish” dostonining tarixiy asoslari yuzasidan ilgari so‘rilgan asosiy fikr-mulohazalar ham V.M.Jirmunskiy va X.T.Zarifovlarning “O‘zbek xalq kaxramonlik eposi” kitobida dastlab ilmiy-jamoatchilik xukmiga takdim etilgan edi. “Kuntug‘mish” dostonining dastlabki varianti yozib olindi. Keyinchalik boshqa variantlar aniqlanib, diqqatga sazovor namunalar yig‘ildi. Hozirgi kunda ushbu variantlar qo‘lyozmalari O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutining folklor arxivi (Zo‘FA)da saqlanmoqda. Biz qo‘yida ana shu variantlarning yozib olingan qo‘lyozmalari bilan tanishib chiqamiz.

1.Ergash Jumanbulbul o‘gli varianti.

Nomlanishi – Kuntug‘mish.

Aytuvchi - Ergash Jumanbulbul o‘gli.

Baxshining manzili: Samarqand viloyati, Nurota tumani,

Qo‘rg‘on qishlog‘i.

Yozib oluvchi - Muxammad Isa Ernazar o‘g‘li.

Yozib olingan vaqti: 1926 yil 5 apreldan 8 maygacha.

Yozuvi - arab xatida.

Saxifasi 80 bet.

Arxivda saqlanish raqami: ZO‘FA, inv. №- 11.

2. Nurmon Abduvoy o‘g‘li varianti

Nomlanishi - Kuntug‘mish.

Aytuvchi - Nurmon Abduvoy o‘g‘li.

Baxshining manzili: Samarqand viloyati, Kattaqurg‘on tumani.

Yozib oluvchi - Zarif Qodiriy.

Yozib olingan vaqti: 1927 yil.

Yozuvi - arab xatida. Saxifasi - 36 bet.

Arxivda saqlanish raqami: ZO‘FA, inv. № 26.

3.Bekmurod Juraboy o‘g‘li varianti.

Nomlanishi - Kuntug‘mish.

Aytuvchi - Bekmurod Juraboy o‘g‘li.

Manzili: Samarqand viloyati, Nurota tumani, Qo‘tir qishlog‘i.







Yozib oluvchi - Zubayda Xusaynova.  
Yozib olingan vaqti: 1946 yil 30 dekabr.  
Yozuvi - kirill xatida.  
Saxifasi 97 bet.  
Arxivda saqlanish raqami: Zo'FA, inv. № 1010.  
4. Islom shoir Nazar o‘g‘li varianti.  
Nomlanishi - Kuntug‘mish va Xolbeka.  
Aytuvchi - Islom shoir Nazar o‘g‘li.  
Manzili: Samarqand viloyati, Narpay tumani, Oqtosh shahri  
Yozib oluvchi - Yaxyo Yo‘ldoshev  
Yozib olingan vaqti: 1952 yil.  
Yozuvi – Kiril xatida.  
Saxifasi - 126 bet.  
Arxivda saqlanish raqami: Zo‘FA, inv. № 1142.  
5. Zoxir Qo‘chqorov varianti.  
Nomlanishi – Kuntug‘mish.  
Aytuvchi Zoxir Qo‘qorov.  
Manzili: Qashqadaryo viloyati Shaxrisabz shahri.  
Shoirning o‘zi yozib topshirgan.  
Yozilgan vaqti: 1952.  
Yozuvi - Kirill xatida.  
Saxifasi - 190 bet.  
Arxivda saqlanish raqami Zo'FA, inv. № 1252.  
6. Zoxir Ko‘chqorovning ikkinchi variant  
Nomlanishi – Kuntug‘mish.  
Aytuvchi Zoxir Qo‘chqorov.  
Manzili: Qashqadaryo viloyati Shaxrisabz shahri.  
Shoirning o‘zi yozib topshirgan.  
Yozilgan vaqti: 1957.  
Yozuvi - Kirill xatida.  
Saxifasi - 281 bet.  
Arxivda saqlanish raqami Zo'FA, inv. № 1440  
7. Zoxir Qo‘chqorovning uchinchi variant.  
Nomlanishi – Kuntug‘mish va Xolbeka  
Aytuvchi Zoxir Qo'chqorov.  
Manzili: Qashqadaryo viloyati Shaxrisabz shahri.  
Shoirning o‘zi yozib topshirgan.





Yozilgan vaqti: 1957.

Yozuvi - Kirill xatida.

Saxifasi - 230 bet.

Arxivda saqlanish raqami Papka K" 38. Inventar № 120.

8. Alim Xaqqulov variant

Nomlanishi – Kuntug‘mish va Xolbeka.

Aytuvchi - Alim Xaqqulov.

Manzili: Samarqand viloyati, Ishtixon tumani. Mitan kishlog‘i.

Yozib oluvchilar: Sidiq, Asqarov va Abbos Tursunqulovlar.

Yozib olingan vaqti: 1977 yil, mart.

Yozuvi - Kirill xarfida.

Saxifasi - 256 bet.

Arxivda saqlanish raqami: Papka № 66, inventar № 929.

9. Ro‘zimbek Murodov variant

Nomlanishi – Kuntug‘mish

Aytuvchi – Ro‘zimbek Murodov.

Manzili: Toshkent shaxri, Cherdansev massivi, 24 - uy, 17 -  
xonadon.

Baxshining o‘zi yozib bergan.

Yozilgan vaqti ko‘rsatilmagan.

Yozuvi - Kirill xarfida.

Saxdfasi - 15 bet.

Arxivda saqlanish raqami: Papka № 219. Inventar № 7242.

10. Islom shoir Nazar o‘g‘li variantidan parcha

Nomlanishi – Kuntug‘mish.

Aytuvchi - Islom shoir Nazar o‘gli.

Manzili: Samarqand viloyati, Narpay tumani, Oqtosh shaxri.

Yozib oluvchi: G‘ani Bozorov.

Yozib olingan vaqti: 1949 yil

Yozuvi - Kirill xarfida

Saxifasi - 2 bet.

Arxivda saqlanish raqami: Papka № 12, inventar № 48.

Yuqorida keltirilgan variantlar orasidan bu paytgacha Ergash Jumanbulbul o‘gli va Bekmurod Juraboy o‘gli variantlarigina chop etilgan. Jumladan, dostonning Ergash shoir variantidan parchalar birinchi marta 1939 yilda Xodi Zarifning “O‘zbek folklori





xrestomatiyasi”da nashr etildi. (Toshkent, 1939, 207-218-betlar). O‘zbek folklorshunosligida “Kuntug‘mish’ dostoni yuzasidan aytilgan fikr mulohazalarni jamlab, uzaro nihoyasa qilib, ma’lum mezonlar asosida tasnif etilsa, ularni quyidagi uch guruxga ajratish mumkin: 1. Doston syujeta, asosiy qaxramonlari, motivlari va tarixiy ildizlari xaqidagi fikr-mulohazalar. 2. Doston badiiyati va g‘oyaviy yo‘nalishi bo‘yicha aytilgan fikrlar. Variantlar yuzasidan bildirilgan mulohazalar. 3. Birinchi galda shuni qayq etish lozimki, “Kuntug‘mish’ dostoni bu paytgacha monografik qamrovda tadqiq etilgan emas. Bevosita dostonning o‘ziga bag‘ishlangan maxsus maqolalar ham barmoq bilan sanarli darajada. Ko‘pchilik fikr-mulohazalarni olimlar folklorshunoslikning u yoki bu muammosi bilan bog‘liq ravishda bayon etishgan. Bevosita “Kuntug‘mish” dostoniga bag‘ishlangan maqola va tadqiqot bo‘limlari orasida Xodi Zarifning “Kuntug‘mish” dostoni xaqidagi maqolasi dostonga so‘z boshi sifatida yozilgan bo‘lishiga qaramay, hozirgacha o‘z ilmiy qimmatini saqlab qolgan.

### **Foydalanilgan Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Ochilov N. XX asrning 60-90-yillarida Janubiy O‘zbekistonda xalq epik an‘analarining saqlanish xolati (Qodir baxshi Raximov ijodi va repertuari asosida): Filol. fanlari nomzodi ... diss. - Toshkent, 2004. - 16-17-betlar.

2. Каранг: Песни Булбуля. Избранное в трех томах. Т.3. - Т.: Литературы и искусства, 1977. - С. 384-385.

3. Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. - М.: ОГИЗ, 1947. - С. 136. 2 Уша асар. - 142-бет.

4.3 Zarifov X.T. “Kuntug‘mish” dostoni haqida / “Ergash shoir va uning dostonchilikdagi o‘rni”. Tadqiqotlar. 2-kitob. - T., 1971.

5.4 Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. - T.: Fan, 1979. - 118-129- betlar.





## “AVAZXON” DOSTONI VARIANTLARI TAHLILI

**Nodirjon NAZAROV,**

*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSS*

*Xalq ijodiyoti: (baxshichilik va dostonchilik)*

*ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi.*

*Ilmiy rahbar: **Botir MATYOQUBOV,***

*O‘zMMSSI professori, san’atshunoslik fanlari nomzodi.*

**Annotatsiya:** “Avazxon” turkum dostonlari o‘zbek xalq dostonchiligida “Go‘ro‘g‘li” nomi bilan mashhur bo‘lgan dostonlar o‘rtasida ham soni, ham badiiy qimmati jihatidan salmoqli o‘rinni egallaydi. Avazxonga bag‘ishlangan qahramonlik-romanik, ishiy-romanik dostonlar o‘zbek xalq dostonchiligida alohida turkumni tashkil etadi. uSHBU maqolada “Avazxon” dostoni variantlari ilmiy tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Avazxon, doston, variant, turkum, epos.

Avazxonning bahodirligi va sarguzashtlari haqidagi dostonlar o‘zbek xalq dostonchiligida alohida turkumni tashkil etadi. Avazxonning bahodirligi va sarguzashtlari haqidagi dostonlar son jihatidan hatto, “Go‘ro‘g‘li”ning o‘zi to‘g‘risidagi dostonlardan ham ko‘p. Buning sababi, bizningcha avvalo, obraz yaratish usullari, obrazlar talqini masalasi bilan dostonchilik an‘analari bilan bog‘liqdir. Ya’ni Samarqand viloyati xalq dostonchiligida Avaz obrazi bilan Qashqadaryo, Surxondaryo vohalari dostonchiligidagi Avaz obrazi talqinini bir xil deb bo‘lmaydi, ular o‘rtasida muayyan farqlar bor. Shuningdek Avaz haqidagi ko‘pchiligi Avaz obrazining xalq o‘rtasida juda keng miqyosda ommalashib ketganligi bilan ham bog‘liqdir. Haqiqatdan ham turkum dostonlari diqqat bilan kuzatilsa, ularda Avaz obrazi “Go‘ro‘g‘li”dan keyingi ikkinchi o‘rinda turganini ko‘rish mumkin.

“Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari nafaqat o‘zbek, balki Markaziy Osiyo, Kavkaz, Yaqin Sharq, Sibir, qisman Yevropa xalqlari orasida keng tarqalgan va xalqlarning sevimli dostoniga aylangan. Turkiy





xalqlarning diniy-e’tiqodiy, tarixiy-madaniy, iqtisodiy-siyosiy ahvolini yoritish jihatdan bu turkum dostonlar o‘zbek xalq og‘zaki ijodida ham alohida o‘rin tutadi. Ularda el va elat, davlatchilik siyosati, e’tiqod, urfodat, an’ana va qadriyat, qon-qarindoshlik, or-nomus, mardlik va shijoat yuksak pardalarda kuylangan. Shu bois “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarini turkiy xalqlarning mushtarakligi, bir urug‘-avlod, bir bo‘g‘inga mansublik, xususan o‘zbek-turkman xalqlari tarixi, uning dunyo hamjamiyatidagi o‘rni, o‘ziga xosligi va mavqeini ko‘rsatuvchi mental asar, deyish mumkin. Ehtimol “G‘o‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari baxshilar epik repertuarining asosini tashkil etishining sabablaridan biri ham shundadir. Bu dostonlar ijrochiligi bugungi kunda ham yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash, ajdodlar jasoratidan faxrlanish, e’tiqodda sobit bo‘lish, iymon va vatan birbutunligini anglashga yordam berishi, shubhasiz.

“Go‘ro‘g‘li” dostonining Sharqiy versiyalarida qahramonning g‘ayritabiyy tarzda tug‘ilish motivi asosiy planga chiqadi va bu motiv talqini G‘arbiy versiyalardan keskin ajralib turadi. Doston genezisi va tadrijiy bosqichlarini tadqiq qilgan Sh.Turdimov asosiy e’tiborni ushbu motivga qaratadi va “Go‘ro‘g‘li” dostonining tub asosini o‘lib tiriluvchi tabiat kuchlari haqidagi mavsumiy mif bilan bog‘laydi<sup>69</sup>.

Shu o‘rinda o‘zbek folklorshunosligida “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining paydo bo‘lish davri haqida aytilgan asosiy fikr va xulosalarga qisqacha to‘xtalib o‘tish zarur. Avvalo, barcha folklorshunoslar “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining Sharqiy versiyalari G‘arbiy versiya asosida paydo bo‘lgan, degan fikr tarafdori edilar. Lekin keyingi davrda akademik To‘ra Mirzayev va folklorshunos Sh.Turdimovlar bu fikrga qarshi ikkinchi bir fikrni ilgari surishmoqda. Xususan, T.Mirzayev “Hikoyati Go‘ro‘g‘li sulton” kitobiga yozgan so‘zboshisida “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarida tasvirlangan hayot tarzi bu xashamatli epos “Kitobi dadam Qo‘rqut” va “Alpomish” dostonlaridan keyin XI – XII asrlarda O‘rta Osiyoda qadimiy badiiy zaminga (o‘g‘uz-turkman, o‘zbek-qipchoq kabi) tayanib yaratildi, keyingi bosqichda eposning ozarbayjon-o‘g‘uz asosda “tarixiylashib” borganini ham inkor etish mumkin emas, degan qarashni olg‘a suradi<sup>70</sup>.

<sup>69</sup> Turdimov Sh. “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari. – Toshkent: Fan, 2011. – 150–200-b.

<sup>70</sup> Hikoyati Go‘ro‘g‘li sulton. – Toshkent: Adabiyot uchquni, 2013. –17-b.





Sh. Turdimov esa “Go‘ro‘g‘li” dostonining yadrosi, syujeti va obrazlar tizimining mifologik hamda tarixiy asoslari qadim-qadimdan Turkiston kengliklarida yashab kelgan ajdodlarimizning tasavvurlari, dunyoqarashlariga bog‘liq sak, massaget va o‘g‘iz epik an‘analari asosida eramizdan avvalgi ming yilliklarda yaratilib, bosqichma-bosqich sayqal topib, to‘liq badiiy-estetik sathga o‘tdi. Arxaik eposning navbatdagi talqinlaridan bir shoxobchasi Markaziy Osiyodan Kavkaz va Kichik Osiyoga ko‘chgan o‘g‘iz qabilalari bilan u hududlarga ham tarqaldi, yangilandi. So‘nggi talqinlar o‘zaro madaniy-adabiy aloqalar natijasida Markaziy Osiyo versiyalariga ham ma‘lum ta‘sirini o‘tkazdi<sup>71</sup>, deb yozadi.

“Go‘ro‘g‘li” dostonlari qo‘lyozmalarining paydo bo‘lishi uning qissaxonlik an‘anasi orqali ham keng yoyilishiga olib kelgan. Xalq dostonlarini kitobat qilish jarayoni boshlanishi bilan “Hikoyati” Go‘ro‘g‘li sulton”, “Qissai Avazxon” kabi asarlar, shuningdek, eposning Sharqiy versiyasiga mansub “Nurali”, “Xoldorxon”, “Hasanxon”, “Avazxon” kabi qator dostonlarning qo‘lyozma nusxalari paydo bo‘lgan. Xorazm “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining ommalashishi va ijro etilishi ham, asosan, bu epik asarning qo‘lyozmalariga asoslangan<sup>72</sup>. Bu haqda 1908-yilda Xorazmda ilmiy safarda bo‘lgan A. Samoylovich: “Xivalik baxshining o‘zi dutor chalib, kitobiy dostonni ijro etayotganida uning yonidagi ikki sozanda bulamon chalib, unga jo‘r bo‘lib turishdi”<sup>73</sup>, – deb yozadi. Xiva xoni Suyav baxshini chaqirib “Go‘ro‘g‘li” dostonini ayttirgan va o‘zi dostonning qo‘lyozmasiga qarab o‘tirgan. Baxshi hatto bir so‘zda ham yanglishmagan<sup>74</sup>. Xon tomonidan bu xil talabning qo‘yilishi, doston kuylash tartibi davlat siyosati darajasida qaralganligidan dalolat beradi. Ko‘rinadiki, eposning dastlab qo‘lyozma, XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib toshbosma nusxalari paydo bo‘la boshladi. Xorazm baxshilari so‘nggi davrlarda dostonlarni, asosan, yozma matnlar orqali o‘rganib, og‘zaki ijroga o‘tganlar.

O‘zbek xalq dostonlari orasida mashhur bo‘lgan “Avazxon”,

<sup>71</sup> Turdimov Sh. “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari. – Toshkent: Fan, 2011. – 150–200-b.

<sup>72</sup> Жирмунский В.М., Зарифов Х. Узбекский народный героический эпос. – М., 1947. – с. 55.

<sup>73</sup> Самойлович А.Н. Краткий отчет о поездке в Ташкент и Бухару и в Хивинское ханства в 1908 году // Известия Русского комитета для изучения Средней и Восточной Азии в историческом, лингвистическом и этнографическом отношении. – СПб., 1909. – №9. – с. 21–22.

<sup>74</sup> Айымбетов Қ. Халық даналығы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1988. – 132-b.





“Avazning arazi”, “Avazning uylanishi”, “Qunduz bilan Yulduz”, “Bo‘tako‘z”, “Intizor”, “Zulfizar”, “Gulixiromon”, “Malikai ayyor”, “Balagardon” va boshqa shu kabi dostonlar “Avazxon” biografik turkumligini tashkil etadi.

“Go‘ro‘g‘li” turkumiga kiruvchi dostonlar, xususan, turkumning eng katta qismini tashkil etuvchi G‘o‘ro‘g‘lining tutingan o‘g‘illari Hasanxon va Avazxon haqida variantlar o‘zining qiziqarli syujeti, voqealar xilma-xilligi, safar va jang tafsilotlari, shuningdek, yuksak tarbiyaviy ahamiyati bilan boshqa dostonlardan ajralib turadi. Ayniqsa, G‘o‘ro‘g‘lining kenja farzandi Avazxon va uning sarguzashtlari bilan bog‘liq dostonlarni baxshilar maroq bilan ijro etgan. Folklorshunoslar tomonidan “Avazxon” dostonining bir qancha variantlari yozib olingan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor arxivida “Avazxon” dostonining 10 ga yaqin varianti saqlanadi. Har bir variant voqelik bayoni, epik makon va zamon tasviri, qahramonlar taqdiri va tasviri, hamda ularning g‘oya va maqsadini ifodalash jihatdan umumiy, mushtarakdir. Biroq mana shu umumiylik baxshi dunyoqarashi, epik bilim va mahorati bilan individual hodisaga aylangan. Dostonlarni qiyosiy o‘rganish jarayonida bu holat yaqqol ko‘zga tashlanadi. Mazkur jildga Avazxonning olib kelinishi tarixiga doir quyidagi dostonlar kiritildi: Chori baxshi Umirov kuylagan “Avazxonning tug‘ilishi va chambil eliga kelishi” dostoni. Doston matnini baxshining o‘zi 1952-yilda qog‘ozga tushirib, O‘zRFA, O‘zbek tili, adabiyoti va folklor arxiviga topshirgan. Doston folklor arxivida saqlanadi.

Chori baxshining mazkur dostoni bevosita Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Po‘lkan shoir, Bekmurod baxshi, Rahmatulla Yusuf o‘g‘li kabi ustoz baxshilar tomonidan kuylangan “Go‘ro‘g‘libekning Avazxonni olib kelishi”, “Avazxonning arazi” kabi badiiy jihatdan yetuk dostonlarni o‘zlashtirishidan yuzaga kelgan. Biroq Chori baxshi kuylagan doston yuqorida nomi zikr qilingan dostonlar syujetining aynan takrori emas. Chori baxshi Umirovning “Avazxonning tug‘ilishi va chambil eliga kelishi” dostoni shu turkum doirasidagi alohida variant, mustaqil doston. Unda baxshining ijodiy yondashuvi, o‘z estetik qarashlarini singdirgani kuzatiladi. Mazkur dostonda shu tur dostonlardan farqli o‘laroq voqealar jarayonida Go‘ro‘g‘li sultonning so‘ziga qarshi chiqish, uning qaroriga e’tiroz bildirish holati uchramaydi. Barcha





hodisa va holat Go‘ro‘g‘li sulton xohish-istagiga muvofiq kechadi. Doston davomida Go‘ro‘g‘li sultonning ma’naviy jihatdan yuksakligi uning homiy kuchlar aziz avliyolar, ustoz-pirlar hatto Yaratganning o‘zi doim unga madadkor bo‘lishi, qo‘llashi bilan ko‘rsatiladi. Bu orqali Ollohga tavakkul qilgan, uning buyruqlariga itoat etgan, har qanday holatda undan madad tilagan bandaning g‘olib bo‘lishi tasvirlangan. Dostonda buzuq e’tiqod va qarashlardan voz kechib, islom bilan yashashning a’lo ekani Avazxon taqdiri misolida ko‘rsatib berilgan. Dostondagi Avazxonning paydo bo‘lishida bilan bog‘liq epik tasvirlar Payg‘ambarimiz Muhammad Mustafo alayhissalomning dunyoga kelishlari bilan bog‘liq tarixiy haqiqatning epik talqini ekanini zukko tinglovchi darrov fahmlaydi. Baxshi xalq og‘zaki ijodida an’ana tarzida ming yillardan buyon yashab kelayotgan tarixiy voqelikni jonli ijro bilan reallashtiradi, tinglovchilar ko‘z o‘ngida insoniyatning yaratilishi bilan bog‘liq o‘tmish shunday tasvirlanadi:

“Hu o‘n sakkiz ming olamni yaratgan, ularga munosib bo‘lsin deb qanchadan-qancha bandalariga jon ota qilib, Yer degan kurayi-zaminga hayot bag‘ishlagan, suv, dov-daraxt, o‘t-o‘lanlarni, uchgan qushi, hayvonlarni – jamiki jonzodlarni yerga munosib bo‘lsin deb yaratgan Olloh arshi-a’lodan yerga qarasa, yerda hammani bir ko‘zda ko‘rib, o‘zi yaratgan bandalari orasida tafavutlar poyda bo‘libdi.

O‘zini Ollohning bandasi ekanligini unutib, o‘zlarini Xudo deb bilganlar ko‘payib ketganligini ko‘rib, bu bandalarimga saboq berib qo‘yadigan biranta zo‘rni yaratmasam bo‘lmas ekan deb o‘ylab, Avazxonni o‘z nuridan zo‘rim deb yaratib, arshi a’loga uchirib yubardi. Avazxon arshi al’oda nur bo‘lib uchib yurabersin...”<sup>75</sup>.

Dostonda boshqa variantlarda deyarli uchramaydigan o‘zbek xalqiga xos udumlar, aytimlar, allalar ham bor holicha saqlangan. O‘zbek xalqining bola tug‘ilgandan so‘ng o‘tkazadigan “Beshikka solar”, “Qo‘r-qo‘r”, “Beshik to‘yi” marosimlarining qay tarzda o‘tkazilishi-yu, shu jarayonda aytiladigan aytimlarigacha berilgan: “...qani Oppoqoy bolam, beshik, beshik sozlarini olib kel, avval men beshikni sozlayin, deb beshikni sozlayotgan joyi ekan.

Boxshi zoti aytar doim qo‘shiqdi,  
Ochib qarang ikki tobaqa eshikdi.

<sup>75</sup> O‘zRFA. Inv. №1952. Chori baxshi Umirov / “Avazxonning tug‘ilishi va Chambil eliga kelishi” doston.







Olib keldi, bezak bergan beshikdi,  
Yeb-ichari mo‘l bo‘lsin deb choqaning,  
Qo‘llariga ushatdi tol qoshiqdi.

Moma berar Oppoqoyga soboqdi,  
Rizqisi mo‘l bo‘lsin deb choqaning.  
Olib keldi uni to‘la toboqdi,  
Gungirami bezak bergan beshikka,  
Bismilla deb solaberdi to‘bakdi”<sup>76</sup>.

Dostonda Go‘ro‘g‘li obraziga alohida urg‘u berilgan, u har doimgidek siyosatli, irodali aqlli va kuchli hukmdor sifatida tasvirlangan. U tadbirli, o‘z eliga rahnamo, adolatli, saxiy va elparvar boshliq: “Go‘ro‘g‘li shunday odam ediki, u o‘ta bilimdon, zukko, aql-farosatda tengsiz, elparvar bo‘lib, eli-xalqiga qaragan, holi-ahvolini so‘ragan, elatining og‘ir kuniga jorogan, adolotli, kim bo‘lmasin birav yordam so‘rab kelsa, yordamini oyamagan, qudratli, keng jahonda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan buyuk inson edi”. E‘tibor qilinsa, Go‘ro‘g‘li ta‘rifida ortiqcha bo‘rttirish yo‘q, u odatdagi epik qahramonlardan ancha sokin va dunyo tanigan hukmdor sifatida tasvirlanadi. Uning farzandsizligining sababi ham boshqa dostonlarga nisbatan ancha sodda tarzda ifoda etilgan.

“Ho‘ Go‘ro‘g‘li, senga o‘zi ot kerakma, zot kerakma?” – dedi. Go‘ro‘g‘li: “Pirlarim, menga ot kerak”, – dedi. Chiltanlar: “Go‘ro‘g‘li o‘ylab gapirayobsanma, chiningni ayt ot kerakma, zot kerak?” – deb uch marta tokror-takror aytdi. Go‘ro‘g‘li uch martasida ham ot kerak deb javob berdi. Chiltanlar ilojsiz: “Bu yolg‘onchi foniylar dunyoda Go‘ro‘g‘li sulton degan naming abadiy qolsin!” – deb, Go‘ro‘g‘liga avmin deb duvo berdi. Go‘ro‘g‘li yoshlik qilibma, ot deganda Dolg‘irotni tushunibma, ot kerak deb turib olgan edi. Chiltanlar: “Endi Go‘ro‘g‘li gap bunday. Sen bizdan ot kerak deb duvoni olding. Otilgan o‘q otildi ketdi, uni qidirib ham topib bo‘lmaydi. Berilgan duvo ham xuddi otilgan o‘qday. Go‘ro‘g‘li sen bu dunyoda befarzand bo‘lasan. Farzanding bo‘lmasa, sendan zot qolmaydi. O‘zim kelib o‘zim ketdim deganday, sendan zot emas ot qoladi”<sup>77</sup>. Bu holat Yusuf ota Qosimov variantida Go‘ro‘g‘lining 15 yoshida Chambilbelda hokim bo‘lgani va

<sup>76</sup> ZO‘FA. Inv. №1952. Chori baxshi Umirov / “Avazxonning tug‘ilishi va Chambil eliga kelishi” doston.

<sup>77</sup> ZO‘FA. Inv. №1952. Chori baxshi Umirov / “Avazxonning tug‘ilishi va Chambil eliga kelishi” doston.





40 yigiti bilan davru davron surib yurgani, pirlar “tila” deganda dong‘ini tilagani, shu sabab farzandi bo‘lmagan, deb keltirilgan.

G‘o‘ro‘g‘lining Avazxonning xabarini eshitishi, unga nisbatan otalik mehrining paydo bo‘lishi, unga tomon borishidagi voqealar ham o‘ziga xos bayon etilgan. Avazxonning tug‘ilishi, Xunxor podshohining bola tug‘ilishi haqida oldindan xabardor bo‘lishi va unga munosabati an’anaviy sayyor syujet bo‘lib bu og‘zaki ijodga Muso alayhissalomning dunyoga kelishi bilan bog‘liq ilohiy qissa, naqlarning ko‘chganini dalillaydi:

Baland tovning bo‘ktarilgan qoidan,  
Bu ham bo‘lsa taqdiridagi boridan.  
Zo‘r bo‘ladi keng jahonning zo‘ridan,  
Zo‘rim deb ham yaratganda Ollohim,  
Avazxonni yaratgan o‘z nuridan...

Bedavga yo‘l bermas tovda qoya tosh,  
Avaz qoysar hali bo‘lsa juda yosh.  
Yigit bo‘lsa qirq yigitga bo‘lar bosh,  
Avaz bo‘lar shu Xunxar kushandasi,  
Bilib qolsa o‘ldiradi mehri tosh<sup>78</sup>.

Shu sababdan Go‘ro‘g‘li Avazxonning xaloskori sifatida chiltanlar tomonidan Gurjistonga yo‘llanadi. Go‘ro‘g‘lining kuch-qudratini namoyish etishida ham boshqacha usul tanlangan. U safar chog‘ida turli to‘siqlarga duch keladi, o‘z matonati bilan yengib o‘tadi, sher bilan olishib uni mag‘lub etadi. Ayniqsa, qaroqchi Bo‘ron ko‘kko‘z bilan bo‘lg‘an jangdagi jasorati G‘o‘ro‘g‘lining jangu-jadalda tengsiz ekanini ko‘rsatadi. Go‘ro‘g‘lining Avazxonni qo‘lga kiritishi va Chambilga olib ketishi haqidagi voqealar ham boshqa varianlarga o‘xshamaydi. Mazkur dostonning Po‘lkan shoir variantida ham, Yusuf ota variantida ham, Hazratqul shoir variantida ham Avazni qo‘lga kiritishda Go‘ro‘gli turli yolg‘on va firib bilan Qo‘ng‘irvoy qiyofasiga kirib Avazxonni olib ketadi. Biroq Chori baxshi variantida G‘o‘ro‘g‘li tutingan onasi Jorxon maston ko‘magida Avazxonning ota-onasi Buldur qassob va Oppog‘oyning roziligi bilan, Hunxor podshoh zulmidan qutqarib o‘z yurtiga olib ketadi. Chunki Go‘ro‘g‘lining Qirq

<sup>78</sup> ZO‘FA. Inv. №1952. Chori baxshi Umirov / “Avazxonning tug‘ilishi va Chambil eliga kelishi” doston.





Chiltan pirlari tushiga kirib Avazxonning elda buyuk zot bo‘lishi va uni Xunxor podsho qo‘lidan qutqarib, yaxshilikka xizmat qildirish uchun o‘z yurtiga olib kelish vazifasi yuklanadi. Yo‘lda ketayotgan Go‘ro‘g‘li Avazxonni oson qo‘lga kiritgani va dushman bilan jang qilmaslikni o‘ziga or deb biladi va Xunxor podshoh ortidan yuborgan qo‘shin bilan Olohga tavakkal qilib yolg‘iz o‘zi jang qiladi: “Dushmanlarga ko‘rinmay qochib ketsak ham bo‘ladi. Bu biz uchun nomardlik bo‘ladi. Biz bu dushmonlarni choqirib kelganimiz yo‘q. Bularni ajal haydab kelgan. Qochgani qochib ketabersin, izidan quvmaymiz. Faqatgina jang moydoniga kirgani bilan hisoblashamiz. Qani Avazxon, jonim bolam, otangga omad tilagin, dedi”. Bu o‘rinda ham baxshi Go‘ro‘g‘lini sabrda, diyonatda va adolatda sobit ekanligini voqealar rivojida ko‘rsatadi. Xullas, Chori baxshi Umirov kuylagan “Avazxonning tug‘ilishi va Chambil eliga kelishi” dostoni varianti boshqa baxshilar kuylagan variantardan mukammalligi bilan farqlanib turadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Turdimov Sh. “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari. – Toshkent: Fan, 2011.
2. Hikoyati Go‘ro‘g‘li sulton. – Toshkent: Adabiyot uchquni, 2013.
3. Жирмунский В.М., Зарифов Х. Узбекский народный героический эпос. – М., 1947. – с. 55.
4. Самойлович А.Н. Краткий отчет о поездке в Ташкент и Бухару и в Хивинское ханства в 1908 году // Известия Русского комитета для изучения Средней и Восточной Азии в историческом, лингвистическом и этнографическом отношениях. – СПб., 1909. – №9. – с. 21–22.
5. Айымбетов Қ. Халық даналығы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1988. – 132-б.
6. O‘zRFA. Inv. №1952. Chori baxshi Umirov / “Avazxonning tug‘ilishi va Chambil eliga kelishi” doston.





## QORAQALPOQ BAXSHICHILIK SAN’ATINING UZLUKSIZ TA’LIMDAGI AYRIM MASALALARI

**Raushan SAPARBAYEVA,**

*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI  
Xalq ijodiyoti: (baxshichilik va dostonchilik)  
ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi.*

*Ilmiy rahbar: Nodira HAYDAROVA,  
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI  
“O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi”  
kafedrasi o‘qituvchisi.*

**Annotatsiya:** *Maqola qoraqalpoq baxshichilik san’atining ta’lim tizimidagi uzluksizlikni ta’minlovchi ayrim muhim masalalar borasida so‘z yuritiladi. Tarbiyalanayotgan yosh baxshi ijrochilarning ta’lim jarayonida yechim talab qiladigan muammolarga taxminiy takliflar keltirilgan. Shuningdek qoraqalpoq baxshichilik san’ati maktabining epik repertuari va respublika baxshi-doston ijrochiligi maktablari haqida mulohaza yuritilgan.*

**Kalit so‘zlari:** *Baxshi, qoraqalpoq, repertuar, badiha, ijro, ta’lim, an’ana, ustoz-shogird, baxshichilik maktabi, baxshi, doston.*

2018-yilda 26-apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Baxshichilik va dostonchilik san’atini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 304-sonli qarori tasdiqlandi. Qarorning ikkinchi bandida - “2018/2019 o‘quv yilidan boshlab Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Samarqand, Surxondaryo, Xorazm va Qashqadaryo viloyatlaridagi bolalar musiqa va san’at maktablarida baxshichilik va dostonchilik yo‘nalishi bo‘yicha maxsus sinflar ochish hamda mazkur musiqa va san’at maktablari o‘quv rejasiga va shtat jadvaliga o‘zgartirishlar kiritish” lozimligi belgilab qo‘yilgan. Bugun bolalar musiqa va san’at maktablarida ushbu qaror kuchga kirganda ta’lim olishni boshlagan ilk “baxshi”lar maktab bosqichini tamomlaydi.

Qoraqalpoq musiqa san’atida baxshilar o‘zlarining ijro repertuari boyligi bilan alohida xalq hurmatiga sazovordir. Baxshilar o‘zlarining





ijro yo‘liga ko‘ra birqancha maktablarga ajratilgan va o‘z repertuarlariga ega bo‘lgan. Qoraqalpoq baxshilarining repertuarida asosan Oshiq turkum “G‘arip-Ashiq”, “Yusip Axmet”, “Go‘rug‘li” singari dostonlardagi turli bo‘limlar va termalar ijro etilgan. Otabobolar avlodidan “Bir dostonni to‘liq ijro qila olmagan baxshi, baxshi emas” deya ta’kidlab kelishgan. Baxshi ijrochiligida aynan “Eshpay”, “Musa sen yari” nomlarini ijro eta olmasa, baxshi hisoblanmaydi. Baxshilar ijro yo‘li keyingi yillarda yanada rivojlanib, asarlarning so‘zlar bugungu kunga qadar yetib kelmoqda. Baxshi ijrochi qo‘liga Alamoynaq dutorini qo‘lga olib ijro etish baxshidan katta ma’suliyat talab etadi. Baxshilar doston ijro etishdan avval jirovlar singari kirish termalarini aytganlar. XIX asrdagi Qoraqalpoq klassik shoiri Ajiniyaz Qosibay o‘g‘lining “Bozataw” nomli tarixiy poemasi baxshilarning kirish termalari fikrimizning dalili bo‘la oladi. Bu hunar asrlar davomida og‘izdan-og‘izga o‘tib saqlanib kelmoqda. Bugungi kunda yanada chuqur o‘rganilayotganligi sababli baxshichilik san’atida ustoz-shogird an’analari muhim ahamiyatga ega.

Qoraqalpoq baxshichilik maktabning negizi sifatida XIX asrning o‘rtalarida yashab ijod qilgan hamda qoraqalpoqlar orasida jirovchilik, keyinchalik baxshichilik hunarini mukammal o‘zlashtirgan mohir, atoqli baxshilar - Aqimbet baxshi, Edenbay baxshi, Suyew baxshi va Orolli o‘zbek baxshilarni alohida ta’kidlash joiz. Ular o‘z repertuarlari bilan jirov-baxshi san’ati rivojlanishiga solmoqli hissa qo‘shganlar va ushbu soha tarixida o‘z o‘rinlari mavjud. Yuqorida nomlari zikr etilgan baxshi-jirov ijrochiligi hunarmandlarining repertuari nafaqat dostonlar balki: “Adin’nan”, “Eshbay”, “Nalish”, “Mun’ qalmas”, “Megzer”, “Tabriz”, “Xoja bala”, “G‘ulpaq”, “Bes Perde”, “Jekke basli”, “Tarlant”, “Jeti asirim”, “Ilg‘al”, “Kunxoja”, “Sanali geldi”, “Alaqayis”, “Musa”, “Demir donli”, “U‘sh top”, “Qiyalim”, “Musa sen yari”, “Kelte nalish”, “Sharqipa‘lek”, “Qosha da‘s”, “Xoja bag‘man” kabi ko‘plab qo‘shiq va termalar ham o‘rin.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida madaniyat va san’at yo‘nalishlarida faoliyat boshlagan dastlabki ta’lim maskan Nukus shahridagi 1-sonli bolalar musiqa va san’at maktabi bo‘lib, ushbu maskan 1937-yili Qoraqalpog‘istonning avvalgi poytaxti To‘rtko‘l shahrida “Vokal – musiqa” bilim yurti ochilgan. Musiqa va san’at yo‘nalishida boshlang‘ich ta’lim ham muhim ahamiyatga ega ekanligi





inobatga olinib 1939-yili musiqa maktabi sifatida qayta tashkillangan. Ushbu ma’lumot markaziy Davlat arxivida saqlangan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi boshqarmasining 1987-yil 28-apreldagi 12-13/99-sonli qaror bilan muhrlangan. Ta’lim maskanning birinchi direktori U. Prenov. Maktab qoraqalpoq san’ati tarixida yagona musiqiy ta’lim maskani bo‘lgan. Musiqa maktabga iste’dodli yoshlar qobiliyatiga ko‘ra sarab olingan. Respublikamizning turli hududlaridan tajribali ustozlar, kompozitorlar, rejissiorlar chaqirilgan. Ular orasida Ikkinchi jahon urushi boshlanish arafasida Leningrad konservatoriyasidan Toshkentga evokuatsiya qilingan kompozitor, dirijyor, musiqa o‘qiytuvchisi Maksimilian Osipovich Shteynberg (22.06.1883 Rossiya – 6.12.1946 Leningrad), O‘zbekiston SSSRda xizmat ko‘rsatgan artist, kompozitor, To‘rtko‘l, Qoraqalpog‘iston teatri orkestri dirijyori Bogdan Davidovich Tumanyan (15.11.1881 Ozarbayjon -12.09.1975 Toshkent), Braylovskiy, Kiev Konservatoriyasining professori, kompozitor, dirijyor Grigoriy Isakovich Kompaneyets (1881-1959), rus kompozitori, qoraqalpoq xalq artisti Viktor Georgiyevich Shafarnikov (23.02.1908 Toshkent – 1979 Moskva) kabi mutaxassislar bo‘lajak kadrlarni tayyorlashda samarali mahnat qilganlar. Maktab tashkil etilgan davrdan boshlab, 1941-1945-yillarda ta’lim olgan Respublikamizda tanilgan atoqli san’at fidoiylarini aytib o‘tish joiz. San’atshunoalik fanlari kandidati, Berdaq nomidagi davlat mukofoti sovrindori Tajigul Adambayeva, Toshkent davlat Konservatoriyasi professori I.Ibragimov, Qoraqalpog‘iston xalq artisti Kamoliddin Mengliboyev, Kompozitorlar ittifoqining a’zosi Kamil Utegenov, Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Qalli Ayimbetov va boshqalar.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining poytaxti Nukus shahri deb belgilangani sababli maktab 1946-yili Nukusga ko‘chirildi. XX asr ikkinchi yarmida qoraqalpoq musiqa madaniyatida yana bir tarixiy voqea - xalqimiz turmushining ajralmas qismiga aylangan madaniyat va san’atini yanada rivojlantirish maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi hukumatining 1960-yil 7-iyul 301- sonli qaror bilan Nukus musiqa san’at bilim yurti ochildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasining musiqa madaniyati sohasidagi ehtiyojlarni bartaraf etish, sohaga maxsus ma’lumotga ega mutaxasislarni tayyorlash yo‘lida





1960-1961-yillari A.Juzimbetov, 1961-1963-yillari T.Adambaevlar ushbu bilim yurtiga rahbarlik qilganlar. Ushbu ta’lim maskani 1963-yili Nukus musiqa xoreografiya bilim yurti deb o‘zgartirilib, 1963-1969-yillari I.Martinov, 1969-1985-yillari K.Abdireymovalar rahbarlik qildi. O‘tgan davr mobaynida 1973-yil J.Shamuratov nomidagi Nukus san’at bilim yurti nomiga o‘zgartirilgan. 1985-1999-yillar oralig‘ida M.Kamalov, 1999-2005-yillarda N.Muxammeddinovlar Nukus san’at bilim yurtiga rahbarlik qildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 14-avgustdagi “Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning material-texnik bazasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 338-sonli qaroriga muvofiq 2003-yili Nukus san’at kolledji, 2005-yildan boshlab esa Nukus Madaniyat va san’at kolledji deb nomlandi va bu davrda T.Davletmuratova rahbarlik qilgan.

Mustaqilligimiz sharofati bilan 1992-yil J.Shamuratov nomidagi Nukus san’at bilim yurtida “Milliy musiqa” bo‘limining ochilgan bo‘lib, ushbu bo‘limning ochilishi hamda asrlar davomida rivojlangan xalqimizning og‘zaki an‘anadagi asarlarini, qoraqalpoq xalqining boy milliy musiqa me‘rosini tiklash, avlodan-avlodga professional darajada yetkazishda M.Kamalovning hissasi juda katta. M. Kamalov yoshlar orasida unutilib borayotgan milliy me‘rosimizni saqlab qolish, kelajak avlodga malakali kadrlarni yetqizib berish uchun dargohga taniqli ijrochi va sozandalar- G.Tilewmuratov, T.Qurbanov, N.Qosekeyev, G‘.Utemuratov (Baxshilar), K.Tinibayev (baxshi, sozanda), J.Sirimbetov (jirov), T.Pirlepsova shinqobiz), larni ishga taklif qilgan va ular yoshlarga dostonlar, xalq qo‘shiqlarini ijro qilish, soz chalish usullarini tinimsiz mehnat qilib o‘rgatdilar. Natijada esa bugungi kunga qadar xalqimizning me‘rosi dunyo sahnalarida tanilib o‘z nufuziga ega bo‘lib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son Farmoniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimida O‘zbekiston davlat konservatoriyasining “O‘zbek maqom san’ati fakulteti” hamda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining tegishli ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari negizida maqom ijrochiligi, baxshichilik va katta ashula yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlar





tayyorlovchi tayanch oliy ta’lim muassasasi- Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek Milliy musiqa san’ati instituti (keyingi o‘rinlarda- institut) tashkil qilindi.

Institutimiz 2020-yili o‘z faoliyatini boshlagan bo‘lsa, bu yerda Qoraqalpoq baxshichilik va dostonchilik san’atini o‘rgatish bo‘yicha ustoz-o‘qituvchilardan hozirda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti teatr san’ati fakulteti, musiqali teatr san’ati kafedrasida professori Usnatov Rashid Jaksilikovich va “Umid uchquni“ ko‘krak nishoni sohibi Zinatdin Nuratdinovlar o‘z bilim-malakalarini yoshlarga berib kelyotgan bo‘lsa, bugungi kunda ushbu professor-o‘qituvchilar safiga “Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi”, “Muxalles” baxshilar va sozandalar ansambli sobiq a‘zosi Injigul Saburova va “Zulfiya” nomidagi Davlat mukofoti sohibasi Dinara Nuratdinovlar ham o‘z bilimlarini yosh avlodga bo‘lishib kelmoqda.

Maqola yozishdan asosiy maqsad – Yunus Rajabiy nomidagi o‘zbek milliy musiqa san’ati instituti “Xalq ijodiyoti (baxshichilik-dostonchilik)” kafedrasining talabalarga ta’lim berish tizimida kuzatilayotgan muammolarga fikr – mulohaza bildirishdan iborat. Qoraqalpoq baxshichilik maktabida ta’lim olib, oliy ta’limga kelgan yosh avlodning bir nechta masalalarda duch kelayotgan muammolari mavjud:

- qoraqalpoq maktabi misolida o‘rta va oliy ta’lim tizimidagi “baxshichilik, dostonchilik” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha yakka va guruhli darslarning maqsadli, uzluksiz ta’lim tamoyili asosida shakllanmayotgani;

- professor-o‘qituvchilarning ta’lim berish, o‘qitish uslubiyoti zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslanmagani hamda bilim berishdan kutilayotgan saviya darjasi samarasizlashib borayotgani;

- Repertuar tanlash masalalari. Ya’ni har qanday sohada ta’lim oddiydan murakkabga yo‘naltiriladi. Baxshi-dostonchilik yo‘nalishida maktab, o‘rta ta’lim va oliy ta’lim repertuari guruhlanmagani;

- Asar ijrosida intellektual qobiliyatidan kelib chiqib, individual yondoshgan holada badixalashtirish (improvizatsiyalash) muammolari. Ya’ni yetuk ustozlar ijro namunalarini aslini saqlagan holda, ijrochi texnik va ovoz diapazonidagi imkoniyatidan kelib chiqib badihalashda erkinlik mavjud emasligi. O‘rta va Oliy ta’limda bir maktab







repertuaridagi bir xil asarni boshqa maktab vakilasi tan olmaslik yoki hurmatsizlarcha munosabat bildirish ijrochilik madaniyatida uchrab turayotgani achinarli hol. Tan olmayotgani shaxsiy xulosasi lekin, noto‘g‘ri ijro deya yosh avlodga targ‘ib qilinayotgani ustoz-shogird an‘analariga zid ekanini alohida ta‘kidlash joiz.

Ushbu fikr-mulohazamga misol tariqasida Genjebay Tileumuratov maktabi yo‘lidagi “Bes perde” nomasiga aytilgan Ustoz Genjebay Tilewmuratov uning shogirdi “O‘zbekiston xalq baxshisi” G‘ayratdin Utemuratov uning shogirdi “Muxalles dutorchilar ansambli a‘zosi Zamira Ibragimovalar ijrolarini bevosita tinglab tahlil etilganda ham badihalashtirishga ijro imkoniyatidan kelib chiqib, erkin yondoshilganini kuzatish mumkin. Dastlabki Ustoz Genjebay Tilewmuratov ijrosi va ikkinchi G‘ayratdin Utemuratovning ijrolarida nomalar qo‘lida oz farq qilayotgani, uchinchi Zamira Ibragimova ijrosida esa temp (sur‘at) sekinlashib, asarning avj qismida tovushni yuqoridagi ikki ijroga nisbatan ko‘proq ushlab turayotganini kuzatish mumkin. Lekin asar, nomaning asosi saqlangan deyarli o‘zgarmagan. Umumiy tasvirda esa ma‘lum darajada farq bo‘layotganining sababi har bir ijrochining ijro mahorati va ovoz imkoniyatlari har xilligidadir.

Oliy ta‘lim dargohida bilim berayotgan ustozlar o‘z maktab yo‘nalishidagi boshqa ustozlarning ijro yo‘llaridan qanchalik xabardor ekani, amaliy va tarixiy-nazariy bilim darajasi ustida muntazam ishlashi ham biz yosh avlodga qiziq.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta‘kidlash joizki, bugun “oliy ma‘lumotli baxshi-doston ijrochi”larining ilk bitiruvchilari oliy dargohni tamomlash arafasida turibdi. Yunus Rajabiy nomidagi o‘zbek milliy musiqa san‘ati instituti “baxshi, doston” ijrochi ilk qaldirg‘ochlari nafaqat institut balki Respublika baxshi san‘ati fidoiylarining katta yutug‘idir. Musiqa maktablar, keyinchalik o‘rta bo‘g‘inda baxshichilik san‘atini o‘rganib va nihoyat oliy ta‘lim darajasiga yetib kelganda nufuziga yarasha bilim saviyasi hamda ta‘lim jarayoni zamonaviy pedagogik texnologiyalar talabiga javob bersa yanada maqsadga muvofiq bo‘lishi shak-shubxasiz. Biz baxshi ijrochilarning, nafaqat biz balik kelajakdagi talabalar, Respublikamizdagi baxshichilik yo‘nalishida tahsil olayotgan barcha o‘quvchilarning ham katta yutug‘i bo‘lishiga ishonchimiz komil. Doim





natija, samaradorlik, talabalardagi qiziqish doirasiga ham e’tibor qaratisa maqsadga muvofiq bo’lar edi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Qaraqalpaq Muzika Tariyxi A.Nadirova “Sano-standart”  
baspassi Toshkent-2018
2. Революцияга шекемги Каракалпак Музыкасы Тажигул  
Адамбаева “Каракалпакстан” баспасы Нокис-1976
3. [WWW.Lex.uz](http://WWW.Lex.uz)





## O‘ZBEK DOSTON IJROCHILIGI SAN’ATIDA QORAQALPOQ BAXSHICHILIK MAKTABI IJRO AN’ANALARI

*Amangul DAVLETMURATOVA,*  
*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI*  
*Xalq ijodiyoti: (baxshichilik va dostonchilik)*  
*ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi.*  
*Ilmiy rahbar: Nodira HAYDAROVA,*  
*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI*  
*“O‘zbek maqomi tarixiva nazariyasi”*  
*kafedrasida o‘qituvchisi.*

***Annotatsiya:** Maqolada qoraqalpoq baxshi ijrochilik san’ati tarixi, ustoz shogird an’anasi, baxshi maktabi shajarasi hususida munozara bildirilgan hamda yosh, bo‘lajak baxshi ijrochilar nigohida qoraqalpoq ustoz baxshilar shajarasi ifodalangan. Qoraqalpoq dutor, qobiz cholg‘usi haqidagi turli afsona va nazariyalar keltirilgan. Jirov atamasining etimologik paydo bo‘lish tarixi yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Qoraqalpoq, baxshi, doston, qo‘shiq, shajara, jirov, qobiz, g‘ijjak, duvtar.*

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 26.04.2018 yildagi 304-sonli “Baxshichilik va dostonchilik san’atini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida aytilganidek - “ayni paytda baxshichilik va dostonchilik san’atining tarixi, baxshilar va dostonchilar ijodini mukammal o‘rganish, bu borada fundamental tadqiqotlar olib borish, xalq og‘zaki ijodi yodgorliklarini to‘plash, nashr etish yuzasidan yana ko‘pgina chora-tadbirlarni amalga oshirishga ehtiyoj sezilmoqda”. [5. 1 b.] Shu qaror ijrosini qisman bo‘lsada amalga oshirilishida hissa qo‘shishni maqsad qildik. O‘zbekistonda baxshi – doston ijrochiligi 3 ta yirik mahaliy maktabda rivojlanib kelmoqda. Ular Qoraqalpoq baxshichilik maktabi, Xorazm baxshichilik maktabi, Janubiy O‘zbekiston (Surxandaryo va Qashqadaryo) baxshichilik maktablaridir. Bu maktablarning o‘ziga xos ijro yo‘li o‘qitish uslublari mavjud bo‘lib,





maqolada aynan Qoraqalpoq baxshichilik maktabi borasida so‘z yuritiladi.

Qoraqalpoq xalqining eski qo‘shiq, soz, dostonlarini bugungi kunga qadar o‘z maromiga yetkazib ijro etgan va doston nasrlarini yuksak saviyada yetib kelishiga sababchi bo‘lgan hunar egasini – BAXSHILAR deb yuritiladi. Qoraqalpoq xalqida baxshi so‘zi “BAQSI” iborasi ishlatiladi. Qoraqalpoq baxshilari dutor asbobi jo‘rligida xalq qo‘shiqlari, dostonlar, noma va nag‘malar ijro etadilar.

Baxshi ijrochiligi san’atida doston ikki xil usulda kuylanadi:

1. Baxshilar (Baqshilar)

2. Jirovlar(Jirawlar)

Qoraqalpoq xalqining qo‘shiqlarini dutor asbobida ijro qilgan va barcha mavzudagi - lirik, ishqiy-romantik, diniy va nasixatomuz dostonlarni maromida ijro etuvchi xalq qo‘shiqchilarini “*baxshi*” yoki “*baqsi*” deb ataymiz. Qoraqalpoqlar O‘rta Osiyoga yetib kelgandan keyin ayniqsa Xorazm hududiga joylashgandan keyin baxshichilik kasbi keng tarqalgan bo‘lib, bu kasb ularga O‘rta Osiyo xalqlaridan, xususan Oralli o‘zbeklardan va qo‘shni turkmanlardan o‘tgan. [3. 19 b.] Qoraqalpoq baxshilaridan Aqimbet baxshi, Japaq baxshi, Muwsa baxshi, Suyeu baxshi, Edenbay baxshi kabi boshqa ko‘plab misollarni keltirish mumkin. Qadimgi Xorazm madaniyatini qoraqalpoq baxshilari chuqur o‘rganib “G‘arib Oshiq”, “Yusup Axmet”, “Go‘rug‘li” kabi dostonlardagi turli bo‘limlari ularning repertuaridan alohida o‘rin egallagan. Hozirgi kunda ham ushbu dostonlar o‘zining badiiy ahamiyatini yo‘qotmagan. Qoraqalpoq adabiyotida folklorning asosiy janri dostonlar bo‘lib, qahramonlik, lirik, ijtimoiy-maishiy, tarixiy mavzudagi “Qiriq qiz”, “A‘wez u‘ylengen”, “Ba‘zergen”, “Arap Rayxan”, Ashiq Na‘jep”, “Qirmandali” dostonlari bilan keyinchalik baxshi ijrochilik repertuari qamrovi kengaygan. Qoraqalpoq baxshi ijrochiligining yuqori cho‘qqilarga erishishi, repertuarining boyitilishida qo‘shni turkman xalq baxshilari ayniqsa Suyeu baxshi ijodining ta‘siri juda katta. Suyeu baxshi o‘z davrining mahoratli ijrochisi, betakror ovoz sohibi bo‘lib, u Xorazmda istiqomat qilgan. Qoraqalpoq hamda Xorazm baxshichilik maktablari shu sababdan bir-biriga juda o‘xshashdir. Suyeu baxshi qoraqalpoqlarning to‘y – marosimlarida juda ko‘p xizmat qilgan. Bir nechta shogirdlarga ham o‘z malakasi va mahoratini ulashgan. Misol uchun: - Japaq baxshi





Suyeu baxshining soz ijrochiligini o‘rganib, qoraqalpoq musiqa madaniyatini yanada bo‘yitgan. Suyeu baxshi Musa baxshi bilan zamondosh bo‘lgan va to‘y-marosim, katta qo‘rlarda (gulxan yoqib, atrofida baxshilar qo‘shiq aytib o‘tiradigan davra qoraqalpoqlarda “qo‘r” deyiladi) birga xizmat qilishgan.

Qoraqalpoq musiqa tarixida bugungi kunga qadar ikki maktab, ya’ni Musa va Suyeu maktablariga bo‘linib kelgan. Lekin so‘nggi yillarga kelib maktab ijrochiligi uslubini to‘rt turga bo‘lishga to‘g‘ri kelgan. Bular: Aqimbet, G‘aripniyaz, Arzi, Qutim maktablari bo‘lib har biri o‘ziga hos ijro yo‘liga, betakror nolalariga ega. Quyida ustoz-shogird an’anasining zanjirli shajarasi keltirilgan bo‘lib, qoraqalpoq baxshi-doston ijrochiligi ushbu ustozlar an’anasini yosh avlod turli usullarda, so‘nggi yillarda esa badihalar kiritib davom ettirib kelmoqda.



Qoraqalpoq baxshilari doston qo‘shiqlarni dutor asbobida chalib aytadi. Cholg‘uning to‘liq nomi “Alamoynaq duwtar”i deb ataladi. Bu duwtar (dutor) cholg‘usi xalqimizning asrlar davomida har qanday tarixiy voqealarida, quvonch-qayg‘usida, to‘y-marosimlarida birga yashab kelayotgan milliy cholg‘u hisoblanadi. Dutor qoraqalpoqlarda XV asr oxiri XVI asr boshlarida keng tarqalganligi haqida taxminiy ma’lumotlar mavjud. U davrda qoraqalpoq dutori ikki xil bo‘lgan. Birinchisi dastasi pardasiz dutor, ikkinchisi dastasida pardalar bog‘langan dutor.

Q.Ayekeyev o‘zining “Duwtar tariyxi. Duwtar shertiw ha’m sog‘iw usili” nomli adabiyotida 1906-yili tug‘ilgan urish va mehnat veterani 90 yoshli Qurboniyoz Yusuf o‘g‘li soz asbobning qudrati haqida bunday degan: - “Payg‘ambarimizning bittasida uchta oti va shu uchta otni boqadigan uchta xizmatkori bor ekan. Bu uch odamning vazifasi o‘ziga bekitilgan otga o‘t-yem, suv berib otni semirtirib boqishdan iborat bo‘lgan. Payg‘ambarimizning o‘zi uzoq yo‘lga chiqqan paytida minadigan Dul-dul degan tori oti bo‘lgan ekan. Payg‘ambarimiz shu otni juda yaxshi ko‘rar ekan. Sababi, ot juda ajoyib bo‘lgan, shuning uchun bu otni shu eldagi eng bilag‘on otboqar G‘ayip





qora degan seyis odamga boqtiradi. Bu odamning ustachilik hunari ham bor ekan. Bo’sh vaqtida sirnoy, ushpelek va dutorga oxshagan cholg‘ularni yasab chaladigan hunari bo‘lgan ekan. U har kungi yumushlarini qilib bo‘lib, yasagan cholg‘ularini chalib charchog‘ini chiqarar ekan. G‘ayip qoraning mehnatkashligini sezgan Payg‘ambarimiz bu odamga o‘zgacha mehrda bo‘libdi. Buni qizg‘ongan yo‘nidagi ikki otboqar har xil g‘iybat gaplarni aytib, G‘ayip qorani Payg‘ambarimizga yomonlab berishgan. Dul-dulni o‘zimiz boqamiz – deb, G‘ayip qorani ot boqish ishidan bo‘shatibti. Shu kundan boshlab bu ot o‘tlamapti hatto suv ham ichmabdi. Buni sezgan Payg‘ambarimiz qishloq katta oqsoqollarini yig‘ib, Dul-dulni o‘t yemay, suv ham ichmay kun sari ozib borayotganini aytibdi. Shunda oqsoqollarning biri – G‘ayip qorani o‘zini chaqirib gaplashish kerak debti. Bu gap Payg‘ambarimizga ma’qul kelib, G‘ayip qorani chaqirib olibti. Oqsoqollarning yana biri G‘ayip qoraga qarab:- tog‘risini ayt bo‘tam, bu otning hech narsa yemay, ozib ketishi nimadan deb soraydi. Shunda G‘ayip oqsoqollarga qarab javob beribdi:

Bu otga ham yaxshi gapirib, ham o‘t-yemini, suvini berib bo‘lib so‘ng soz chalib bersang o‘z egasini topadi deb sozini chalgan ekan, ot qulog‘ini ko‘tarib, qattiq kishnabdi.” Ana, o‘sha G‘ayip qora ikki torli dutor sozini yaratganga o‘xshaydi... Bu afsonani bolalik davrimda qishloqda bo‘lgan katta bir to‘yda chollarga va baxshi-jirovlarga o‘t yoquvchi bo‘lib yurganimda eshitgan edim,- deydi Qurboniyoz ota Yusuf o‘g‘li.

Cholg‘uning etimologik ma’nosiga keladigan bo‘lsak, dutor (DUWTAR) forsiy tildan olingan bo‘lib “du”- ikki, “tar”- tor(sim) ya’ni “ikki torli cholg‘u” degan ma’noni anglatadi. Bu cholg‘uning yasalishi ikki usuldadir. Birinchisi o‘yma dutor, ikkinchisi yasama (qoraqalpoqda “qurolma” ya’ni, o‘nga yaqin yupqa taxta bo‘laklarini egib, bir-biriga yelimlab yasaladi) dutor deb yuritiladi. Ikki xildagi dutorlarni yasaladigan daraxtlarida ham farqi mavjud. Ya’ni o‘yma dutor odatda tut, o‘rik daraxtlaridan yasalsa, yasama (yoki “quralma”) dutor asoson tut daraxtidan yasalib, bu turdagi daraxtlar bo‘laklarga o‘zaro belgili tartibda yelimlab yasaladi. Dutor cholg‘usining ustidagi qoqpog‘i qanchalik yupqa va mustahkam bo‘lsa, uning ovozi ham shu darajada yaxshi sadolanadi. Dutorni yuzasi ko‘pincha jiyda va tut daraxtlari bilan qoplanadi. Shuni ham aytib o‘tish joizki, qoraqalpoqlar





dutorni “Alamoynaq duwtar” deb atagan. Sababi dutor cholg‘usining bo‘yni, dastasi suyaklardan yasalgan har xil naqshlar bilan bezatilgan. Dastasining yuzasiga ham suyak yopishtirib ishlangan va bu ko‘rinish juda nafosatli ko‘ringan. Shuning uchun ham “Alamoynaq duwtar” deb ataganlar. Dutorni dastasiga qo‘yning ichagidan tayyorlangan 12 ta parda o‘ralgan, xromatik tovushqatorga asoslangan. Dutorda faqat 12 ta parda bo‘lishi kerak deb ko‘rsatilmagan, u har baxshining o‘z yo‘liga qarab ko‘payishi mumkin. Masalan: O‘rinbay baxshi har nag‘maning uzun-qisqaligiga qarab dutoriga har doim 13-14 parda bog‘lab yurgan. Dutor cholg‘usining ovoz diapazoni 1,5 oktavagacha bo‘lgan hajmni qamrab oladi. Xalqimizda dutor chalib qo‘shiq aytuvchilar “baqsi” deyilsa, dutor chaluvchi ijrochilarni “sozanda” deb ataydilar. Qoraqalpoq xalqida azaldan dutor va boshqa sozlarni yasaydigan ustachilik hunari rivojlangan. Misol uchun Genjeg‘aliy usta, Barliqbay usta, Qazimuxammed usta ulardan keyin Erimbet, Karimbergen, Jarmuxammed, Berdaq, Juzimbay, Oralbay va boshqa ko‘plab ustoz ustalarning nomlarini atab o‘tishimiz o‘rinli. [4. 85 b.]

Dutor cholg‘usining tuzilishiga keladigan bo‘lsak, bu asbob tovush chiqaruvchi kosasi, dastasi, ikki quloqdan, dasta bo‘ylab joylashgan pardalardan, ikki tor va shu torlarni ko‘tarib turuvchi xarrakdan va ikki torni ushlab turuvchi ilgakdan iborat. Shu bilan birga tovush chiqaruvchi kosasining yuzasi yupqa taxta bilan qoplanib, qoqpoqning teshikchalari bo‘ladi va bu teshik vazifasidan kelib chiqib “tovush chiqaruvchi teshikcha” deb ataladi.

Qoraqalpoq baxshi ijrochiligida doston aytuvchilarning yana biri bu – *jirovlardir*. Jirovlarning repertuarida ham dostonlar, termalar alohida o‘rin egallaydi. Qoraqalpoqlarda jirovlar juda katta hurmatga ega. Ular xalqning o‘g‘il qizlarini Vatanga bo‘lgan muhabati, jasur va botirligi, fidoiyligini adabiy so‘zlar bilan ta’riflagan. Jirovchilik qoraqalpoqlarda azaliy davrndan kelayotgan bo‘lib, baxshilar va qissaxonlardan oldin paydo bo‘lgan va xalq bilan birga asrlar mobaynida yashab kelgan. Jirovlar chaladigan cholg‘uning nomi “qobiz” deb atalgan. Qobiz cholg‘usi qadimdan yetib kelgan bo‘lib, boshqa turkiy xalqlarda ham uchraydi. O‘rta Osiyoda, Qazog‘iston xalqlarida qobiz asbobi ularning tarixiy turmushi bilan bog‘liq. Tarixiy manbalarga ko‘ra Ukraina xaliqlarida ham ushbu cholg‘u mavjud bo‘lib, u cholg‘uni chalgan, xalq tolq‘ovlarini (janr) aytgan shoirlarni





“Qobzar” deb atashgan. “XVII asrda yashagan Darvish Ali Changiyning risolalarida ta’kidlanishicha tanburning bir turi hisoblangan qobiz juda qadimgi cholg’udir. Qobizni musiqa ilmi asosini mukammal o’rganib olgan XIV asr taniqli ijrochisi Sultan Uvaysiy zamonida qo’llangani ko’rsatilgan.

Yana bir izlanishlarda o’zbek xalqining buyuk shoiri Lutfiy(1411)ning “Gul va Navruz” nomli dostonida ham buyuk mutaffakkir Navoiyning asarlarida ham jirov, qobiz haqidagi misralarni uchratishimiz mumkin. Demak, jirov so’zi turkiy xalqlarning qadimgi zamonlardan buyon bugungi kunga qadar qo’llanilayotgan so’z hisoblanadi.

“Jirov” atamasiga hususida so’z yuritsak... . So’zning kelib chiqishi haqida bir nechta olimlar ilmiy ish olib borgan. Misol uchun: N.I.Ilminskiy, V.V.Radlov, I.I.Budakov, Sh.Sh.Valixanovlar o’z mehnatlarida “*jirov*” so’zning negizi “jir” asos so’zidan kelib chiqqanligini, jir-jirlov degan ma’noni bildirishini aytgan. Masalan: “Kimnin’ jerin jerlesen’ sonin jirin jirlaysan”. [4. 26 b.] Qobiz cholg’usining piri Qo’rqit ota bo’lganligi ko’plab afsonalarda keltirilgan. Kelib chiqish tarixi ham Qo’rqit otaga bog’liq. Shu bilan birga qoraqalpoq jirov ijrochilariga misol keltirsak: Soppasli Sipira jirov, Asan qayg’i, Jiyen jirov, Shanko’t, Erbay, Jiyemurat va boshqalar. Jirov nomalari mazmuni va ijrochiligi tarafidan to’rt yirik guruhga bo’linadi.

1. Terma-tolg’ovlar (kalta tolg’ov, uzun tolg’ov). Bu turdagi terma-tolg’ovlar asosan xalqning folklor to’qima ijodi asosida tuzilib, unga jirovlar doston ijro qilganda tomoshabinlarning diqqatini jamlash maqsadida, kirish sifatida ijro qilinadigan nomalar kiradi.

2. Atoqli jirovlarni nomiga bog’liq yaratilgan nomalar. Bu guruhga jirovlarni o’zi yaratgan va jirovlarni nomi bilan atalib ketgan nomalar kiradi.

3. Rivojlantirilgan, ba’diiy tasvir ko’proq jamlangan asosiy nomalar. Bu guruhga: “Jortiwli”, “Jeti asirim”, “Ulli ziban”, “Shalqayma”, “Sherbeyit”, “Kishi ziban” va boshqa nomalar kiradi.

4. Yakka qobiz chol’usida ijro qiladigan sozandalar to’rtinchi guruhga kiradi.

Qoraqalpoq baxshi ijrochiligida baxshilar boshqa maktablar kabi doston qo’shiqlarni ijro qilganda hamda ansambllarga jo’rnavor







sifatida boshqa cholg‘ular bilan qo‘shilishi mumkin. Ansambl cholg‘ularining tarkibiga - g‘ijjak, chanqobiz, bolamon, soz-sirnay, tuyoq, qovoq kabilar kiradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, Mohir baxshi ijrochilar maktabini munosib davom ettirish, yosh baxshi ijrochilarni tarbiyalashda ustozlar o‘gitidan munosib foydalanish hamda nomoddiy madaniy me’rosimizni ommalashtirish bugunning dolzarb masalasidir. Lekin ustozlar ijro maktabini kelajak avlodga, talabalarga yetkazishda mohir, yetuk ijrochilarning me’rosiga murojaat qilish lozim. Har bir talaba asl ijro va keyingi avlod ijrolari o‘rtasidagi umumiylik va farqli jihatlarini ustoz bilan tahlil qilishi, ijro diapazonini, texnikasini, turli dinamik shtrixlar hamda ovoz tembridagi o‘ziga hos xususiyatlarni o‘rganishi lozim. Shundagina bo‘lajak baxshi ijrochisi mutaxassis sifatida o‘zining mustaqil ijrolarining mukammal namunalarini yaratishi hamda kelajak avlodga munosib yetkazishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Adambaeva T. Revolyuciyag‘a shekemgi qaraqalpaq muzikasi. “Qaraqalpaqstan”. No’kis.1976.
2. Ayimbetov Q. “Xaliq danalig‘i” No’kis.2020
3. Matyoqubov B. Doston navolari.Toshkent-2009
4. Nadirova.A.B. Qaraqalpaq muzika tariyxi.Toshkent-2018
5. <https://lex.uz/uz/docs/-3711930>





**QORAQALPOQ BAXSHICHILIK YO‘NALISHIDA  
A‘MET TARIXOVNING IJOD FAOLIYATI**  
(Yosh baxshilarga ustoz sifatida qoldirgan meroslari)

*Azada QARLIBAEVA,  
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI  
Xalq ijodiyoti: (baxshichilik va dostonchilik)  
ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi.  
Ilmiy rahbar: Asatillo SUNNATILLAEV,  
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI  
“Doston ijrochiligi” kaferdrasi dotsenti v.b.*

***Annotatsiya:** Qoraqalpoq baxshichilik yo‘nalishi, A‘met Tarixov yoshligi, ijodiy faoliyati va yoshlarga qoldirgan ma‘naviy boyliklari haqida so‘z yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** Qoraqalpoq xalq baxshisi, jirovlar, og‘zaki ijro, dostonlar, termalar.*

“So‘z yetmagan joyga, soz yetadi” deganidek qoraqalpoq baxshichilik yo‘nalishi erta davrlardan rivojlanib kelgan. Xalqimiz yuragidagi mardlik, jasurlik, muhabbatga sodiqligi va vatan parvarlik tuyg‘ulari albatta baxshilar-jirovlar repertuaridagi asarlar orqali singadi. Bu san‘at turining bugungi kungacha saqlanib qolganligida va bizgacha yetib kelishida ustoz baxshilarning mehnati katta hisoblanadi.

Qoraqalpoq baxshichiligining rivojlanishida, repertuarlarining kengayishida qo‘shni xalq baxshichiligining ham o‘rni bor, sababi Turkman baxshisi Suyov baxshi qoraqalpoq, xorazm hududlarida ham yurib o‘z qo‘shiqlari bilan xalqqa xizmat qilgan. Tarixga nazar solganimizda qoraqalpoqli Musa baxshi bilan Suyov baxshi zamondosh bo‘lishgan va birga to‘ylarda yurgan. Baxshichilik shejarasida Musa baxshi va Suyov baxshi yo‘li bo‘lib bo‘lingan.

Ota-bobolarimizdan og‘izdan-og‘izga yetib kelgan xalq dostonlari, termalari va aytishuvlari hozirgi kunda ham yosh baxshilarning ijrolarida, katta sahnalarda ham jaranglayotkanini ko‘rishimiz mumkin. Ustozoda Aqimbet baxshi, Musa baxshi, Suyov baxshi, Esjan baxshi,





Japaq baxshi va A’met baxshilar xalq og’zaki ijodidan o‘rin olgan doston va termalarni xalq orasida ijro qilib, o‘zlari ham yangi termalar yaratib repertuarlarini kengaytirgan.

Qoraqalpoq baxshichilik maktabining davomchisi Amet Tarixov 1923-yili Qoraqalpog‘istonning Qarao‘zek tumani, Esim bo‘yi, Sag‘anay quyin degan qishlog‘ida dunyoga kelgan. Yoshligidan mehnatkash A’met yetim qolib qarindoshlarining qo‘lida tarbiyalanadi. Qishlog‘ida odamlarning mol-qo‘ylarini boqish bilan birga baxshilarning terma dostonlarini eshitib ulg‘aya boshladi. Turmush tashvishlarini o‘z mehnati bilan yenga olgan bo‘lajak baxshining yuragida talant qushi sayrab turar edi. U 12 yoshida maktabga o‘qishga boradi, shu yerdagi havaskorlar to‘garagiga qatnasha boshlaydi. Ota-bobosida baxshichilik bo‘lmasada u bunga ko‘ngil qo‘ygan edi. Qo‘lidagi qayg‘u tayog‘ini dutor qilib chalganda yuragidagi bor azob-qiyinchiliklari keng dalalarga taralardi. Kuni bo‘yi cho‘ponlik qilib, tun bo‘yi qishlog‘iga kelgan baxshi-jirovlarni uxlamasdan eshitib chiqardi. Aqilli, chaqqon va talabchan bo‘lib o‘sgan A’metning qalbidagi istakni to‘ydagi qur egalladi.

Asosan 20-yillarning oxiri 30-50-yillari baxshichilik hunari o‘zining ijrochilik tarafidan eski klassik formasini saqlagan edi. Qishloqlarda baxshi-jirovlar tun bo‘yi qur tuzib dostonlarni tongacha ijro qilishgan.

Yigit bo‘lib yetishgan A’met boshqa er yigitlar qatorida 1943-yili sentabr oyida bu ham frontga ketdi. 1944-yili ko‘zidan jarohat olib, urushdan qaytib keladi.

Atoqli Esjan baxshining shogirdi Qurbaniyaz baxshiga shogird bo‘lib tushadi. 1945-48-yillari xalq namalari, qoraqalpoq xalq qo‘shiqclarini, “Qirmanda’li”, “G‘arib-ashiq”, “Sayatxan-Hamra”, “Yusup-Axmet”, “Bazergen” kabi dostonlarni o‘rganib, 1948-yili ustozidan duo olib, bir o‘zi el oralab baxshichilik qiladi.

1950-yili A’met Tarixovning Nukus shahriga ko‘chib kelishi uning ijodining yanada gullab-yashnashiga imkon yaratdi. Qoraqalpog‘iston radio komitetida Esjan, Japaq, Tinibay baxshilar, Qurbanbay, Qiyas va Mambet jirovlar, Qo‘yli g‘ijjakchi, Qutum bulomonchilar bilan birga ish olib bordi.

1956-yili Amet Tarixov Qoraqalpog‘iston mamlakatlik filarmoniyasi artisti, baxshi bo‘lib ishlab baland ovozi respublika bo‘ylab eshitila boshladi. 1957-yilda Toshkent shahrida o‘tkazilgan Qoraqalpoq san’ati va adabiyoti kunlarida qatnashdi. Baxshi xalq orasida o‘z





qo‘shiqlari bilan katta hurmat-e’tiborga sazovor bo‘ldi. Hayotning bir qancha o‘yli-balandliklarini ko‘rgan Amet Ikkinchi jahon yer yuzlik urushi qatnashchisi sifatida bir qancha siyliqlarga sazovor bo‘ldi.

Amet Tarixovning o‘ziga yarasha baxshichilik yo‘li bor. Shirali ovozi va ipakdek torda chalgan sozlarini xalq yana eshitishga intilar edi. 1974-yili baxshichilik yo‘nalishidagi katta mehnatlari uchun “Qoraqalpog‘istonga mehnati singan artisti” unvonin olishga muvassar bo‘ldi. U ko‘pchilik baxshilarga ustoz va uning yo‘lida kuylovchi baxshilar soni juda ko‘p. 1983-yili “Ayqulash” mamlakatlik ansanblida ishlab yurib “Qoraqalpog‘iston xalq baxshisi” unvonin oldi. Qo‘shni davlatlarda Turkmaniston, Qozog‘iston davlatlarida tarixida o‘zining hushovozi, qoraqalpoq milliy nolalari bilan yaxshi taassurot qoldirdi.

Uning repertuarida “Xoja bala”, “Xoshim paluan”, “Miyet et”, “Yara yandim”, “” “Alaqayis”, “Aruxan”, “Baglar”, “Barmeken”, “Begler”, “Gelalayim”, “Eshbay”, “Ilg‘al”, “Sharqi pa‘lek”, “Ushtob”, “Xoshadas” qo‘shiqlari bor.

“Bazergen”, “Yusup-Axmet”, “Qirmanda‘li” dostonlarini va quyidagi keltirib o‘tilgan qo‘shiqlarni to‘lig‘i bilan ijro qilib magnitlentaga, gramplastinkaga yozib qoldirgan. N.Kamalov 1959-yili “G‘arib – oshiq” dostonini Amet Tarixov variantida yozib olgan. Bu variant 100 tomlik “Qaraqalpaq folklori” kitobining 27-42 tomida keltirilgan

Amet Tarixov 1989-yili dunyodan o‘tti. Uning bizga qoldirgan me‘roslari baxshilar uchun bebaho xazina hisoblanadi. U xalq ardog‘idagi baxshilarning biri bo‘ldi, uning qoldirgan yo‘li shogirdlari orqali davom etadi.

Buyuk baxshi haqida O‘zbekiston va Qoraqalpog‘itonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi Najimatdin Muxammetdinovning aytishicha; - “Men Amet Tarixovni ko‘rganimdan juda xursandman. Sababi uning qurda qo‘shiq kuylaganin, doston aytganin ko‘rdim. Bir to‘yda G‘arib-oshiq dostonidan parcha aytganida Shoxsanamning obrazini o‘zining ovozi bilan, harakatlari bilan, sozi bilan juda o‘xshatib ijro qilgandi. Men shu kungacha Amet akadek ijro qiladigan baxshini eshitmaganman. Uning bir qancha shogirdlari bor. Elimiz suygan baxshilardan biri edi” - deb ta’rif bergan.

O‘zbekiston xalq baxshisi G‘ayratdin Utemurodov ham o‘zining yaxshi fikrlarini keltirgan. Uning aytishicha “Amet Tarixovti biz kichkina





vaqtimizdan radio orqali eshitganmiz. Lekin biz yaxshi bilamagan bilan yonimizdagi katta odamlar bu Amet Tarixovning ovozi deb aytar edi. Bu kishi bilan birga ishlashish baxtiga muyassar bo‘lganimga juda quvonchliman”.

1991-yili o‘zi yashagan ko‘chaga baxshining nomi berildi. Farzandi Maqsetbay Tarixov o‘z otasining yo‘li baxshichilikni davom ettirmasa ham san’at sohasida faoliyat yuritib ustoz bo‘lib kelmoqda.

Maqsetbay Tarixovning aytishicha: “Otam o‘zi bilan birga meni to‘ylarga olib ketar edi. U paytlarda mikrofonlar yo‘q, hamma narsa tabiiy edi. Uyimizda magnitafon bo‘lardi, otam ijro qilgan qo‘shiqlarni o‘zim ham yozib olar edim, ustiga “Faqat yoshi katta chollar eshitsin” deb yozib qo‘yardim. Sababi uning ijrosida ko‘pincha hayotiy temadagi qo‘shiqlar ijro qilinardi. Uning ma’nosini katta yoshdagi odamlar tushinardi.

*Saksondan o‘tsang, to‘qson*

*Bu dunyoda borsan yoki yo‘qsan”* - deb aytardi. Bu qo‘shiqlarning mano’sini anglab yetish kerak” - deb fikr bildirgan.

Nukus shahridagi 12-sonli BMSM ga baxshi nomi berilgan. U yerda yoshlar baxshichilikning alvon sirlarini ustozlardan o‘rganib kelmoqdalar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-apreldagi 304-sonli qaroridagi “Baxshichilik va dostonchilik san’atini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish bo‘yicha 2018-2022-yillarga mo‘ljallangan “O‘zbek baxshichilik san’ati rivojiga katta hissa qo‘shgan atoqli baxshi-shoirlarning xotira kechalarini tashkil etish hamda ularning faoliyatlarini keng targ‘ib qilish” to‘g‘risidagi “Yo‘l xaritasi”da amalga oshirilgan 2023-yil 27-fevralda A’met baxshi Tarixovning 100-yilligiga bag‘ishlangan 50-yosh va undan katta yoshdagi baxshilar o‘rtasida tanlov bo‘lib o‘tdi. Tanlovga respublikamizdan bir qancha baxshilar qatnashdi. O‘rta yosh kategoriyasi bo‘yicha ham shu yili tanlov o‘tkazilgan. Yubeley munosabati bilan og‘li Maqsetbay Tarixovdan otasiga bag‘ishlab yozgan she’ri;

Eslew

Akeni eske aliu persentke pariz,  
Ake aldinda tawsilmaydi hesh qariz.  
Akem ushin qansha xizmet etsemde,  
Oylayman barlig‘i men ushin “qalis”.





Tan’ aldinda keldi qulaqqa saza,  
Uyqisizliq mag’an jag’imli jaza.  
Qosiq aytqan hawazi oyatti meni,  
Jan’ladi kewlimde ol shertken nama.

Maqtap atir eken adamlar oni,  
Esitip qosig’in kewiller toldi.  
Ko’kiregim bosasip o’ksip atirman,  
Ko’zlerim da’ryaday jaslarg’a toli.

Uyiqalay almay qalem aldim qolima,  
Qosig’imdi bag’shladim jolin’a.  
Ziyarat etip baratirman bugun men,  
Aytshi ag’a senin’ kewlin’ toldima.

*O‘zbekistan ham Qaraqalpaqstan Respublikasining  
Xalq Bilimlendiriw Ag’lasi M.Tarixov*

“O‘zbekkino Milliy agentligi” va “Qaraqalpaqfilm” kino studiyasi tomonidan 2019-yili “Balent lapizli baqsi” nomli hujjatli film suratga olingan. U yerda baxshining hayoti va ijodi haqida keltirilgan. Bu film xalqimiz yuragida juda ajoyib tassurot qoldirib, yosh baxshilar A’met Tarixovning ijodini o‘rganish uchun foydali ma’lumotga aylandi.

Bugungi kunda O‘zbekiston hududida har bir baxshichilik maktablari rivojlanish bosqichida. Yoshlarning bu san’atni o‘rganishi uchun bir qancha sharoitlar yaratilgan, musiqa maktablar, baxshichilikka ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari, madaniyat maktablar, institutlar, o‘quv darsliklari nashr etilgan, dostonlar qaytadan nashr qilingan, eshitib o‘rganish uchun video va audiolar ham internet tarmog‘iga joylangan

Har ikki yildan bir o‘tkaziladigan Xalqaro baxshichilik san’ati festivali ham yosh baxshilar uchun juda ajoyib imkoniyat eshigidir. Berilgan imkoniyatlardan keng turda foydalanilsa baxshichilik san’ati yuqori cho‘qqilarni zarb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Maqsetov K. Dastanlar, jirawlar, baqsilar. No‘kis, “Qaraqalpaqstan”, 1992.





2. Nadirova A. Qoraqalpaq muzika tarixi. Tashkent, 2018.
3. <https://lex.uz/uz/docs/-3711930>
4. <https://t.me/baqsilar>

## **QORAQALPOQ BAXSHICHILIK SAN’ATIDA KARIMBAY TINIBAYEVNING USTOZ SHOGIRD AN’ANALARI**

**Devora KUANISHBAEVA,**  
*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSS*  
*Xalq ijodiyoti: (baxshichilik va dostonchilik)*  
*ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi.*  
*Ilmiy rahbar: Asatillo SUNNATILLAEV,*  
*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSS*  
*“Doston ijrochiligi” kaferdrasi dotsenti v.b.*

*Annotatsiya: Qoraqalpoq baxshichiligi va unga jo‘rnavor  
sozanda, baxshi hamda g‘ijjakchi Karimbay Tinibayev hayoti va ijodi,  
uning davomchi shogirdlari haqida.*

*Kalit so‘zlar: baqsi, girjek, shogird, qoraqalpoq baxshichiligi,  
jornavorlik.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi PQ-4320-son “Baxshichilik san’atini rivojlantirish bo‘yicha” qarori ilovasidagi vazifalarini birida “Baxshichilik san’ati yo‘nalishida “ustoz-shogird” an’analarning saqlanishi va rivojlantirishini ta’minlash maqsadida jamoatchilik asosida “O‘zbekiston baxshilar uyushmasi”ni va uning hududiy bo‘limlarini tashkil etish” masalasi haqida aytib o‘tilgan.

Ushbu qarorda aynan ustoz shogirdlik an’analari haqida to‘xtalarkan, shu boyis men maqolamda atoqli qoraqalpoq baxshisi hamda g‘ijjakchisi sifatida tanilgan, har bir qoraqalpoq baxshilari va g‘ijjakchilari o‘ziga ustoz deb biladigan Karimbay Tinibayev haqida so‘z yuritiladi.

Ko‘p asrlardan beri xalqimizning milliy merosi xisoblanadigan baxshichilik san’ati O‘zbekiston Respublikasi hududida Surxandaryo-





Qashqadayo, Xorazm va Qoraqalpoq baxshichilik maktabi bizgacha etib kelgan. Shulardan biri Qoraqalpoq baxshichilik maktabi o‘zining ohangi bilan ajralib turadi va “Alamoynaq” nomli dutor asbobi bilan dostonlar va shoirlarning she’rlariga qo‘shiqlar kuylaydi va asosan ohangiga ya’ni “ir’aq”ga ko‘proq e’tibor beriladi. Shu bilan bir qatorda yonida jo‘rnavoz cholg‘u asboblarni chaluvchi sozandalar bilan ijro etiladi, eng asosiy jo‘rnavoz asbob bu g‘ijjak hisoblanadi.

Qoraqalpoq g‘ijjagi turkmanlarni g‘ijjagi bilan bir xil. 3 simli kvarta intervaliga sozlanadi. Baxshini dutori qaysi tonallikka sozlansa xuddi shu tonallikka sozlanadi. Chunki gijjakchi baxshilarga ergashib ular chalganlaridek kuyni bir xil chalishi kerak. Qaysi tonallikka sozlash bu baxshilarning ovoz imkoniatiga va qanday qo‘shiq aytishiga bog‘liq.

Faqat sanoqli ayrim baxshilar g‘ijjak asbobini chala olgan. Ulardan biri buyuk ustozimiz Tinibayev Karimbay Kegeyli tumani “Qum shug‘il” qishlog‘ida Tinibay baxshi dehqon oilasida tug‘ilgan. Otasi Tinibay baxshi elimizga mashhur va atoqli bo‘libgina qo‘ymastan, tajriyballi dehqon bo‘lgan. Karimbay zanjirma-zanjir kelayotkan baxshilar avlodini vakili. U atoqli Qudaybergen baxshining nevarasi hisoblangan, ota bobolari ham baxshi bo‘lgan.

Baxshichilikka bolaligidan qiziqqan kichkina Karimbayni, otasi qaysidur to‘yga chiqsa, o‘zi bilan birga borgan. Bolasining baxshi nomalari bilan juda yaqindan tanishib borgan Karimbay, 10-13 yoshlaridan boshlaboq, biroz nomalarni maromiga etkazib chalgan. Otasiga ergashib yurib, baxshilar ijro etkan nomalarni irg‘oqlariga, qoshirimlariga e’tibor berib, ko‘p nomalarni otasidan o‘rganib boradi.

10-sinfni bitirganidan so‘ng Shimbay shahriga borib, traktorchilik maktabida o‘qiydi. Shu maktabda o‘qib yurganida madaniyat uyining yonidan otib borayotib chertilayotkan sozlarni eshitib, eriksiz ichkariga kirib boradi, ham shu yerda ansamblga rahbarlik qilayotkan R.Sultanov bilan tanishadi. R.Sultanov Karimboydagi qobiyatni ko‘rib, bo‘sh vaqtida kelib turishini tayinlaydi. Shunday qilib, u ansambl a‘zolari bilan birqancha tumanlarda o‘tkazilgan kntsertlarga qatnashish baxtiga muyassar bo‘ladi.

1951-yil onasi, 1959-yili otasi duniyodan o‘tkandan so‘ng, 1961-yili Nukus shahriga ko‘chib keladi. Ko‘chib kelgan mavritlarida har xil yumishlar ishlab yuradi ham vaqt topib, bir kuni otasining shogirdi







O‘tan To‘rashovni topib, unga shogird tushmoqchi bo‘lganda , -  
“Karimbayjon, sen ustozimning og‘lisan. Bexostan tilim tegip ketar.  
Sen yaxshisi Ubayxanga boraqol, o‘zim unga topshiraman”, - dep yo‘l  
ko‘rsatdi.

1962-yildan boshlab Karimbay U.Sadiqovdan ta’lim olib, unga  
shogirdlikka tushadi. Baxshichilik bilan birga girjek saz asbobin  
o‘rganib, ustoz qo‘shiq aytsa, unga girjek qo‘shib chalgan. U 1962-yili  
Genjebay baxshi Tileumuratov bilan ham uchrashadi ham u kishidan  
ham qaraqalpaq xalq no‘malarini o‘rganadi. No‘malarni to‘liq ijro eta  
oladigan bo‘lgandan so‘ng, elimizga ma‘lum shoir S.Nurimbetovning  
oldidan sinog‘idan o‘tib, “Yetuk baxshi bo‘lipsan, bolam”- degan ryizo  
so‘zlarini eshitadi.

1976-yili G.Tileumuratov boshchiligida “Muhalles” duvorchilar  
ansambilini tuzishta yordam beradi va o‘zi ham shu ansamblga a‘zo  
bo‘ladi. G.Tileumuratov bilan ten’ turib, ko‘pgina shogirdlar  
tayyorlaydi.

1977-yili “Muhalles” ansambli to‘liq oyoqqa turadi ham shu yili  
Bashqurtiston Respublikasida bo‘lib o‘tgan madaniyat kunlarida  
K.Tinibaev girjek(qoraqalpoq gijjagi) chalib qatnashadi. 1977-1982-  
yillari Genjebay baxshi bilan Moskva shahrida bo‘lib o‘tgan “Xalq  
sazlari” simpoziumida qatnashib keladi. 1981-yili Tatarston, 1984-yili  
Azerbayjan Respublikalarida bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston madaniyat  
kunlarida qatnashadi. Berdaq shoirning Toshkent va Moskva  
shaharlarida o‘tkazilgan 150-yillik yubeleyiga, Qoraqalpoqni  
Rossiyaga qoshilganiga 100 yil to‘lgan yubeleyiga, Tashkent shahrida  
va Xorazm viloyatida o‘tkasilgan madaniyat kunlarida ham faol  
qatnashdi.

K.Tinibayev 1992-2013-yillar oralig‘ida-Nukus madaniyat va  
sa‘nat kolledjining “Milliy musiqa” bo‘limida baxshi va g‘ijjak  
bo‘yicha o‘qituvchi bo‘lib ishlaydi. U ko‘pgina shogirdlar yetishtiradi.  
Shu bilan bir qatorda, 2000-yilga qadar Genjebay baxshi nomidagi  
“Muhalles” duvorchilar ansamblida ham ishlab kelgan. 2017-yili 8-  
sentabrda olamdan o‘tkan.

Karimbay Tinibayev o‘zidan keyin ko‘p baxshilardan ham  
gijjakchilardan ham shogird qoldirgan. Atoqli g‘ijjakchilardan: Nasir  
Nuratdinov, Genjebay Sultanov, Sharapat Bazarov, Salamat  
To‘legenov, o‘zining og‘li Tinibay Muratbayev, Injigul Saburova va





boshqalar. Uning baxshi shogirdlari ham juda ko‘p. Qoraqalpoqston xalq baxshisi Gulnara Allamberganova, Begzada Asqarova, O‘tebiyke Sa‘tbayeva va boshqa ko‘pgina shogirdlar yetishtirgan. “Do‘stlik” medali egasi Oralbay Otambetov ham aynan Karimbay baxshidan qo‘shiqni eski variantlarini o‘rganganligini aytib o‘tadi. Haqiqatdan ham K.Tinibayev ustoz shogird an‘analariga juda jiddiy e‘tibor berib ustozlaridan o‘rgangan qo‘shiq, kuy, va dostonlarni buzmasdan ijro etib shogirdlariga ham shu tarzda o‘rgatgan.

Hozirda uning shogirdlari ham musiqa maktablarida, musiqa maktab internatlarida, Nukus ixtisoslashtirilgan musiqa va san‘at maktabida, Oliy o‘quv dargohlarida K.Tinibayev shogirdlari shogird tayyorlab ustozlari yo‘lini davom ettirib o‘z faoliyatlarini olib borishmoqda.

Uni ayniqsa har bir qoraqalpoq g‘ijjakchisi o‘ziga ustoz deb biladi chunki hozirgi kundagi deyarli barcha jo‘navoz g‘ijjakchilar K.Tinibayevning shogirdlarini shogirdlari hisoblanadi misol uchun Berdihanova Gumisay, Gulayim Zaripbayeva, Niyazbayeva Aynura, Kuanishbaeva Devora va boshqalar.

K.Tinibayev farzanlari ham bari musiqa sohasida faoliyat yurityapti. Uning Muratbay Tinibayev degan o‘g‘li otasini yo‘lini davom ettirdi ya‘ni g‘ijjakchi bo‘ldi. U g‘ijjakni otasidan o‘rgandi va kollejdagi 4 simli g‘ijjakni va alt g‘ijjagini o‘rganadi. Ko‘p yillar Qoraqalpoq filarmoniyasida alt g‘ijjagida ijod qiladi “Muhalles” dutorchilar ansamblida ham faoliyat yuritadi. Yuragida otasini o‘rgatgan qoraqalpoq g‘ijjagini eslab otasini yo‘lini davom ettirish uchun 2019-yili Nukus ixtisoslashtirilgan san‘at va madaniyat maktabida ta’lim berib shogirdlar yetishtirdi. U ham huddi otasi an‘ana va ustozlarni yo‘llarini buzmaganda har bir kuyni ma‘nosini va tarixini shogirdlariga so‘zlab berganda kuyni xis qilib chalishni, jonlantirishni va g‘ijjak kuylarini tomoshbinga yetkazib berishni o‘rgatadi. Har so‘zida aytardi-ki “Girjek chalish faqatgina baxshiga ergashib jo‘navoz bo‘lishni anglatmaydi, balki baxshilarsiz ham yakka zo‘r chala olishi kerak” - dep o‘z shogirdiga takidlab o‘tkan ekan.

Yana bir K.Tinibayev shogirdi Qoraqalpoq ayol-qizlari orasida birinchi g‘ijjakchi sozanda Injigul Saburova, hozirda birqancha respublikalik va xalqaro ko‘rik tanlovlar va festivallari qatnashuvchisi





bo‘lib, Qoraqalpoq milliy san’atini tanitishda salmoqli mehnat qilmoqda

Shuni aytish muhimki K.Tinibayev G.Tileumuratovga taklif bergan ansambilimiz turli bo‘lsin deb shogirdi Saburova Injigulni shu “Muhalles” ansambiliga g‘ijjakchi sifatida a’zolikka qabul qilgan. Albatta tanqid ko‘p bo‘lgan chunki I.Saburovagacha hech g‘ijjakchi qiz bola bo‘lmagan lekin bu tanqidlarga qaramasdan shu yo‘llarni bosib o‘ta olgan. U shu kungacha Esjan baqsi nomidagi musiqa va san’at maktabida, Nukus madaniyat va san’at kolledjining “Milliy musiqa” bo‘limida baxshi va g‘ijjak bo‘yicha o‘quvchilarga o‘z bilimini berib shogirdlar yetishtirgan. Hozirda uning shogirtlari ham musiqa maktablarida dars berib, madaniyat uylarida ustozining yo‘lini davom etip kelmoqda va shuni aytib o‘tish kerak uning iste’dodli shogirdlaridan biri Berdixanova Gumisay huddi ustoz kabi bir qancha chet mamlakatlarida festival va tadbirlarda qatnashib kelgan. “Muhalles” dutorchilar ansambili tuzilandan buyon to 2023-yilgacha o‘z faoliyatini olib bordi. Ayni paytda Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati institutida “Doston ijrochiligi” kafedrasida “Cholgu ijrochiligi” fanidan talabalarga qoraqalpoq “Girjek” cholg‘usidan o‘z bilimini ayamasdan shu cholg‘unig alvon sirlarini o‘rgatib kelmoqda.

Men Kuanishbaeva Devora Karimbay Tinibayevning shogirdlarining shogirdi hisoblanaman chunki aynan uning shogirdlari Muratbay Tinibayev va Injigul Saburovalar mening gijjak bo‘yicha bilim bergan usozlarimdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

- 1) A.Nadirova “Qoraqalpoq muzika tariyxi” Tashkent 2018
- 2) “xalq danalig‘i”
- 3) <https://lex.uz/uz/docs/-3711930>
- 4) <https://t.me/baqsilar>





## MUNDARIJA

<i>Tabrik so‘zi</i>	<i>O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri, Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti rektori O.A.Nazarbekovning anjuman ishtirokchilariga tabrigi</i>	4
	<i>Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti direktori I.A.Dadajonovanning anjuman ishtirokchilariga tabrigi</i>	7
<i>Jabbor ESHONQULOV</i>	<i>Baxshichilik sanati: epos, ijro va uni tadqiq etish metodlari</i>	9
<i>San’atjon SARIEV</i>	<i>Dostonchilik an’analarining teran ildizlari</i>	18
<i>Nasiba SABIROVA</i>	<i>O‘zbek dostonchiligining o‘ziga xos xususiyatlari (Xorazm baxshilar repertuari va ijrochilik mahorati)</i>	24
<i>Botir MATYOQUBOV</i>	<i>Baxshichilik ta’limida uzluksizlikning integratsiya usullari</i>	32
<i>Shomirza TURDIMOV</i>	<i>O‘lan va lapar janrlarining tadrijiy takomili</i>	39
<i>Saidqul ALIMOV</i>	<i>Janrlar munosabatida muvofiqlashuv hodisasi</i>	43
<i>Oygul AXMEDOVA</i>	<i>Baxshi san’atini o‘qitishda uzluksiz ta’lim integratsiyasi</i>	52
<i>Manzura NARZIQULOVA</i>	<i>Qahramonlik va romanik dostonlarida umumiylik</i>	56
<i>Munis JO‘RAYEVA</i>	<i>“Avazning uylanishi” dostonining Po‘lkan shoir varianti haqida</i>	61
<i>Шахида БЕРДИХАНОВА</i>	<i>Значимость искусства бахсы и журау в воспитании духовно развитого поколения</i>	67





<i>Barno MIRZAYEVA</i>	<i>O‘zbek xalq dostonlarini jonli ijro holatida yozib olish va ilmiy o‘rganish ishlari</i>	71
<i>Feruz</i> <i>ABDURAXMONOVA</i>	<i>Buxoro va Navoiy to‘y marosim qo‘shiqklarining areal xususiyatlari xususida</i>	76
<i>Sayat JEPBAROVA</i>	<i>“Oshiq najab” dostoni turkiy versiyalarining badiiy xususiyatlari</i>	83
<i>Nazokat</i> <i>MATKARIMOVA</i>	<i>Xorazm dostonchiligi va uning o‘ziga xos xususiyatlari</i>	89
<i>Injigul SOBUROVA</i>	<i>Qoraqalpoq doston ijrochiligida g‘ijjak cholg‘usining tutgan o‘rni</i>	96
<i>Feruzaxon</i> <i>RAHIMOVA</i>	<i>Baxshichilik - o‘zlikdan o‘zlikkacha</i>	101
<i>Latofat MO‘MINOVA</i>	<i>Sharq xalqlarining bebaho boyligi - dostonlarning parda asoslari</i>	107
<i>Nasiba XO‘JANOVA</i>	<i>Xorazm dostonchiligi va ularning umumiy tavsifi</i>	114
<i>Zafar HAYITOV</i>	<i>Ta’lim tizimida baxshichilik va doston ijrochiligini o‘qitishning innovatsiyon usullari</i>	120
<i>Asatillo</i> <i>SUNNATILLAYEV</i>	<i>Maqom va baxshichilik san’atini muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilish yanada rivojlantiriladi</i>	127
<i>Gulruh</i> <i>BABANAZAROVA</i>	<i>Qashqadaryo baxshichilik san’atining ijro xususiyatlari</i>	137
<i>Ma’ruf QODIROV</i>	<i>Ijrochilik (doston ijrochiligi) san’atida nutqning o‘rni va ahamiyati</i>	146
<i>Rasulbek</i> <i>ABDURAXMANOV</i>	<i>Oshiq turkum dostonlarida tush motivi</i>	152
<i>Nazira PRIMBETOVA</i>	<i>Baxshichilik san’atining bolalar tarbiyasiga ta’siri</i>	157
<i>Gulbahor FOZILOVA</i>	<i>Baxshichilik san’ati va uning mahorati</i>	160





<i>Nodira HAYDAROVA</i>	<i>“Xalq – ijodiyoti. Baxshichilik-dostonchilik” yo‘nalishiga nazariy fanlarning o‘qitilishidagi muammolar</i>	<i>164</i>
<i>Nigora ABDUSALOMOVA</i>	<i>“Alpomish” dostoni To‘ra Mirzayev tadqiqida</i>	<i>168</i>
<i>Ra‘no ORIPOVA</i>	<i>Ta‘limni texnologiyalashtirishning asosiy komponentlari</i>	<i>179</i>
<i>Nilufar SUNNATILLAYEVA</i>	<i>Janrlar munosabatida ijro va badiha</i>	<i>185</i>
<i>Shohinur RAHMATALIYEVA</i>	<i>“Oysuluv” dostonidagi oysuluv obrazi haqida</i>	<i>193</i>
<i>Himoyat SARIYEV</i>	<i>Xorazm dostonchilik san’ati</i>	<i>197</i>
<i>Jamila ASQAROVA</i>	<i>Ertakchilik an’analarining lokal xususiyatlari</i>	<i>201</i>
<i>Juzimgul KARIMBERGENOVA</i>	<i>Uzliksiz ta‘lim tizimida baxshichilik sinflari uchun zamonaviy va mukammal o‘quv qo‘llanmalar zarur</i>	<i>205</i>
<i>Nafisa MAVLONBEKOVA</i>	<i>“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi “ dostoni varaint va versiyalari haqida</i>	<i>210</i>
<i>Temurbek YUSUPOV</i>	<i>Shirvoniy uslubida qo‘llaniladigan jo‘rnovoz sozlar va uning yirik namoyandalari</i>	<i>217</i>
<i>Maxsuma UMIRBEKOVA</i>	<i>“Edige” dostonining tarixiy manbalari</i>	<i>222</i>
<i>Atabek TANIRBERGENOV</i>	<i>Qoraqalpoq baxshichilik san’ati Aqimbet baxshi misolida</i>	<i>227</i>
<i>Sayyora SULTONOVA</i>	<i>Vodiy maxshichiligini Namangan baxshichilik markazlari va namoydalari</i>	<i>233</i>
<i>Shahodat NARZILLAYEVA</i>	<i>Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi adabiy muhiti</i>	<i>239</i>





<i>Sunnatulla ESHMANOV</i>	<i>Baxshichilik san’atida Sherobod dostonchilik maktabining tutgan o‘rni</i>	246
<i>Ulug‘bek ABRAYEV</i>	<i>Shahrisabz dostonchilik maktabi</i>	246
<i>Ramazon BOYQUCHQOROV</i>	<i>“Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlarda nasliy turkumlilik</i>	253
<i>Orifjon ABDISAMADOV</i>	<i>Xalq dostonlarida barqaror epik formulalarning tutgan o‘rni</i>	259
<i>Mardona XUDAYBERGANOVA</i>	<i>Xorazm xalfachilik san’ati</i>	263
<i>Dilmurod GULMUROTOV</i>	<i>Sirdaryo viloyati baxshichilik maktabi namoyondalari va ularning o‘ziga xos ijro yo‘llari</i>	267
<i>Hasanboy HAYDAROV</i>	<i>Kuntug‘mish doston variantlarining yozib olinishi</i>	271
<i>Nodirjon NAZAROV</i>	<i>“Avazxon” dostoni variantlari tahlili</i>	277
<i>Raushan SAPARBAYEVA</i>	<i>Qoraqalpoq baxshichilik san’atining uzluksiz ta’limdagi ayrim masalalari</i>	285
<i>Amangul DAVLETMURATOVA</i>	<i>O‘zbek doston ijrochiligi san’atida qoraqalpoq baxshichilik maktabi ijro an’analari</i>	292
<i>Azada QARLIBAEVA</i>	<i>Qoraqalpoq baxshichilik yo‘nalishida A‘met Tarixovning ijod faoliyati (Yosh baxshilarga ustoz sifatida qoldirgan meroslari)</i>	299
<i>Devora KUANISHBAEVA</i>	<i>Qoraqalpoq baxshichiligidagi Karimbay Tinibayevning ustoz shogird an’analari</i>	304





O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI  
MADANIYATSHUNOSLIK VA NOMODDIY MADANIY MEROS  
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI  
YUNUS RAJABIIY NOMIDAGI O‘ZBEK MILLIY MUSIQA  
SAN’ATI INSTITUTI  
RESPUBLIKA BAXSHICHILIK SAN’ATI MARKAZI  
BAXSHICHILIK SAN’ATIGA IXTISOSLASHTIRILGAN  
RESPUBLIKA MAKTAB-INTERNATI

**“DOSTON IJROCHILIGI SAN’ATINI  
RIVOJLANTIRISHDA OLIY TA’LIM VA  
BAXSHICHILIK SAN’ATIGA  
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR  
INTEGRATSIYASI”**

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

Adadi 100 nusxa. Bichimi 60x84 1/16.

Bosma tabog‘i 12,25. «TimesNewRoman» garniturasida.

**“BOOKMANY PRINT” MChJ bosmaxonasida chop etildi.**

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

